



ЎЗБЕКISTОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ҚОНУНЧИЛИК  
ТЎПЛАМИ

---

СОБРАНИЕ  
ЗАКОНОДАТЕЛЬНОГО  
СБОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКISTАН

№ 1

---

---

2026 йил 5 - 10 январь

Расмий нашр  
Официальное издание

*Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами беш бўлимдан иборат:*

*биринчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорлари эълон қилинади;*

*иккинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари эълон қилинади;*

*учинчи бўлимда Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари эълон қилинади;*

*тўртинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг қарорлари жойлаштирилади;*

*бешинчи бўлимда вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларининг Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида давлат рўйхатидан ўтказилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари эълон қилинади.*

## МУНДАРИЖА

### ИККИНЧИ БЎЛИМ

1. «Республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш йўналишида яхлит манзилли ишлаш тизимини жорий этишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 5 январдаги [ПК-1-сон](#) қарори

### УЧИНЧИ БЎЛИМ

2. «Иссиқхона хўжалиklarини ривожлантириш ва фаолияти самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2026 йил 7 январдаги [2-сон](#) қарори
3. «Аэропортлар, автовокзаллар ва автостанцияларнинг номларини давлат тили қоида ва меъёрларига мувофиқлаштириш ҳамда уларга янги ном бериш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2026 йил 9 январдаги [3-сон](#) қарори
4. «Мамлакатимиздаги айрим географик объектларнинг номларини давлат тили қоида ва меъёрларига мувофиқлаштириш ҳамда янги ном бериш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2026 йил 9 январдаги [4-сон](#) қарори
5. «Тоғ-кон саноати ва геология соҳасидаги айрим географик объектларнинг номларини давлат тили қоида ва меъёрларига мувофиқлаштириш ҳамда янги ном бериш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2026 йил 9 январдаги [5-сон](#) қарори
6. ««Умра плюс» зиёрат туризми дастурини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2026 йил 9 январдаги [6-сон](#) қарори
7. «Олий таълим ташкилотлари битирувчиларини иш билан таъминлашда буюртмачилар иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2026 йил 9 январдаги [8-сон](#) қарори

### БЕШИНЧИ БЎЛИМ

8. ““Mediatorlarni tayyorlash dasturini tasdiqlash haqida”gi buyruqqa o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining buyrug‘i (Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 5-yanvar ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami [3134-3-son](#))
9. “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori (Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 5-yanvar ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami [3252-6-son](#))
10. “To‘lov tizimi operatorlari va to‘lov tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori (Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 5-yanvar ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami [3431-2-son](#))

11. “Mediatorlar tomonidan statistika ma’lumotlarini taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining buyrug‘i (*Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 5-yanvar ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami [3740-son](#)*)
12. “Mediatorlarning kasb etikasi qoidalarini tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining buyrug‘i (*Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 5-yanvar ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami [3741-son](#)*)
13. “Notarial harakatlarni videokonferensaloqa rejimi orqali amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining buyrug‘i (*Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 5-yanvar ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami [3742-son](#)*)
14. “Notariuslar tomonidan nikoh shartnomalarini tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining buyrug‘i (*Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 5-yanvar ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami [3743-son](#)*)
15. “Dori vositalarini standartlashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Davlat farmakopeyasida keltirilmagan holatlarda dunyoning yetakchi farmakopeyalari sinov usullarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining buyrug‘i (*Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 5-yanvar ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami [3744-son](#)*)
16. “Farmakologik vositalar hamda dori vositalarining klinik tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining buyrug‘i (*Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 6-yanvar ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami [3745-son](#)*)
17. “Tibbiy jihozlarning klinik tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining buyrug‘i (*Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 7-yanvar ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami [3746-son](#)*)
18. “Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazishda baholash mezonlari bo‘yicha indikatorlarni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi direktorining buyrug‘i (*Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 7-yanvar ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami [3747-son](#)*)
19. “Oliy ta’limdan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim va ilmiy tashkilotlarni kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazishda baholash mezonlari bo‘yicha indikatorlarni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi direktorining buyrug‘i (*Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 8-yanvar ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami [3748-son](#)*)
20. ““Tovarlarni bojxona ko‘zdan kechiruv va bojxona ko‘rigidan o‘tkazishda hamda namuna va (yoki) sinamalar olishda bojxona tartib-taomillarini amalga oshirish to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi qaror, shuningdek unga o‘zgartirish va qo‘shimchalarni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining qarori (*Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 9-yanvar ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami [3154-3-son](#)*)
21. “Ўзбекистон Республикасида вақтинчалик танқислиги юзага келган дори воситалари ва тиббий жиҳозларни давлат рўйхатидан ўтказмасдан мажбурий сертификатлаштириш шarti билан тиббиёт амалиётида қўллаш ва олиб киришга рухсат бериш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирининг буйруғи (*Адлия вазирилик томонидан 2026 йил 9 январда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами [3749-сон](#)*)

22. “Jenerik dori vositalarining farmakokinetik bioekvivalentligini o‘rganishga oid klinik tadqiqotlarni o‘tkazish va natijalarini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining buyrug‘i (*Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 9-yanvar ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami [3750-son](#)*)



## **ИККИНЧИ БЎЛИМ**

### **ЎЗБЕКISTОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОН ВА ҚАРОРЛАРИ**



## О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

2026 yil « 5 » январь

№ ПҚ–1

### Республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш йўналишида яхлит манзилли ишлаш тизимини жорий этишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 январдаги “2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ–1-сон қарори ижроси натижасида маҳаллаларда жиноятчиликни **қарийб 1,5 бараварга камайтиришга** эришилганини инобатга олган ҳолда, шунингдек, мазкур йўналишда яхлит ишлаш тизимини жорий этиш ҳамда масъул раҳбарларнинг вазифаларини белгилаш мақсадида **қарор қиламан:**

#### I. Мақсадлар ва устувор вазифалар

1. Қуйидагилар ушбу қарорнинг асосий мақсадлари этиб белгилансин:

- (а) **ижтимоий профилактика самарадорлигини оширишни** устувор вазифа этиб белгилаган ҳолда маҳаллаларда хавфсиз муҳитни ишончли таъминлаш бўйича манзилли профилактик чора-тадбирлар тизимини самарали жорий этиш орқали жиноятчиликни **кескин камайтириш**;
- (б) **оила-турмуш муносабатлари доирасида** ҳамда **аёллар ва ёшлар томонидан** содир этилаётган жиноятларнинг асл омилларини илмий ёндашувлар асосида таҳлил қилиш орқали уларнинг барвақт олдини олиш бўйича янги ишлаш механизмларини белгилаш;
- (в) ҳар қандай ноқонуний ҳолатлар юзасидан **мурожаатларга тезкорлик билан муносабат билдириш** тизимини яратиш, бу борадаги фаолиятни **бевосита жойларда** самарали йўлга қўйиш орқали **аҳоли розилигига эришиш**.

2. Қуйидагилар барча масъул идоралар ва муассасалар учун маҳаллаларда хавфсиз муҳитни яратиш бўйича ташкилий-профилактик чора-тадбирларни амалга оширишнинг **устувор вазифалари** этиб белгилансин:

(а) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 январдаги “2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги **ПҚ–1-сон қарори** билан белгиланган механизмларига мувофиқ **ишларни давом эттириш**;

(б) ҳар бир маҳаллада криминоген вазиятга салбий таъсир этувчи омиллар билан ишлашнинг маҳаллалар кесимида ҳар чораклик манзилли чора-тадбирларини белгилаш ҳамда уларнинг **маҳалла – туман – вилоят даражасида** ижроси учун бевосита **масъул раҳбарларни бириктириш** ва зиммаларига аниқ **жавобгарликни юклаш**;

(в) маҳалла ҳудудида аҳолининг **ижтимоий-маиший муаммоларини ҳал этиш** орқали олдини олиш мумкин бўлган ҳар бир жиноят бўйича маҳаллий **ҳокимликларнинг масъулиятини ошириш**, ижтимоий профилактика субъектлари томонидан амалга оширилган тадбирлар самарадорлиги юзасидан **қатъий сўров тизимини йўлга қўйиш**;

(г) **оила-турмуш муносабатлари доирасида** ҳамда **аёллар ва ёшлар томонидан** содир этиладиган жиноятларни “**илмий хулоса – тавсия – натижа**” тамойили асосида жойларга чиққан ҳолда мақсадли илмий-амалий ўрганиш орқали самарали **ташкилий-ҳуқуқий чораларни белгилаш**;

(д) маҳаллалардаги **жамоат жойларда** ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш йўналишига замонавий **ахборот-коммуникация** ва **сунъий интеллект** технологияларини, ижтимоий профилактикага масъул идоралар ва муассасалар томонидан кўрилаётган чораларнинг самарадорлиги устидан **электрон назорат** тизимини кенг жорий этиш.

## II. Ташкилий-профилактик чора-тадбирлар

3. Белгилансинки, маҳаллаларда жиноятчиликнинг барвақт олдини олиш бўйича самарали тизимни йўлга қўйишга қаратилган манзилли ишларни ташкил этиш мақсадида **2026 йилда** ҳудудлар масъул раҳбарлар ва муассасаларга қуйидаги тартибда **номма-ном бириктирилади**:

- (а) **криминоген вазияти оғир маҳаллалар** – туман (шаҳар) ҳокимлари, прокурорлари ҳамда ички ишлар органлари бошлиқлари ва уларнинг ўринбосарларига;
- (б) **беш йилдан буён “қизил” тоифада бўлаётган маҳаллалар** – Миллий гвардиянинг ҳудудий бошқармалари бошлиқлари, вилоят даражасидаги ички ишлар органлари раҳбарларининг ва ҳокимларнинг ўринбосарларига;
- (в) **уч йилдан буён “қизил” тоифада қолаётган маҳаллалар** – ҳуқуқ-тартибот идораларининг таълим ва илмий ташкилотларига;
- (г) **криминоген вазияти энг оғир туман ва шаҳарлар** – вилоятлар даражасидаги прокурорларнинг ва ички ишлар органлари раҳбарларининг биринчи ўринбосарларига;
- (д) **аёллар жиноятчилиги, спиртли ичимлик ва гиёҳвандликка ружу қўйган шахслар жиноятчилиги ҳамда низоли оилалар салмоғи энг юқори бўлган маҳаллалар** – тегишинча вилоятлар даражасидаги оила ва хотин-қизлар, соғлиқни сақлаш ҳамда адлия бошқармалари бошлиқларига.

4. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ:

- (а) **бириктирилган масъул раҳбарлар ва муассасалар зиммасига ўз ҳудудларида ҳуқуқбузарликларнинг барвақт профилактикасини ташкил этиш намунасини яратиш, ҳудудий “йўл хариталари” билан белгиланган чора-тадбирларнинг тўлақонли амалга оширилишини таъминлаш ҳамда ижтимоий профилактика тизимини самарали йўлга қўйиш бўйича қатъий шахсий жавобгарлик юкланади;**
- (б) Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри, туман (шаҳар) ҳокимлари **ҳар ойда** бевосита ўзлари **камида иккита** криминоген вазияти оғир ва мураккаб маҳаллаларга борган ҳолда **ёшлар, аёллар** ва **ишсизларга** нисбатан белгиланган **ижтимоий профилактика тадбирларини амалга ошириш ҳолатини танқидий ўрганади** ҳамда уларнинг ижтимоий-маиший муаммоларини бартараф этиш бўйича **манзилли чоралар кўради;**

- (в) ҳар ой якунида** Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимлари томонидан маҳаллаларда содир этилган ижтимоий-маиший тусдаги жиноятларнинг **сабаблари** ва уларни келтириб чиқарган **омилларни танқидий муҳокама қилади** ва **ҳаракатсизликка йўл қўйган ижтимоий профилактикага масъул ташкилотлар** раҳбарларига **нисбатан чоралар кўради**;
- (г) ижтимоий мослаштириш дастури** якунлангандан сўнг **ижтимоий профилактика объеклари** томонидан жиноятлар содир этилишининг олдини олиш мақсадида ушбу шахсларнинг турмуш тарзи **бир йил** давомида **мониторинг қилиб борилади**;
- (д)** республика маҳаллаларида иловага мувофиқ тартибда маҳаллий ҳокимликлар раҳбарлигида **“Ижтимоий профилактика ҳафталиги”ни ўтказиш амалиёти йўлга қўйилади**;
- (ж)** Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри, туман (шаҳар) ҳокимлари томонидан ҳудудий прокурорлар ва ички ишлар органлари раҳбарларининг **ҳар чоракда** киритиладиган қўшма таклифларига асосан маҳаллада жиноятчиликни жиловлаш йўналишида масъул давлат идораларининг **камида 15 нафар ўрнак кўрсатган** раҳбар ва ходимлари маҳаллий бюджет даромадларининг прогноздан ошириб бажарилган қисми ҳисобидан меҳнатга ҳақ тўлаш фонди (пул таъминоти)нинг **бир баравари миқдорда пул мукофоти** билан рағбатлантириб борилади.

### **III. Ташкилий-назорат чора-тадбирлар**

- 5.** Маҳаллаларда ҳуқуқбузарликларнинг барвақт профилактикаси борасидаги ишларни комплекс ташкил этиш мақсадида Бош прокуратура ҳузурида тузилган **Республика идоралараро мувофиқлаштириш ишчи гуруҳи** (кейинги ўринларда – Мувофиқлаштириш ишчи гуруҳи) ўз фаолиятини белгиланган тартибда **давом эттирсин**.
- 6.** Мувофиқлаштириш ишчи гуруҳи (Б.Валиев, А.Рахматуллаев):
- (а) 2026–2027 йилларда ҳар чоракда** республика маҳаллаларида хавфсиз муҳит яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олишнинг самарали ташкилий-техник тизимини шакллантиришга қаратилган **ҳар бир ҳудуд кесимида асосий мақсадли кўрсаткичларни** тасдиқлаб борсин ҳамда уларга эришиш ҳолати устидан назоратни таъминласин;

- (б) Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари томонидан ҳар бир ҳудуд ва криминоген вазияти оғир маҳаллалар кесимида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 январдаги **ПҚ–1-сон қарори** билан тасдиқланган **маҳалла – туман – вилоят** даражаларидаги **манзилли чора-тадбирларнинг намунавий “йўл хариталари”** асосида **ҳар чораклик** ҳудудий “йўл хариталари”ни ишлаб чиқиш ва ижрога қаратишни ташкил қилсин;
- (в) маҳаллаларда ҳуқуқбузарликларнинг барвақт профилактикаси борасидаги ишларнинг **натижадорлигини**, шу жумладан, **жойларга бевосита чиққан ҳолда тизимли равишда баҳоласин**, шунингдек, ҳудудий “йўл хариталари”да назарда тутилган чора-тадбирларнинг изчил, сифатли ва ўз вақтида амалга оширилишини доимий равишда **қатъий назорат** (шу жумладан, электрон назорат платформаси орқали) қилиб борсин;
- (г) **ҳар ойда камида иккита вилоят** кесимида маҳаллаларда амалга оширилаётган ишларнинг ҳолати ва натижадорлиги бўйича барча масъул идора ва муассасалар билан **танқидий муҳокамалар ўтказилишини** ҳамда ушбу масалага масъулиятсизлик билан ёндашган раҳбарларга нисбатан лавозимидан озод этишгача бўлган таъсир чоралари кўриб борилишини йўлга қўйсин;
- (д) маҳаллаларда хавфсиз муҳитни яратиш ишларига муносиб ҳисса қўшган масъул раҳбарлар ва ходимларни ҳар йили **Маҳалла тизими ходимлари куни муносабати билан давлат мукофотларига** тавсия қилиб борсин.

## 7. Белгилансинки:

- (а) маҳаллаларда хавфсиз муҳит яратиш йўналишида амалга оширилган ишлар ва уларнинг натижадорлиги **ҳар ой якунида** – вилоят прокурорлари ва ички ишлар органлари бошлиқлари ҳузурида, **ҳар чорак якунида** ички ишлар вазири ва Бош прокурор ҳузурида тегишли вилоят ва республика раҳбарлари иштирокида танқидий муҳокама қилинади ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясига таҳлилий ахборот ҳамда масъулларни рағбатлантириш ёки интизомий жазолаш бўйича таклифлар киритиб борилади;

**(б) мазкур қарорга мувофиқ ҳудудларга бириктирилган масъул раҳбарлар ва муассасалар** томонидан амалга оширилган ишлар ҳолати устидан **назорат қилиш**, шу жумладан, **жойларга бевосита чиққан ҳолда** уларнинг натижадорлигини **баҳолаб бориш** Мувофиқлаштириш ишчи гуруҳи ва унинг ҳудудий штаблари томонидан таъминланади.

#### **IV. Қонун устуворлигини таъминлаш чоралари**

##### **8. Қуйидагиларга:**

**(а) Бош прокурорнинг ва ички ишлар вазирининг биринчи ўринбосарларига** – жиноятларни ҳисобдан яшириш, республика миқёсида кундалик ҳисоботларга сохта маълумотларни киритиш ҳолатларига тубдан барҳам беришга қаратилган **қатъий назорат тизимини йўлга қўйиш** бўйича;

**(б) Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри прокурорлари ва ички ишлар органлари раҳбарларига** – жиноят ишини қўзғатишни асоссиз рад этиш, жиноятларни ҳисобдан яшириш ва қасддан нотўғри малакалаш ҳолатларининг олдини олишга қаратилган тизимли **назоратни таъминлаш** бўйича;

**(в) туман (шаҳар) прокурорлари ва ички ишлар органлари раҳбарларига** – аҳолининг ҳуқуқбузарлик ҳақидаги **ҳар қандай мурожаатларини сўзсиз рўйхатга олиш**, кўриб чиқиш натижасида қабул қилинган қарорларнинг қонунийлигини ўрганиш ҳамда барча жиноий ҳолатлар юзасидан белгиланган тадбирлар ўз вақтида, қонуний ва тўлақонли амалга оширилишини ташкил этиш бўйича **шахсий жавобгарлик юклатилсин** ҳамда бу борада қатъий чоралар кўрилиши тўғрисида **огоҳлантирилсин**.

##### **9. Ички ишлар вазирлиги (А.Ташпулатов):**

**(а) 2026 йил якунига қадар** фуқароларнинг ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги **оғзаки мурожаатларини соҳа ва ҳудудидан қатъи назар**, ички ишлар органлари ходимларининг хизмат планшетлари орқали реал вақт режимида ягона тартибда қабул қилиш ҳамда тегишлилиги бўйича **тезкорлик билан муносабат билдириш** амалиётини йўлга қўйсин;

- (б) 2026 йил 1 ноябрга қадар** фуқаролар томонидан маҳалла профилактика инспекторлари билан **онлайн мулоқот қилиш, фото, аудио, видео ва ташвиш хабарларини юбориш**, шунингдек, уларнинг фаолиятига **баҳо бериш** имкониятини берувчи **“Менинг инспекторим”** мобил иловасини ишлаб чиқиш ва оммалаштириш чораларини кўрсин;
- (в) манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда 2026 йил 1 майга қадар** оила-турмуш муносабатлари доирасида содир этиладиган жиноятларнинг олдини олиш мақсадида низоли оилалар ҳақидаги маълумотларни тўплаш, таҳлил қилиш ва мониторинг қилиш имконини берадиган **“E-ijtimoiy profilaktika”** ахборот тизимининг **“E-nizoli oila”** модулини жорий этиш ва модулни судлар ўртасида тўғридан-тўғри интеграция қилиш чораларини кўрсин;
- (г) 2026 йил 1 июлга қадар** Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 январдаги ПҚ–1-сон қарори билан белгиланган тартибда таҳлиллардан келиб чиққан ҳолда бошқа ҳудудларнинг криминоген вазият оғир ва мураккаб маҳаллаларида ҳам **маҳалла ҳуқуқ-тартибот масканлари фаолиятини йўлга қўйиш** ҳамда бунда жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликнинг олдини олиш бўйича тезкор ҳаракатланиш тизимини жорий этиш чораларини кўрсин.

#### **V. Қарор ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат**

- 10.** Ички ишлар вазирлиги манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда уч ой муддатда қонунчилик ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.
- 11.** Қарор ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н.Арипов ва Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси департамент бошлиғи Д.Б.Кадиров зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси  
Президенти**



**Ш.Мирзиёев**

Тошкент шаҳри

**Республика маҳаллаларида “Ижтимоий профилактика  
ҳафталиги”ни ўтказиш тартиби тўғрисидаги  
НИЗОМ**

**1-боб. Умумий қоидалар**

1. Ушбу Низом республика маҳаллаларида **“Ижтимоий профилактика ҳафталиги”**ни ўтказиш тартибини белгилайди.
2. Ушбу Низомда қуйидаги асосий тушунчалар қўлланади:
  - (а) **“Ижтимоий профилактика ҳафталиги”** – республика маҳаллаларида ижтимоий профилактика тадбирлари самарадорлигини оширишга қаратилган ҳафталик ташкилий, амалий, услубий ва бошқа чора-тадбирлар мажмуаси;
  - (б) **“Ижтимоий профилактика ҳафталиги” ташкилотчилари** – Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоят (туман-шаҳар) ҳокимликлари, давлат органлари ва идоралари, жамоатчилик тузилмалари ва маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари.
3. Ушбу Низом қоидалари барча давлат органлари, вазирлик ва идоралар, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ва маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органларига нисбатан татбиқ этилади.

**2-боб. “Ижтимоий профилактика ҳафталиги”ни ўтказишнинг  
мақсади ва асосий вазифалари**

4. Республика маҳаллаларида **“Ижтимоий профилактика ҳафталиги”**ни ўтказишдан асосий мақсад:
  - (а) маҳаллаларда ижтимоий профилактика самарадорлигини ошириш орқали ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш;
  - (б) ижтимоий профилактика объектларининг муаммоларини ўрганиш ва ижтимоий профилактика тадбирларини амалга ошириш;

- (в) аҳолининг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтириш, уларни соғлом турмуш тарзи ва спортга тарғиб қилиш;
- (г) фуқароларни жипслаштириш, маҳаллаларда соғлом муҳит яратиш ва фуқароларда маҳаллага дахлдорлик ҳиссини уйғотишдан иборат.

5. Республика маҳаллаларида ўтказиладиган “Ижтимоий профилактика ҳафталиги”даги асосий вазифалар қуйидагилардан иборат:

- (а) ижтимоий профилактика объектлари билан ижтимоий профилактика тадбирларини амалга ошириш учун хулосалар расмийлаштириш, ижрочиларга йўналтириш ва ижросини таъминлаш;
- (б) фуқароларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини ошириш, соғлом турмуш тарзига жалб қилиш бўйича таъсирчан тарғибот кампанияларини олиб бориш;
- (в) аҳолининг ижтимоий муаммоларини аниқлаш ва ҳал қилиш учун вилоят (туман, шаҳар) ҳокимларининг шахсий қабулларини ўтказиш;
- (г) аҳолининг бандлигини таъминлаш, тадбиркорликка жалб қилиш, ижтимоий хизматлардан фойдаланиш имкониятини яратиш мақсадида меҳнат ярмаркалари, ҳуқуқий маслаҳатхоналар ташкил этиш;
- (д) тарғибот кампанияларига таниқли шахслар, хонандалар, актёрлар, спортчилар ва бошқа фаолларини кенг жалб қилиш.

### **3-боб. “Ижтимоий профилактика ҳафталиги”ни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби**

6. Туман (шаҳар) ҳокимлари ўз ҳудудини ўрганиш давомида аниқланган масалаларнинг долзарблигидан келиб чиққан ҳолда “Ижтимоий профилактика ҳафталиги”ни бир ойда бир мартаба ўтказиш ҳақида **таклифларни** шакллантиради ва тегишлилиги бўйича Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимига киритади. Бунда:

- (а) таклифлар бевосита криминоген вазияти оғир, уч ва беш йилдан буён “қизил” тоифада қолаётган, аёллар жиноятчилиги, спиртли ичимлик ва гиёҳвандликка ружу қўйган шахслар жиноятчилиги ҳамда судда низолашаётган оилалар салмоғи энг юқори бўлган маҳаллаларни қамраб олишга қаратилади;

**(б)** таклифда ҳафталик ўтказилиши режалаштирилган маҳаллаларда амалга ошириладиган чора-тадбирларнинг аниқ механизми, муддати, ижросиси ва молиявий манбаси кўрсатилиши лозим.

7. Барча туман (шаҳар) ҳокимликларидан келиб тушган таклифларга асосан “Ижтимоий профилактика ҳафталиги”ни Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри туман (шаҳар)ларида ўтказиш ҳақида Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимларининг фармойиши қабул қилинади.
8. Фармойишда “Ижтимоий профилактика ҳафталиги” ўтказиладиган кунлар ҳафта ҳисобида туманлар ва маҳаллалар кесимида иловага мувофиқ белгиланади.
9. Фармойиш ижросини таъминлашга шахсан туман (шаҳар) ҳокимлари масъул этиб белгиланади ва Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликларида ташкилий қўмита ва идоралараро ишчи гуруҳ тузилади.
10. “Ижтимоий профилактика ҳафталиги” ўтказиладиган жой ва аниқ сана ҳақида оммавий ахборот воситалари (ижтимоий тармоқлар) орқали аҳолига эълон қилинади.
11. Ҳафталик “Обод ва хавфсиз маҳалла” тамойили асосида маҳаллаларда ижтимоий профилактика тадбирларини амалга ошириш тартиби тўғрисидаги низомга мувофиқ ўтказилади.
12. “Ижтимоий профилактика ҳафталиги”га Қорақалпоғистон Республикаси, вилоят ва туман (шаҳар) даражасидаги қуйидаги идора ва ташкилотларнинг масъуллари жалб қилинади:
  - (а)** адлия идоралари, соғлиқни сақлаш бўлимлари, “Инсон” ижтимоий хизматлар марказлари, ички ишлар бўлимлари, прокуратура органлари, мактабгача ва мактаб таълими бўлимлари, иқтисодиёт ва молия бўлимлари, Ёшлар ишлари агентлигининг ҳудудий бўлинмалари, оила ва хотин-қизлар билан ишлаш бўлинмалари, банклар;

**(б)** заруриятдан келиб чиққан ҳолда ҳафталик доирасида бошқа давлат ва нодавлат ташкилотларнинг масъуллари ҳам иштирок этишга жалб этилиши мумкин.

**13.** “Ижтимоий профилактика ҳафталиги” доирасида қуйидаги тадбирлар ташкил этилади:

**(а)** ижтимоий профилактика объектлари ҳисобланган ва мазкур тоифага тушиш эҳтимоли бўлган шахслар таклиф қилиниб, уларнинг муаммолари ўрганиш ва ҳал этишга алоҳида эътибор қаратилади;

**(б)** ўрганиш натижалари бўйича мурожаатнинг тегишлилигига қараб ҳуқуқий маслаҳатлар бериш билан бир вақтда масалани жойида ҳал этишга устуворлик берилади;

**(в)** маблағ билан боғлиқ бўлган масалалар бўйича тегишли ташкилотлар, банкларни жалб қилган ҳолда уларни ҳал этиш чоралари кўрилади;

**(г)** ишсизларни ишга жойлаштириш мақсадида ҳудуддаги тадбиркорлик субъектлари жалб қилинади;

**(д)** ишсизларга тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиш бўйича бизнес лойиҳалари таклиф қилиниб, унинг бошланғич сарф-харажатлари юзасидан тегишли кўмак кўрсатилади;

**(ж)** Қорақалпоғистон Республикаси, вилоят ва Тошкент шаҳри даражасидаги раҳбарларнинг шахсий қабули (ҳар бир туман (шаҳар)да) ташкиллаштирилади;

**(з)** меҳнат, банк ва ижтимоий хизматлар ярмаркалари ўтказилади (вилоят, туман ва шаҳар ҳокимларининг шахсий қабул кунларида ташкиллаштирилади);

**(и)** соғлом турмуш тарзига тарғиб қилиш ва маданий ҳордиқ чиқаришга қаратилган тарғибот кампаниялари ўтказилади;

**(к)** маҳаллалардаги ижтимоий профилактика объектларини аниқлаш, уларга ижтимоий профилактика тадбирларини ўтказиш учун хулосалар шакллантириш ва ижрога йўналтириш (“маҳалла еттилиги” томонидан) чоралари кўрилади;

- (л) тадбир кунлик таҳлил қилинади ва қабул қилинган фуқаролар, ўрганилган муаммолар, уларнинг қанчаси жойида ҳал этилганлиги бўйича соҳалар кесимида умумлаштирилган ҳисобот шакли юритилади;
- (м) ҳафталик якунида барча ҳисоботлар умумлаштирилади ва эришилган натижалар оммавий ахборот воситалари (ижтимоий тармоқлар)да ёритилади;
- (н) ҳафталикни ташкил этиш давомида зарурият ва аҳолининг муурожаатидан келиб чиққан ҳолда бошқа тадбирлар ҳам ўтказилиши мумкин.

**14.** Маҳаллаларда аҳолининг ҳуқуқий онги ва маданиятини ошириш, соғлом турмуш тарзига тарғиб қилиш ва маданий ҳордиқ чиқаришига қаратилган тарғибот кампаниялари аҳоли сони ва жойлашувидан келиб чиққан ҳолда бештагача маҳаллани бирлаштирган ҳолда ўтказилиши мумкин. Бунда:

- (а) мазкур тадбир туман (шаҳар) ҳокими томонидан тасдиқланган график асосида ўтказилади;
- (б) тадбир ўтказиш учун қулай жой танланади ва тадбирни юқори савияда ташкиллаштириш учун ҳомийлар жалб этилиши мумкин.

**15.** “Ижтимоий профилактика ҳафталиги” якунини сарҳисоб қилган ҳолда келгусида иш самарадорлигини ошириш мақсадида адлия, суд ва бошқа ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан “маҳалла еттилиги” учун ижтимоий профилактика бўйича қисқа муддатли семинар-тренинглари ўтказилади.

#### **4-боб. Якунловчи қоидалар**

**16.** “Ижтимоий профилактика ҳафталиги” якуни, натижалари ва таҳлили бўйича туман (шаҳар) ҳокимлари томонидан тегишлилиги бўйича Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси, халқ депутатлари вилоятлар ва Тошкент шаҳри кенгашларига муҳокама учун ахборот тақдим этилади.

17. Туман (шаҳар) ҳокимлари “Ижтимоий профилактика ҳафталиги”ни ташкиллаштиришда ва қўйилган вазифани бажаришда сусткашликка йўл қўйган мансабдор шахсларга нисбатан тегишли таъсир чораларини қўллаш бўйича ҳамда ўз вазифасига сидқидилдан ёндашган, аҳолини кенг қамраб олган ташкилотчиларни рағбатлантириш юзасидан тегишли ташкилотларга таклиф киритади.
18. Маҳаллий ҳокимликларнинг жамоатчилик билан ишлашга масъул хизматларига “Ижтимоий профилактика ҳафталиги” доирасида амалга оширилган ишлар тўғрисида оммавий ахборот воситалари (шу жумладан, ижтимоий тармоқлар)да кенг ёритиб бориш бўйича шахсий масъулият юклатилади.
19. Ушбу Низом талаблари бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ жавобгар бўлади.





**УЧИНЧИ БЎЛИМ**  
**ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ**  
**ҚАРОРЛАРИ**



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

20 26 yil « 7 » yanvar

№ 2

Toshkent sh.

### **Иссиқхона хўжалиklarини ривожлантириш ва фаолияти самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иссиқхона хўжалиklари фаолияти самарадорлигини ошириш ва экспорт ҳажмини кўпайтиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2025 йил 8 октябрдаги ПФ–181-сон Фармони ижросини таъминлаш, шунингдек, иссиқхона хўжалиklarини ривожлантириш ва фаолияти самарадорлигини оширишга қаратилган дастурни ишлаб чиқиш ишларини мувофиқлаштириш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **қарор қилади:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иссиқхона хўжалиklари фаолияти самарадорлигини ошириш ва экспорт ҳажмини кўпайтиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2025 йил 8 октябрдаги ПФ–181-сон Фармонига мувофиқ:

халқаро консалтинг компанияларини жалб қилган ҳолда Иссиқхона хўжалиklarини ривожлантириш ва фаолияти самарадорлигини оширишга қаратилган дастурни ишлаб чиқиш ва бунда самарали бошқарув тизимини йўлга қўйишга масъул ташкилот таъсис этиш белгилангани;

Иссиқхона хўжалиklarини ривожлантириш ва фаолияти самарадорлигини оширишга қаратилган дастурни ишлаб чиқиш ишларини мувофиқлаштириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республика ижро этувчи ҳокимият органларининг фаолиятига рақамлаштиришни кенг жорий этиш ҳисобига бошқарув штат бирликлари сонини мақбуллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2025 йил 4 октябрдаги ПФ–178-сон Фармони билан Қишлоқ хўжалиги вазирлиги тизимидаги ташкилотлардан қисқартирилган штат бирликлари ҳисобидан Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида 6 та штат бирлигидан иборат лойиҳа офиси ташкил этиш белгилангани маълумот учун қабул қилинсин.

2. Иссиқхона хўжаликларини ривожлантириш ва фаолияти самарадорлигини оширишга қаратилган дастурни ишлаб чиқиш ишларини мувофиқлаштириш бўйича лойиҳа офиси (кейинги ўринларда – Лойиҳа офиси) ходимларининг чекланган сони ҳамда меҳнатга ҳақ тўлаш миқдори иловага мувофиқ тасдиқлансин.

3. Белгилаб қўйилсинки:

Лойиҳа офиси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида алоҳида юридик шахс сифатида ташкил этилади;

Лойиҳа офиси раҳбари ва ходимлари белгиланган тартибда Вазирлар Маҳкамаси томонидан лавозимга тайинланади ва лавозимидан озод этилади;

Лойиҳа офиси ўз фаолиятида Вазирлар Маҳкамасининг Инвестициялар, экспорт, савдо, қишлоқ ва сув хўжалиги масалалари котибиятига ҳисобдор бўлади.

4. Қуйидагилар Лойиҳа офисининг **асосий вазифалари** этиб белгилансин:

Иссиқхона хўжаликларини ривожлантириш ва фаолияти самарадорлигини оширишга қаратилган дастурга (кейинги ўринларда – Дастур) қўйиладиган талаблар ва техник шартларни белгилаш ҳамда Дастурни ишлаб чиқишни ташкил этиш ва мувофиқлаштириш;

халқаро ташкилотлар ва молия институтлари, шунингдек, халқаро баҳолаш ташкилотлари ва консалтинг компанияларининг иссиқхона хўжаликларини ривожлантириш ва фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича берган тавсияларини умумлаштириш, таҳлил қилиш ҳамда мақбул ташаббусларни амалиётга жорий этишни таъминлаш;

иссиқхона хўжаликларини ривожлантириш ва фаолияти самарадорлигини ошириш масалаларини институционал таҳлил қилиш ва ислоҳотларнинг асосий йўналишларини белгилаш.

5. Лойиҳа офиси фаолиятини **молиялаштириш манбалари** этиб қуйидагилар белгилансин:

Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари;

юридик ва жисмоний шахсларнинг, шу жумладан, норезидентларнинг ҳомийлик хайриялари;

халқаро молия институтлари ва хорижий ҳукумат молия ташкилотларининг грантлари ҳамда техник кўмаклари;

қонунчилик ҳужжатлари билан тақиқланмаган бошқа манбалар.

Лойиҳа офисини сақлаш харажатлари Ўзбекистон Республикаси республика бюджетидан Вазирлар Маҳкамасига ажратилган маблағлар доирасида молиялаштирилади.

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги заруратга кўра Лойиҳа офисини сақлаш харажатлари учун ҳисоб-китобларга асосан қўшимча маблағ ажратилишини таъминласин.

6. Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан биргаликда икки ҳафта муддатда:

Лойиҳа офиси тўғрисидаги низомни, штатлар жадвалини ва харажатлар сметасини ишлаб чиқсин ҳамда тасдиқлаш учун белгиланган тартибда Вазирлар Маҳкамасига киритилишини таъминласин;

Лойиҳа офиси раҳбар ва мутахассис лавозимларига номзодлар бўйича Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

7. Лойиҳа офиси Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг Тошкент вилояти Қибрай тумани Университет кўчаси 2-уй манзилидаги биносида текин фойдаланиш ҳуқуқи асосида жойлаштирилсин.

Лойиҳа офиси фаолиятини йўлга қўйиш учун талаб этиладиган офис жиҳозлари ҳамда компьютер техникалари Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг бюджетдан ташқари жамғармаси маблағлари ҳисобидан харид қилиниши белгилаб қўйилсин.

8. Белгилансинки, Дастур тасдиқланиб, иссиқхона хўжалиklarини ривожлантириш ва фаолияти самарадорлигини ошириш йўналишида самарали бошқарув тизимини йўлга қўйиш учун масъул ташкилот белгилангандан сўнг Лойиҳа офиси белгиланган тартибда тугатилади.

9. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосарлари Ж.А. Кўчқоров ва Ж.А. Ходжаев зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикасининг  
Бош вазири



А. Арипов

Вазирлар Маҳкамасининг  
2026 йил “ 7 ” январдаги 2-сон қарорига  
илова

**Иссиқхона хўжаликларини ривожлантириш ва фаолияти  
самарадорлигини оширишга қаратилган дастурни ишлаб чиқиш  
ишларини мувофиқлаштириш бўйича лойиҳа офиси ходимларининг  
чекланган сони ҳамда меҳнатга ҳақ тўлаш миқдори**

Лавозимлар номи	Штат бирликлари сони	Меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдорига нисбатан коэффициент*
Лойиҳа офиси раҳбари	1	25
Иқтисодчи-бухгалтер	1	21
Бош мутахассис	2	21
Етакчи мутахассис	2	20

*\*Лойиҳа офиси ходимларининг лавозим маошлари белгиланган коэффициентларни меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдорига кўпайтириш орқали аниқланади.*





## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

20 26 yil « 9 » yanvar

№ 3

Toshkent sh.

### **Aeroportlar, avtovokzallar va avtostansiyalarning nomlarini davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirish hamda ularga yangi nom berish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi va "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq Vazirlar Mahkamasi **qaror qiladi:**

1. Quyidagilar:

Nomlari davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirilgan aeroportlar, avtovokzallar va avtostansiyalar ro'yxati **1-ilovaga** muvofiq;

Yangi nom berilgan aeroport, avtovokzallar va avtostansiyalarning ro'yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo'yilsinki, normativ-huquqiy hujjatlar, ish yuritish hujjatlari, xaritalar va xizmat yozishmalarida ushbu qaror bilan tasdiqlangan nomlardan foydalaniladi.

3. Transport vazirligi "Uzbekistan Airports" AJ, "Uzbekistan Airways" AJ, Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda **uch oy muddatda:**

aeroportlar, avtovokzallar va avtostansiyalar nomlarining davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirilishi hamda yangi nom berilishi munosabati bilan tegishli hujjatlar, xaritalar, ma'lumotlar bazalariga o'zgartirishlar kiritilishini;

aeroportlar, avtovokzallar va avtostansiyalarda o'rnatilgan peshlavhalar hamda axborot ko'rsatkichlaridagi yozuvlarning davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiq lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yozilishini ta'minlasin.

4. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldagi 88-son qarori bilan tasdiqlangan Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor qilish tartibi to'g'risidagi yagona nizomga **3-ilovaga** muvofiq qo'shimchalar kiritilsin.

5. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va O'zbekiston Milliy axborot agentligiga ushbu qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.J. Ramatov va transport vaziri I.R. Maxkamov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining  
Bosh vaziri**



**A. Aripov**

Vazirlar Mahkamasining  
2026-yil 9-yanvardagi 3-son qaroriga  
1-ilova

**Nomlari davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirilgan  
aeroportlar, avtovokzallar va avtostansiyalar  
RO'YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Geografik obyektning amaldagi nomi</b>	<b>Geografik obyekt turi</b>	<b>Geografik obyekt joylashgan hudud</b>	<b>Davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirilgan geografik obyekt nomi</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>				
1.	Нукус	xalqaro aeroport	Nukus shahri	<b>Nukus</b>
2.	Мўйноқ	aeroport	Mo'ynoq tumani	<b>Mo'ynoq</b>
3.	Нукус	avtovokzal	Nukus shahri	<b>Nukus</b>
4.	Беруний	avtovokzal	Beruniy tumani	<b>Beruniy</b>
5.	Ходжейли	avtovokzal	Xo'jayli tumani	<b>Xo'jayli</b>
6.	Амударё	avtostansiya	Amudaryo tumani	<b>Amudaryo</b>
7.	Манғит	avtostansiya	Amudaryo tumani	<b>Mang'it</b>
8.	Казанкеткен	avtostansiya	Bo'zatov tumani	<b>Qozonketgan</b>
9.	Шимбой	avtostansiya	Chimboy tumani	<b>Chimboy</b>
10.	Элликқалъа	avtostansiya	Ellikqal'a tumani	<b>Ellikqal'a</b>
11.	Кегейли	avtostansiya	Kegeyli tumani	<b>Kegeyli</b>
12.	Халқабод	avtostansiya	Kegeyli tumani	<b>Xalqobod</b>
13.	Мойнақ	avtostansiya	Mo'ynoq tumani	<b>Mo'ynoq</b>
14.	Акманғит	avtostansiya	Nukus tumani	<b>Oqmang'it</b>
15.	Алтинкўл	avtostansiya	Qonliko'l tumani	<b>Oltinko'l</b>
16.	Қўнғирот	avtostansiya	Qo'ng'irod tumani	<b>Qo'ng'irod</b>
17.	Дауит-ата	avtostansiya	Qo'ng'irod tumani	<b>Dovudota</b>
18.	Қараузьяк	avtostansiya	Qorao'zak tumani	<b>Qorao'zak</b>
19.	Шуманай	avtostansiya	Shumanay tumani	<b>Shumanay</b>
20.	Тахтакўпир	avtostansiya	Taxtako'pir tumani	<b>Taxtako'pir</b>
21.	Тўрткўл	avtostansiya	To'rtko'l tumani	<b>To'rtko'l</b>
<b>Andijon viloyati</b>				
22.	Захириддин Муҳаммад Бобур	xalqaro aeroport	Andijon shahri	<b>Zahiriddin Muhammad Bobur</b>
23.	Андижон	avtovokzal	Andijon shahri	<b>Andijon</b>
24.	Узумзор	avtostansiya	Andijon shahri	<b>Uzumzor</b>
25.	Хонобод	avtostansiya	Xonobod shahri	<b>Xonobod</b>

26.	Асака	avtostansiya	Asaka tumani	Asaka
27.	Чинобод	avtostansiya	Baliqchi tumani	Chinobod
28.	Балиқчи	avtostansiya	Baliqchi tumani	Baliqchi
29.	Эски марказ	avtostansiya	Baliqchi tumani	Eskimarkaz
30.	Жалақудуқ	avtostansiya	Jalaquduq tumani	Jalaquduq
31.	Марҳамат	avtostansiya	Marhamat tumani	Marhamat
32.	Шаҳрихон	avtostansiya	Shahrixon tumani	Shahrixon
33.	Мустақиллик	avtostansiya	Shahrixon tumani	Mustaqillik
34.	Янгибозор	avtostansiya	Shahrixon tumani	Yangibozor
35.	Улуғнор	avtostansiya	Ulug'nor tumani	Ulug'nor
<b>Buxoro viloyati</b>				
36.	Бухоро	xalqaro aeroport	Buxoro shahri	Buxoro
37.	Бухоро	avtostansiya	Buxoro shahri	Buxoro
38.	Чор бакр	avtostansiya	Buxoro shahri	Chor Bakr
39.	Когон	avtostansiya	Kogon shahri	Kogon
40.	Олот	avtostansiya	Olot tumani	Olot
41.	Вобкент	avtostansiya	Vobkent tumani	Vobkent
<b>Jizzax viloyati</b>				
42.	Зомин	aeroport	Zomin tumani	Zomin
43.	Жиззах	avtovokzal	Jizzax shahri	Jizzax
44.	Зомин	avtovokzal	Zomin tumani	Zomin
45.	Жиззах	avtostansiya	Jizzax shahri	Jizzax
46.	Арнасой	avtostansiya	Arnasoy tumani	Arnasoy
47.	Бахмал	avtostansiya	Baxmal tumani	Baxmal
48.	Дўстлик	avtostansiya	Do'stlik tumani	Do'stlik
49.	Фориш	avtostansiya	Forish tumani	Forish
50.	Ғаллаорол	avtostansiya	G'allaorol tumani	G'allaorol
51.	Мирзачўл	avtostansiya	Mirzacho'l tumani	Mirzacho'l
52.	Пахтакор	avtostansiya	Paxtakor tumani	Paxtakor
<b>Qashqadaryo viloyati</b>				
53.	Қарши	xalqaro aeroport	Qarshi shahri	Qarshi
54.	Шаҳрисабз	aeroport	Shahrisabz shahri	Shahrisabz
55.	Шаҳрисабз	avtovokzal	Shahrisabz tumani	Shahrisabz
56.	Дехқонобод	avtostansiya	Dehqonobod tumani	Dehqonobod
57.	Ғузор	avtostansiya	G'uzor tumani	G'uzor
58.	Касби	avtostansiya	Kasbi tumani	Kasbi
59.	Кўкдала	avtostansiya	Ko'kdala tumani	Ko'kdala
60.	Муборак	avtostansiya	Muborak tumani	Muborak
61.	Қамаши	avtostansiya	Qamashi tumani	Qamashi

62.	Қарши	avtostansiya	Qarshi tumani	<b>Qarshi</b>
63.	Яккабоғ	avtostansiya	Yakkabog' tumani	<b>Yakkabog'</b>
<b>Navoiy viloyati</b>				
64.	Навоий	xalqaro aeroport	Navoiy shahri	<b>Navoiy</b>
65.	Зарафшон	aeroport	Zarafshon shahri	<b>Zarafshon</b>
66.	Зарафшон	avtostansiya	Zarafshon shahri	<b>Zarafshon</b>
67.	Навбахор	avtostansiya	Navbahor tumani	<b>Navbahor</b>
68.	Нурота	avtostansiya	Nurota tumani	<b>Nurota</b>
69.	Қизилтепа	avtostansiya	Qiziltepa tumani	<b>Qiziltepa</b>
70.	Учқудук	avtostansiya	Uchquduq tumani	<b>Uchquduq</b>
71.	Хатирчи	avtostansiya	Xatirchi tumani	<b>Xatirchi</b>
<b>Namangan viloyati</b>				
72.	Наманган	xalqaro aeroport	Namangan shahri	<b>Namangan</b>
73.	Наманган	avtostansiya	Namangan shahri	<b>Namangan</b>
74.	Дўстлик	avtostansiya	Namangan shahri	<b>Do'stlik</b>
75.	Косонсой	avtostansiya	Kosonsoy tumani	<b>Kosonsoy</b>
76.	Мингбулоқ	avtostansiya	Mingbuloq tumani	<b>Mingbuloq</b>
77.	Хаққулбод	avtostansiya	Norin tumani	<b>Haqqulobod</b>
78.	Поп	avtostansiya	Pop tumani	<b>Pop</b>
79.	Янгиқўрғон	avtostansiya	Yangiqo'rg'on tumani	<b>Yangiqo'rg'on</b>
80.	Чортоқ	avtostansiya	Chortoq tumani	<b>Chortoq</b>
81.	Чуст	avtostansiya	Chust tumani	<b>Chust</b>
<b>Samarqand viloyati</b>				
82.	Самарқанд	xalqaro aeroport	Samarqand shahri	<b>Samarqand</b>
83.	Самарқанд	avtovokzal	Samarqand shahri	<b>Samarqand</b>
84.	Шоҳи Зинда	avtostansiya	Samarqand shahri	<b>Shohizinda</b>
85.	Темир йўл	avtostansiya	Samarqand shahri	<b>Temiryo'l</b>
86.	Сиёб	avtostansiya	Samarqand shahri	<b>Siyob</b>
87.	Ҳазора	avtostansiya	Samarqand shahri	<b>Hazora</b>
88.	Ипак йўли	avtostansiya	Samarqand shahri	<b>Ipak yo'li</b>
89.	Каттақўрғон	avtostansiya	Kattaqo'rg'on shahri	<b>Kattaqo'rg'on</b>
90.	Булунгур	avtostansiya	Bulung'ur tumani	<b>Bulung'ur</b>
91.	Иштихон	avtostansiya	Ishtixon tumani	<b>Ishtixon</b>
92.	Митан	avtostansiya	Ishtixon tumani	<b>Mitan</b>
93.	Жомбой	avtostansiya	Jomboy tumani	<b>Jomboy</b>
94.	Пайшанба	avtostansiya	Kattaqo'rg'on tumani	<b>Payshanba</b>
95.	Мирбозор	avtostansiya	Narpay tumani	<b>Mirbozor</b>
96.	Нуробод	avtostansiya	Nurobod tumani	<b>Nurobod</b>

97.	Жума	avtostansiya	Pastdarg'om tumani	<b>Juma</b>
98.	Зиёвуддин	avtostansiya	Paxtachi tumani	<b>Ziyovuddin</b>
99.	Паяриқ	avtostansiya	Payariq tumani	<b>Payariq</b>
100.	Қўшработ	avtostansiya	Qo'shrabot tumani	<b>Qo'shrabot</b>
101.	Ургут	avtostansiya	Urgut tumani	<b>Urgut</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>				
102.	Хумо	avtostansiya	Guliston shahri	<b>Humo</b>
103.	Янгиер	avtostansiya	Yangiyer shahri	<b>Yangiyer</b>
104.	Ширин	avtostansiya	Shirin shahri	<b>Shirin</b>
105.	Боёвут	avtostansiya	Boyovut tumani	<b>Boyovut</b>
106.	Пахтаобод	avtostansiya	Sardoba tumani	<b>Paxtaobod</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>				
107.	Термиз	xalqaro aeroport	Termiz tumani	<b>Termiz</b>
108.	Сариосиё	aeroport	Sariosiyo tumani	<b>Sariosiyo</b>
109.	Термиз	avtostansiya	Termiz shahri	<b>Termiz</b>
110.	Ангор	avtostansiya	Angor tumani	<b>Angor</b>
111.	Бойсун	avtostansiya	Boysun tumani	<b>Boysun</b>
112.	Денов	avtostansiya	Denov tumani	<b>Denov</b>
113.	Жарқўрғон	avtostansiya	Jarqo'rg'on tumani	<b>Jarqo'rg'on</b>
114.	Музработ	avtostansiya	Muzrabot tumani	<b>Muzrabot</b>
115.	Қизириқ	avtostansiya	Qiziriq tumani	<b>Qiziriq</b>
116.	Қумқўрғон	avtostansiya	Qumqo'rg'on tumani	<b>Qumqo'rg'on</b>
117.	Сариосиё	avtostansiya	Sariosiyo tumani	<b>Sariosiyo</b>
118.	Шеробод	avtostansiya	Sherobod tumani	<b>Sherobod</b>
119.	Шўрчи	avtostansiya	Sho'rchi tumani	<b>Sho'rchi</b>
120.	Узун	avtostansiya	Uzun tumani	<b>Uzun</b>
<b>Farg'ona viloyati</b>				
121.	Фарғона	xalqaro aeroport	Farg'ona shahri	<b>Farg'ona</b>
122.	Қўқон	aeroport	Qo'qon shahri	<b>Qo'qon</b>
123.	Боғдод	avtostansiya	Bag'dod tumani	<b>Bag'dod</b>
124.	Бешариқ	avtostansiya	Beshariq tumani	<b>Beshariq</b>
125.	Янгиқўрғон	avtostansiya	Buvayda tumani	<b>Yangiqo'rg'on</b>
126.	Данғара	avtostansiya	Dang'ara tumani	<b>Dang'ara</b>
127.	Водил	avtostansiya	Farg'ona tumani	<b>Vodil</b>
128.	Чимён	avtostansiya	Farg'ona tumani	<b>Chimyon</b>
129.	Марғилон	avtostansiya	Marg'ilon shahri	<b>Marg'ilon</b>
130.	Яйпан	avtostansiya	O'zbekiston tumani	<b>Yaypan</b>
131.	Олтиариқ	avtostansiya	Oltiariq tumani	<b>Oltiariq</b>

132.	Қўштепа	avtostansiya	Qo'shtepa tumani	<b>Qo'shtepa</b>
133.	Қува	avtostansiya	Quva tumani	<b>Quva</b>
134.	Риштон	avtostansiya	Rishton tumani	<b>Rishton</b>
135.	Тошлоқ	avtostansiya	Toshloq tumani	<b>Toshloq</b>
136.	Учкўприк	avtostansiya	Uchko'prik tumani	<b>Uchko'prik</b>
137.	Ёзёвон	avtostansiya	Yozyovon tumani	<b>Yozyovon</b>
<b>Xorazm viloyati</b>				
138.	Урганч	xalqaro aeroport	Urganch shahri	<b>Urganch</b>
139.	Урганч	avtovokzal	Urganch shahri	<b>Urganch</b>
140.	Урганч	avtostansiya	Urganch shahri	<b>Urganch</b>
141.	Богот	avtostansiya	Bog'ot tumani	<b>Bog'ot</b>
142.	Гурлан	avtostansiya	Gurlan tumani	<b>Gurlan</b>
143.	Ҳазорасп	avtostansiya	Hazorasp tumani	<b>Hazorasp</b>
144.	Шовот	avtostansiya	Shovot tumani	<b>Shovot</b>
145.	Тупроққалъа	avtostansiya	Tuproqqal'a tumani	<b>Tuproqqal'a</b>
146.	Янгиариқ	avtostansiya	Yangiariq tumani	<b>Yangiariq</b>
<b>Toshkent viloyati</b>				
147.	Олмалик	avtovokzal	Olmaliq shahri	<b>Olmaliq</b>
148.	Нурафшон	avtostansiya	Nurafshon shahri	<b>Nurafshon</b>
149.	Бекобод	avtostansiya	Bekobod shahri	<b>Bekobod</b>
150.	Янгийўл	avtostansiya	Yangiyo'l shahri	<b>Yangiyo'l</b>
151.	Чирчиқ	avtostansiya	Chirchiq shahri	<b>Chirchiq</b>
152.	Ғазалкент	avtostansiya	Bo'stonliq tumani	<b>G'azalkent</b>
153.	Оққўргон	avtostansiya	Oqqo'rg'on tumani	<b>Oqqo'rg'on</b>
154.	Паркент	avtostansiya	Parkent tumani	<b>Parkent</b>
155.	Пискент	avtostansiya	Piskent tumani	<b>Piskent</b>
156.	Қибрай	avtostansiya	Qibray tumani	<b>Qibray</b>
157.	Дўстобод	avtostansiya	Quy Chirchiq tumani	<b>Do'stobod</b>
158.	Янгибозор	avtostansiya	Yuqori Chirchiq tumani	<b>Yangibozor</b>
<b>Toshkent shahri</b>				
159.	Ислон Каримов номидаги	xalqaro aeroport	Sergeli tumani	<b>Islom Karimov</b>
160.	Абу-Сахий	avtostansiya	Chilonzor tumani	<b>Abu Saxiy</b>
161.	Тошкент	avtovokzal	Chilonzor tumani	<b>Toshkent</b>

Vazirlar Mahkamasining  
2026-yil 9-yanvardagi 3-son qaroriga  
2-ilova

**Yangi nom berilgan aeroport, avtovokzallar va avtostansiyalarning  
RO'YXATI**

T/r	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyekt turi	Geografik obyekt joylashgan hudud	Geografik obyektning yangi nomi
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>				
1.	Мега Авто Стар	avtovokzal	Nukus shahri	<b>Jiydali Nukus</b>
2.	Нукус Орқа-Батис	avtovokzal	Nukus shahri	<b>Shimoliy Nukus</b>
<b>Andijon viloyati</b>				
3.	Ғавс	avtostansiya	Andijon shahri	<b>Andijon</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>				
4.	Муборак	avtostansiya	Muborak tumani	<b>Geolog</b>
<b>Navoiy viloyati</b>				
5.	Навоий	avtostansiya	Navoiy shahri	<b>Malika</b>
6.	Навоий	avtostansiya	Navoiy shahri	<b>Sharq</b>
7.	Кармана	avtovokzal	Karmana tumani	<b>Navoiy</b>
8.	Хатирчи	avtostansiya	Xatirchi tumani	<b>Chinor</b>
<b>Farg'ona viloyati</b>				
9.	Фарғона автотрансхизмат	avtostansiya	Farg'ona shahri	<b>Istiqbol</b>
10.	Фарғона шаҳар атрофи	avtostansiya	Farg'ona shahri	<b>Mustaqillik</b>
11.	Бешариқ-Автобекат	avtostansiya	Beshariq tumani	<b>Do'stlik</b>
12.	Бахтиёр Олтиарик	avtostansiya	Oltiariq tumani	<b>Mirishkorlar</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>				
13.	Мустанг	avtostansiya	Guliston shahri	<b>Guliston</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>				
14.	Термиз	avtostansiya	Termiz shahri	<b>Shimoliy Termiz</b>
15.	Ангор Таллимарон	avtostansiya	Angor tumani	<b>Tallimaron</b>
16.	Денов	avtostansiya	Denov tumani	<b>Chag'oniyon</b>
17.	Қизириқ	avtostansiya	Qiziriq tumani	<b>Istara</b>
18.	Шеробод	avtostansiya	Sherobod tumani	<b>Kattahayot</b>
<b>Xorazm viloyati</b>				
19.	Урганч	avtostansiya	Urganch shahri	<b>O'zbekiston</b>
<b>Toshkent shahri</b>				
20.	Тошкент-Шарқий	xalqaro aeroport	Yashnobod tumani	<b>Toshkent-Humo</b>
21.	Бобуршоҳ	avtostansiya	Bektemir tumani	<b>Vodiy yo'li</b>

Vazirlar Mahkamasining  
2026-yil 9-yanvardagi 3-son qaroriga  
3-ilova

**Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldagi 88-son qarori bilan  
tasdiqlangan Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni  
xabardor qilish tartibi to'g'risidagi yagona nizomga  
kiritilayotgan qo'shimchalar**

13-ilovada:

a) 6-pozitsiyaning uchinchi ustuni quyidagi mazmundagi "и" kichik band bilan to'ldirilsin:

“и) автовокзалнинг (автостанциянинг) номи\*\*\*”;

b) 10-pozitsiyaning uchinchi ustuni quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“\*\*\*Автовокзал, автостанцияга Транспорт вазирлигининг таклифига кўра Вазирлар Маҳкамаси томонидан ном берилади ҳамда уларнинг номлари ўзгартирилади”.





## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

20 26 yil « 9 » yanvar

№ 4

Toshkent sh.

### **Mamlakatimizdagi ayrim geografik obyektlarning nomlarini davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirish hamda yangi nom berish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi va "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha respublika komissiyasining xulosasiga ko'ra mamlakatimizdagi ayrim tog' tizmalari, tog' va cho'qqilar nomlarini davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi **qaror qiladi**:

1. Mamlakatimizdagi ayrim tog' tizmalari, tog' va cho'qqilar nomlari ro'yxati **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo'yilsinki, normativ-huquqiy hujjatlar, xaritalar, ish yuritish hujjatlari va xizmat yozishmalarida ushbu qaror bilan tasdiqlangan nomlardan foydalaniladi.

3. Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi **ikki oy muddatda**:

Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi bilan birgalikda tog' tizmalari, tog' va cho'qqilar nomlarining davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirilishi, yangi nom berilishi munosabati bilan tegishli hujjatlar, xaritalar hamda ma'lumotlar bazalariga o'zgartirishlar kiritilishini;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda tog' tizmalari, tog' va cho'qqilarda o'rnatilgan peshlavhalar hamda axborot ko'rsatkichlaridagi yozuvlarning davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiq lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yozilishini ta'minlasin.

4. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va O'zbekiston Milliy axborot agentligiga ushbu qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.J. Ramatov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining  
Bosh vaziri**



**A. Aripov**

Vazirlar Mahkamasining  
2026-yil 9-yanvardagi 4-son qaroriga  
ilova

**Mamlakatimizdagi ayrim tog' tizmalari, tog' va cho'qqilar nomlari  
RO'YXATI**

T/r	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyekt turi	Geografik obyekt joylashgan hududi	Geografik obyektning joylashuvi va bog'lanishi	Davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirilgan, yangi nom berilgan geografik obyekt nomi
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>					
1.	Жумуртау	tog' tizmasi	Amudaryo tumani	Amudaryo daryosining chap qirg'og'ida, Qorako'l ko'lining g'arbida joylashgan	<b>Jumurtov</b>
2.	Султон Увайс	tog' tizmasi	Beruniy, Qorao'zak tumanlari	Amudaryo daryosining o'ng qirg'og'ida joylashgan	<b>Sulton Uvays</b>
3.	Ащытау	tog'	Qorao'zak tumani	Sulton Uvays tog' tizmasining shimoliy-g'arbida joylashgan	<b>Achchitov</b>
4.	Каратау	tog'	Qorao'zak tumani	Amudaryo daryosining o'ng qirg'og'ida joylashgan	<b>Qoratorv</b>
<b>Andijon viloyati</b>					
5.	Чильустун	tog' tizmasi	Buloqboshi, Xo'jaobod tumanlari	O'zbekiston va Qirg'iziston chegarasida, Qirtosh tog' tizmasining g'arbida joylashgan	<b>Qirqustun</b>
6.	Кырташ	tog' tizmasi	Xo'jaobod tumani	O'zbekiston va Qirg'iziston chegarasida, Chilustun tog' tizmasining sharqida joylashgan	<b>Qirtosh</b>
<b>Buxoro viloyati</b>					
7.	Гужумды	tog' tizmasi	Shofirkon tumani	Quljuqtov tog' tizmasida, Boshgujumli tog'i va qudug'i oralig'ida joylashgan	<b>Gujumli</b>
8.	Туркмантаг	tog' tizmasi	Shofirkon, Konimex tumanlari	Quljuqtov tog' tizmasining janubida joylashgan	<b>Turkmantog'</b>
9.	Тузкуй	tog'	Peshku tumani	Beltov tog'ining g'arbida joylashgan	<b>Tuzko'y</b>
10.	Башгужумды	tog'	Shofirkon tumani	Gujumli tog' tizmasida joylashgan	<b>Boshgujumli</b>
<b>Jizzax viloyati</b>					
11.	Мальгузар	tog' tizmasi	Baxmal, Zomin tumanlari	Yetimtog' tog' tizmasining g'arbida joylashgan	<b>Morguzar</b>
12.	Кошкапа	tog' tizmasi	Zomin tumani	Oqtosh va Chandirsoy soylarining oralig'ida joylashgan	<b>Qo'shkapa</b>

13.	Акташ	togʻ	Zomin tumani	Oʻzbekiston va Tojikiston chegarasida, Qizilmozorsoy va Qashqasuv soylarining oraligʻida joylashgan	<b>Oqtosh</b>
14.	Такали	togʻ	Zomin tumani	Oʻzbekiston va Tojikiston chegarasida, Turkiston togʻ tizmasining shimolida joylashgan	<b>Takali</b>
15.	Уч ўчоқ	togʻ	Zomin tumani	Oʻzbekiston va Tojikiston chegarasida, Oqtoshtogʻ togʻining shimolida joylashgan	<b>Uchoʻchoq</b>
16.	Шавкартау	togʻ	Zomin tumani	Oʻzbekiston va Tojikiston chegarasida, Turkiston togʻ tizmasining shimolida joylashgan	<b>Shovqartogʻ</b>
17.	Хаятбаши	togʻ	Forish tumani	Jizzax va Samarqand viloyatlari chegarasida, Nurota togʻ tizmasining shimoliy-gʻarbida joylashgan.	<b>Hayotboshi</b>
18.	Мальгузар	choʻqqi	Baxmal tumani	Morguzar togʻ tizmasida, Sharraksoy bulogʻi va Malikajdar ziyoratgohi oraligʻida joylashgan	<b>Morguzar</b>
19.	Ойбодом	choʻqqi	Baxmal tumani	Oʻzbekiston va Tojikiston chegarasida, Turkiston togʻ tizmasida joylashgan	<b>Oybodom</b>
<b>Namangan viloyati</b>					
20.	Куинди	togʻ tizmasi	Pop, Ohangaron tumanlari	Namangan va Toshkent viloyatlari chegarasida, Kuyindi va Qamchiq soylari oraligʻida joylashgan	<b>Kuyindi</b>
21.	Караташ	togʻ	Pop tumani	Oʻzbekiston va Qirgʻiziston chegarasida joylashgan	<b>Qoratosh</b>
<b>Navoiy viloyati</b>					
22.	Букантау	togʻ tizmasi	Uchquduq tumani	Qizilqum va Mingbuloq botiqlari oraligʻida joylashgan	<b>Boʻkantov</b>
23.	Етимтау	togʻ tizmasi	Tomdi, Konimex tumanlari	Tomditov togʻ tizmasining janubida joylashgan	<b>Yetimtov</b>
24.	Каратау	togʻ tizmasi	Navbahor, Nurota tumanlari	Oqtov togʻ tizmasining janubiy-gʻarbida joylashgan	<b>Qorotov</b>
25.	Нурата	togʻ tizmasi	Nurota, Forish va Qoʻshrabot tumanlari	Navoiy, Jizzax va Samarqand viloyatlari hududida, Oqtov togʻ tizmasining shimoliy-sharqida joylashgan	<b>Nurota</b>

26.	Актау	tog' tizmasi	Nurota, Qo'shrabot, Kattaqo'tg'on tumanlari	Navoiy va Samarqand viloyatlari hududida, Nurota va Qorator tog' tizmasining oralig'ida joylashgan	<b>Oqtov</b>
27.	Тамдытау	tog' tizmasi	Tomdi tumani	Yomonqum qumligining janubida, Yetimtov tog' tizmasining shimolida joylashgan	<b>Tomditov</b>
28.	Мурынтау	tog' tizmasi	Tomdi tumani	Tomditov va Arislontov tog' tizmalarining oralig'ida joylashgan	<b>Muruntov</b>
29.	Лангар (Тахку)	tog'	Nurota, Xatirchi tumanlari	Oqtov tog' tizmasida joylashgan.	<b>Langar</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>					
30.	Гиссарский	tog' tizmasi	Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari	O'zbekiston va Tojikiston chegarasida, Zarafshon tog' tizmasining janubida joylashgan	<b>Hisor</b>
31.	Акбаш	tog' tizmasi	Dehqonobod tumani	Qoratepa tog' tizmasining shimoliy-g'arbida joylashgan	<b>Oqbosh</b>
32.	Каратепа	tog' tizmasi	Dehqonobod tumani	Oqboshtov tog' tizmasining janubiy-sharqida joylashgan	<b>Qoratepa</b>
33.	Актаг	tog' tizmasi	Kitob tumani	Zarafshon tog' tizmasining shimoliy-g'arbida, Katta Chaqil tog' tizmasining sharqida joylashgan	<b>Oqtog'</b>
34.	Карагаг	tog' tizmasi	Kitob tumani	Hisor tog' tizmasida, Zo'g'atasoy va Qorasuv daryolarining oralig'ida joylashgan	<b>Qoratog'</b>
35.	Куль	tog' tizmasi	Kitob tumani	Katta Chaqil tog' tizmasi va Qashqadaryo daryosining oralig'ida joylashgan	<b>Ko'ltog'</b>
36.	Чакиликалан	tog' tizmasi	Kitob, Urgut tumanlari	Qashqadaryo va Samarqand viloyatlari chegarasida, Zarafshon tog' tizmasining shimoliy-g'arbida joylashgan	<b>Katta Chaqil</b>
37.	Хантахта	tog' tizmasi	Qamashi tumani	Turnadaryo daryosi va Guldara soyi oralig'ida joylashgan	<b>Xontaxta</b>
38.	Захчахана	tog' tizmasi	Shahrisabz tumani	Hisor tog' tizmasining shimoliy-g'arbida, To'rtko'l va Tagitalak soylarining oralig'ida joylashgan	<b>Zaxchaxona</b>
39.	Кам	tog' tizmasi	Shahrisabz tumani	Hisor tog' tizmasida, Tanxozdaryo va Qizildaryo daryolarining oralig'ida joylashgan	<b>Kam</b>

40.	Тюбегатан	togʻ	Dehqonobod tumani	Tepachatom togʻ tizmasining janubida joylashgan	<b>Tepaqoʻton</b>
41.	Арратош	togʻ	Qamashi tumani	Arratosh va Qizilmachit soylarining oraligʻida joylashgan	<b>Arratosh</b>
42.	Асмантараш	togʻ	Shahrisabz tumani	Hisor togʻ tizmasida, Tanxozdaryo daryosi va Suvtushar soyi oraligʻida joylashgan	<b>Osmontarosh</b>
43.	Игаркам	togʻ	Shahrisabz tumani	Hisor togʻ tizmasida, Tamshush va Suvtushar soylari oraligʻida joylashgan	<b>Egarkam</b>
44.	Караджингал	togʻ	Shahrisabz tumani	Hisor togʻ tizmasining gʻarbida, Oqsuv va Qorasuv daryolarining oraligʻida joylashgan	<b>Qorajangal</b>
45.	Каронкул	togʻ	Shahrisabz tumani	Hisor togʻ tizmasida, Qaronkoʻl va Saritoʻqay soylarining oraligʻida joylashgan	<b>Qaronkoʻl</b>
46.	Катта ингичка	togʻ	Shahrisabz tumani	Hisor togʻ tizmasida, Ingichka va Saritoʻqay soylarining oraligʻida joylashgan	<b>Katta Ingichka</b>
47.	Кичик ингичка	togʻ	Shahrisabz tumani	Hisor togʻ tizmasida, Sartyuz va Takalik soylarining oraligʻida joylashgan	<b>Kichik Ingichka</b>
<b>Samarqand viloyati</b>					
48.	Губдун	togʻ tizmasi	Jomboy, Bulungʻur tumanlari	Samarqand va Jizzax viloyatlari chegarasida joylashgan	<b>Gʻoʻbdin</b>
49.	Джультали	togʻ tizmasi	Kattaqoʻrgʻon tumani	Oqtogʻ togʻ tizmasining janubida joylashgan	<b>Jultali</b>
50.	Пистали	togʻ tizmasi	Kattaqoʻrgʻon tumani	Oqtogʻ togʻ tizmasining janubida joylashgan	<b>Pistali</b>
51.	Бештау	togʻ tizmasi	Nurobod tumani	Mirhaydar togʻining shimoliy-sharqida joylashgan	<b>Beshtov</b>
52.	Зирабулакские ворота	togʻ tizmasi	Narpay tumani	Mirhaydar togʻining sharqida joylashgan	<b>Zirabuloq</b>
53.	Чўнқаймиш	togʻ tizmasi	Nurobod tumani	Qoratepa togʻ tizmasining gʻarbida joylashgan	<b>Choʻnqaymish</b>
54.	Алями	togʻ tizmasi	Paxtachi, Nurobod tumanlari	Mirhaydar togʻining janubiy-gʻarbida joylashgan	<b>Alamli</b>
55.	Катармая	togʻ tizmasi	Paxtachi tumani	Beshquduq togʻining gʻarbida joylashgan	<b>Qatormoya</b>

56.	Мирхайдар	tog' tizmasi	Paxtachi, Nurobod tumanlari	Besh tog' tog' tizmasining janubiy-g'arbida joylashgan	<b>Mirhaydar</b>
57.	Джилгир	tog' tizmasi	Qo'shrabot, Nurota tumanlari	Samarqand va Navoiy viloyatlari chegarasida joylashgan	<b>Jiltirtov</b>
58.	Ғаибот	tog' tizmasi	Qo'shrabot tumani	Nurota tog'ining janubida, Go'rdara va Qizilolma soylarining oralig'ida joylashgan	<b>G'oyibota</b>
59.	Зерафшан	tog' tizmasi	Urgut tumani	Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari chegarasida joylashgan	<b>Zarafshon</b>
60.	Бешбармак	tog'	Nurobod tumani	Cho'nqaymish tog'ining shimoli, Jom soyining shimolida joylashgan	<b>Beshbarmoq</b>
61.	Кумгаза	cho'qqi	Nurobod tumani	Qoratepa tog' tizmasida joylashgan	<b>Qumgaza</b>
62.	Уртабел	cho'qqi	Nurobod tumani	Qoratepa tog' tizmasida joylashgan	<b>O'rtabel</b>
63.	Чалдуктаран	tog'	Nurobod tumani	Zarafshon tog' tizmasida joylashgan	<b>Qirqqiz</b>
64.	Яшинурган	tog'	Nurobod tumani	Zirabuloq tog' tizmasida joylashgan	<b>Yashinurgan</b>
65.	Бахмалтепа	tog'	Qo'shrabot tumani	Nurota tog' tizmasining janubida joylashgan	<b>Baxmaltepa</b>
66.	Аллаеран	tog'	Urgut tumani	Zarafshon tog' tizmasida joylashgan	<b>Allayoron</b>
67.	Чукур қўтон	cho'qqi	Urgut tumani	Tersaksoy va Omonqo'tonsoy soylari oralig'ida joylashgan	<b>Chuqurqo'ton</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>					
68.	Байсунтау	tog' tizmasi	Boysun tumani	Machaydaryo daryosi va Xo'jaipok soyi oralig'ida joylashgan	<b>Boysuntog'</b>
69.	Сарыкия	tog' tizmasi	Boysun, Dehqonobod tumanlari	Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari chegarasida, Machaydaryo daryosining shimoliy-g'arbida joylashgan	<b>Sariqiya</b>
70.	Чульбаир	tog' tizmasi	Boysun, Qumqo'rg'on tumanlari	Boysun tog' tizmasining sharqida joylashgan	<b>Cho'lbayir</b>
71.	Актаг	tog' tizmasi	Sherobod tumani	Ko'hitang tog' tizmasi sharqida, Qo'tirbuloq tog' tizmasining g'arbida joylashgan	<b>Oqtog'</b>
72.	Бешкыз	tog' tizmasi	Sherobod tumani	Sherobod va Qag'ni daryolari oralig'ida joylashgan	<b>Beshqiz</b>

73.	Кугитанг	tog' tizmasi	Sherobod tumani	O'zbekiston va Turkmaniston chegarasida, Amudaryo daryosining shimolida joylashgan	<b>Ko'hitang</b>
74.	Кызилтау	tog' tizmasi	Sherobod tumani	Ko'hitang tog' tizmasining sharqida joylashgan	<b>Qiziltog'</b>
75.	Хатак	tog' tizmasi	Sherobod tumani	Ko'hitang tog' tizmasining shimolida, Laylagansoy soyining janubida joylashgan	<b>Xatak</b>
76.	Бабатаг	tog' tizmasi	Uzun tumani	O'zbekiston va Tojikiston chegarasida joylashgan	<b>Bobotog'</b>
77.	Айрибаба	tog'	Sherobod tumani	O'zbekiston va Turkmaniston chegarasida, Ko'hitang tog' tizmasining markazida joylashgan	<b>Ayribobo</b>
78.	Вандоп	tog'	Sherobod tumani	O'zbekiston va Turkmaniston chegarasida, Ko'hitang tog' tizmasining janubida joylashgan	<b>Vandob</b>
79.	Коктепа	tog'	Sariosiyo tumani	Hisor tog' tizmasining janubida joylashgan	<b>Ko'ktepa</b>
80.	Куйдитавак	tog'	Sariosiyo tumani	Hisor tog' tizmasining shimolida, Kishtut va Xovat daryolari oralig'ida joylashgan	<b>Kuyditovoq</b>
81.	Суйримых	tog'	Sherobod tumani	Ko'hitang tog' tizmasining janubiy-sharqida joylashgan	<b>Suyrimix</b>
82.	Хамкон	tog'	Sherobod, Boysun tumanlari	Otgaza tog' tizmasining janubiy-sharqida joylashgan	<b>Xomkon</b>
83.	Ходжайкон	tog'	Sherobod tumani	Ko'hitang tog' tizmasining janubiy-sharqida joylashgan	<b>Xo'jayikon</b>
84.	Говурган	tog'	Uzun tumani	Bobotog' tog' tizmasining shimoliy-g'arbida joylashgan	<b>Govurgan</b>
85.	Заркаса	tog'	Uzun tumani	Bobotog' tog' tizmasining markazida joylashgan	<b>Zarkosa</b>
86.	Девкамар	cho'qqi	Boysun tumani	Kam tog'ining shimoliy-sharqida joylashgan	<b>Devorkamar</b>
87.	Хазрет Султан	cho'qqi	Sariosiyo tumani	O'zbekiston va Tojikiston chegarasida, Hisor tog' tizmasida joylashgan	<b>Hazrati Sulton</b>
<b>Toshkent viloyati</b>					
88.	Кёксуй	tog' tizmasi	Bo'stonliq tumani	O'zbekiston va Qirg'iziston chegarasida, Ko'ksuv soyining chap qirg'og'ida joylashgan	<b>Ko'ksuv</b>
89.	Кумбель	tog' tizmasi	Bo'stonliq tumani	O'zbekiston va Qirg'iziston chegarasida, Sargardon tog'	<b>Qumbel</b>

				tizmasining shimolida joylashgan	
90.	Кунгирбука	tog' tizmasi	Bo'stonliq tumani	G'alvasoy soyi va Xo'jakent suv ombori oralig'ida joylashgan	<b>Qo'ng'irbuqa</b>
91.	Қоржантов	tog' tizmasi	Bo'stonliq tumani	O'zbekiston va Qozog'iston chegarasida joylashgan	<b>Qorjantov</b>
92.	Майдантал	tog' tizmasi	Bo'stonliq tumani	O'zbekiston va Qozog'iston chegarasida, Oqqayin daryosi va Maydantol soyi oralig'ida joylashgan	<b>Maydantol</b>
93.	Пскем	tog' tizmasi	Bo'stonliq tumani	O'zbekiston va Qirg'iziston chegarasida, Piskom va Chotqol daryolarining oralig'ida joylashgan	<b>Piskom</b>
94.	Угам	tog' tizmasi	Bo'stonliq tumani	O'zbekiston va Qozog'iston chegarasida, Piskom daryosining o'ng qirg'og'ida joylashgan	<b>Ugom</b>
95.	Арашан	tog' tizmasi	Ohangaron, Pop tumanlari	Toshkent va Namangan viloyatlari chegarasida, Arashon ko'lining g'arbida joylashgan	<b>Arashon</b>
96.	Караташ	tog' tizmasi	Ohangaron tumani	Qurama tog' tizmasida, Ohangaron suv omborining sharqida joylashgan	<b>Qoratosh</b>
97.	Кураминский	tog' tizmasi	Ohangaron tumani	O'zbekiston va Tojikiston chegarasida, Ohangaron daryosi chap qirg'og'ida joylashgan	<b>Qurama</b>
98.	Чаткаль	tog' tizmasi	Ohangaron, Parkent tumanlari	O'zbekiston va Qirg'iziston chegarasida joylashgan	<b>Chotqol</b>
99.	Учташ	tog' tizmasi	Parkent tumani	Parkentsoy va Qashqasuv soylari oralig'ida joylashgan	<b>Uchtosh</b>
100.	Айнаташ	tog'	Bo'stonliq tumani	Piskom tog' tizmasida joylashgan	<b>Oynatosh</b>
101.	Бештор	tog'	Bo'stonliq tumani	O'zbekiston va Qirg'iziston chegarasida, Piskom tog' tizmasida joylashgan	<b>Beshtor</b>
102.	Каракуш	tog'	Bo'stonliq tumani	Chotqol tog' tizmasining janubiy-g'arbida joylashgan	<b>Qoraqush</b>
103.	Катта Чимён	tog'	Bo'stonliq tumani	Chotqol tog' tizmasining markazida joylashgan	<b>Katta Chimyon</b>
104.	Кичик Чимён	tog'	Bo'stonliq tumani	Chotqol tog' tizmasining markazida joylashgan	<b>Kichik Chimyon</b>
105.	Мингбулок	tog'	Bo'stonliq tumani	O'zbekiston va Qozog'iston chegarasida joylashgan	<b>Mingbuloq</b>

106.	Сурената	togʻ	Boʻstonliq tumani	Chotqol togʻ tizmasi shimoliy-gʻarbida joylashgan	<b>Surenota</b>
107.	Бабайтаг	togʻ	Ohangaron tumani	Chotqol togʻ tizmasida joylashgan	<b>Boboytogʻ</b>
108.	Одамтош	togʻ	Ohangaron tumani	Chotqol togʻ tizmasining janubida joylashgan	<b>Odamtosh</b>
109.	Таштепа	togʻ	Ohangaron tumani	Chotqol togʻ tizmasining gʻarbida joylashgan	<b>Toshtepa</b>
110.	Ургазкараташ	togʻ	Ohangaron tumani	Qurama togʻ tizmasining gʻarbida joylashgan	<b>Oʻrgʻozqoratosh</b>
111.	Акташ	togʻ	Parkent tumani	Chotqol togʻ tizmasining janubiy-gʻarbida joylashgan	<b>Oqtosh</b>
112.	Кизилнур	togʻ	Parkent, Boʻstonliq tumanlari	Chotqol togʻ tizmasida, Katta Chimyon togʻning janubiy-gʻarbida joylashgan	<b>Qizilnura</b>
113.	Ташгаза	togʻ	Parkent tumani	Chotqol togʻ tizmasining sharqida joylashgan	<b>Toshgaza</b>
114.	Аделунга	choʻqqi	Boʻstonliq tumani	Piskom togʻ tizmasining shimolida joylashgan	<b>Piskom</b>
115.	Амир Темур	choʻqqi	Boʻstonliq tumani	Piskom togʻ tizmasining janubiy-gʻarbida joylashgan	<b>Amir Temur</b>
116.	Ёнтерак	choʻqqi	Boʻstonliq tumani	Kampirtosh togʻi janubiy-sharqida va Paltov soyi shimolida joylashgan	<b>Yonterak</b>
117.	Пингвин	choʻqqi	Boʻstonliq tumani	Piskom togʻ tizmasida joylashgan	<b>Temirtosh</b>
118.	Чимён	choʻqqi	Boʻstonliq tumani	Beldersoy soyi sharqida, Katta Chimyon togʻining janubida joylashgan	<b>Chimyon</b>
119.	Анна77	choʻqqi	Ohangaron tumani	Chotqol togʻ tizmasida, Maydalmasoy soyi boshlanishida joylashgan	<b>Egar</b>
120.	Пионер	choʻqqi	Ohangaron tumani	Chotqol togʻ tizmasining sharqida joylashgan	<b>Yangiobod</b>
121.	Бигизшах	choʻqqi	Parkent tumani	Shohqoʻrgʻon togʻ tizmasida, Piskom togʻ tizmasining shimoliy-gʻarbida joylashgan	<b>Bigizshox</b>





## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

20 26 yil « 9 » yanvar

№ 5

Toshkent sh.

### **Tog'-kon sanoati va geologiya sohasidagi ayrim geografik obyektlarning nomlarini davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirish hamda yangi nom berish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi va "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha respublika komissiyasining xulosasiga ko'ra foydali qazilma konlari nomlarini davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi **qaror qiladi**:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi va "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi qonunlari talablari asosida davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirilgan hamda yangi nom berilgan quyidagi **757 ta** geografik obyekt nomini o'z ichiga olgan:

**Davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirilayotgan foydali qazilma konlari nomlari ro'yxati 1-ilovaga muvofiq;**

**Yangi nom berilgan foydali qazilma konlari nomlari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

2. Belgilab qo'yilsinki:

normativ-huquqiy hujjatlar, ish hujjatlari va rasmiy yozishmalarda ushbu qaror bilan tasdiqlangan nomlardan, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi 2024-yil 15-noyabrdagi 766-son va 2025-yil 18-iyundagi 379-son qarorlari bilan tasdiqlangan nomlardan foydalaniladi;

foydali qazilmalar zaxiralari bo'yicha geologik hisobotlar Davlat zaxiralari komissiyasi tomonidan ko'rib chiqish uchun taqdim etilgunga qadar foydali qazilma konlari nomlari Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha respublika komissiyasining xulosasi asosida Vazirlar Mahkamasi tegishli qarorlari bilan tasdiqlanadi.

3. Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi:

**ikki oy muddatda** tog'-kon sanoati va geologiya sohasidagi geografik obyektlar nomlarining davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirilishi, yangi nom berilishi munosabati bilan tegishli hujjatlar, xaritalar hamda ma'lumotlar bazalariga o'zgartirishlar kiritilishini hamda peshlavhalar, axborot ko'rsatkichlaridagi yozuvlarning davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiq lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yozilishini ta'minlasin;

geologik qidiruvlar natijasida yangi topilgan foydali qazilma konlariga nom berish bo'yicha geologiya, geografiya, filologiya, tarix sohasining yetuk olimlari va mutaxassislari hamda tegishli boshqa mutaxassislarni jalb etgan holda, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi va "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi qonunlarida belgilangan talablar asosida Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritib borsin.

4. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va O'zbekiston Milliy axborot agentligiga ushbu qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.J. Ramatov hamda tog'-kon sanoati va geologiya vaziri B.F. Islamov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining  
Bosh vaziri**



**A. Aripov**

Vazirlar Mahkamasining  
2026-yil 9 -yanvardagi 5 -son qaroriga  
1-ilova

**Davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirilayotgan  
foydali qazilma konlari nomlari  
RO'YXATI**

T/r	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyekt (foydali qazilma kon) turi	Geografik obyekt joylashgan hudud	Davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirilgan geografik obyekt nomi
<b>Noruda foydali qazilma konlari</b>				
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>				
1.	Джумуртау таш	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtovtosh</b>
2.	Джумуртау-1	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtov-1</b>
3.	Джумуртау-2	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtov-2</b>
4.	Джумуртау-3	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtov-3</b>
5.	Джумуртау-4	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtov-4</b>
6.	Джумуртау-5	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtov-5</b>
7.	Джумуртау-6	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtov-6</b>
8.	Джумуртау-7	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtov-7</b>
9.	Джумуртау-8	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtov-8</b>
10.	Джумуртау-9	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtov-9</b>
11.	Джумуртау-10	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtov-10</b>
12.	Джумуртау-11	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtov-11</b>
13.	Джумуртау-12	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtov-12</b>
14.	Джумуртау-13	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtov-13</b>
15.	Джумуртау-14	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtov-14</b>
16.	Джумуртау-15	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtov-15</b>
17.	Джумуртау-16	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtov-16</b>
18.	Джимуртауское (1972)	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtov-1972</b>
19.	Джумуртауское (2015)	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Jumurtov-2015</b>
20.	Караузьяк-5	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Qorao'zak-5</b>
21.	Куюккупир	g'isht xomashyosi	Amudaryo tumani	<b>Quyugko'pir</b>
22.	Шейхджейлинское (1976)	qurilish toshlari	Amudaryo tumani	<b>Shayx Jalilbobo-1976</b>
23.	Беруний-1	qurilish toshlari	Beruniy tumani	<b>Beruniy-1</b>
24.	Берунийское (1983)	tabiiy pardozeb toshlar	Beruniy tumani	<b>Beruniy-1983</b>
25.	Бурлитог	agroma'dan xomashyosi	Beruniy tumani	<b>Bo'rlitog'</b>
26.	Дарбозатау	ohak uchun ohaktosh	Beruniy tumani	<b>Darvozatov</b>
27.	Дарбозатау-1	ohak uchun ohaktosh	Beruniy tumani	<b>Darvozatov-1</b>
28.	Джумасай	qurilish toshlari	Beruniy tumani	<b>Jumasoy</b>
29.	Актауское (1987)	ohak uchun ohaktosh	Beruniy tumani	<b>Oqtov-1987</b>

30.	Кахралисой	qurilish toshlari	Beruniy tumani	<b>Qahralisoy</b>
31.	Кахралисой-1	qurilish toshlari	Beruniy tumani	<b>Qahralisoy-1</b>
32.	Казгансай-1	qurilish toshlari	Beruniy tumani	<b>Qazgansoy-1</b>
33.	Султонбобо	tabiiy pardozeb toshlar	Beruniy tumani	<b>Sultonbobo</b>
34.	Султонбобо-1	tabiiy pardozeb toshlar	Beruniy tumani	<b>Sultonbobo-1</b>
35.	Джамансай-1	ohak uchun ohaktosh	Beruniy tumani	<b>Yomonsoy-1</b>
36.	Джамансайское (1995)	sement xomashyosi	Beruniy tumani	<b>Yomonsoy-1995</b>
37.	Бўзатов	gil	Bo'zotov tumani	<b>Bo'zotov</b>
38.	Кушканатауское	keramzit xomashyosi	Bo'zotov tumani	<b>Qushxonatov</b>
39.	Чимбайское (1985)	g'isht xomashyosi	Chimboy tumani	<b>Chimboy-1985</b>
40.	Бештёбинское II (1990)	g'isht xomashyosi	Nukus tumani	<b>Beshtepa-1990</b>
41.	Нукусское 2	qurilish qumlari	Nukus tumani	<b>Nukus</b>
42.	Крантау	g'isht xomashyosi	Nukus tumani	<b>Qirontov</b>
43.	Кизкетген	g'isht xomashyosi	Nukus tumani	<b>Qizketgan</b>
44.	Табакумское	qurilish qumlari	Nukus tumani	<b>Tabaqum</b>
45.	Тугай (2015)	g'isht xomashyosi	Nukus tumani	<b>To'qay-2015</b>
46.	Барсакелмес-1	mineral tuzlar	Qo'ng'iro't tumani	<b>Borsakelmas-1</b>
47.	Барсакелмес-2	mineral tuzlar	Qo'ng'iro't tumani	<b>Borsakelmas-2</b>
48.	Каспий-5	mineral tuzlar	Qo'ng'iro't tumani	<b>Kaspiy</b>
49.	Кызылтуйское	qurilish qumlari	Qo'ng'iro't tumani	<b>Qiziltug'</b>
50.	Кунградское - 1993	g'isht xomashyosi	Qo'ng'iro't tumani	<b>Qo'ng'iro't-1993</b>
51.	Кекликтау — V	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Kaklikto'v-5</b>
52.	Кекликтау — VI	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Kaklikto'v-6</b>
53.	Кекликтау-VII	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Kaklikto'v-7</b>
54.	Кекликтау-VIII	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Kaklikto'v-8</b>
55.	Кекликтау-IX	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Kaklikto'v-9</b>
56.	Кекликтау-X	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Kaklikto'v-10</b>
57.	Кекликтау-XI	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Kaklikto'v-11</b>
58.	Кекликтоу-12	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Kaklikto'v-12</b>
59.	Кекликтауское (1990)	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Kaklikto'v-1990</b>
60.	Кекликтау-IV (2015)	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Kaklikto'v-2015</b>
61.	Кемпирсай	qurilish qumlari	Qorao'zak tumani	<b>Kampirsoy</b>
62.	Кемпирсай-1	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Kampirsoy-1</b>
63.	Кемпирсай-2	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Kampirsoy-2</b>
64.	Кемпирсай-3	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Kampirsoy-3</b>
65.	Кемпирсой-5	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Kampirsoy-5</b>
66.	Кемпирсой-6	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Kampirsoy-6</b>
67.	Актау-1	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Oqtov-1</b>
68.	Актау-2	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Oqtov-2</b>
69.	Коракуль-1	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Qorako'l-1</b>
70.	Караузьяк	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Qorao'zak</b>
71.	Караузьяк-1	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Qorao'zak-1</b>
72.	Караузьяк-2	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Qorao'zak-2</b>

73.	Караузьяк-1	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Qorao'zak-3</b>
74.	Караузьяк-4	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Qorao'zak-4</b>
75.	Караузьяк-6	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Qorao'zak-6</b>
76.	Каратау	bazalt	Qorao'zak tumani	<b>Qoratorv</b>
77.	Каратау-1	bazalt	Qorao'zak tumani	<b>Qoratorv-1</b>
78.	Каратау-2	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Qoratorv-2</b>
79.	Каратау-3	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Qoratorv-3</b>
80.	Каратау-4	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Qoratorv-4</b>
81.	Каратау-5	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Qoratorv-5</b>
82.	Каратау-6	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Qoratorv-6</b>
83.	Каратау-7	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Qoratorv-7</b>
84.	Каратау-8	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Qoratorv-8</b>
85.	Шейхджейли	qurilish toshlari	Qorao'zak tumani	<b>Shayx Jalilbobo</b>
86.	Джамансайское II (1985)	ohak uchun ohaktosh	Qorao'zak tumani	<b>Yomonsoy-1985</b>
87.	Биллуртуз	mineral tuzlar	Taxtako'pir tumani	<b>Billurtuz</b>
88.	Биллуртуз-1	mineral tuzlar	Taxtako'pir tumani	<b>Billurtuz-1</b>
89.	Тахтакупир	qurilish qumlari	Taxtako'pir tumani	<b>Taxtako'pir</b>
90.	Дустлик (2014)	g'isht xomashyosi	To'rtko'l tumani	<b>Do'stlik-2014</b>
91.	Турткульское (1963)	g'isht xomashyosi	To'rtko'l tumani	<b>To'rtko'l-1963</b>
92.	Тайиятош	g'isht xomashyosi	Taxiatosh tumani	<b>Taxiatosh</b>
93.	Элликкалинское (1975)	g'isht xomashyosi	Ellikqal'a tumani	<b>Ellikqal'a-1975</b>
94.	Ходжейлийское (1985)	g'isht xomashyosi	Xo'jayli tumani	<b>Xo'jayli-1985</b>
95.	Шоманай-2 (2015)	g'isht xomashyosi	Shumanay tumani	<b>Shumanay-2015</b>
<b>Andijon viloyati</b>				
96.	Бутақор	g'isht xomashyosi	Andijon tumani	<b>Butaqora</b>
97.	Бутақор-1	g'isht xomashyosi	Andijon tumani	<b>Butaqora-1</b>
98.	Бутақор-2	g'isht xomashyosi	Andijon tumani	<b>Butaqora-2</b>
99.	Бутақор-2	g'isht xomashyosi	Andijon tumani	<b>Butaqora-3</b>
100.	Бутақор-4	g'isht xomashyosi	Andijon tumani	<b>Butaqora-4</b>
101.	Бутақор-7	g'isht xomashyosi	Andijon tumani	<b>Butaqora-5</b>
102.	Бутақор-8	g'isht xomashyosi	Andijon tumani	<b>Butaqora-6</b>
103.	Раиш Хакан	g'isht xomashyosi	Andijon tumani	<b>Xoqon</b>
104.	Хакан-1	g'isht xomashyosi	Andijon tumani	<b>Xoqon-1</b>
105.	Сохибкор-3	g'isht xomashyosi	Asaka tumani	<b>Sohibkor-3</b>
106.	Сохибкор (2014)	g'isht xomashyosi	Asaka tumani	<b>Sohibkor-2014</b>
107.	Найман-IV	qurilish toshlari	Buloqboshi tumani	<b>Nayman-4</b>
108.	Киртиштов	g'isht xomashyosi	Buloqboshi tumani	<b>Qirtishtov</b>
109.	Киртиштов-1	qurilish toshlari	Buloqboshi tumani	<b>Qirtishtov-1</b>
110.	Усманабад-3	qurilish toshlari	Buloqboshi tumani	<b>Usmonobod-1</b>
111.	Усманабад-2	qurilish toshlari	Buloqboshi tumani	<b>Usmonobod-2</b>
112.	Ширмонбулок-3	tabiiy pardozeb toshlar	Buloqboshi tumani	<b>Shirmonbuloq-3</b>
113.	Ширманбулак III	sement xomashyosi	Buloqboshi tumani	<b>Shirmonbuloq-3</b>

114.	Ойим	g'isht xomashyosi	Jalaquduq tumani	Oyim
115.	Ок олтин	qurilish qumlari	Ulug'nor tumani	Oqoltin
116.	Улугнор	qurilish qumlari	Ulug'nor tumani	Ulug'nor
117.	Улугнор-1	qurilish qumlari	Ulug'nor tumani	Ulug'nor-1
118.	Улугнор-2	qurilish qumlari	Ulug'nor tumani	Ulug'nor-2
119.	Улугнор-3	qurilish qumlari	Ulug'nor tumani	Ulug'nor-3
120.	Улугнор юлдузи	qurilish qumlari	Ulug'nor tumani	Ulug'nor-4
121.	Раишское (1972)	g'isht xomashyosi	Xo'jaobod tumani	Roish-1972
122.	Кулла	sement xomashyosi	Xo'jaobod tumani	Qulla
123.	Хидирша-1	g'isht xomashyosi	Xo'jaobod tumani	Xidirsho-1
124.	Хидирша-2	g'isht xomashyosi	Xo'jaobod tumani	Xidirsho-2
<b>Buxoro viloyati</b>				
125.	Ок олтин-1	gips va angidrit	Buxoro tumani	Oqoltin-1
126.	Ок олтин-2	gips va angidrit	Buxoro tumani	Oqoltin-2
127.	Уразджанское	tabiiy pardozebop	G'ijduvon tumani	O'rozjon
128.	Хужа Хайрон-1	g'isht xomashyosi	Jondor tumani	Xo'jahayron-1
129.	Хужа Хайрон-2	g'isht xomashyosi	Jondor tumani	Xo'jahayron-2
130.	Тозбулок	qurilish toshlari	Peshku tumani	Tozabuloq
131.	Тозбулак II	tabiiy pardozebop toshlar	Peshku tumani	Tozabuloq-2
132.	Тозбулак III	tabiiy pardozebop toshlar	Peshku tumani	Tozabuloq-3
133.	Тозбулак-3	tabiiy pardozebop toshlar	Peshku tumani	Tozabuloq-4
134.	Тозбулак V	tabiiy pardozebop toshlar	Peshku tumani	Tozabuloq-5
135.	Тозбулок-VI	tabiiy pardozebop toshlar	Peshku tumani	Tozabuloq-6
136.	Тозбулок-7	tabiiy pardozebop toshlar	Peshku tumani	Tozabuloq-7
137.	Тозбулок-8	tabiiy pardozebop toshlar	Peshku tumani	Tozabuloq-8
138.	Тозбулок-9	tabiiy pardozebop toshlar	Peshku tumani	Tozabuloq-9
139.	Тозбулак II (1996)	tabiiy pardozebop toshlar	Peshku tumani	Tozabuloq-1996
140.	Тозбулак IV (1997)	tabiiy pardozebop toshlar	Peshku tumani	Tozabuloq-1997
141.	Тасказганское	qurilish toshlari	Peshku tumani	Toshqazgan
142.	Чулкувар	tabiiy pardozebop toshlar	Qorovulbozor tumani	Cho'lquvar
143.	Кызылкумское	qurilish qumlari	Qorovulbozor tumani	Qizilqum
144.	Караулбазар-1	qurilish toshlari	Qorovulbozor tumani	Qorovulbozor-1
145.	Караулбазар-2	qurilish toshlari	Qorovulbozor tumani	Qorovulbozor-2
146.	Караулбазар-3	tabiiy pardozebop toshlar	Qorovulbozor tumani	Qorovulbozor-3
147.	Караулбазарское (1978)	qurilish toshlari	Qorovulbozor tumani	Qorovulbozor-1978
148.	Караулбазарское (1978)	ohak uchun ohaktosh	Qorovulbozor tumani	Qorovulbozor-1978
<b>Jizzax viloyati</b>				
149.	Усмат-1	g'isht xomashyosi	Baxmal tumani	O'smat-1
150.	Усмат-2	ohaktosh	Baxmal tumani	O'smat-2

151.	Богдон	qurilish qumlari	Forish tumani	<b>Bog'don</b>
152.	Балыкклитау-1	qurilish toshlari	Forish tumani	<b>Baliqlitog'-1</b>
153.	Балыкклитау-2	sement xomashyosi	Forish tumani	<b>Baliqlitog'-2</b>
154.	Балыкклитау-3	sement xomashyosi	Forish tumani	<b>Baliqlitog'-3</b>
155.	Балыкклитау-8	sement xomashyosi	Forish tumani	<b>Baliqlitog'-4</b>
156.	Балыкклитау-5	sement xomashyosi	Forish tumani	<b>Baliqlitog'-5</b>
157.	Балыкклитау-6	sement xomashyosi	Forish tumani	<b>Baliqlitog'-6</b>
158.	Чимкурганское	sement xomashyosi	Forish tumani	<b>Chimqo'rg'on</b>
159.	Чимкурган-1	sement xomashyosi	Forish tumani	<b>Chimqo'rg'on-1</b>
160.	Чимкурган-2	sement xomashyosi	Forish tumani	<b>Chimqo'rg'on-2</b>
161.	Чимкурган 5	sement xomashyosi	Forish tumani	<b>Chimqo'rg'on-5</b>
162.	Чимкурган 6	sement xomashyosi	Forish tumani	<b>Chimqo'rg'on-6</b>
163.	Эгизбулак-1	ohaktosh	Forish tumani	<b>Egizbuloq-1</b>
164.	Эгизбулак-2	ohaktosh	Forish tumani	<b>Egizbuloq-2</b>
165.	Эгизбулак-3	sement xomashyosi	Forish tumani	<b>Egizbuloq-3</b>
166.	Кук Гумбаз	qurilish qumlari	Forish tumani	<b>Ko'kgumbaz</b>
167.	Кутерминское	ohaktosh	Forish tumani	<b>Ko'tarma</b>
168.	Кутерма-1	sement xomashyosi	Forish tumani	<b>Ko'tarma-1</b>
169.	Кутарма-2	qurilish toshlari	Forish tumani	<b>Ko'tarma-2</b>
170.	Асмансай	qurilish toshlari	Forish tumani	<b>Osmonsoy</b>
171.	Караташ-1	qurilish toshlari	Forish tumani	<b>Qoratosh-1</b>
172.	Сирганак (2015)	qurilish qumlari	Forish tumani	<b>Sirg'anak-2015</b>
173.	Сулукли	qurilish toshlari	Forish tumani	<b>Sulukli</b>
174.	Галлаорол	qurilish toshlari	G'allaorol tumani	<b>G'allaorol</b>
175.	Галляаральское II	g'isht xomashyosi	G'allaorol tumani	<b>G'allaorol-2</b>
176.	Галляаральское-3	g'isht xomashyosi	G'allaorol tumani	<b>G'allaorol-3</b>
177.	Галляаральское-4	g'isht xomashyosi	G'allaorol tumani	<b>G'allaorol-4</b>
178.	Галляаральское-5	g'isht xomashyosi	G'allaorol tumani	<b>G'allaorol-5</b>
179.	Кучарбулак	g'isht xomashyosi	G'allaorol tumani	<b>Ko'charbuloq</b>
180.	Кучарбулок-1	g'isht xomashyosi	G'allaorol tumani	<b>Ko'charbuloq-1</b>
181.	Лалмикор	qurilish qumlari	G'allaorol tumani	<b>Lalmikor</b>
182.	Койташ-1	qurilish toshlari	G'allaorol tumani	<b>Qo'yto'sh-1</b>
183.	Саврук	qurilish qumlari	G'allaorol tumani	<b>Savruk</b>
184.	Соврук-Ота	qurilish qumlari	G'allaorol tumani	<b>Savrukota</b>
185.	Арватен	sement xomashyosi	Sharof Rashidov tumani	<b>Arvatin</b>
186.	Балыкклитау-7	sement xomashyosi	Sharof Rashidov tumani	<b>Baliqlitog'-7</b>
187.	Бешёгоч-1	sement xomashyosi	Sharof Rashidov tumani	<b>Beshyog'och-1</b>
188.	Корасой-1	qurilish toshlari	Sharof Rashidov tumani	<b>Qorasoy-1</b>
189.	Каратепа	ohaktosh	Sharof Rashidov tumani	<b>Qoratepa</b>
190.	Сайханское	keramzit	Sharof Rashidov tumani	<b>Sayhon</b>

191.	Сайхан-1	qurilish toshlari	Sharof Rashidov tumani	<b>Sayhon-1</b>
192.	Сайхан-2	qurilish toshlari	Sharof Rashidov tumani	<b>Sayhon-2</b>
193.	Сайхан-III	g'isht xomashyosi	Sharof Rashidov tumani	<b>Sayhon-3</b>
194.	Сайхан	qurilish toshlari	Sharof Rashidov tumani	<b>Sayhon-4</b>
195.	Сайхан-3	qurilish toshlari	Sharof Rashidov tumani	<b>Sayhon-5</b>
196.	Сайханское II (1999)	keramzit	Sharof Rashidov tumani	<b>Sayhon-1999</b>
197.	Зиёкор	o'tga chidamli xomashyo	Sharof Rashidov tumani	<b>Ziyokor</b>
198.	Пастчакыр	g'isht xomashyosi	Yangiobod tumani	<b>Pastchaqir</b>
199.	Хавастское (2005)	sement xomashyosi	Yangiobod tumani	<b>Xovos-2005</b>
200.	Караташ	mineral bo'yoqlar	Zafarobod tumani	<b>Qoratosh</b>
201.	Чимкурган-3	sement xomashyosi	Zafarobod tumani	<b>Chimqo'rg'on-3</b>
202.	Чимкурган-2	sement xomashyosi	Zafarobod tumani	<b>Chimqo'rg'on-4</b>
203.	Чимкурган-1	gips	Zafarobod tumani	<b>Chimqo'rg'on-7</b>
204.	Чимкурган-2	gips	Zafarobod tumani	<b>Chimqo'rg'on-8</b>
<b>Namangan viloyati</b>				
205.	Чартак-1	g'isht xomashyosi	Chortoq tumani	<b>Chortoq-1</b>
206.	Нов-6	sement xomashyosi	Chortoq tumani	<b>Nov-6</b>
207.	Чустон	sement xomashyosi	Chust tumani	<b>Chuston</b>
208.	Галаба-1	tabiiy pardozeb toshlar	Chust tumani	<b>G'alaba-1</b>
209.	Галаба-2	tabiiy pardozeb toshlar	Chust tumani	<b>G'alaba-2</b>
210.	Галаба-3	tabiiy pardozeb toshlar	Chust tumani	<b>G'alaba-3</b>
211.	Карабулак-1	sement xomashyosi	Chust tumani	<b>Qorabuloq-1</b>
212.	Корабулак-2	mineral tola ishlab chiqarish uchun xomashyo	Chust tumani	<b>Qorabuloq-2</b>
213.	Корабулак-3	mineral tola ishlab chiqarish uchun xomashyo	Chust tumani	<b>Qorabuloq-3</b>
214.	Корабулак-4	mineral tola ishlab chiqarish uchun xomashyo	Chust tumani	<b>Qorabuloq-4</b>
215.	Каракурган	ohak uchun ohaktosh	Chust tumani	<b>Qoraqo'rg'on</b>
216.	Каракурган-1	sement xomashyosi	Chust tumani	<b>Qoraqo'rg'on-1</b>
217.	Каракурган-2	sement xomashyosi	Chust tumani	<b>Qoraqo'rg'on-2</b>
218.	Каракурган-3	sement xomashyosi	Chust tumani	<b>Qoraqo'rg'on-3</b>
219.	Каракурган-4	sement xomashyosi	Chust tumani	<b>Qoraqo'rg'on-4</b>
220.	Каракурган-5	sement xomashyosi	Chust tumani	<b>Qoraqo'rg'on-5</b>
221.	Касансайское-1	ohak uchun ohaktosh	Kosonsoy tumani	<b>Kosonsoy-1</b>
222.	Касансайское 2014	sement xomashyosi	Kosonsoy tumani	<b>Kosonsoy-2014</b>
223.	Олтинкул	qurilish qumlari	Mingbuloq tumani	<b>Oltinko'l</b>

224.	Чоркесар	o'tga chidamli kukun ishlab chiqarish uchun xomashyo	Pop tumani	<b>Chorkesar</b>
225.	Чаркасарское-1	tabiiy pardozebop toshlar	Pop tumani	<b>Chorkesar-1</b>
226.	Чаркасарское-2	tabiiy pardozebop toshlar	Pop tumani	<b>Chorkesar-2</b>
227.	Чоркесар-3	qurilish toshlari	Pop tumani	<b>Chorkesar-3</b>
228.	Чоркесар-4	qurilish toshlari	Pop tumani	<b>Chorkesar-4</b>
229.	Пагды II (1972)	qurilish toshlari	Pop tumani	<b>Pag'di-1972</b>
230.	Сангское (1993)	g'isht xomashyosi	Pop tumani	<b>Sang-1993</b>
231.	Уйгурское-1	g'isht xomashyosi	Pop tumani	<b>Uyg'ur-1</b>
232.	Бардамкуль II (1969)	g'isht xomashyosi	To'raqo'rg'on tumani	<b>Bardonko'l-1969</b>
233.	Учкурганское II	g'isht xomashyosi	Uchqo'rg'on tumani	<b>Uchqo'rg'on-2</b>
234.	Учкурганское III (1986)	g'isht xomashyosi	Uchqo'rg'on tumani	<b>Uchqo'rg'on-1986</b>
235.	Гайрат-1	g'isht xomashyosi	Uychi tumani	<b>G'ayrat-1</b>
236.	Гайрат-2	g'isht xomashyosi	Uychi tumani	<b>G'ayrat-2</b>
237.	Бунедкор-1	g'isht xomashyosi	Yangi Namangan	<b>Bunyodkor-1</b>
238.	Бунедкор (2013)	g'isht xomashyosi	Yangi Namangan tumani	<b>Bunyodkor-2013</b>
239.	Самарканд - 1	g'isht xomashyosi	Yangi Namangan tumani	<b>Samarqand-1</b>
240.	Кораполвон-1	g'isht xomashyosi	Yangiqo'rg'on tumani	<b>Qorapolvon-1</b>
241.	Кораполвон-2	g'isht xomashyosi	Yangiqo'rg'on tumani	<b>Qorapolvon-2</b>
242.	Кораполвон-3	g'isht xomashyosi	Yangiqo'rg'on tumani	<b>Qorapolvon-3</b>
243.	Кораполвон-4	g'isht xomashyosi	Yangiqo'rg'on tumani	<b>Qorapolvon-4</b>
244.	Янгикурган-5	g'isht xomashyosi	Yangiqo'rg'on tumani	<b>Yangiqo'rg'on-5</b>
245.	Янгикурган-6	g'isht xomashyosi	Yangiqo'rg'on tumani	<b>Yangiqo'rg'on-6</b>
<b>Navoiy viloyati</b>				
246.	Арба (1995)	tabiiy pardozebop toshlar	G'ozg'on shahri	<b>Arba-1995</b>
247.	Чоркудук-1	tabiiy pardozebop toshlar	G'ozg'on shahri	<b>Chorquduq-1</b>
248.	Чоркудук-2	tabiiy pardozebop toshlar	G'ozg'on shahri	<b>Chorquduq-2</b>
249.	Газгон-4	qurilish toshlari	G'ozg'on shahri	<b>G'ozg'on-4</b>
250.	Газгон-5	qurilish toshlari	G'ozg'on shahri	<b>G'ozg'on-5</b>
251.	Газгон-6	qurilish toshlari	G'ozg'on shahri	<b>G'ozg'on-6</b>
252.	Фозгон-Нур	tabiiy pardozebop toshlar	G'ozg'on shahri	<b>G'ozg'on-Nur</b>
253.	Кониқатор I (2008)	tabiiy pardozebop toshlar	G'ozg'on shahri	<b>Koniqator-2008</b>
254.	Контахта II	tabiiy pardozebop toshlar	G'ozg'on shahri	<b>Kontaxta-2</b>
255.	Контахта I (2008)	tabiiy pardozebop toshlar	G'ozg'on shahri	<b>Kontaxta-2008</b>
256.	Карманинское-1	qurilish toshlari	Karmana tumani	<b>Karmana-1</b>

257.	Керменинское II	keramzit xomashyosi	Karmana tumani	<b>Karmana-2</b>
258.	Карманинское-3	sement xomashyosi	Karmana tumani	<b>Karmana-3</b>
259.	Карманинское-4	qurilish toshlari	Karmana tumani	<b>Karmana-4</b>
260.	Карманинское-5	qurilish toshlari	Karmana tumani	<b>Karmana-5</b>
261.	Карманинское-6	qurilish toshlari	Karmana tumani	<b>Karmana-6</b>
262.	Карманинское (1984)	sement xomashyosi	Karmana tumani	<b>Karmana-1984</b>
263.	Майизак	granit koni	Karmana tumani	<b>Moyizak</b>
264.	Майизак-1	qurilish toshlari	Karmana tumani	<b>Moyizak-1</b>
265.	Навоийское-1	qurilish toshlari	Karmana tumani	<b>Navoiy-1</b>
266.	Нурафшон	mineral tola ishlab chiqarish uchun xomashyo	Karmana tumani	<b>Nurafshon</b>
267.	Пардакудук	sement xomashyosi	Karmana tumani	<b>Pardaquduq</b>
268.	Каракатинское	fosforit ma'danlari	Karmana tumani	<b>Qariqota</b>
269.	Темирсай	qurilish qumlari	Karmana tumani	<b>Temirsoy</b>
270.	Терекбобо (2014)	qurilish toshlari	Karmana tumani	<b>Terakbobo-2014</b>
271.	Туратау-2	qurilish toshlari	Karmana tumani	<b>To'ratov-2</b>
272.	Ташаба	gips va angidrit	Karmana tumani	<b>Toshoba</b>
273.	Ташкура	fosforit ma'danlari	Karmana tumani	<b>Toshqo'ra</b>
274.	Таскудукское	qurilish qumlari	Karmana tumani	<b>Toshquduq</b>
275.	Лявлякан-1	mineral tuzlar	Konimex tumani	<b>Lovlikon-1</b>
276.	Лявлякан III	mineral tuzlar	Konimex tumani	<b>Lovlikon-3</b>
277.	Лявлякан V	mineral tuzlar	Konimex tumani	<b>Lovlikon-5</b>
278.	Чуя	qurilish qumlari	Nurota tumani	<b>Chuya</b>
279.	Гулькон	tabiiy pardozbop toshlar	Nurota tumani	<b>Gulkon</b>
280.	Кучатское (1997)	qurilish toshlari	Nurota tumani	<b>Ko'chat-1997</b>
281.	Лянгар II	tabiiy pardozbop toshlar	Nurota tumani	<b>Langar-2</b>
282.	Лянгар III	tabiiy pardozbop toshlar	Nurota tumani	<b>Langar-3</b>
283.	Сулук	tabiiy pardozbop toshlar	Nurota tumani	<b>Suluk</b>
284.	Сулук-2	tabiiy pardozbop toshlar	Nurota tumani	<b>Suluk-2</b>
285.	Сулук-3	tabiiy pardozbop toshlar	Nurota tumani	<b>Suluk-3</b>
286.	Азкамарское II (1983)	g'isht xomashyosi	Qiziltepa tumani	<b>Azkamar-1983</b>
287.	Тудакульское (1984)	g'isht xomashyosi	Qiziltepa tumani	<b>To'dako'l-1984</b>
288.	Тудакульское II (1994)	g'isht xomashyosi	Qiziltepa tumani	<b>To'dako'l-1994</b>
289.	Балакарак	mineral tuzlar	Tomdi tumani	<b>Bolaqaroq</b>
290.	Керизбулак-1	mineral tuzlar	Tomdi tumani	<b>Korizbuloq-1</b>
291.	Керизбулок-2	mineral tuzlar	Tomdi tumani	<b>Korizbuloq-2</b>
292.	Керизбулок-3	mineral tuzlar	Tomdi tumani	<b>Korizbuloq-3</b>
293.	Керизбулок-4	mineral tuzlar	Tomdi tumani	<b>Korizbuloq-4</b>
294.	Акмурд	shisha xomashyosi	Tomdi tumani	<b>Oqmurd</b>
295.	Актакир-1	g'isht xomashyosi	Tomdi tumani	<b>Oqtaqir-1</b>
296.	Кызылкудукское	g'isht xomashyosi	Tomdi tumani	<b>Qizilquduq</b>
297.	Кызылкудукское (1984)	g'isht xomashyosi	Tomdi tumani	<b>Qizilquduq-1984</b>

298.	Сардаринское (1965)	burg'ilash eritmasi uchun gillar	Tomdi tumani	<b>Sardara-1965</b>
299.	Тамди-Актау-1	tabiiy pardozebop toshlar	Tomdi tumani	<b>Tomdi-Oqtov-1</b>
300.	Тамдытау II	g'aramda ishqorlash qurilmasi uchun gillar	Tomdi tumani	<b>Tomditov-2</b>
301.	Джерой-Сардаринское	sement xomashyosi	Tomdi tumani	<b>Yeruy-Sardara</b>
302.	Зарафшанское II	ohak uchun ohaktosh	Tomdi tumani	<b>Zarafshon-2</b>
303.	Зарафшан-4	ohak uchun ohaktosh	Tomdi tumani	<b>Zarafshon-4</b>
304.	АЙТЫМ	bezaktoshlar	Uchquduq tumani	<b>Aytim</b>
305.	Бирюзовое	bezaktoshlar	Uchquduq tumani	<b>Feruzatosh</b>
306.	АЛТЫНТАУ	bezaktoshlar	Uchquduq tumani	<b>Oltintov</b>
307.	Алтынтауское I	qurilish toshlari	Uchquduq tumani	<b>Oltintov-1</b>
308.	Алтынтауское II	kaolin	Uchquduq tumani	<b>Oltintov-2</b>
309.	ОЛТИНТОГ -3	chinni buyumlar ishlab chiqarish uchun xomashyo	Uchquduq tumani	<b>Oltintov-3</b>
310.	Акташ	bezaktoshlar	Uchquduq tumani	<b>Oqtosh</b>
311.	Кокпатасское	tabiiy pardozebop toshlar	Uchquduq tumani	<b>Qoqqatas</b>
312.	Кулантай	shisha xomashyosi	Uchquduq tumani	<b>Qulontov-1</b>
313.	Сарык-Тау	bezaktoshlar	Uchquduq tumani	<b>Sariqtov</b>
314.	Турбай-II	bezaktoshlar	Uchquduq tumani	<b>Turboy-2</b>
315.	Тузбулок	mineral tuzlar	Uchquduq tumani	<b>Tuzbuloq</b>
316.	Тузбулок-2	mineral tuzlar	Uchquduq tumani	<b>Tuzbuloq-2</b>
317.	Тузкудукское	mineral tuzlar	Uchquduq tumani	<b>Tuzquduq</b>
318.	Узункудук	qurilish qumlari	Uchquduq tumani	<b>Uzunquduq</b>
319.	Джаман-Каскыр	bezaktoshlar	Uchquduq tumani	<b>Yomonqashqir</b>
320.	Лянгар стоун	tabiiy pardozebop toshlar	Xatirchi tumani	<b>Langar</b>
321.	Оксокол ота	tabiiy pardozebop toshlar	Xatirchi tumani	<b>Oqsoqolota</b>
322.	Курасай	tabiiy pardozebop toshlar	Xatirchi tumani	<b>Qo'rasoy-1</b>
323.	Курасай-2	tabiiy pardozebop toshlar	Xatirchi tumani	<b>Qo'rasoy-2</b>
324.	Курасай-3	tabiiy pardozebop toshlar	Xatirchi tumani	<b>Qo'rasoy-3</b>
325.	Курасай-4	tabiiy pardozebop toshlar	Xatirchi tumani	<b>Qo'rasoy-4</b>
326.	Курасай-5	qurilish toshlari	Xatirchi tumani	<b>Qo'rasoy-5</b>
327.	Курасай-6	tabiiy pardozebop toshlar	Xatirchi tumani	<b>Qo'rasoy-6</b>
328.	Курасай-7	tabiiy pardozebop toshlar	Xatirchi tumani	<b>Qo'rasoy-7</b>
329.	Курасой-8	tabiiy pardozebop toshlar	Xatirchi tumani	<b>Qo'rasoy-8</b>
330.	Курасай-5	tabiiy pardozebop toshlar	Xatirchi tumani	<b>Qo'rasoy-9</b>
331.	Тегирмон	tabiiy pardozebop toshlar	Xatirchi tumani	<b>Tegirmon</b>
332.	Зарбанд-2	tabiiy pardozebop toshlar	Xatirchi tumani	<b>Zarband-2</b>
<b>Samarqand viloyati</b>				
333.	Булунгур	g'isht xomashyosi	Bulung'ur tumani	<b>Bulung'ur</b>
334.	Булунгур-1	g'isht xomashyosi	Bulung'ur tumani	<b>Bulung'ur-1</b>
335.	Фармон-тепа	g'isht xomashyosi	Bulung'ur tumani	<b>Farmontepa</b>
336.	Уртабулак-1	g'isht xomashyosi	Bulung'ur tumani	<b>O'rtabuloq</b>

337.	Иштихон II	g'isht xomashyosi	Ishtixon tumani	<b>Ishtixon-2</b>
338.	Кульата-1	ohak uchun ohaktosh	Ishtixon tumani	<b>Qulota-1</b>
339.	Кульата-II (1997)	tabiiy pardozbop toshlar	Ishtixon tumani	<b>Qulota-1997</b>
340.	Джамбай-1	g'isht xomashyosi	Jomboy tumani	<b>Jomboy-1</b>
341.	Джамбай-2	g'isht xomashyosi	Jomboy tumani	<b>Jomboy-2</b>
342.	Пайарыкское-1	g'isht xomashyosi	Jomboy tumani	<b>Payariq-1</b>
343.	Андак	tabiiy pardozbop toshlar	Kattaqo'rg'on tumani	<b>Andoq</b>
344.	Октош-2 (Южный)	sement xomashyosi	Nurobod tumani	<b>Janubiy Oqtosh</b>
345.	Жаркудук	g'isht xomashyosi	Nurobod tumani	<b>Jarquduq</b>
346.	Джаркудук-1	tabiiy pardozbop toshlar	Nurobod tumani	<b>Jarquduq-1</b>
347.	Яркудукское (1969)	qurilish qumlari	Nurobod tumani	<b>Jarquduq-1969</b>
348.	Джам-1	dala shpati	Nurobod tumani	<b>Jom-1</b>
349.	Джам II	tabiiy pardozbop toshlar	Nurobod tumani	<b>Jom-2</b>
350.	Джамское (1986)	qurilish toshlari	Nurobod tumani	<b>Jom-1986</b>
351.	Каттакурганское (1978)	keramika uchun gillar	Nurobod tumani	<b>Kattaqo'rg'on-1978</b>
352.	Агалык-Сазаганское (1984)	qurilish qumlari	Nurobod tumani	<b>Ohalik-Sazag'on</b>
353.	Олтин курган	qurilish toshlari	Nurobod tumani	<b>Oltingo'rgon</b>
354.	Октош-1	sement xomashyosi	Nurobod tumani	<b>Oqtosh-1</b>
355.	Акташ-2	qurilish toshlari	Nurobod tumani	<b>Oqtosh-2</b>
356.	Акташ-3	qurilish toshlari	Nurobod tumani	<b>Oqtosh-3</b>
357.	Акташ-4	qurilish toshlari	Nurobod tumani	<b>Oqtosh-4</b>
358.	Акташ-5	qurilish toshlari	Nurobod tumani	<b>Oqtosh-5</b>
359.	Овхона	sement xomashyosi	Nurobod tumani	<b>Ovxona</b>
360.	Овхона (1981)	ohak uchun ohaktosh	Nurobod tumani	<b>Ovxona-1981</b>
361.	Кызылсай	sement xomashyosi	Nurobod tumani	<b>Qizilsoy</b>
362.	Кызылсайское (2009)	sement xomashyosi	Nurobod tumani	<b>Qizilsoy-2009</b>
363.	Кунгуртау-1	gips	Nurobod tumani	<b>Qo'ng'irtov-1</b>
364.	Кунгуртау-2	gips	Nurobod tumani	<b>Qo'ng'irtov-2</b>
365.	Кунгуртау-4	gips	Nurobod tumani	<b>Qo'ng'irtov-4</b>
366.	Сарикуль	ferrosilitsiy ishlab chiqarish xomashyosi	Nurobod tumani	<b>Sariko'l</b>
367.	Сазаган-1	sement xomashyosi	Nurobod tumani	<b>Sazag'on-1</b>
368.	Сазаган-1	qurilish qumlari	Nurobod tumani	<b>Sazag'on-1</b>
369.	Тепакуль	qurilish qumlari	Nurobod tumani	<b>Tepako'l</b>
370.	Тутли	gips	Nurobod tumani	<b>Tutli</b>
371.	Зиадин-1	qurilish toshlari	Nurobod tumani	<b>Ziyovuddin-1</b>
372.	Чингали-1	qurilish toshlari	Nurobod tumani	<b>Chingali-1</b>
373.	Учтепа	g'isht xomashyosi	Pastdarg'om tumani	<b>Uchtepa</b>
374.	Чархин	g'isht xomashyosi	Pastdarg'om tumani	<b>Charxin</b>
375.	Чархин-1	g'isht xomashyosi	Pastdarg'om tumani	<b>Charxin-1</b>

376.	Чархин-2	g'isht xomashyosi	Pastdarg'om tumani	<b>Charxin-2</b>
377.	Гулобод	g'isht xomashyosi	Paxtachi tumani	<b>Gulobod</b>
378.	Хумо	qurilish qumlari	Paxtachi tumani	<b>Humo</b>
379.	Карноб	gips	Paxtachi tumani	<b>Qarnob</b>
380.	Карнаб-1	qurilish toshlari	Paxtachi tumani	<b>Qarnob-1</b>
381.	Карнаб-2	qurilish toshlari	Paxtachi tumani	<b>Qarnob-2</b>
382.	Курганча -1	gips	Paxtachi tumani	<b>Qo'rg'oncha-1</b>
383.	Курганча-2	gips	Paxtachi tumani	<b>Qo'rg'oncha-2</b>
384.	Курганча-3	gips	Paxtachi tumani	<b>Qo'rg'oncha-3</b>
385.	Курганча-4	gips	Paxtachi tumani	<b>Qo'rg'oncha-4</b>
386.	Курганча-5	gips	Paxtachi tumani	<b>Qo'rg'oncha-5</b>
387.	Курганча-6	gips	Paxtachi tumani	<b>Qo'rg'oncha-6</b>
388.	Курганча-7	gips	Paxtachi tumani	<b>Qo'rg'oncha-7</b>
389.	Янгиравот	g'isht xomashyosi	Payariq tumani	<b>Yangiravot</b>
390.	Зиадин	shisha xomashyosi	Paxtachi tumani	<b>Ziyovuddin</b>
391.	Зиадин	qurilish qumlari	Paxtachi tumani	<b>Ziyovuddin-2</b>
392.	Зиадин 1	qurilish qumlari	Paxtachi tumani	<b>Ziyovuddin-3</b>
393.	Зиадин-1	g'isht xomashyosi	Paxtachi tumani	<b>Ziyovuddin-4</b>
394.	Зиатдинское-1984	qurilish toshlari	Paxtachi tumani	<b>Ziyovuddin-1984</b>
395.	Мисит (2015)	g'isht xomashyosi	Paxtachi tumani	<b>Mesit-2015</b>
396.	Октепа	tabiiy pardozeb toshlar	Qo'shrabot tumani	<b>Oqtepa</b>
397.	Октепа-1	g'isht xomashyosi	Qo'shrabot tumani	<b>Oqtepa-1</b>
398.	Шамолли	tabiiy pardozeb toshlar	Qo'shrabot tumani	<b>Shamolli</b>
399.	Капакульское (1984)	qurilish qumlari	Samarqand tumani	<b>Kapako'l-1984</b>
400.	Миранкуль-1	sement xomashyosi	Samarqand tumani	<b>Mironko'l-1</b>
401.	Миранкуль-2	sement xomashyosi	Samarqand tumani	<b>Mironko'l-2</b>
402.	Миранкуль-3	sement xomashyosi	Samarqand tumani	<b>Mironko'l-3</b>
403.	Агалык	qurilish qumlari	Samarqand tumani	<b>Ohalik</b>
404.	Охаклик-1	qurilish toshlari	Samarqand tumani	<b>Ohalik-1</b>
405.	Агалыкское II	sement xomashyosi	Samarqand tumani	<b>Ohalik-2</b>
406.	Оқбўйра	ferrosilitsiy ishlab chiqarish xomashyosi	Samarqand tumani	<b>Oqbo'yra</b>
407.	Кызыл	qurilish qumlari	Samarqand tumani	<b>Qizil</b>
408.	Ваткан	g'isht xomashyosi	Urgut tumani	<b>Vatkan</b>
409.	Севасай-1	tabiiy pardozeb toshlar	Urgut tumani	<b>Sevasoy-1</b>
410.	Севасай-2	tabiiy pardozeb toshlar	Urgut tumani	<b>Sevasoy-2</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>				
411.	Боёвут	g'isht xomashyosi	Boyovut tumani	<b>Boyovut</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>				
412.	Бандыханское	keramzit xomashyosi	Bandixon tumani	<b>Bandixon</b>
413.	Байсунское	g'isht xomashyosi	Boysun tumani	<b>Boysun-1</b>
414.	Байсун-II	g'isht xomashyosi	Boysun tumani	<b>Boysun-2</b>
415.	Дербент-1	gips va angidrit	Boysun tumani	<b>Darband-1</b>
416.	Дербент-II	gips va angidrit	Boysun tumani	<b>Darband-2</b>

417.	Шуроб-1	gips va angidrit	Boysun tumani	<b>Sho'rob-1</b>
418.	Шуроб-2	gips va angidrit	Boysun tumani	<b>Sho'rob-2</b>
419.	Шуроб-3	gips va angidrit	Boysun tumani	<b>Sho'rob-3</b>
420.	Сайробское (1984)	tabiiy pardozbop toshlar	Boysun tumani	<b>Sayrob-1984</b>
421.	Туда	shisha xomashyosi	Boysun tumani	<b>To'da</b>
422.	Ободон	g'isht xomashyosi	Denov tumani	<b>Obodon</b>
423.	Ободон-1	g'isht xomashyosi	Denov tumani	<b>Obodon-1</b>
424.	Джаркурганское (1978)	g'isht xomashyosi	Jarqo'rg'on tumani	<b>Jarqo'rg'on-1978</b>
425.	Хаудаг	sement xomashyosi	Jarqo'rg'on tumani	<b>Xovdog'</b>
426.	Хаудагское (1982)	g'isht xomashyosi	Jarqo'rg'on tumani	<b>Xovdog'-1982</b>
427.	Халқобод-1	g'isht xomashyosi	Muzrabot tumani	<b>Xalqobod-1</b>
428.	Халқобод-2	g'isht xomashyosi	Muzrabot tumani	<b>Xalqobod-2</b>
429.	Лангар	g'isht xomashyosi	Sariosiyo tumani	<b>Langar</b>
430.	Сары-Ассия (1975)	qum-shag'al aralashmasi	Sariosiyo tumani	<b>Sariosiyo-1975</b>
431.	Шурчи	g'isht xomashyosi	Sho'rchi tumani	<b>Sho'rchi</b>
432.	Шурчи-1	g'isht xomashyosi	Sho'rchi tumani	<b>Sho'rchi-1</b>
<b>Toshkent viloyati</b>				
433.	Ангрен-1	g'isht xomashyosi	Angren shahri	<b>Angren-1</b>
434.	Ангренское (1967)	flyusli ohaktosh	Angren shahri	<b>Angren-1967</b>
435.	Ангренское (1988)	g'isht xomashyosi	Angren shahri	<b>Angren-1988</b>
436.	Ангренское (1992)	tabiiy pardozbop toshlar	Angren shahri	<b>Angren-1992</b>
437.	Джигиристан-1	sement xomashyosi	Angren shahri	<b>Jigariston-1</b>
438.	Джигиристан-2	sement xomashyosi	Angren shahri	<b>Jigariston-2</b>
439.	Джигиристан-3	sement xomashyosi	Angren shahri	<b>Jigariston-3</b>
440.	Апартак	kaolin	Angren shahri	<b>Obpartak</b>
441.	Ниш-Баш	sement xomashyosi	Angren shahri	<b>Nishbosh</b>
442.	Думалак-2	g'isht xomashyosi	Bo'stonliq tumani	<b>Dumalak-2</b>
443.	Гулистанское-1	g'isht xomashyosi	Chinoz tumani	<b>Guliston-1</b>
444.	Алмазар-1	g'isht xomashyosi	Chinoz tumani	<b>Olmazor-1</b>
445.	Ангренское	kaolin	Ohangaron tumani	<b>Angren</b>
446.	Ақча-1	tabiiy pardozbop toshlar	Ohangaron tumani	<b>Aqcha-1</b>
447.	Ақчинское (Алмалықское) (1957)	qurilish toshlari	Ohangaron tumani	<b>Aqcha-1957</b>
448.	Ақчинское (1966)	tabiiy pardozbop toshlar	Ohangaron tumani	<b>Aqcha-1966</b>
449.	Багара-1	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Bahorikor-1</b>
450.	Багара-2	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Bahorikor-2</b>
451.	Багара-3	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Bahorikor-3</b>
452.	Багара-4	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Bahorikor-4</b>
453.	Багара-5	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Bahorikor-5</b>
454.	Беляуты II	tabiiy pardozbop toshlar	Ohangaron tumani	<b>Belavut-2</b>
455.	Беляуты III	tabiiy pardozbop toshlar	Ohangaron tumani	<b>Belavut-3</b>
456.	Беляуты I (1992)	tabiiy pardozbop	Ohangaron tumani	<b>Belavut-1992</b>
457.	Болгалы	devorbop toshlar	Ohangaron tumani	<b>Bolg'ali</b>

458.	Болгали-1	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Bolg'ali-1</b>
459.	Болгалы-2	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Bolg'ali-2</b>
460.	Болгали-3	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Bolg'ali-3</b>
461.	Болгали-4	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Bolg'ali-4</b>
462.	Болгали-5	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Bolg'ali-5</b>
463.	Болгали-6	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Bolg'ali-6</b>
464.	Болгали-7	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Bolg'ali-7</b>
465.	Болгали-8	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Bolg'ali-8</b>
466.	Болгали-4	ohak uchun ohaktosh	Ohangaron tumani	<b>Bolg'ali-9</b>
467.	Дустлик	qurilish toshlari	Ohangaron tumani	<b>Do'stlik</b>
468.	Дустлик-1	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Do'stlik-1</b>
469.	Дустлик-3	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Do'stlik-3</b>
470.	Дустлик-4	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Do'stlik-4</b>
471.	Дустлик-5	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Do'stlik-5</b>
472.	Дустлик-6	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Do'stlik-6</b>
473.	Дустлик-7	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Do'stlik-7</b>
474.	Дустлик-8	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Do'stlik-8</b>
475.	Дустлик-9	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Do'stlik-9</b>
476.	Дустлик (2013)	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Do'stlik-2013</b>
477.	Эйвалек-1	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Eyvalak-1</b>
478.	Эйвалек-2	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Eyvalak-2</b>
479.	Эйвалик-3	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Eyvalak-3</b>
480.	Эйвалик-4	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Eyvalak-4</b>
481.	Эйвалик-5	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Eyvalak-5</b>
482.	Эйвалик-6	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Eyvalak-6</b>
483.	Гушсайское-1	sement xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Go'shsoy-1</b>
484.	Охангарон-1	ohak uchun ohaktosh	Ohangaron tumani	<b>Ohangaron-1</b>
485.	Ахангаранское-2	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Ohangaron-2</b>
486.	Ахангаранское-3	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Ohangaron-3</b>
487.	Ахангаранское-1	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Ohangaron-4</b>
488.	Октош	sement xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Oqtosh</b>
489.	Ургаз	bezaktoshlar	Ohangaron tumani	<b>O'rg'oz</b>
490.	Ургаз-1	sement xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>O'rg'oz-1</b>
491.	Ургаз-2	sement xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>O'rg'oz-2</b>
492.	Ургаз-3	sement xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>O'rg'oz-3</b>
493.	Ургаз-4	sement xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>O'rg'oz-4</b>
494.	Ургаз-5	sement xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>O'rg'oz-5</b>
495.	Ургазское (1965,1982)	sement xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>O'rg'oz-1982</b>
496.	Ойбулак	hayvon va qushlar uchun mineral ozuqa xomashyo	Ohangaron tumani	<b>Oybuloq</b>
497.	Озодлик	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Ozodlik</b>
498.	Кайнар	sement xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Qaynar</b>
499.	Кайнарское (2009)	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Qaynar-2009</b>
500.	Кайнарсай	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Qaynarsoy</b>

501.	Қорахтой-1	sement xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Qoraxitoy-1</b>
502.	Карахтайское (1962, 1965) (известняк)	sement xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Qoraxitoy-1965</b>
503.	Карахтайское (1977)	sement xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Qoraxitoy-1977</b>
504.	Карахтайское (2015)	sement xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Qoraxitoy-2015</b>
505.	Кушрабад	barit	Ohangaron tumani	<b>Qo'shrabot</b>
506.	Шавазсайское (1974)	sement xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Shovvozsoy-1974</b>
507.	Шавазсайское (1988)	sement xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Shovvozsoy-1988</b>
508.	Ташсай	qurilish toshlari	Ohangaron tumani	<b>Toshsoy</b>
509.	Тоштепа-1	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Toshtepa-1</b>
510.	Убайдское-1	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Ubay-1</b>
511.	Увак (2005)	sement xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Uvoq-2005</b>
512.	Увак – 2 (2014)	ohak uchun ohaktosh	Ohangaron tumani	<b>Uvoq-2014</b>
513.	Хужакургон-5	qurilish qumlari	Ohangaron tumani	<b>Xo'jaqo'rg'on-5</b>
514.	Янгихаят-3	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Yangihayot-1</b>
515.	Янгихаят-2	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Yangihayot-2</b>
516.	Болгали-3	qurilish toshlari	O'rta Chirchiq tumani	<b>Bolg'ali-3</b>
517.	Ташморе	qurilish qumlari	O'rta Chirchiq tumani	<b>Toshkent dengizi</b>
518.	Кораманас-1	g'isht xomashyosi	Parkent tumani	<b>Qoramanas-1</b>
519.	Кораманас-2	g'isht xomashyosi	Parkent tumani	<b>Qoramanas-2</b>
520.	Кызылташ	tabiiy pardozbop toshlar	Parkent tumani	<b>Qiziltosh</b>
521.	Кутырбулак	sement xomashyosi	Parkent tumani	<b>Qo'tirbuloq</b>
522.	Саукбулакское (1975)	ohak uchun ohaktosh	Parkent tumani	<b>Sovuqbuloq-1975</b>
523.	Тангилсай	barit	Piskent tumani	<b>Tangilsoy</b>
524.	Тангильсай-1	barit	Piskent tumani	<b>Tangilsoy-1</b>
525.	Тангильсай-2	barit	Piskent tumani	<b>Tangilsoy-2</b>
526.	Тангильсай	qurilish toshlari	Piskent tumani	<b>Tangilsoy-1</b>
527.	Мархамат-1	g'isht xomashyosi	Piskent tumani	<b>Marhamat-1</b>
528.	Пскентское — III	g'isht xomashyosi	Piskent tumani	<b>Piskent-3</b>
529.	Пскент VI	g'isht xomashyosi	Piskent tumani	<b>Piskent-4</b>
530.	Пскент- IV (1991)	g'isht xomashyosi	Piskent tumani	<b>Piskent-1991</b>
531.	Боз-Сув-1	g'isht xomashyosi	Yangiyo'l tumani	<b>Bo'zsuv-1</b>
532.	Боз-Сув 2	g'isht xomashyosi	Yangiyo'l tumani	<b>Bo'zsuv-2</b>
533.	Боз-сув-3	g'isht xomashyosi	Yangiyo'l tumani	<b>Bo'zsuv-3</b>
534.	Арганчи	g'isht xomashyosi	Yuqori Chirchiq tumani	<b>Arg'onchi</b>
535.	Арганчи-1	g'isht xomashyosi	Yuqori Chirchiq tumani	<b>Arg'onchi-1</b>
536.	Аргончи-2	g'isht xomashyosi	Qibray tumani	<b>Arg'onchi-2</b>
537.	Наврзское-1	g'isht xomashyosi	Yuqori Chirchiq tumani	<b>Navro'z-1</b>
538.	Наврзское-2	g'isht xomashyosi	Yuqori Chirchiq tumani	<b>Navro'z-2</b>

539.	Пскент-V	g'isht xomashyosi	Yuqori Chirchiq tumani	<b>Piskent-5</b>
540.	Сохибкор I	g'isht xomashyosi	Yuqori Chirchiq tumani	<b>Sohibkor-1</b>
541.	Сохибкор-2	g'isht xomashyosi	Yuqori Chirchiq tumani	<b>Sohibkor-2</b>
542.	Сохибкор 3	g'isht xomashyosi	Yuqori Chirchiq tumani	<b>Sohibkor-3</b>
543.	Сохибкор-7	g'isht xomashyosi	Yuqori Chirchiq tumani	<b>Sohibkor-4</b>
544.	Сохибкор- II (2014)	g'isht xomashyosi	Yuqori Chirchiq tumani	<b>Sohibkor-2014</b>
<b>Farg'ona viloyati</b>				
545.	Янгиабдское (1997)	qurilish qumlari	Dang'ara tumani	<b>Yangiobod-1997</b>
546.	Аввал	sement xomashyosi	Farg'ona tumani	<b>Avval</b>
547.	Аввал-1	g'isht xomashyosi	Farg'ona tumani	<b>Avval-1</b>
548.	Хакимобод	g'isht xomashyosi	Farg'ona tumani	<b>Hakimobod</b>
549.	Лагон	to'g'onlar qurish uchun xomashyo	Farg'ona tumani	<b>Log'on</b>
550.	Логон-1	keramika uchun gillar	Farg'ona tumani	<b>Log'on-1</b>
551.	Логонское	hayvon va qushlar uchun mineral ozuqa xomashyo	Farg'ona tumani	<b>Log'on-2</b>
552.	Логонское-1	hayvon va qushlar uchun mineral ozuqa xomashyo	Farg'ona tumani	<b>Log'on-3</b>
553.	Логон (2015)	g'isht xomashyosi	Farg'ona tumani	<b>Log'on-2015</b>
554.	Чимионское	keramzit xomashyosi	Farg'ona tumani	<b>Chimyon</b>
555.	Чимионское (1989)	g'isht xomashyosi	Farg'ona tumani	<b>Chimyon-1989</b>
556.	Убойобод	to'g'onlar qurish uchun xomashyo	Farg'ona tumani	<b>Ubayobod</b>
557.	Малбуд	g'isht xomashyosi	So'x tumani	<b>Malbut</b>
558.	Малбуд-1	sement xomashyosi	So'x tumani	<b>Malbut-1</b>
559.	Центрально-Ферганское	to'g'onlar qurish uchun xomashyo	Yozyovon tumani	<b>Markaziy Farg'ona</b>
560.	Центрально-Ферганское (2012)	to'g'onlar qurish uchun xomashyo	Yozyovon tumani	<b>Markaziy Farg'ona-2012</b>
561.	Ачисув-1	ohak uchun ohaktosh	O'zbekiston tumani	<b>Achchisuv-1</b>
562.	Ачисув-2	ohak uchun ohaktosh	O'zbekiston tumani	<b>Achchisuv-2</b>
563.	Ачисув-3	sement xomashyosi	O'zbekiston tumani	<b>Achchisuv-3</b>
564.	Ачисув-4	gips va angidrit	O'zbekiston tumani	<b>Achchisuv-4</b>
565.	Камышбашинское	keramika uchun gillar	O'zbekiston tumani	<b>Qamishboshi</b>
566.	Камышбаши-1	gips va angidrit	O'zbekiston tumani	<b>Qamishboshi-1</b>

567.	Камышбаши-2	gips va angidrit	O'zbekiston tumani	<b>Qamishboshi-2</b>
568.	Камышбаши-3	gips va angidrit	O'zbekiston tumani	<b>Qamishboshi-3</b>
569.	Камышбаши-4	gips va angidrit	O'zbekiston tumani	<b>Qamishboshi-4</b>
570.	Камышбаши-5	gips va angidrit	O'zbekiston tumani	<b>Qamishboshi-5</b>
571.	Камышбаши	hayvon va qushlar uchun mineral ozuqa xomashyo	O'zbekiston tumani	<b>Qamishboshi-6</b>
572.	Камышбаши-7	gips va angidrit	O'zbekiston tumani	<b>Qamishboshi-7</b>
573.	Камышбашинское (1981)	mineral bo'yoqlar	O'zbekiston tumani	<b>Qamishboshi-1981</b>
574.	Камышбашинское (1983)	g'isht xomashyosi	O'zbekiston tumani	<b>Qamishboshi-1983</b>
575.	Курувчи-1	gips va angidrit	O'zbekiston tumani	<b>Quruvchi-1</b>
576.	Курувчи-2	sement xomashyosi	O'zbekiston tumani	<b>Quruvchi-2</b>
577.	Курувчи-3	sement xomashyosi	O'zbekiston tumani	<b>Quruvchi-3</b>
578.	Курувчи-4	sement xomashyosi	O'zbekiston tumani	<b>Quruvchi-4</b>
579.	Курувчи-5	gips va angidrit	O'zbekiston tumani	<b>Quruvchi-5</b>
580.	Курувчи-6	sement xomashyosi	O'zbekiston tumani	<b>Quruvchi-6</b>
581.	Курувчи-7	sement xomashyosi	O'zbekiston tumani	<b>Quruvchi-7</b>
582.	Курувчи-8	sement xomashyosi	O'zbekiston tumani	<b>Quruvchi-8</b>
583.	Курувчи-9	sement xomashyosi	O'zbekiston tumani	<b>Quruvchi-9</b>
584.	Курувчи-2	gips va angidrit	O'zbekiston tumani	<b>Quruvchi-10</b>
585.	Курувчи-4	gips va angidrit	O'zbekiston tumani	<b>Quruvchi-11</b>
586.	Рапкон-1	hayvon va qushlar uchun mineral ozuqa xomashyo	O'zbekiston tumani	<b>Rapqon-1</b>
587.	Шорсув	sement xomashyosi	O'zbekiston tumani	<b>Sho'rsuv</b>
588.	Шорсув-1	sement xomashyosi	O'zbekiston tumani	<b>Sho'rsuv-1</b>
589.	Шорсув-2	sement xomashyosi	O'zbekiston tumani	<b>Sho'rsuv-2</b>
590.	Шорсув-3	sement xomashyosi	O'zbekiston tumani	<b>Sho'rsuv-3</b>

591.	Шорсу-1	ohak uchun ohaktosh	O'zbekiston tumani	<b>Sho'rsuv-4</b>
592.	Шорсу-2	ohak uchun ohaktosh	O'zbekiston tumani	<b>Sho'rsuv-5</b>
593.	Шорсуйское (1973)	gil	O'zbekiston tumani	<b>Sho'rsuv-1973</b>
594.	Шорсуйское (1983)	g'isht xomashyosi	O'zbekiston tumani	<b>Sho'rsuv-1983</b>
595.	Жанубий Какыр	to'g'onlar qurish uchun xomashyo	Uchko'prik tumani	<b>Janubiy Qaqir</b>
<b>Xorazm viloyati</b>				
596.	Каракумское (1997)	qurilish qumlari	Urganch tumani	<b>Qoraqum-1997</b>
597.	Хивинское	qurilish qumlari	Xiva tumani	<b>Xiva</b>
598.	Хивинское (1988)	qurilish qumlari	Xiva tumani	<b>Xiva-1988</b>
599.	Оқ қамиш	g'isht xomashyosi	Hazorasp tumani	<b>Oqqamish</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>				
600.	Дехканабад	shisha xomashyosi	Dehqonobod tumani	<b>Dehqonobod</b>
601.	Дехканабадское (1956, 2007)	shisha xomashyosi	Dehqonobod tumani	<b>Dehqonobod-1956</b>
602.	Дехканабадское (2007)	devorbop toshlar	Dehqonobod tumani	<b>Dehqonobod-2007</b>
603.	Гузарское (1983)	g'isht xomashyosi	G'uzor tumani	<b>G'uzor-1983</b>
604.	Шерали	g'isht xomashyosi	G'uzor tumani	<b>Sherali</b>
605.	Богишамол	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Bog'ishamol</b>
606.	Хасантепа-1	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Hasantepa-1</b>
607.	Хасантепа-2	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Hasantepa-2</b>
608.	Хасантепа-3	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Hasantepa-3</b>
609.	Хасантепа-4	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Hasantepa-4</b>
610.	Хасантепа-5	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Hasantepa-5</b>
611.	Искана (1982)	tabiiy pardozeb toshlar	Kitob tumani	<b>Iskana-1982</b>
612.	Китабское (1983)	qurilish qumi	Kitob tumani	<b>Kitob-1983</b>
613.	Навруз-2	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Navro'z-2</b>
614.	Кишлик-1	g'isht xomashyosi	Kitob tumani	<b>Qishliq-1</b>
615.	Каратюбинское-1	sement xomashyosi	Kitob tumani	<b>Qoratepa-1</b>
616.	Кургандарьинское (2009)	tabiiy pardozeb toshlar	Kitob tumani	<b>Qurigandaryo-2009</b>
617.	Сарой-1	g'isht xomashyosi	Kitob tumani	<b>Saroy-1</b>
618.	Тупчок-2	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>To'pchoq-2</b>
619.	Варганза	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Varganza</b>
620.	Хайрабад-1	g'isht xomashyosi	Kitob tumani	<b>Xayrobod</b>
621.	Хонака-1	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Xonaqo-1</b>
622.	Хонака 2	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Xonaqo-2</b>
623.	Хонака-3	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Xonaqo-3</b>
624.	Хонака-4	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Xonaqo-4</b>
625.	Хонака-5	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Xonaqo-5</b>

626.	Ханака-6	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Xonaqo-6</b>
627.	Хонака-7	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Xonaqo-7</b>
628.	Хонака-8	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Xonaqo-8</b>
629.	Хонака-9	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Xonaqo-9</b>
630.	Хонака-10	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Xonaqo-10</b>
631.	Хонака-11	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Xonaqo-11</b>
632.	Хонака-12	sement xomashyosi	Kitob tumani	<b>Xonaqo-12</b>
633.	Янгибог	g'isht xomashyosi	Kitob tumani	<b>Yangibog'</b>
634.	Окташское (2008)	mineral bo'yoqlar	Kitob tumani	<b>Oqtosh-2008</b>
635.	Джам	dala shpati xomashyosi va vollastonit	Ko'kdala tumani	<b>Jom</b>
636.	Кунгуртау II (1972)	keramika uchun gillar	Ko'kdala tumani	<b>Qo'ng'irtog'-1972</b>
637.	Шохсувор (2015)	g'isht xomashyosi	Muborak tumani	<b>Shohsuvor-2015</b>
638.	Нишанское (1968)	qurilish qumlari	Nishon tumani	<b>Nishon-1968</b>
639.	Лангар-1	gips va angidrit	Qamashi tumani	<b>Langar-1</b>
640.	Лангар-2	gips va angidrit	Qamashi tumani	<b>Langar-2</b>
641.	Акдагана	shisha xomashyosi shisha xomashyosi	Qamashi tumani	<b>Oqdahana</b>
642.	Филон	qurilish toshlari	Shahrisabz tumani	<b>G'ilon</b>
643.	Шахрисабз	g'isht xomashyosi	Shahrisabz tumani	<b>Shahrisabz</b>
644.	Чунгурак	qurilish toshlari	Shahrisabz tumani	<b>Chungurak</b>
645.	Мустакиллик	g'isht xomashyosi	Yakkabog' tumani	<b>Mustaqillik</b>
646.	Угин	shisha xomashyosi	Yakkabog' tumani	<b>O'g'in</b>
647.	Катагон-1	g'isht xomashyosi	Yakkabog' tumani	<b>Qatag'on-1</b>
648.	Катагон-2	g'isht xomashyosi	Yakkabog' tumani	<b>Qatag'on-2</b>
649.	Кайрагоч-1	g'isht xomashyosi	Yakkabog' tumani	<b>Qayrag'och-1</b>
650.	Кайрагоч-2	g'isht xomashyosi	Yakkabog' tumani	<b>Qayrag'och-2</b>
651.	Кайрагоч-3	g'isht xomashyosi	Yakkabog' tumani	<b>Qayrag'och-3</b>
652.	Шов	g'isht xomashyosi	Yakkabog' tumani	<b>Shov</b>
653.	Шов-1	g'isht xomashyosi	Yakkabog' tumani	<b>Shov-1</b>
654.	Яккабог-3	g'isht xomashyosi	Yakkabog' tumani	<b>Yakkabog'</b>
655.	Галлачи	g'isht xomashyosi	Chiroqchi tumani	<b>G'allachi</b>
656.	Нушкент	g'isht xomashyosi	Chiroqchi tumani	<b>Nushkent</b>
657.	Калкама-1	qurilish toshlari	Chiroqchi tumani	<b>Qalqama-1</b>
658.	Чиракчи	g'isht xomashyosi	Chiroqchi tumani	<b>Chiroqchi</b>
659.	Чиялин-1	shisha xomashyosi	Chiroqchi tumani	<b>Chiyal-1</b>
660.	Чиялинское (1973)	qurilish qumlari	Chiroqchi tumani	<b>Chiyal-1973</b>
<b>Rudali foydali qazilma konlari</b>				
661.	Суграли	Uran koni	Tomdi tumani	<b>Sugrali</b>
662.	Жанубий Суграли	Uran koni	Konimex tumani	<b>Janubiy Sugrali</b>
<b>Uglevodorod konlari</b>				
663.	Феруза	Neft	Buxoro-Xiva hududi	<b>Feruza</b>

Vazirlar Mahkamasining  
2026-yil 9 -yanvardagi 5 -son qaroriga  
2-ilova

**Yangi nom berilgan foydali qazilma konlari nomlari**  
**RO‘YXATI**

T/r	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning (foydali qazilma kon) turi	Geografik obyekt joylashgan hudud	Geografik obyektning yangi nomi
<b>Noruda foydali qazilma konlari</b>				
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>				
1.	Зинельбулакское	talk, talk toshi	Beruniy tumani	<b>Sulton Uvaysbobo</b>
2.	Куянчик-2	qurilish toshlari	Qorao‘zak tumani	<b>Amudaryo-2</b>
3.	Куянчик-3	qurilish toshlari	Qorao‘zak tumani	<b>Amudaryo-3</b>
4.	Куянчик-5	qurilish toshlari	Qorao‘zak tumani	<b>Amudaryo-5</b>
5.	Куянчик-6	qurilish toshlari	Qorao‘zak tumani	<b>Amudaryo-6</b>
6.	Дунё	qurilish toshlari	Qorao‘zak tumani	<b>Jumurtov</b>
7.	Тумрюкское	mirabilit koni	Qo‘ng‘irot tumani	<b>Qo‘ng‘irottuz</b>
8.	Фианит	qurilish toshlari	Qorao‘zak tumani	<b>Qoratosh</b>
<b>Andijon viloyati</b>				
9.	Дамба	sement xomashyosi	Marhamat tumani	<b>Mingtepa</b>
10.	Дамба-1	sement xomashyosi	Marhamat tumani	<b>Mingtepa-1</b>
11.	Дамба-2	sement xomashyosi	Marhamat tumani	<b>Mingtepa-2</b>
12.	Дамба-3	sement xomashyosi	Marhamat tumani	<b>Mingtepa-3</b>
13.	Дамба-4	sement xomashyosi	Marhamat tumani	<b>Mingtepa-4</b>
14.	Мархамат	sement xomashyosi	Marhamat tumani	<b>Терақир</b>
<b>Buxoro viloyati</b>				
15.	Жингон	g‘isht xomashyosi	Buxoro tumani	<b>G‘ishtkon</b>
16.	Жанкелди	qurilish toshlari	Peshku tumani	<b>Jing‘illi</b>
17.	Бузачи	g‘isht xomashyosi	Qorovulbozor tumani	<b>Qorovulbozor-4</b>
18.	Жонгелди	sement xomashyosi	Shofirkon tumani	<b>Jing‘illi-1</b>
<b>Jizzax viloyati</b>				
19.	Диабаз-1	qurilish toshlari	Forish tumani	<b>Yangiqishloq</b>
20.	Ламакин	qurilish qumlari	G‘allaorol tumani	<b>Qoraqo‘yli</b>
21.	Тимиразевское II	gips	Sharof Rashidov tumani	<b>Baliqlitog‘</b>
22.	Насыровское (1983)	g‘isht xomashyosi	Sharof Rashidov tumani	<b>Yangidiyor-1983</b>
23.	Обручевское	qurilish qumlari	Zomin tumani	<b>Qumloq</b>

<b>Namangan viloyati</b>				
24.	Озод	hayvon va qushlar uchun mineral ozuqa xomashyo	Kosonsoy tumani	<b>Qoratog‘</b>
25.	Корнос	sement xomashyosi	Pop tumani	<b>Burguttog‘</b>
26.	Корнос-1	sement xomashyosi	Pop tumani	<b>Burguttog‘-1</b>
27.	Ижодкор	tabiiy pardozeb toshlar	Pop tumani	<b>Chodak-Chorkesar</b>
28.	Янги-Ижод	g‘isht xomashyosi	To‘raqo‘rg‘on tumani	<b>Yortepa</b>
29.	Сумсар-1	tabiiy pardozeb toshlar	Chust tumani	<b>Qoraqo‘rg‘on-1</b>
<b>Navoiy viloyati</b>				
30.	Булямущ	qurilish toshlari	Karmana tumani	<b>Bulamishsoy</b>
31.	Булямущ-1	qurilish toshlari	Karmana tumani	<b>Bulamishsoy-1</b>
32.	Бичанчи (1981)	keramzit xomashyosi	Karmana tumani	<b>Bog‘ishamol-1981</b>
33.	Дальнее	qurilish qumlari	Karmana tumani	<b>Malikcho‘l</b>
34.	Навоий-29	ohak uchun ohaktosh	Karmana tumani	<b>Karmana</b>
35.	Дамир	qurilish toshlari	Karmana tumani	<b>Ziyovuddin-5</b>
36.	Галярен-3	qurilish toshlari	Karmana tumani	<b>Ziyovuddin-6</b>
37.	Дебаланд	qurilish toshlari	Nurota tumani	<b>Balandqishloq</b>
38.	Дильшод	tabiiy pardozeb toshlar	Nurota tumani	<b>G‘ozg‘on-Nurota</b>
39.	Хазоргашт	tabiiy pardozeb toshlar	Nurota tumani	<b>Marmarkon</b>
40.	Хазоргашт-2	tabiiy pardozeb toshlar	Nurota tumani	<b>Marmarkon-2</b>
41.	Бушанг	tabiiy pardozeb toshlar	Nurota tumani	<b>Marmartosh</b>
42.	Бушанг (2008)	tabiiy pardozeb toshlar	Nurota tumani	<b>Marmartosh-2008</b>
43.	Бушанг Урикзор	tabiiy pardozeb toshlar	Nurota tumani	<b>Marmartosh-O‘rikzor</b>
44.	Сифат	qurilish qumlari	Nurota tumani	<b>Nurota</b>
45.	Сифат-1	qurilish qumlari	Nurota tumani	<b>Nurota-1</b>
46.	Битаб	kvars koni	Nurota tumani	<b>Soybo‘yi</b>
47.	Эгизак	tabiiy pardozeb toshlar	G‘ozg‘on shahri	<b>G‘ozg‘on-8</b>
48.	Уразджанское	marmar koni	G‘ozg‘on shahri	<b>G‘ozg‘on-9</b>
49.	Тайкаршинское	g‘isht xomashyosi	Uchquduq tumani	<b>Uchquduq</b>

<b>Samarqand viloyati</b>				
50.	Омонбой	g'isht xomashyosi	Kattaqo'rg'on tumani	<b>Kattaqo'rg'on</b>
51.	Бекмурод	g'isht xomashyosi	Pastdarg'om tumani	<b>Pastdarg'om</b>
52.	Восток гранит	qurilish toshlari	Paxtachi tumani	<b>Paxtachi</b>
53.	Алишер (2014)	g'isht xomashyosi	Paxtachi tumani	<b>Paxtachi-2014</b>
54.	Хол (2014)	g'isht xomashyosi	Qo'shrabot tumani	<b>Qo'shrabot-2014</b>
55.	Блочное (2009)	qurilish toshlari	Samarqand tumani	<b>Marmartosh-2009</b>
56.	Кузгунское (1989)	ohaktosh koni	Urgut tumani	<b>Quruqsoy-1989</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>				
57.	Файзова	g'isht xomashyosi	Uzun tumani	<b>Bobotog'</b>
<b>Toshkent viloyati</b>				
58.	Авангард	qurilish qumlari	Bekobod tumani	<b>Farhod</b>
59.	Авангард -1	qurilish qumlari	Bekobod tumani	<b>Farhod-1</b>
60.	Авангард -2	qurilish qumlari	Bekobod tumani	<b>Farhod-2</b>
61.	Авангард -3	qurilish qumlari	Bekobod tumani	<b>Farhod-3</b>
62.	Авангард -4	qurilish qumlari	Bekobod tumani	<b>Farhod-4</b>
63.	Дустлик-Альфа	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Yangihayot-4</b>
64.	Чувайдак	qurilish toshlari	Ohangaron tumani	<b>Go'shsoy-1</b>
65.	Алдын	g'isht xomashyosi	Ohangaron tumani	<b>Obliq-1</b>
66.	Гульмамасайское (1987)	mineral momiq ishlab chiqarish uchun xomashyo	Ohangaron tumani	<b>Shovvozsoy-1987</b>
67.	Орайлык	barit	Ohangaron tumani	<b>Uvak</b>
68.	Уста Шавкат-1	g'isht xomashyosi	Piskent tumani	<b>Piskent-1</b>
69.	Майское	g'isht xomashyosi	Qibray tumani	<b>Qibray</b>
70.	Майское-1	qurilish qumlari	Qibray tumani	<b>Qibray-1</b>
71.	Майской-5	qurilish qumlari	Qibray tumani	<b>Qibray-5</b>
72.	Майское (1977)	g'isht xomashyosi	Qibray tumani	<b>Qibray-1977</b>
73.	Фуркат (2011)	g'isht xomashyosi	Yangiyo'l tumani	<b>Eski Qovunchi-2011</b>
74.	Шахзод (2014)	g'isht xomashyosi	Yuqori Chirchiq tumani	<b>Jambul-2014</b>
75.	Араббой	g'isht xomashyosi	Yuqori Chirchiq tumani	<b>Qorasuv</b>
<b>Farg'ona viloyati</b>				
76.	Гузанское (1979)	gil	Beshariq tumani	<b>Beshariq-1979</b>
77.	Хумоюн	qurilish qumlari	Oltiariq tumani	<b>Qiziltepa</b>
78.	Сухроб	ohak uchun ohaktosh	O'zbekiston tumani	<b>Saribuloq-1</b>

<b>Xorazm viloyati</b>				
79.	Безергенское	qurilish qumlari	Tuproqqal'a tumani	<b>Tuproqqal'a</b>
80.	Безергенское (1990)	g'isht xomashyosi	Tuproqqal'a tumani	<b>Tuproqqal'a-1990</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>				
81.	Бешбулак Дехканабад	burg'ilash eritmasi uchun gillar	Dehqonobod tumani	<b>Beshbuloq</b>
82.	Дехканабад	tabiiy pardozeb toshlar	Dehqonobod tumani	<b>Qorashina</b>
83.	Дехканабад-1	tabiiy pardozeb toshlar	Dehqonobod tumani	<b>Qorashina-1</b>
84.	Биркунлик-2	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Archali-1</b>
85.	Биркунлик-3	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Archali-2</b>
86.	Биркунлик-4	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Archali-3</b>
87.	Зафар	qurilish toshlari	Kitob tumani	<b>Kengsoy</b>
88.	Зеварда	mineral tuzlar	Mirishkor tumani	<b>Sechanko'l</b>
<b>Rudali foydali qazilma konlari</b>				
<b>Navoiy viloyati</b>				
89.	Турбай	oltin koni	Tomdi tumani	<b>Bo'kantov</b>
90.	Шарыкты	oltin koni	Tomdi tumani	<b>Janubiy Yetimtov</b>
91.	Ясвай	oltin koni	Tomdi tumani	<b>Yassitov</b>
92.	Косманачи	kumush koni	Tomdi tumani	<b>Kumushkon-1</b>
<b>Toshkent viloyati</b>				
93.	Шаматджан	oltin koni	Ohangaron tumani	<b>Qurama</b>
<b>Uglevodorod konlari</b>				
94.	Намазбай	gaz va kondensat	Buxoro-Xiva hududi	<b>Oqbo'yin</b>





## О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

20 26 yil « 9 » yanvar

№ 6

Toshkent sh.

### **“Умра плюс” зиёрат туризми дастурини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида**

Мамлакатимизда туризмни стратегик тармоқ сифатида янада ривожлантириш, “Умра плюс” зиёрат туризми дастури орқали сайёҳлар оқимини ошириш, зиёрат туризми инфратузилмаси ва хизматларини такомиллаштириш, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида ички ва зиёрат туризмини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2021 йил 9 февралдаги ПФ–6165-сон Фармони ижросини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси қарор қилади:

#### **1. Қуйидагилар:**

“Умра плюс” зиёрат туризми дастурини амалга ошириш бўйича ишчи гуруҳ (кейинги ўринларда – ишчи гуруҳ) таркиби **1-иловага** мувофиқ;

2026–2027 йилларда Малайзия ва Индонезиядан “зиёрат туризми” йўналишида сайёҳлар оқимини 100 минг нафарга етказиш бўйича “йўл харитаси” **2-иловага** мувофиқ тасдиқлансин.

#### **2. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ:**

**2026 йил якунига қадар** Ўзбекистон Республикаси Туризм қўмитаси (кейинги ўринларда – Туризм қўмитаси) томонидан Малайзия ва Индонезиядан “Умра плюс” зиёрат туризми дастури асосида сайёҳларни жалб қилаётган туроператорларга ҳар бир сайёҳ учун **100 АҚШ доллари миқдорида субсидия ажратилади;**

ушбу субсидия бўйича харажатлар **Туризмни қўллаб-қувватлаш жамғармаси маблағлари ҳисобидан амалга оширилади.**

Туризм қўмитаси манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда **бир ой муддатда** Малайзия ва Индонезиядан жалб қилинадиган туристлар сони ва рағбатлантирувчи субсидияларни тўлаб бериш тартибини тасдиқласин.

### 3. Туризм қўмитаси:

**а) икки ҳафта муддатда** ишчи гуруҳ аъзолари билан биргаликда маҳаллий туроператорларни жалб қилган ҳолда **“Умра плюс” зиёрат туризми дастурини** (кейинги ўринларда – Дастур) ишлаб чиқсин.

Бунда Маданий мерос агентлиги, Тошкент шаҳри, Самарқанд ва Бухоро вилоятлари ҳокимликлари билан биргаликда Дастур иштирокчилари учун қиш (20 ноябрдан 20 февралгача) ва ёз фаслларининг (июль ойи) номавсумий ойларида маданий мерос объектлари, меҳмонхона, овқатланиш ва бошқа хизматлар учун **ихтиёрий чегирмалар** жорий этилади;

**б) бир ой муддатда** Дин ишлари бўйича қўмита билан биргаликда Дастурга киритилган маршрут бўйлаб саёҳатни юқори савияда ташкил этиш мақсадида зиёрат туризмига ихтисослашган (инглиз, малай ва индонез тилларини биладиган) **гид-таржимонлар** ва **гуруҳбошилар** рўйхатини шакллантирсин;

#### **в) 2026 йил 15 январдан:**

Малайзия ва Индонезияда Дастур бўйича кучайтирилган **тарғибот кампаниясини** амалга оширсин;

туроператор (турагент)лар томонидан Миллий туризм ягона платформаси орқали Дастур бўйича шакллантирилган туристик дастурининг онлайн сотувини йўлга қўйсин;

**г) Дастурнинг** илмий асосланган ривожлантириш концепцияси ишлаб чиқилишини таъминласин.

4. Транспорт вазирлиги Ташқи ишлар вазирлиги ва Туризм қўмитаси билан биргаликда **икки ҳафта муддатда** Дастур учун:

маҳаллий ёки хорижий авиакомпаниянинг **10 та** **авиабортини**, шу жумладан, ижарага олиш орқали жалб қилиш;

**“Куала Лумпур–Самарқанд–Жидда–Куала Лумпур”** ва **“Куала Лумпур–Бухоро–Жидда–Куала Лумпур”** ҳамда **“Жакарта–Самарқанд–Жидда–Жакарта”** ва **“Жакарта–Бухоро–Жидда–Жакарта”** туристик маршрутлари бўйлаб авиақатновларни рақобатбардош нархларда ишлаб чиқилишини ҳамда Дастурда иштирок этувчи туркомпанияларга тақдим этилишини таъминласин.

5. Туризм қўмитаси томонидан Малайзия ва Индонезиядаги Ўзбекистон элчихоналарига бир миллиард сўмдан маблағ ажратилгани маълумот учун қабул қилинсин.

Ўзбекистоннинг Малайзия ва Индонезиядаги элчихоналари **бир ой** муддатда ажратилган маблағлардан 2026–2027 йилларда фойдаланиш бўйича тарғибот лойиҳаларини ўз ичига олган **“Йўл харитаси”**ни ишлаб чиқиб, Туризм қўмитаси билан келишилган ҳолда тасдиқласин.

Йил якунига кўра, маблағлар сарфланиши бўйича ҳисоботларни Туризм қўмитасига тақдим қилсин.

6. Дин ишлари бўйича қўмита Дастурни амалга ошириш учун малакали кадрлар тайёрлаш мақсадида **Ўзбекистон халқаро исломшунослик академиясида ўқув-амалиёт лабораториясини** ташкил этсин.

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси ва Малайзия олий таълим муассасалари ўртасида **“Туризм ва меҳмондўстлик” таълим йўналиши ва мутахассисликлари бўйича қўшма таълим дастурларини** йўлга қўйсин.

7. Тошкент шаҳри, Самарқанд ва Бухоро вилоятлари ҳокимликлари:

Маданий мерос агентлиги, Дин ишлари бўйича қўмита, “Uzbekistan Airports” АЖ ва “Ўзбекистон темир йўллари” АЖ билан биргаликда **бир ой муддатда** Дастурга киритилган маршрут бўйлаб маданий мерос объектлари ҳамда зиёрат жойлари, аэропортлар, вокзаллар, меҳмонхона ва умумий овқатланиш объектларида зиёратчилар учун барча зарур шароитлар (санитария-гигиена хоналари, таҳоратхона ва бошқалар)ни яратиш;

Дин ишлари бўйича қўмита, Ўзбекистон мусулмонлари идораси ва Маданий мерос агентлиги билан биргаликда Дастур маршрутида жойлашган объектлар, масжид ва мадрасаларда жамоат хавфсизлиги қоидаларига қатъий риоя қилган ҳолда, “24/7” режимда зиёратчилар ташриф буюриши учун шарт-шароитлар яратиш чораларини кўрсин.

Бунда маданий мерос объектлари ҳудудида бажарилиши режалаштирилган ишлар Маданий мерос агентлиги билан белгиланган тартибда келишилгандан сўнг амалга оширилсин.

8. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари Ж.А. Ходжаев зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг  
Бош вазири**



**А. Арипов**

Вазирлар Маҳкамасининг  
2026 йил “ 9 ” январдаги 6 сон қарорига  
1-илова

**“Умра плюс” зиёрат туризми дастурини амалга ошириш  
бўйича ишчи гуруҳ таркиби**

1. Ж.А. Ходжаев – Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари, *Ишчи гуруҳ раҳбари*
2. А.Ў. Аққулов – Туризм қўмитаси раиси, *Ишчи гуруҳ раҳбарининг ўринбосари*
3. И.Р. Махкамов – транспорт вазири
4. О.А. Назарбеков – маданият вазири
5. А.А. Ташпулатов – ички ишлар вазири
6. *келишувга кўра* – Давлат хавфсизлик хизмати масъул ходими
7. Б.Ж. Аълоев – ташқи ишлар вазирининг биринчи ўринбосари
8. И.И. Норқулов – иқтисодиёт ва молия вазирининг биринчи ўринбосари
9. С.Д. Тошбоев – Дин ишлари бўйича қўмита раиси
10. Б.Г. Абдиқаримов – Маданий мерос агентлиги директори
11. А.Р. Жуманазаров – Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги директори
12. Ф.Ф. Абдухаликов – Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази директори
13. М.М. Камилов – Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси ректори
14. Н.М. Холиқназар – Ўзбекистон мусулмонлари идораси раиси, муфтий
15. Ш.Ш. Худайкулов – “Uzbekistan Airways” АЖ бошқаруви раиси
16. Ж.О. Умарходжаев – “Uzbekistan Airports” АЖ бошқаруви раиси
17. *лавозимига кўра* – Туризм қўмитаси раисининг биринчи ўринбосари, *Ишчи гуруҳ котиби*

**Изоҳ.**

*Ишчи гуруҳ аъзолари бошқа ишга ўтган тақдирда, унинг таркибига ушбу лавозимларга янгидан тайинланган ёки зиммасига тегишли функцияларни бажариши юқланган шахслар киритилади.*

*Туризм қўмитаси томонидан Вазирлар Маҳкамаси билан келишилган ҳолда, Ишчи гуруҳ таркибига ўзгартириши ва қўшимчалар киритилиши мумкин.*

Вазирлар Маҳкамасининг  
2026 йил “ 9 ” январдаги Ё -сон қарорига  
2-илова

**2026–2027 йилларда Малайзия ва Индонезиядан “зиёрат туризми” йўналишида сайёҳлар оқимини 100 минг нафарга етказиш бўйича “ЙЎЛ ХАРИТАСИ”**

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Амалга ошириш механизми	Ижро муддати	Молиялаштириш манбалари	Масъул ижрочилар
<b>I. Туризм тарғиботини ошириш, авиақатновларни кўпайтириш</b>					
1.	Малайзия ва Индонезияда “Имом Бухорий изидан” ва “Рамазонни Ўзбекистонда ўтказ” тематик туризм тарғиботи кампанияларини ташкил этиш.	1. Тарғибот дастурини ишлаб чиқиш.  2. Малайзия ва Индонезиянинг йирик медиа платформалари орқали тарғибот дастурини амалга ошириш.	2026 йил январь  2026–2027 йиллар давомида	Туризмни қўллаб-қувватлаш жамғармаси маблағлари	Туризм қўмитаси (А. Аққулов), Ташқи ишлар вазирлиги (Б. Аълоев), Дин ишлари бўйича қўмита (С. Тошбоев)
2.	Малайзиянинг Келантанг, Кедах, Теренггану каби мусулмон аҳолиси кўп бўлган ҳудудларида зиёрат туризми бўйича алоҳида роадшоулар ташкил этиш.	1. Роадшоулар дастурини ишлаб чиқиш.  2. Маҳаллий туроператорлар иштирокида роадшоуларни ташкил этиш.	2026 йил январь  2026–2027 йиллар давомида	Туризмни қўллаб-қувватлаш жамғармаси маблағлари	Туризм қўмитаси (А. Аққулов), Ташқи ишлар вазирлиги (Б. Аълоев)
3.	“Умра плюс” зиёрат туризми дастури доирасида Тошкент шаҳри ва Самарқанд, Бухоро вилоятларидаги объектларни ўз ичига олган туристик маршрутларни ишлаб чиқиш.	1. Сайёҳлар учун қизиқарли бўлган салоҳиятли объектлар рўйхати ва маълумотларни тайёрлаш. 2. Манфаатдор давлат ташкилотлари ва тадбиркорлик субъектлари билан ҳамкорликда туристик маршрутлар ишлаб чиқиш.	2026 йил январь  2026 йил февраль	–	Туризм қўмитаси (А. Аққулов), Ташқи ишлар вазирлиги (Б. Аълоев), Маданий мерос агентлиги (Б. Абдиқаримов), Бухоро, Самарқанд

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Амалга ошириш механизми	Ижро муддати	Молиялаштириш манбалари	Масъул ижрочилар
		<p>3. Таклифларни Малайзия ва Индонезиянинг туристик ташкилотларига тақдим қилиш ҳамда туристик платформа, ижтимоий тармоқларга маълумотларни жойлаштириш.</p> <p>4. Туристтик объектларнинг талабига мувофиқ тунги вақтда фаолият юритиши учун имконият яратиш.</p>	<p>2026 йил давомида</p> <p>2026 йилдан бошлаб</p>		<p>вилоятлари ҳамда Тошкент шаҳри ҳокимликлари</p>
4.	<p>“Умра плюс” зиёрат туризми дастурини ташкил қилишда саёҳатчиларнинг талаб ва истакларини ўрганиш.</p>	<p>1. Тадқиқот олиб бориш орқали зиёратчиларнинг мавжуд йўналиш ва уларга кўрсатилаётган хизматларини таҳлил қилиш.</p> <p>2. Таҳлил натижаларига кўра, саёҳатчилар учун муқобил сифатли хизматларни ташкил қилиш.</p> <p>3. Ташкил қилинган хизматлар бўйича маълумотларни маҳаллий ва хорижий туристик компанияларга тақдим қилиш.</p>	<p>2026 йил январь</p> <p>2026–2027 йиллар давомида</p>	<p>Ташаббускор ва тадбиркорлик субъектлари маблағлари</p>	<p>Туризм кўмитаси (А. Аққулов), Ташқи ишлар вазирлиги (Б. Аълоев), Бухоро, Самарқанд вилоятлари ҳамда Тошкент шаҳри ҳокимликлари</p>
5.	<p>“Умра плюс” зиёрат туризми дастури доирасидаги туристик маршрутларни (турпакетларни) хорижий давлатларда кенг тарғиб қилиш.</p>	<p>1. Ўзбекистоннинг хорижий мамлакатлардаги элчихоналари томонидан туризм кўргазмалари ва ярмаркаларида “Умра плюс” турпакетларини тарғиб қилиш.</p> <p>2. “Uzbekistan Airways” АЖнинг хориждаги ваколатхоналари томонидан тарғиботни мунтазам олиб бориш.</p> <p>3. Хорижий мамлакатларда ташкил этиладиган туризм кўргазмалари ва ярмаркаларида турпакетларни тарғиб қилишга қаратилган стендлар ташкил қилиш.</p>	<p>2026–2027 йиллар давомида</p>	<p>Масъул ижрочиларнинг бюджетдан ташқари маблағлари</p>	<p>Туризм кўмитаси (А. Аққулов), Ташқи ишлар вазирлиги (Б. Аълоев), Транспорт вазирлиги (И. Махкамов), “Uzbekistan Airways” АЖ (Ш. Худайкулов)</p>

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Амалга ошириш механизми	Ижро муддати	Молиялаштириш манбалари	Масъул ижрочилар
6.	Малайзиялик ва индонезиялик саёҳатчиларнинг Рамазон ҳайити (Ийд ал-Фитр) ва Қурбон ҳайити (Ийд ал-Адха) байрамларини Ўзбекистонда ўтказиши юзасидан чоралар кўриш.	Саёҳатчилар учун Рамазон ҳайити (Ийд ал-Фитр) ва Қурбон ҳайити (Ийд ал-Адха) байрамларини мазмунли ташкил қилиш юзасидан туристик дастурлар тайёрлаш ва хориж томонининг туристик ташкилотлари, ОАВларига етказиш.	Доимий	—	Туризм қўмитаси (А. Аққулов), Ташқи ишлар вазирлиги (Б. Аълоев), Дин ишлари бўйича қўмита (С. Тошбоев)
7.	Малайзиянинг йирик туристик нашриёт уйлари вакиллари билан иборат делегациянинг Ўзбекистон бўйлаб пресс-турини ташкил этиш.	1. Малайзиянинг “New Strait Times”, “The Star”, “The Sun Musotrees”, “GayaTravel” ва “Astro TV” каби йирик нашриёт уйлари билан музокаралар ўтказиш. 2. Пресс-турни юқори савияда ташкил этиш ҳамда жараёнларни маҳаллий ва хорижий ОАВда кенг тарғиб қилиш.	2026–2027 йиллар давомида	Туризмни қўллаб-қувватлаш жамғармаси маблағлари	Туризм қўмитаси (А. Аққулов), Ташқи ишлар вазирлиги (Б. Аълоев)
8.	Малайзия ва Индонезияда ўтказиладиган йирик халқаро туризм кўргазмалари ва ярмаркаларида иштирок этиш.	Малайзия ва Индонезиядаги халқаро туризм кўргазмалари ва ярмаркаларида туризм стенди билан иштирок этиш.	2026 йил январь ойдан бошлаб доимий	Туризмни қўллаб-қувватлаш жамғармаси маблағлари	Туризм қўмитаси (А. Аққулов), Ташқи ишлар вазирлиги (Б. Аълоев)
9.	Малайзия ва Индонезия уламолари кўмагида Ўзбекистондаги зиёратгоҳларга ташрифларни тарғибот қилиш бўйича материалларни тайёрлаш ва Ташқи ишлар вазирлиги орқали хориж томонига етказиш.	1. Малайзия ва Индонезиянинг йирик масжидлари имомлари гуруҳининг Ўзбекистонга ташрифини ташкил этиш. 2. Малайзия ва Индонезиянинг йирик масжидларида жума намози хутбаларида “Имом ал-Бухорий”, “Баҳовуддин Нақшбанди”, “Имом ат-Термизий” тўғрисида маърузалар орқали зиёрат туризми тарғиботини кучайтириш чораларини кўриш.	2026–2027 йиллар давомида	Туризмни қўллаб-қувватлаш жамғармаси маблағлари	Туризм қўмитаси (А. Аққулов), Дин ишлари бўйича қўмита (С. Тошбоев), Ўзбекистон мусулмонлари идораси (Н. Холиқназар), Ташқи ишлар вазирлиги (Б. Аълоев)

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Амалга ошириш механизми	Ижро муддати	Молиялаштириш манбалари	Масъул ижрочилар
10.	<p>Малайзия ва Индонезияда исломшунослик соҳасида таълим олаётган талабаларни мамлакатимиз зиёрат объектлари билан таништиришга қаратилган “<b>Исломий академик саёҳат</b>” (Islamic academic tour) дастури лойиҳасини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш.</p>	<p>1. “<b>Исломий академик саёҳат</b>” дастурини ишлаб чиқиш ва Ташқи ишлар вазирлиги орқали хориж томони билан мувофиқлаштириш. 2. Малайзия ва Индонезия томонлари таклифлари асосида лойиҳани амалга ошириш.</p>	<p>2026 йил январь  2026 йил июнь</p>	<p>Туризмни қўллаб-қувватлаш жамғармаси маблағлари</p>	<p>Туризм қўмитаси (А. Аққулов), Дин ишлари бўйича қўмита (С. Тошбоев), Ўзбекистон мусулмонлари идораси (Н. Холиқназар), Ташқи ишлар вазирлиги (Б. Аълоев)</p>
11.	<p>Куала-Лумпур шаҳридаги <b>Ислом санъати музейи (Islamic Arts Museum)</b>да Ўзбекистоннинг зиёрат туризми имкониятларини намойиш этувчи фотокўргазма ташкил этиш.</p>	<p>1. Хориж томони билан кўргазма ташкил этиш масаласини муҳокама қилиш, шартларни келишиш. 2. Кўргазмада иштирок этувчи санъат асарлари ва усталари рўйхатини шакллантириш. 3. Кўргазмани юқори савияда ташкил этиш.</p>	<p>2026 йил давомида</p>	<p>Туризмни қўллаб-қувватлаш жамғармаси маблағлари</p>	<p>Туризм қўмитаси (А. Аққулов), Ислом цивилизацияси маркази (Ф. Абдухаликов), Ташқи ишлар вазирлиги (Б. Аълоев)</p>
12.	<p>Малайзияда “<b>Ўзбекистон — ислом маданияти маркази</b>” ҳафталигини ва ҳафталик доирасида кўчма кўргазма тарғибот тадбирларини ташкил этиш. Малайзия таълим муассасаларида “Малайзия Ислом санъати музейи тўплами” китоб-альбомининг тақдимотларини ўтказиш.</p>	<p>1. Ҳамкор томонлар билан биргаликда режа-график ишлаб чиқиш. 2. Режа-графикка асосан тарғибот тадбирларини ташкил этиш.</p>	<p>2026–2027 йиллар давомида</p>	<p>Масъул ижрочиларнинг бюджетдан ташқари маблағлари</p>	<p>Ислом цивилизацияси маркази (Ф. Абдухаликов), Дин ишлари бўйича қўмита (С. Тошбоев), Халқаро ислом академияси (М. Камилов), Ташқи ишлар вазирлиги (Б. Аълоев)</p>

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Амалга ошириш механизми	Ижро муддати	Молиялаштириш манбалари	Масъул ижрочилар
<b>II. Зиёрат туризми инфратузилмасини ривожлантириш</b>					
13.	Тошкент шаҳри, Самарқанд, Бухоро вилоятлари зиёратгоҳларидаги туристик инфратузилмани яхшилаш.	<p>1. Зиёратгоҳлардаги мавжуд контентни тўлалигича илмий нуқтаи назардан қайта кўриб чиқиш.</p> <p>2. Зиёратгоҳларда инглиз ва араб тилларида замонавий кўрсаткичлар, аудиогидларни ўрнатиш.</p> <p>3. Объектлардаги таҳоратхона ва намоз ўқиш хоналарини тартибга келтириш.</p>	<p>2026 йил январь</p> <p>2026–2027 йиллар давомида</p> <p>2026–2027 йиллар давомида</p>	Масъул ижрочиларнинг бюджетдан ташқари маблағлари	<p>Дин ишлари бўйича кўмита (С. Тошбоев)</p> <p>Ўзбекистон мусулмонлари идораси (Н. Холиқназар), Маданий мерос агентлиги (Б. Абдукаримов), Бухоро, Самарқанд вилоятлари ҳамда Тошкент шаҳри ҳокимликлари</p>
14.	“Мусулмон меҳмондўстлиги” (Muslim Friendly) соҳасида Малайзия тажрибасини ўрганиш орқали мамлакатда зиёрат туризми хизматлари сифатини ошириш.	<p>1. “Muslim Friendly” бўйича Малайзияда катта тажрибага эга “SIRIM” академияси экспертларининг Тошкент, Самарқанд, Бухоро шаҳарларига ташрифини ташкил этиш.</p> <p>2. Туризм, хунармандчилик, савдо ва ресторан бизнеси вакиллари учун сайёр ўқув курсларини ташкил этиш.</p>	<p>2026 йил январь-февраль</p> <p>2026 йил март-апрель</p>	Туризмни қўллаб-қувватлаш жамғармаси маблағлари	Туризм кўмитаси (А. Аққулов)
15.	“Миллий туризм” ягона платформасида “Зиёрат туризми” модулини яратиш ва “Traveloka”, “Agoda” ҳамда “Booking” платформалари билан интеграция қилиш.	<p>1. “Миллий туризм” ягона платформасида “Зиёрат туризми” модулини яратиш.</p> <p>2. Платформани “Traveloka”, “Agoda” ҳамда “Booking” платформалари билан интеграция қилиш.</p> <p>3. “Миллий туризм” платформаси хизматларини Малайзия туризм бозорида тарғибот қилиш.</p>	<p>2026 йил январь</p> <p>2026 йил февраль</p> <p>2026–2027 йиллар давомида</p>	Туризмни қўллаб-қувватлаш жамғармаси маблағлари	<p>Туризм кўмитаси (А. Аққулов), Рақамли технологиялар вазирлиги (Ш. Шерматов), Ташқи ишлар вазирлиги (Б. Аълоев),</p>

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Амалга ошириш механизми	Ижро муддати	Молиялаштириш манбалари	Масъул ижрочилар
		4. Маданий мерос объектлари ва музейларга кириш чипталарини рақамлаштириш ва олдиндан харид қилиш имкониятини яратиш.	2026 йилдан бошлаб доимий		Маданий мерос агентлиги ( <i>Б. Абдиқаримов</i> )
16.	Малайзиялик сайёҳларга қулайлик яратиш мақсадида Ўзбекистонда малай ва индонез тилида гид-таржимонлар тайёрлашни йўлга қўйиш.	1. 2026–2027 ўқув йилидан бошлаб Тошкент давлат шарқшунослик университетида “Филология ва тилларини ўқитиш (малай ва индонез тили)” йўналишида кадрлар тайёрлашни икки баробар ошириш чораларини кўриш. 2. Ушбу таълим муассасасида малай ва индонезия тилида гид-таржимонларни тайёрлашни йўлга қўйиш.	2026–2027 йиллар давомида  2026–2027 йиллар давомида	Давлат бюджетидан кадрлар тайёрлаш бўйича давлат буюртмасини шакллантириш учун ажратиладиган маблағлар	Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ( <i>К. Шарипов</i> ), Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ( <i>И. Норқулов</i> ), Туризм қўмитаси ( <i>А. Аққулов</i> )





## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

20 26 yil « 9 » yanvar

№ 8

Toshkent sh.

### **Олий таълим ташкилотлари битирувчиларини иш билан таъминлашда буюртмачилар иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида**

Замонавий меҳнат бозори талабларига мос юқори малакали кадрлар тайёрлаш, олий таълим тизими жозибадорлигини ошириш, ўқишга киришда абитуриентларга қўшимча имкониятлар ҳамда таълим олувчиларга қулай шарт-шароитлар яратиш, уларни моддий ва маънавий қўллаб-қувватлаш, иш берувчилар талаблари асосида кадрлар тайёрлаш ва битирувчиларни кафолатли иш билан таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси қарор қилади:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги ҳамда Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг вазирлик ва идоралар ҳамда ташкилотларнинг кадрлар тайёрлаш бўйича йўналишлар кесимида берган буюртмаларига мувофиқ иккинчи ва ундан юқори курс талабалари орасидан муносибларини саралаб олиш ҳамда иш берувчи корхона ва ташкилотлар томонидан битирувчиларни ишлаб бериш шarti билан таълим олиш давридаги шартнома тўловларини қоплаб бериш амалиётини жорий этиш тўғрисидаги таклифи маъқуллансин.

2. Қуйидагиларни назарда тутувчи Олий таълим ташкилотлари талабаларининг буюртмачилар билан ҳамкорлигини ташкил этиш тартиби тўғрисидаги низом **иловага мувофиқ** тасдиқлансин:

вазирлик ва идоралар ҳамда ташкилотларнинг кадрлар тайёрлаш бўйича йўналишлар кесимида берган буюртмаларига мувофиқ иккинчи ва ундан юқори курс талабалари орасидан **муносибларини саралаб олиш**;

иш берувчи, олий таълим ташкилоти ва талаба ўртасида ўқишни тамомлаганидан сўнг ишлаб бериш шarti билан талабанинг таълим олиши учун **шартнома тўловларини иш берувчи томонидан қоплаб беришни** назарда тутувчи уч томонлама шартнома тузиш;

асосий фанлардан ташқари иш берувчининг талабига мувофиқ **қўшимча таълим модулларини** танлов фани сифатида жорий қилиш ҳамда ушбу фанлар бўйича талабага кредит балларини бериш;

иш берувчи томонидан талабанинг фанларни ўзлаштириши юзасидан ҳар семестр якуни бўйича **мониторинг қилиб бориш**;

талабанинг **битирув малакавий иши мавзусини** иш берувчининг таклифлари асосида унинг фаолиятига ёки инвестиция лойиҳасига оид масалалардан келиб чиққан ҳолда белгилаш;

уч томонлама шартнома асосида таҳсил оладиган битирувчиларни иш берувчи томонидан **кафолатли ишга қабул қилиш**.

3. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда ўзлари қабул қилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни **икки ой** муддатда ушбу қарорга мувофиқлаштирсин.

4. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси олий таълим, фан ва инновациялар вазири К.А. Шарипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг  
Бош вазири**



**А. Арипов**

Вазирлар Маҳкамасининг  
2026 йил “ 9 ” январдаги 8-сон қарорига  
илова

## Олий таълим ташкилотлари талабаларининг буюртмачилар билан ҳамкорлигини ташкил этиш тартиби тўғрисида НИЗОМ

### 1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Низом олий таълим ташкилотларининг бакалавриат таълим йўналишларида иккинчи ва ундан юқори курсда ўқиётган талабалари орасидан муносибларини саралаб олиш, уларнинг ўқиши учун шартнома тўловларини иш берувчилар томонидан қоплаб бериш ҳамда уларни таълимни яқунлаганидан сўнг ишга қабул қилиш, ўқиш даврида талабаларнинг фанларни ўзлаштиришини мониторинг қилиб бориш тартибини белгилайди.

2. Ушбу Низомда қуйидаги асосий тушунчалар қўлланади:

**буюртмачи** – ишчилар сони 50 нафардан ортиқ бўлган ёки қиймати камида 1 млн АҚШ доллари бўлган инвестиция лойиҳаларига эга вазирлик ва идоралар ҳамда ташкилотлар;

**талабгор** – ўқишни битирганидан сўнг буюртмачи корхона ёки ташкилотда ишлаб бериш шarti билан буюртмачи томонидан шартнома тўловларини қоплаб бериш бўйича саралаб олишда иштирок этиш истагидаги иккинчи ва ундан юқори курсда таҳсил олувчи талаба;

**танлов комиссияси** – ўқишни битирганидан сўнг ишлаб бериш шarti билан буюртмачи томонидан шартнома тўловларини қоплаб беришга муносиб номзодларни саралаб олиш учун олий таълим ташкилотида тузиладиган комиссия;

**уч томонлама шартнома** – талабгор ўқишни битирганидан сўнг буюртмачи томонидан белгиланган корхона ёки ташкилотда ишлаб бериш шarti билан унинг олий таълим ташкилотида таълим олиши учун шартнома тўловларини буюртмачи томонидан қоплаб бериш бўйича буюртмачи, олий таълим ташкилоти ҳамда талабгор ўртасида тузиладиган ҳужжат.

3. Олий таълим ташкилотларининг бакалавриат таълим йўналишларида иккинчи ва ундан юқори курсда ўқиётган талабалари орасидан муносиблари иш берувчилар томонидан олий таълим ташкилотлари билан ҳамкорликда саралаб олинади.

4. Ушбу Низом доирасида олий таълим ташкилотлари ҳамда талабалар ўртасида уч томонлама шартномалар тузишда ишчилар сони 50 нафардан ортиқ бўлган ёки қиймати камида 1 млн АҚШ доллари бўлган инвестиция лойиҳаларига эга вазирлик ва идоралар ҳамда ташкилотлар буюртмачи сифатида иштирок этиши мумкин.

**2-боб. Олий таълим ташкилотлари талабалари орасидан муносиб номзодларни саралаб олиш ва уларни буюртма асосида тайёрлашни ташкил этиш**

5. Талабалар орасидан ўқишни битирганидан сўнг ишлаб бериш шarti билан уларнинг ўқиши учун шартнома тўловларини қоплаб бериш мақсадида буюртмачи томонидан муносиблари ушбу Низомга иловадаги схемага мувофиқ саралаб олинади.

6. Олий таълим ташкилоти ҳар йили янги ўқув йили бошлангунга қадар иш берувчиларнинг кадрларга бўлган истиқболдаги эҳтиёжлари ва буюртмаларини қабул қилади.

Бунда олий таълим ташкилоти буюртмачилардан тегишли маълумотларни (ташкилот номи, лавозими, иш тартиби, ойлик маоши, талабаларга қўйиладиган талаблар ва бошқалар кўрсатилган ҳолда) олади.

7. Буюртмачилар таклифига биноан тегишли бакалавриат таълим йўналишида асосий фанлардан ташқари қўшимча таълим модуллари танлов фани сифатида жорий қилиниши мумкин. Бунда ушбу фанлар бўйича талабага кредит баллари берилади.

Тегишли таълим йўналишига қўшимча таълим модулларини киритиш бўйича буюртмачининг талаб ва таклифлари ҳар йили 1 августга қадар қабул қилинади.

8. Буюртмачи томонидан тақдим этилган кадрларга бўлган истиқболдаги эҳтиёж, танловда иштирок этиш тартиблари ва талабгорларга қўйиладиган талабларни ҳар йили 10 сентябрга қадар олий таълим ташкилоти ўз расмий веб-сайтига ҳамда ижтимоий тармоқларидаги расмий саҳифаларига жойлаштиради ва бу ҳақида тегишли бакалавриат таълим йўналишларининг иккинчи ва ундан юқори курс талабаларини хабардор қилади.

9. Иккинчи ва ундан юқори курс талабалари ҳар йили 20 сентябрга қадар ўқишни битирганидан сўнг буюртмачи корхона ёки ташкилотда ишлаб бериш шarti билан буюртмачи томонидан шартнома тўловларини қоплаб бериш бўйича саралаб олишда иштирок этиш учун ўзлаштириш кўрсаткичлари тўғрисидаги маълумотнома (транскрипт)ни илова қилган ҳолда олий таълим ташкилотига электрон шаклда ариза топширади.

10. Ариза топшириш ва саралаб олишда иштирок этувчи талабгорлар олий таълим ташкилотида иккинчи ва ундан юқори курсда ўқиётган ҳамда уларнинг жорий ўқув йилида ўзлаштириш GPA кўрсаткичи 3 ва ундан юқори бўлиши талаб этилади. Бунда ушбу талабларга буюртмачининг таклифлари асосида олий таълим ташкилоти томонидан ўзгартириш ва қўшимчалар киритилиши мумкин.

11. Талабгорларни саралаб олиш бўйича танлов комиссияси олий таълим ташкилоти ректори (директори) буйруғи асосида ташкил этилади.

Танлов комиссияси камида 5 нафардан иборат таркибда тузилади. Танлов комиссияси таркибига олий таълим ташкилотининг ходимлари ва буюртмачилар вакиллари киритилади ҳамда ўқув ишлари бўйича проректор (директор ўринбосари) танлов комиссиясига раислик қилади.

12. Танлов комиссияси ҳар йили 15 октябрга қадар олий таълим ташкилотида талабгорларни суҳбат асосида саралаб олишдан ўтказди.

Суҳбат жараёнида талабгорларнинг ҳар бирига қуйидаги мавзулар бўйича биттадан жами тўртта савол берилади:

мамлакатда ўз соҳасига оид амалга оширилаётган ислохотларнинг моҳияти ва аҳамиятини тушуниш;

буюртмачи билан ҳамкорлик қилишда мотивация (соҳа моҳияти ва ижтимоий аҳамиятини тушуниш, унга доимий қизиқиш кўрсатиш);

таҳсил олаётган бакалаврият таълим йўналиши соҳасидаги билим ва кўникмаларнинг мавжудлиги;

саралаб олишдан муваффақиятли ўтган тақдирда, тузиладиган уч томонлама шартномага мувофиқ томонлар, жумладан, ўз масъулияти ва мажбуриятини тушуниш ва унга риоя қилиш.

Талабгорларни саралаб олишда буюртмачи вакили (ёки вакиллари) хулосаси асосий мезон ҳисобланади.

13. Суҳбат натижаси асосида буюртмачи, олий таълим ташкилоти ҳамда талаба ўртасида талаба ўқишни битирганидан сўнг буюртмачи томонидан белгиланган корхона ёки ташкилотда ишлаб бериш шarti билан унинг олий таълим ташкилотида таълим олиши учун шартнома тўловларини буюртмачи томонидан қоплаб бериш бўйича уч томонлама шартнома тузилади.

14. Уч томонлама шартнома ва унинг шартлари буюртмачи, олий таълим ташкилоти ҳамда талабанинг ўзаро келишуви асосида шакллантирилади.

15. Олий таълим ташкилоти томонидан буюртмачига талабани баҳолаш ва унинг шахсий таълим траекториясини шакллантириш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш мақсадида талабанинг фанларни ўзлаштиришини ҳар семестр якуни бўйича мониторинг қилиб бориш имконияти яратилади.

16. Уч томонлама шартнома тузган талабанинг битирув малакавий иши мавзуси иш берувчининг таклифлари асосида унинг фаолиятига ёки инвестиция лойиҳасига оид масалалардан келиб чиққан ҳолда белгиланади.

17. Уч томонлама шартнома тузган ва таълимни муваффақиятли тамомлаган талабалар ўқишини битирганидан кейин буюртмачи томонидан белгиланган тартибда ишга қабул қилинади.

### **3-боб. Яқунловчи қоидалар**

18. Ушбу Низомда назарда тутилмаган масалалар буюртмачи, олий таълим ташкилоти ва талаба ўртасида тузиладиган уч томонлама шартномада белгиланган шартлар асосида тартибга солинади.

19. Ушбу Низом талаблари бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ жавобгар бўлади.

Олий таълим ташкилотлари талабаларининг  
буюртмачилар билан ҳамкорлигини ташкил  
этиш тартиби тўғрисида низомга  
илова

**Талабалар орасидан ўқишни битирганидан сўнг ишлаб бериш шарти  
билан ўқиши учун шартнома тўловларини қоплаб бериш мақсадида  
буюртмачи томонидан муносибларини саралаб олиш  
СХЕМАСИ**

Босқичлар	Масъуллар	Ўтказиладиган тадбирлар	Бажариш муддатлари
1-босқич	Вазирлик ва идоралар ҳамда ташкилотлар	Олий таълим ташкилотининг тегишли таълим йўналишига қўшимча таълим модулларини киритиш бўйича талаб ва таклифлар беради.	Ҳар йили 1 августга қадар
2-босқич	Олий таълим ташкilotи	Иш берувчиларнинг кадрларга бўлган истиқболдаги эҳтиёжлари ва буюртмаларини қабул қилади.	Ҳар ўқув йили бошлангунга қадар
3-босқич	Олий таълим ташкilotи	Буюртмачи томонидан тақдим этилган кадрларга бўлган истиқболдаги эҳтиёж, саралаб олишда иштирок этиш тартиблари ва талабгорларга қўйиладиган талабларни ўз расмий веб-сайтига ҳамда ижтимоий тармоқларидаги расмий саҳифаларига жойлаштиради ва бу ҳақида тегишли бакалаврият таълим йўналишларининг иккинчи ва ундан юқори курс талабаларини хабардор қилади.	Ҳар йили 10 сентябрга қадар
4-босқич	Иккинчи ва ундан юқори курс талабалари	Ўқишни битирганидан сўнг буюртмачи корхона ёки ташкилотда ишлаб бериш шарти билан буюртмачи томонидан шартнома тўловларини қоплаб бериш бўйича саралаб олишда иштирок этиш учун ўзлаштириш кўрсаткичлари тўғрисидаги маълумотнома (транскрипт)ни илова қилган ҳолда олий таълим ташкилотига электрон шаклда ариза топширади.	Ҳар йили 20 сентябрга қадар
5-босқич	Талабгорларни саралаб олиш бўйича танлов комиссияси	Олий таълим ташкилотидаги ўқишини битирганидан сўнг ишлаб бериш шарти билан буюртмачи томонидан шартнома тўловларини қоплаб беришга муносиб номзодларни саралаб олиш учун суҳбат асосида саралашдан ўтказади.	Ҳар йили 15 октябрга қадар

6-босқич	Буюртмачи, олий таълим ташкilotи, иккинчи ва ундан юқори курс талабалари	Суҳбат натижаси асосида буюртмачи, олий таълим ташкilotи ҳамда талаба ўртасида талаба ўқишни битирганидан сўнг буюртмачи томонидан белгиланган корхона ёки ташкilotда ишлаб бериш шарти билан унинг олий таълим ташкilotида таълим олиши учун шартнома тўловларини буюртмачи томонидан қоплаб бериш бўйича уч томонлама шартнома тузилади.	Томонларнинг келишуви асосида
----------	--	---	-------------------------------------





## **БЕШИНЧИ БЎЛИМ**

**ВАЗИРЛИКЛАР, ДАВЛАТ ҚЎМИТАЛАРИ  
ВА ИДОРАЛАРИНИНГ ЎЗБЕКИСТОН  
РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИДА  
ДАВЛАТ РЎЙХАТИДАН ЎТКАЗИЛГАН  
НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАРИ**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3134-3  
2026 - yil 05 - Yanvar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING  
BUYRUG'I

**“Mediatorlarni tayyorlash dasturini tasdiqlash haqida”gi  
buyruqqa o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to'g'risida”gi Qonuniga asosan muvofiq buyuraman:

1. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2019-yil 31-yanvardagi 54-mh-son “Mediatorlarni tayyorlash dasturini tasdiqlash haqida”gi buyrug'iga (ro'yxat raqami 3134, 2019-yil 31-yanvar) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.02.2019-y., 10/19/3134/2554-son) ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

2. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir  
2025-yil 30-dekabr  
31-mh-son



TASHKULOV AKBAR  
DJURABAYEVICH

O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining  
2025-yil 30-dekabrda 31-mh-son [buyrug‘iga](#)

ILOVA

**“Mediatorlarni tayyorlash dasturini tasdiqlash haqida”gi buyruqqa  
kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. Buyruqda:

1) nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mediatorlarni tayyorlash dasturi va kasbiy malakasini oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”;

2) 1-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mediatorlarni tayyorlash dasturi va kasbiy malakasini oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.”.

2. Dasturda:

1) nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mediatorlarni tayyorlash dasturi va kasbiy malakasini oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom”;

2) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Nizom mediatorlarni tayyorlash dasturi va kasbiy malakasini oshirish tartibini belgilaydi.”;

3) 1-band “Mediatorlarni tayyorlash dasturi” degan so‘zlardan keyin “va mediatorlarning kasbiy malakasini oshirish” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

4) quyidagi mazmundagi 2<sup>1</sup>-band bilan to‘ldirilsin:

“2<sup>1</sup>. Mediatorlar mediatorlarning kasbiy malakasini oshirish bo‘yicha maxsus o‘quv kurslarda o‘qish orqali uch yilda kamida bir marta kasbiy malakasini oshirishi shart, bundan notarius va advokat maqomiga ega bo‘lgan mediatorlar mustasno.”;

5) 4-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4. Maxsus o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagan tinglovchilarga ushbu Nizomning tegishliligiga ko‘ra 1 va 2-ilovalarida keltirilgan namunalar va tavsiflarga muvofiq sertifikat beriladi.”;

6) 7-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Mediatorlarni tayyorlash dasturi quyidagi mavzularni qamrab olishi kerak:

O‘zbekiston Respublikasining mediatsiya to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyati;

mediatsiyaning mohiyati va prinsiplari hamda huquqiy asoslari;

mediatorning kasbiy ko‘nikmalari, kasb etikasi va javobgarligi;

muzokaralar mediatsiyaning asosi sifatida;

mediatsiya bosqichlari va unda mediatorning roli va funksiyalari;

mediatsiyada taraflar vakillarining ishtiroki va ularning maqomi;

mediatsiya jarayoni;

mediatsiya jarayonining natijasi va u bilan bog‘liq hujjatlarni O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirish ko‘nikmalari;

mediativ kelishuvni ijro etishning huquqiy asoslari;

mediatsiyada axborot texnologiyalari yutuqlari va sun‘iy intellektdan foydalanish qoidalari, onlayn mediatsiya o‘tkazish tartibi;

oilaviy, mehnat, iqtisodiy va boshqa munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni mediatsiya orqali hal etishning o‘ziga xos xususiyatlari.”;

7) quyidagi mazmundagi 7<sup>1</sup>-band bilan to‘ldirilsin:

“7<sup>1</sup>. Mediatorlarning kasbiy malakasini oshirish o‘quv dasturi quyidagi mavzularni qamrab olishi kerak:

O‘zbekiston Respublikasining mediatsiya to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining, mediatsiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati;

mediator tomonidan Mediatorlarning kasb etikasi qoidalariga rioya qilish masalalari;

mediatsiyada axborot texnologiyalari yutuqlari va sun'iy intellektdan foydalanish qoidalari, onlayn mediatsiya o'tkazish tartibi;

mediatsiyada ilg'or va ko'p tomonlama muzokara o'tkazish ko'nikmalari;

mediatsiyada psixologiya va konfliktni boshqarishning chuqur asoslari va mediatorning muloqot mahoratini oshirish ko'nikmalari;

xalqaro mediasiya nizolarida mediatorlarning roli, shuningdek mediatsiya bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi.”;

8) Ilovaning ilova belgisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mediatorlarni tayyorlash dasturi va kasbiy malakasini oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga 1-ILOVA”;

9) Mazkur o'zgartirish va qo'shimchalarning ilovasiga muvofiq tahrirdagi 2-ilova bilan to'ldirilsin:

“Mediatorlar tayyorlash dasturini tasdiqlash haqida”gi  
buyruqqa kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga  
ILOVA

“Mediatorlarni tayyorlash dasturi va kasbiy malakasini  
oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga  
2-ILOVA

**Mediatorlarni kasbiy malakasini oshirish bo‘yicha maxsus o‘quv kursini**

**tugatganligi to‘g‘risidagi namunaviy**

**SERTIFIKAT**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT GERBI**

**YOKI TASHKILOT RAMZINING TASVIRI**

(tashkilot nomlanishi)

**Mediatorlarni kasbiy malakasini oshirish maxsus o‘quv kursini**

**tugatganligi to‘g‘risidagi**

**SERTIFIKAT**

MT № 000000

\_\_\_\_\_  
(tinglovchining familiyasi, ismi, otasining ismi)

\_\_\_\_\_  
(tashkilotning nomi)

\_\_\_\_\_ soatga mo‘ljallangan

\_\_\_\_\_  
(o‘quv kursning nomi)

\_\_\_\_\_ muvaffaqiyatli tamomladi.

Muhr o‘rni

**Rahbar:** \_\_\_\_\_

(F.I.O., imzo)

**Sana** \_\_\_\_\_

**Qayd raqami №** \_\_\_\_\_

**Mediatorlarni kasbiy malakasini oshirish bo'yicha maxsus o'quv kursini tugatganligi to'g'risidagi namunaviy sertifikatning tavsifi**

Sertifikat A4 formatli oq qog'ozda ofset usulida bosib chiqariladi.

Sertifikatda lotin yozuvi bilan davlat tilida "Mediatorlarni kasbiy malakasini oshirish maxsus o'quv kursini tugatganligi to'g'risidagi SERTIFIKAT" so'zlari bosiladi. Sertifikat ikki lotin harfi – MT va olti raqamli sondan iborat tartib raqami bilan ta'minlangan. Barcha matn naqshli rastrdan iborat och kul rang fonda bosib chiqariladi.

Sertifikat:

bosib chiqarishning ikki usuli – ofset va yuqori usuli;

yorug'lik vositasida nusxa ko'chirishni qiyinlashtirish uchun ochiq ranglar;

naqshli rastr;

har xil rangli rastrlardan foydalanish yo'li bilan turli ranglarni tashkil etish;

maxsus qog'ozlar;

o'zgaradigan raqamlardan iborat tartib raqami qo'llangan holda oltita himoyaga ega.”.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3252-6  
2026 - yil 05 - Yanvar

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING QARORI

### **Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida**

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi hamda "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 25-maydagi 12/1-son qarori (ro'yxat raqami 3252, 2020-yil 30-iyun) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020-y., 10/20/3252/1098-son) bilan tasdiqlangan Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizomga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki Raisi  
03-Dekabr 2025-yil  
32/1 son



ISHMETOV TIMUR  
AMINDJANOVICH

O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki boshqaruvining  
2025-yil 3 dekabrda  
32/1-son qaroriga  
ILOVA

**Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to'g'risidagi  
nizomga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. 77-bandda:

a) 4-kichik band o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin;

b) 5-kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5) ixtiyoriy tugatilayotgan bankning tugatuvchisi (agar tugatish komissiyasi tayinlansa, uning rahbari va a'zolari).”.

2. 80-band va 85-bandning birinchi xatboshisi “rahbar” degan so'zdan keyin “xodim” degan so'z bilan to'ldirilsin.

3. 82–84-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“82. Bank tomonidan mazkur Nizomning 81-bandiga muvofiq amalga oshirilgan qayta baholash natijalari rahbar xodimlarning mazkur Nizom talablariga endilikda muvofiq emasligini ko'rsatgan taqdirda, bank nomuvofiqlik aniqlangan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida Markaziy bankni bu haqda yozma ravishda xabardor qiladi va quyidagi choralardan birini amalga oshiradi:

teng darajadagi rahbar xodimlar o'rtasida majburiyatlarni qayta taqsimlash;

rahbar xodimlarni kasbiy tayyorlash;

manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish;

rahbar xodimlarni almashtirish.

83. Rahbar xodimlarni baholash va kelishib olish quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani olish hamda bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziya berish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish doirasida;

rahbar xodimlar lavozimiga kirishishidan oldin, bundan mazkur Nizomning 84-bandida ko'rsatilgan holatlar mustasno;

bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani olish hamda ixtiyoriy tugatilayotgan bankning tugatuvchisini almashtirish to'g'risidagi qarorni kelishish doirasida;

rahbar xodimlarning mazkur Nizom talablariga muvofiqligiga ta'sir ko'rsatuvchi yangi holatlar vujudga kelganda.

84. Rahbar xodimlarning mazkur Nizom talablariga muvofiqligiga ta'sir ko'rsatuvchi yangi holatlar mavjud bo'lmaganda, quyidagilarni qayta kelishib olish talab etilmaydi:

shu bankning o'zida yangi muddatga saylangan kuzatuv kengashi a'zosini; kelishib olingan kunidan boshlab 12 oy mobaynida shu bankning o'zida o'sha talablar qo'yilgan boshqa lavozimga yoki o'zi egallab turgan lavozimga qayta saylangan yoki tayinlangan rahbar xodimlarni;

shu bankning o'zida, o'sha talablar yoki kamroq talablar qo'yilgan quyiroq darajadagi boshqa lavozimga tayinlangan rahbar xodimlarni.”.

4. 87-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“87. Bankning rahbar xodimlari, majburiy tugatilayotgan bankning tugatuvchisi, bankning maxsus boshqaruvchisi va vaqtinchalik boshqaruvchisi mazkur Nizom talablari bilan belgilangan ishchanlik obro'si, tajriba, bilim va ko'nikmalar, mustaqil mulohaza yuritish, vaqtning yetarliligi mezonlariga muvofiq bo'lishi lozim.”.

5. 93-bandning to'rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“muhim ahamiyatga ega xodimlari, bankning tugatuvchisi, vaqtinchalik boshqaruvchisi yoki maxsus boshqaruvchisi uchun – moliya-iqtisod yo'nalishi hamda bankning asosiy yo'nalishi va xususiyatidan kelib chiqib boshqa mutaxassisliklar.”.

6. 94-bandning yettinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“bankning tugatuvchisi, vaqtinchalik boshqaruvchisi yoki maxsus boshqaruvchisi uchun – bank va (yoki) moliya tizimida kamida 5 yillik ish tajribasiga, shu jumladan kamida 3 yillik rahbarlik lavozimlarida ish tajribasiga ega bo'lishi.”.

7. 97-bandning “b” kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“b) kasbiy manfaatlar to'qnashuvi. Nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari oxirgi 2 yil davomida mazkur Nizomning 77-bandida ko'rsatilgan lavozimlarni raqobatchi banklarda yoki bank yoxud uning istalgan raqobatchisi bilan sezilarli

tijorat aloqalari mavjud bo'lgan tashkilotlarda tenglashtirilgan lavozimlarni egallagan yoki egallab turgan bo'lsa;"

8. 104-band quyidagi mazmundagi o'n ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:  
"ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini hamda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tavakkalchiliklarni boshqarishni."

9. VI bo'limning 2-bobi va VII bo'lim quyidagi tahrirda bayon etilsin:

## **"2-bob. Bankni tugatish**

### **1-§. Bankni tugatish asoslari**

240. Bank faoliyatini tugatish va bankni tugatish ixtiyoriy tugatish yoki majburiy tugatish shaklida amalga oshirilishi mumkin.

241. Bankni ixtiyoriy tugatish Markaziy bankning bankni ixtiyoriy tugatishga doir roziligiga asosan amalga oshiriladi.

Bankni majburiy tugatish Markaziy bank boshqaruvining litsenziyani chaqirib olish va bankni majburiy tugatish to'g'risidagi qarori (bundan buyon matnda bankni majburiy tugatish to'g'risidagi qaror deb yuritiladi) asosida amalga oshiriladi.

### **2-§. Bankni ixtiyoriy tugatishga oid umumiy qoidalar**

242. Agar bank to'lovga qobiliyatsiz bo'lmasa yoki uning to'lovga qobiliyatsizligi yuzaga kelishi ehtimoli yuqori bo'lmasa, u ixtiyoriy tugatilishi mumkin.

Bunda O'zbekiston Respublikasi "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi Qonunining 20-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlarida ko'rsatilgan holatlardan biri yuzaga kelganda bank to'lovga qobiliyatsiz yoki uning to'lovga qobiliyatsizligi yuzaga kelishi ehtimoli yuqori deb hisoblanadi.

243. Markaziy bankning bankni ixtiyoriy tugatishga doir roziligini olish quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani olish;

bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani olish.

244. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining (aksiyadorning) bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani olish to'g'risidagi qarorini bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani olmasdan turib hamda bankni

ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qarorini bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani olmasdan turib uchinchi shaxslarga oshkor etish taqiqlanadi.

245. Tugatuvchi bank ixtiyoriy tugatilayotganda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tayinlanadi. Agar tugatuvchi tayinlanmagan bo'lsa, u Markaziy bank boshqaruvining qarori bilan tayinlanadi.

Tugatuvchi ushbu Nizomning III bo'limida belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

246. O'zbekiston Respublikasi "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi Qonunining 48-moddasiga muvofiq Markaziy bank bank ixtiyoriy tugatilayotganda Markaziy bankka taqdim etilgan hujjatlar va (yoki) ma'lumotlar auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlanishini bankdan talab qilishga haqli.

### **3-§. Bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani olish tartibi**

247. Bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlar ovozlarining to'rt dan uch qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani olish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Barcha ovoz beruvchi aksiyalari bitta aksiyadorga tegishli bo'lgan bankda bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani olish to'g'risidagi qaror bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

248. Ushbu Nizomning 247-bandida nazarda tutilgan qaror qabul qilingan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida bank tomonidan bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun Markaziy bankka quyidagilar taqdim etiladi:

ushbu Nizomning 16-ilovasiga muvofiq shakldagi ariza;

bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani olish to'g'risidagi qaror. Bunda bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani olish to'g'risidagi qarorda bankni ixtiyoriy tugatish sabablari batafsil ko'rsatiladi;

bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yoki bankning yagona aksiyadori tomonidan tasdiqlangan bankning ixtiyoriy tugatish rejasi;

bankning bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani olish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi balans hisoboti.

249. Bankning ixtiyoriy tugatish rejasi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan, bank aktivlari va majburiyatlarining tugatilish qiymati haqidagi ma'lumotlarni;

bankning kreditorlari to'g'risidagi ma'lumotlarni;

joriy va ehtimoliy sud jarayonlari haqidagi, shuningdek sud xarajatlari va sud qarorlarini ijro etish bilan bog'liq xarajatlar haqidagi ma'lumotlarni;

operatsion xarajatlar, aktivlarni sotishdan ko'riladigan ehtimoliy zararlar, bank taraflaridan biri bo'lgan shartnomalarni muddatidan ilgari bekor qilish chog'ida yuzaga keladigan zararlar, shuningdek prognoz qilinayotgan har qanday boshqa xarajatlar haqidagi ma'lumotlarni;

bankni ixtiyoriy tugatishni amalga oshirish muddatini;

bankni ixtiyoriy tugatish jarayoni bosqichlarining, shu jumladan har bir bosqich davomiyligining, har bir bosqichda amalga oshiriladigan harakatlarning tavsifini;

bankni ixtiyoriy tugatish jarayonining har bir bosqichi uchun istiqbolli balansni, shuningdek uni tuzishda foydalanilgan farazlar va ehtimolliklar tavsifini.

250. Agar ushbu Nizomning 248-bandida ko'rsatilgan, bank tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlar bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to'g'risida qaror qabul qilish uchun yetarli bo'lmasa, Markaziy bank bankdan bunday qarorni qabul qilish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab olishga haqli.

Bank ushbu bandning birinchi xatboshisiga muvofiq so'ralgan qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlarni so'rov olingan kundan e'tiboran 30 kun ichida Markaziy bankka taqdim etishi lozim. Bunda ushbu Nizomning 251-bandi birinchi xatboshisida belgilangan, bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish muddati to'xtatib turiladi.

251. Markaziy bank bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to'g'risidagi yoki bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani berishni asoslantirilgan holda rad etish haqidagi qarorni ushbu Nizomning 248-bandida ko'rsatilgan barcha hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran ikki oy ichida qabul qiladi.

Markaziy bank ushbu bandning birinchi xatboshisida nazarda tutilgan qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida bankni qabul qilingan qaror

to'g'risida yozma shaklda, shu jumladan axborot-kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda xabardor qiladi, bundan bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani berish ushbu Nizomning 252-bandi beshinchi xatboshisida ko'rsatilgan asosga ko'ra rad etilgan holatlar mustasno.

252. Bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

ushbu Nizomning 248 va 250-bandlarida ko'rsatilgan hujjatlar va ma'lumotlarning to'liq taqdim etilmaganligi yoki qonunchilik talablariga muvofiq emasligi;

bankning kreditorlarning talablarini asosli kechiktirishsiz qanoatlantirishga qodir emasligi;

bankning ixtiyoriy tugatish rejasi ushbu Nizomning 249-bandida ko'rsatilgan talablarga muvofiq emasligi;

bankning to'lovga qobiliyatsizligi yoki to'lovga qobiliyatsizligining yuzaga kelishi ehtimoli yuqoriligi.

253. Bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani berish ushbu Nizomning 252-bandi ikkinchi – to'rtinchi xatboshilarida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra rad etilgan taqdirda, bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani berishni rad etish to'g'risidagi xabarnoma rad etish asoslari hamda bank rad etish asoslarini bartaraf etib, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish uchun taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yuboriladi. Mazkur muddat rad etish asoslarini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan vaqtga mutanosib bo'lishi, ammo o'n ish kunidan kam bo'lmasligi kerak.

Bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani berish bankning to'lovga qobiliyatsizligiga yoki to'lovga qobiliyatsizligi yuzaga kelishi ehtimolining yuqoriligiga doir asoslarga ko'ra Markaziy bank tomonidan rad etilgan taqdirda, Markaziy bank bankni majburiy tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi.

254. Bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani berishni rad etish asoslari bank tomonidan bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani berishni rad etish to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddatda bartaraf etilgan taqdirda, arizani qayta ko'rib chiqish bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran o'ttiz ish kunidan oshmagan muddatda amalga oshiriladi.

Bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani berishni rad etish to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat o'tganidan keyin taqdim etilgan ariza va hujjatlar yangidan topshirilgan hisoblanadi va Markaziy bank tomonidan umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

255. Bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to'g'risidagi arizani qayta ko'rib chiqish chog'ida bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani berishni rad etish haqidagi xabarnomada ilgari ko'rsatilmagan yangi asoslar bo'yicha rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

256. Bankni to'lovga qobiliyatsiz yoki uning to'lovga qobiliyatsizligi yuzaga kelishi ehtimoli yuqori deb hisoblanishiga asos mavjud bo'lgan taqdirda, Markaziy bank bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani berishni rad etadi va bankni majburiy tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Bankni majburiy tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilinganligi haqida bank ushbu Nizomning 291-bandida belgilangan tartibda xabardor qilinadi.

257. Bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish va qayta ko'rib chiqish uchun yig'im undirilmaydi.

258. Bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnoma berilganidan keyin bank O'zbekiston Respublikasi "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 25-moddasida nazarda tutilgan kafolatlash obyektlarining (bundan buyon matnda kafolatlash obyektlari deb yuritiladi) to'liq qaytarilishi va (yoki) boshqa bankka o'tkazilishi bo'yicha choralar ko'radi.

#### **4-§. Bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani olish tartibi**

259. Kafolatlash obyektlari to'liq qaytarilgan va (yoki) boshqa bankka o'tkazilgandan so'ng bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yig'ilishda ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlar ovozlarining to'rt dan uch qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan bankni ixtiyoriy tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Barcha ovoz beruvchi aksiyalari bitta aksiyadorga tegishli bo'lgan bankda bankni ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qaror bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi.

260. Ushbu Nizomning 259-bandida nazarda tutilgan qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida bank tomonidan bankni ixtiyoriy tugatishga

doir yakuniy ruxsatnomani olish uchun Markaziy bankka quyidagilar taqdim etiladi:

- 1) ushbu Nizomning 17-ilovasiga muvofiq shakldagi ariza;
- 2) bankni ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qaror;
- 3) kafolatlash obyektlari to'liq qaytarilganligini va (yoki) boshqa bankka o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlar;
- 4) kafolatlash obyektlari to'liq qaytarilganidan va (yoki) boshqa bankka o'tkazilganidan keyin bankning zimmasida qolgan majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 5) bankni ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi bankning balans hisoboti;
- 6) tugatuvchining belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi quyidagi axborot va hujjatlar:

ushbu Nizomning 107-bandi 4–10-kichik bandlarida ko'rsatilgan hujjatlar; tugatuvchi va tugatilayotgan bank o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi yuzasidan ushbu Nizomning 18-ilovasiga muvofiq shakldagi axborot.

261. Agar ushbu Nizomning 260-bandida ko'rsatilgan, bank tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlar bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berish to'g'risida qaror qabul qilish uchun yetarli bo'lmasa, Markaziy bank bankdan bunday qarorni qabul qilish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab olishga haqli.

Bank ushbu bandning birinchi xatboshisiga muvofiq so'ralgan qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlarni so'rov olingan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida Markaziy bankka taqdim etishi lozim. Bunda ushbu Nizomning 262-bandida belgilangan, bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish muddati to'xtatib turiladi.

262. Markaziy bank bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berish to'g'risidagi yoki bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berishni asoslantirilgan holda rad etish haqidagi qarorni ushbu Nizomning 260-bandida ko'rsatilgan barcha hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran yigirma ish kuni ichida qabul qiladi.

263. Bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

ushbu Nizomning 260 va 261-bandlarida ko'rsatilgan hujjatlar va ma'lumotlarning to'liq taqdim etilmaganligi yoki qonunchilik talablariga muvofiq

emasligi;

kafolatlash obyektlarining to'liq hajmda qaytarilmaganligi va (yoki) boshqa bankka o'tkazilmaganligi;

tugatuvchining ushbu Nizomning III bo'limida belgilangan talablarga muvofiq emasligi;

bankning to'lovga qobiliyatsizligi yoki to'lovga qobiliyatsizligining yuzaga kelishi ehtimoli yuqoriligi.

264. Bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berish ushbu Nizomning 263-bandi ikkinchi-to'rtinchi xatboshilarida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra rad etilgan taqdirda, Markaziy bank tegishli qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida bankni bu haqda yozma shaklda, shu jumladan axborot-kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda xabardor qiladi.

Bunda bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berishni rad etish to'g'risidagi xabarnomada rad etish asoslari hamda bank rad etish asoslarini bartaraf etib, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish uchun taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatiladi. Mazkur muddat rad etish asoslarini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan vaqtga mutanosib bo'lishi, ammo o'n ish kunidan kam bo'lmasligi kerak.

265. Bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berishni rad etish asoslari bank tomonidan bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berishni rad etish to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddatda bartaraf etilgan taqdirda, arizani qayta ko'rib chiqish bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani olish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n ish kunidan oshmagan muddatda amalga oshiriladi.

Bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berishni rad etish to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat o'tganidan keyin taqdim etilgan ariza va hujjatlar yangidan topshirilgan hisoblanadi va Markaziy bank tomonidan umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

266. Bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berish to'g'risidagi arizani qayta ko'rib chiqish chog'ida bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berishni rad etish to'g'risidagi xabarnomada ilgari ko'rsatilmagan yangi asoslar bo'yicha rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

267. Bankni to'lovga qobiliyatsiz yoki uning to'lovga qobiliyatsizligi yuzaga kelishi ehtimoli yuqori deb hisoblanishiga asos mavjud bo'lgan taqdirda, Markaziy

bank bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berishni rad etadi va bankni majburiy tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Bankni majburiy tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilinganligi haqida bank ushbu Nizomning 291-bandida belgilangan tartibda xabardor qilinadi.

268. Markaziy bank tomonidan bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berish to'g'risidagi qaror bilan bir vaqtda bankning litsenziyasini chaqirib olish haqida qaror qabul qilinadi.

Bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berish va bankning litsenziyasini chaqirib olish to'g'risidagi qaror o'sha kunning o'zida bankka yetkaziladi hamda Markaziy bankning rasmiy veb-saytida va uning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e'lon qilinadi.

269. Bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berish va bankning litsenziyasini chaqirib olish to'g'risidagi qaror bankka yetkazilgan paytdan boshlab bank bankni tugatish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa faoliyatni (harakatni) amalga oshirishga haqli emas.

270. Bankning vakolatli boshqaruv organining bankni ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qarori bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnoma berilganidan keyin kuchga kiradi.

271. Bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish va qayta ko'rib chiqish uchun yig'im undirilmaydi.

#### **5-§. Bankni ixtiyoriy tugatishda amalga oshiriladigan vazifalar**

272. Ixtiyoriy tugatilayotgan bank kuzatuv kengashining va boshqaruvining vakolatlari bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnoma berilgan paytdan e'tiboran tugatuvchiga o'tadi.

273. Tugatuvchi bankni ixtiyoriy tugatish chog'ida quyidagi vazifalarni bajaradi:

bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berish va bankning litsenziyasini chaqirib olish to'g'risidagi qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kun ichida ommaviy axborot vositalarida va bankning rasmiy veb-saytida bankni ixtiyoriy tugatish jarayoni boshlanganligi, shuningdek kreditorlar tomonidan talablarni taqdim etish muddatlari to'g'risida e'lon qilish;

kreditorlar tomonidan talablarni taqdim etish muddati tugaganidan keyin bir oy ichida bankning oraliq tugatish balansini tuzish;

bankning kreditorlari bilan hisob-kitobni amalga oshirish;  
bank aktivlarini sotish bo'yicha choralar ko'rish;  
kreditorlar bilan hisob-kitoblar yakunlanganidan keyin bankning yakuniy tugatish balansini tuzish;

ushbu bobning 11-paragrafida belgilangan tartibda Markaziy bankka hisobot va ma'lumotlarni taqdim etish.

274. Tugatuvchi Markaziy bankning bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnomani berish va bankning litsenziyasini chaqirib olish to'g'risidagi qarori qabul qilingan kundan e'tiboran o'n ikki oy ichida ushbu Nizomning 273-bandida ko'rsatilgan, bankni ixtiyoriy tugatish bilan bog'liq barcha ishlarni yakunlashi lozim. Tugatuvchining asoslantirilgan so'roviga asosan Markaziy bank ushbu muddatni ko'pi bilan olti oyga uzaytirishga haqli.

275. Agar ixtiyoriy tugatish jarayonida bankning to'lovga qobiliyatsiz ekanligi aniqlansa, tugatuvchi zudlik bilan Markaziy bankni bu haqda xabardor qilishi hamda bankning moliyaviy holatini tasdiqlovchi tegishli hisobotni va hujjatlarni taqdim etishi kerak.

Markaziy bank ushbu bandning birinchi xatboshisida ko'rsatilgan hujjatlarni o'n ish kuni ichida ko'rib chiqadi hamda O'zbekiston Respublikasi "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi Qonunining 20-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlarida ko'rsatilgan asoslardan birortasi mavjud bo'lgan taqdirda, bankni majburiy tugatish haqida tegishli qaror qabul qiladi.

276. Bankning yakuniy tugatish balansi tuzilganidan so'ng bankning qolgan mol-mulki aksiyadorlar o'rtasida qonunchilikka muvofiq taqsimlanadi.

277. Tugatuvchi bankning qolgan mol-mulki aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanganidan so'ng ushbu bobning 10-paragrafida belgilangan bankni tugatishni yakunlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

#### **6-§. Ixtiyoriy tugatishda Markaziy bank bilan kelishilishi lozim bo'lgan qarorlar**

278. Ixtiyoriy tugatilayotgan bankning quyidagi qarorlari (bundan buyon matnda ixtiyoriy tugatilayotgan bankning qarori deb yuritiladi) Markaziy bank bilan kelishilishi lozim:

tugatuvchini almashtirishni nazarda tutuvchi qaror;

bankning tugatish rejasiga o'zgartirishlar kiritishni nazarda tutuvchi qaror.

279. Ushbu Nizomning 278-bandida ko'rsatilgan ixtiyoriy tugatilayotgan bankning qarorini kelishish uchun bank mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kun ichida Markaziy bankka quyidagilarni ilova qilgan holda ariza taqdim etadi:

1) tugatuvchini almashtirishni nazarda tutuvchi qarorni kelishish uchun:  
bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining yoki bank yagona aksiyadorining tugatuvchini almashtirish haqidagi qarori;

ushbu Nizomning 260-bandi 6-kichik bandida ko'rsatilgan axborot va hujjatlar;

2) bankning tugatish rejasiga o'zgartirishlar kiritishni nazarda tutuvchi qarorini kelishish uchun:

bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining (aksiyadorning) bankning tugatish rejasiga o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarori;

bankning tugatish rejasiga kiritilayotgan o'zgartirishlar matni va mazkur o'zgartirishlarni kiritish asoslari.

280. Markaziy bank ixtiyoriy tugatilayotgan bankning qarorini ushbu Nizomning 279-bandida ko'rsatilgan tegishli hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran bir oy ichida kelishadi yoki kelishishni rad etadi.

281. Ixtiyoriy tugatilayotgan bankning qarorini kelishishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

ushbu Nizomning 279-bandida ko'rsatilgan hujjatlar va ma'lumotlarning to'liq taqdim etilmaganligi yoki qonunchilik talablariga muvofiq emasligi;

kiritilayotgan o'zgartirishlar natijasida ixtiyoriy tugatish rejasining ushbu Nizomning 249-bandida ko'rsatilgan talablarga nomuvofiq bo'lishi – bankning tugatish rejasiga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda;

tugatuvchining ushbu Nizomning III bo'limida belgilangan talablarga muvofiq emasligi – tugatuvchi almashtirilgan taqdirda.

282. Markaziy bank ixtiyoriy tugatilayotgan bankning qarorini kelishish yoki kelishishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida bankni bu haqda yozma shaklda, shu jumladan axborot-kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda xabardor qiladi.

Ixtiyoriy tugatilayotgan bankning qarorini kelishishni rad etish ushbu Nizomning 281-bandi ikkinchi va uchinchi xatboshilarida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra rad etilgan taqdirda, ixtiyoriy tugatilayotgan bankning qarorini kelishishni rad etish to'g'risidagi xabarnomada rad etish asoslari hamda bank rad etish

asoslarini bartaraf etib, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish uchun taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatiladi. Mazkur muddat rad etish asoslarini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan vaqtga mutanosib bo'lishi, ammo o'n ish kunidan kam bo'lmasligi kerak.

283. Ixtiyoriy tugatilayotgan bankning qarorini kelishishni rad etish asoslari bank tomonidan ixtiyoriy tugatilayotgan bankning qarorini kelishishni rad etish to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddatda bartaraf etilgan taqdirda, arizani qayta ko'rib chiqish rad etish sabablari bartaraf etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n ish kunidan oshmagan muddatda amalga oshiriladi.

Ixtiyoriy tugatilayotgan bankning qarorini kelishishni rad etish to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat o'tganidan keyin taqdim etilgan ariza va hujjatlar yangidan topshirilgan hisoblanadi va Markaziy bank tomonidan umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

284. Ixtiyoriy tugatilayotgan bankning qarorini kelishish to'g'risidagi arizani qayta ko'rib chiqish chog'ida ixtiyoriy tugatilayotgan bankning qarorini kelishishni rad etish to'g'risidagi xabarnomada ilgari ko'rsatilmagan yangi asoslar bo'yicha rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

285. Ixtiyoriy tugatilayotgan bankning qarorini kelishish ushbu Nizomning 281-bandi to'rtinchi xatboshisida ko'rsatilgan asosga ko'ra rad etilgan taqdirda, bank yangi tugatuvchini tayinlash haqida qaror qabul qilishi va mazkur qarorni kelishish uchun Markaziy bankka qayta ariza taqdim etishi mumkin. Bunda ariza yangidan topshirilgan hisoblanadi va Markaziy bank tomonidan umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

286. Ixtiyoriy tugatilayotgan bankning qarori Markaziy bank bilan kelishilgandan so'ng kuchga kiradi.

287. Ixtiyoriy tugatilayotgan bankning qarorini kelishish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish va qayta ko'rib chiqish uchun yig'im undirilmaydi.

### **7-§. Bankni majburiy tugatish tartibi**

288. Agar bank tizimli ahamiyatga molik deb e'tirof etilmagan bo'lsa, u O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 77-moddasida nazarda tutilgan hollarda majburiy tugatilishi mumkin.

Ixtiyoriy tugatish jarayonidagi bank ushbu Nizomning 256, 267 va 275-bandlarida ko'rsatilgan hollarda majburiy tugatiladi.

289. Bankni majburiy tugatish suddan tashqari tartibda va (yoki) O'zbekiston Respublikasi "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi Qonunining 62-moddasiga muvofiq sud tartibida amalga oshirilishi mumkin.

290. Bankni majburiy tugatish uchun Markaziy bank boshqaruvi bankni majburiy tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Bankni majburiy tugatish to'g'risidagi qarorda mazkur qarorning kuchga kirish sanasi hamda aniq vaqti ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

291. Bankni majburiy tugatish to'g'risidagi qaror mazkur qaror kuchga kirgan kunda majburiy tugatiladigan bank rahbariyatiga imzo qo'ydirib topshiriladi.

292. Bankni majburiy tugatish to'g'risidagi qaror kuchga kirgan vaqtdan boshlab bank bankni tugatish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa faoliyatni (harakatni) amalga oshirishga haqli emas.

293. Bankni majburiy tugatish to'g'risidagi qaror kuchga kirgan kunda Markaziy bank bu haqda Omonatlarni kafolatlash agentligini, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysini, tugatilayotgan bank ishtirokchisi bo'lgan to'lov tizimlarini, tugatilayotgan bank vakillik hisobvaraqlariga ega bo'lgan chet el banklarini xabardor qiladi.

Bankni majburiy tugatish to'g'risidagi qaror tugatilayotgan bankning aksiyadorlarini va manfaatdor taraflarni xabardor qilish maqsadida qaror kuchga kirgan kunning o'zida Markaziy bankning rasmiy veb-saytida, qaror kuchga kirgan kundan e'tiboran uch kun ichida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

294. Bankni majburiy tugatish to'g'risidagi qaror kuchga kirgan kundan e'tiboran:

bankning barcha pul majburiyatlarini, shuningdek soliqlar va yig'imlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlarini bajarish muddati boshlangan deb hisoblanadi;

bankning barcha turdagi majburiyatlari bo'yicha foizlar va neustoykalar hisoblanishi to'xtatiladi;

mol-mulk solig'i, yer solig'i, shuningdek soliqlar va yig'imlar bo'yicha avval hisoblangan hamda undirilmagan majburiyatlar yuzasidan penyalalar va jarimalarning hisoblanishi to'xtatib turiladi;

bank mol-mulkini sotishdan tushumlarning kreditorlar talablarini qanoatlantirishga yo'naltirilgan qismi qo'shilgan qiymat solig'idan va daromad solig'idan ozod etiladi;

bank aktivlariga nisbatan uchinchi shaxslar tomonidan har qanday harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan talablarni qanoatlantirish bo'yicha sudning hal qiluv qarori va ijro ishini yuritish bo'yicha undiruvni amalga oshirish to'xtatib turiladi, bankning mol-mulki xatlashdan ozod etiladi va bankka nisbatan boshqa cheklovlar olib tashlanadi;

mijozlarning bank hisobvaraqlari bo'yicha kirim va chiqim operatsiyalari to'xtatib turiladi;

bankning boshqa banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalari to'xtatib turiladi;

agar talab o'tkazilsa yoki undan boshqa shaxs foydasiga voz kechilsa, oluvchi yoki sertifikat bo'yicha talab qilib olish huquqini olayotgan taraf (sessionariy) mazkur talab bo'yicha dastlabki ustuvorlikni saqlab qoladi;

ijro hujjatlarini ijro etish tugatiladi. Pul majburiyatlari, soliqlar va yig'imlar bo'yicha barcha talablar, boshqa mulkiy talablar faqat majburiy tugatish doirasida bankka taqdim etilishi mumkin, bundan mulk huquqini e'tirof etish to'g'risidagi, ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish haqidagi, mol-mulkni boshqa shaxsning qonunga xilof egaligidan talab qilib olish to'g'risidagi, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish haqidagi, bitimlarni haqiqiy emas deb topish va ularning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash to'g'risidagi talablar, shuningdek joriy to'lovlar bo'yicha talablar mustasno.

Ushbu bandning oltinchi xatboshisiga muvofiq to'xtatib turilgan jarayonlar, agar jarayonning predmeti bo'lgan talab oraliq tugatish balansiga kiritilgan bo'lsa va mazkur talabga nisbatan e'tirozlar bo'lmasa, Markaziy bank tomonidan oraliq tugatish balansi tasdiqlanganidan keyin tugatiladi.

295. Bank majburiy tugatilayotganda tugatuvchi Markaziy bank boshqaruvining qarori bilan tayinlanadi. Markaziy bank tugatish komissiyasi tarkibiga Markaziy bank xodimlarini kiritishga haqli.

Tugatuvchi ushbu Nizomning III bo'limida belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

Tugatuvchi majburiy tugatilayotgan bankning yagona vakilidir.

296. Bankni majburiy tugatishda tugatuvchi tayinlangan paytdan e'tiboran bank ishlarini boshqarish bo'yicha vakolatlar, shu jumladan bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining, kuzatuv kengashining va boshqaruvining vakolatlari unga o'tadi.

297. Tugatuvchi bankni majburiy tugatish to'g'risidagi qaror kuchga kirgan kundan e'tiboran uch kun ichida ommaviy axborot vositalarida va bankning rasmiy veb-saytida quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotni e'lon qiladi:

bankni majburiy tugatish boshlanganligi to'g'risidagi;  
tugatilayotgan bankning firma nomi va rekvizitlari haqidagi;  
bankning tugatuvchisi to'g'risidagi;

kreditorlar tomonidan talablar taqdim etish tartibi to'g'risidagi, shu jumladan kafolatlash obyektlari egalari bo'lgan kreditorlarni (omonatchilarni) Omonatlarni kafolatlash agentligiga kompensatsiyalar to'lanishi uchun tugatuvchi tomonidan taqdim etilgan reyestrda ma'lumotlar bilan tanishtirish haqidagi;  
zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni.

298. Tugatuvchi ushbu Nizomning 297-bandida nazarda tutilgan axborot e'lon qilingan kundan e'tiboran ikki oy ichida:

barcha kreditorlarga ularning bankka nisbatan talablarining turi va miqdori to'g'risida xabarnoma yuborishi;

bank seyflarida saqlashga topshirilgan qimmatliklarni o'z egalari qaytarish uchun zarur choralar ko'rishi;

bank aktivlarini aniqlashi, ularni talab qilib olish va mazkur aktivlarni baholash bo'yicha choralar ko'rishi kerak.

299. Tugatuvchi tugatilayotgan bank joylashgan yerdagi Markaziy bank hududiy bosh boshqarmasining hisob-kitob kassa markazida har bir valyuta turi bo'yicha alohida tugatish hisobvarag'ini ochadi.

Tugatilayotgan bankning barcha mablag'lari, shu jumladan chet el valyutasidagi mablag'lar ushbu tugatish hisobvaraqlarida saqlanadi.

300. Tugatuvchi ushbu Nizomning 307-bandida ko'rsatilgan, kreditorlar tomonidan talablarni taqdim etish muddati tugaganidan keyin ikki oy ichida:

bank mol-mulkining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantiradi;  
kreditorlarning talablari reyestrini shakllantiradi;  
oraliq tugatish balansini tuzadi.

301. Tugatuvchi tomonidan kreditorlarning talablari reyestrini shakllantirish ushbu bobning 8-paragrafida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

302. Oraliq tugatish balansi u tuzilgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida Markaziy bankka kreditorlarning talablari reyestri bilan birga taqdim etiladi.

Markaziy bank oraliq tugatish balansini u taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n ish kuni ichida tasdiqlaydi.

303. Kreditorlarning talablarini qanoatlantirish oraliq tugatish balansi Markaziy bank tomonidan tasdiqlanganidan so'ng keyingi kundan boshlanadi, bundan ushbu Nizomning 304-bandida ko'rsatilgan hollar mustasno.

Kreditorlarning talablari ushbu bobning 9-paragrafida belgilangan tartibda qanoatlantiriladi.

304. Tugatuvchi oraliq tugatish balansi Markaziy bank tomonidan tasdiqlanganidan keyin O'zbekiston Respublikasi "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi Qonunining 62-moddasida ko'rsatilgan hollarda va tartibda sudga majburiy tugatilayotgan bankni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish haqidagi ariza bilan murojaat qilishga haqli.

Bankni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risida sud tomonidan qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran tugatuvchining bankni majburiy tugatishga doir vazifalari va Markaziy bankning bu boradagi vakolatlari tugatiladi.

305. Bankni majburiy tugatish jarayonida majburiy tugatilayotgan bankning aktivlari hamda majburiyatlarini boshqa bankka o'tkazish va (yoki) bankning aktivlarini sotish vositalaridan foydalaniladi.

Ushbu Nizomda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, majburiy tugatish vositalaridan foydalanishda aksiyadorlarning, omonatchilar va kreditorlarning, shuningdek boshqa manfaatdor shaxslarning (tugatilayotgan bankka garov ta'minotini va kafolatlar taqdim etgan shaxslarning) roziligi talab etilmaydi.

Bankning majburiyatlari boshqa bankka o'tkazilgan taqdirda, tugatuvchi bu haqda kreditorlarni bankning majburiyatlari o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n ish kuni ichida xabardor qilishi shart.

#### **8-§. Majburiy tugatilayotgan bank kreditorlarining talablari reyestrini shakllantirish tartibi**

306. Kreditorlar tomonidan talablarni taqdim etish muddati bankni majburiy tugatish to'g'risida e'lon qilingan paytdan e'tiboran ikki oydan kam bo'lmasligi kerak. Bunda mazkur muddat ushbu Nizomning 297-bandiga muvofiq ommaviy axborot vositalarida va bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan axborotda ko'rsatiladi.

Kreditorlarning barcha talablari faqat tugatuvchiga taqdim etilishi mumkin.

307. Tugatuvchiga kreditorlarning talablari yozma shaklda, ariza va mazkur talablarni tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga taqdim etiladi. Kreditor talablar bayon etilgan arizada quyidagilarni ko'rsatishi shart:

o'zi haqidagi ma'lumotlarni;

yuridik shaxslar uchun – firmaning to'liq nomini, joylashgan yerini (pochta manzilini), bank rekvizitlarini;

jismoniy shaxslar uchun – jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini, pochta manzili, bank rekvizitlarini (mavjud bo'lgan taqdirda);

elektron pochta manzilini (mavjud bo'lgan taqdirda).

Arizada elektron pochta manzilining ko'rsatilishi kreditorning bankka nisbatan talablarining turi va miqdori to'g'risidagi xabarnomani, uning talablari to'liq qanoatlantirilishi rad etilgan taqdirda, bu haqdagi xabarnomani elektron shaklda olishga bo'lgan roziligidir.

308. Kafolatlash obyektining egasi bo'lgan kreditor (omonatchi) tugatuvchidan kafolatlash obyektining faqat kafolatlangan omonatdan oshadigan qismini talab qilishga haqli.

309. Tugatuvchi kreditorlar tomonidan talablar taqdim etish uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin ikki oy ichida bankning buxgalteriya hisobi hujjatlariga, shuningdek kreditorlar tomonidan taqdim etilgan arizalarga asosan kreditorlarning talablari reyestrini shakllantiradi.

310. Bankning buxgalteriya hisobi hujjatlariga ko'ra aniqlangan kreditorning talablari va kreditor tomonidan ushbu Nizomning 307-bandida belgilangan tartibda taqdim etilgan talablar muvofiq bo'lmagan taqdirda, bunday talablarning miqdori mazkur talablarni asoslovchi hujjatlarga yoki sud qaroriga asosan belgilanadi.

311. Kreditorlarning talablari reyestrda har bir kreditor to'g'risidagi ma'lumotlar, talablarni ko'rib chiqish natijalari, ya'ni qanoatlantirish uchun qabul qilingan yoki qanoatlantirish rad etilgan talablar haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Kreditorlarning talablari reyestri shakllantirilganidan keyin tugatuvchi kreditorlar o'z talablarining ko'rib chiqilishi natijalari to'g'risida, talablarni qanoatlantirishning navbati va boshlanishi haqida axborot olishi mumkin bo'lgan sana va joy to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon berishi kerak.

Kreditorlarga kreditorlarning talablari reyestri bilan tanishish imkoniyati ta'minlanishi kerak.

312. Tugatuvchi kreditorning yoki uning vakilining talabiga ko'ra, bunday talabnoma olingan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida mazkur kreditorga yoki uning vakiliga uning talablarini qanoatlantirish miqdori, tarkibi va navbati to'g'risida kreditorlarning talablari reyestridan ko'chirma yuborishi shart. Bunday ko'chirmani tayyorlashga va yuborishga doir xarajatlar kreditorning zimmasiga yuklatiladi.

### **9-§. Majburiy tugatilayotgan bank kreditorlarining talablarini qanoatlantirish tartibi**

313. Kreditorlarning quyidagi talablari (bundan buyon matnda bankni majburiy tugatish bilan bog'liq xarajatlar deb yuritiladi) navbatdan tashqari qanoatlantiriladi:

kommunal xizmatlar uchun to'lovlar, ijara haqi va boshqa joriy xizmatlar bo'yicha to'lovlar;

tugatuvchini mukofotlash, bankning xodimlariga ishdan bo'shatish nafaqasini to'lash, tugatuvchining va u bankni tugatishga jalb qilgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar;

sud xarajatlari;

e'lon berish hamda xabarnomalar yuborish bilan bog'liq xarajatlar;

bank aktivlarining but saqlanishini ta'minlash, ularni boshqarish, baholash va inventarizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlar;

bankni majburiy tugatish bilan bog'liq boshqa xarajatlar, shu jumladan soliqlar va yig'imlar.

314. Kreditorlarning bankni majburiy tugatish bilan bog'liq xarajatlar deb hisoblanmaydigan talablari quyidagi navbatda qanoatlantiriladi:

birinchi navbatda – sanatsiya qilish vositalarini qo'llash va bankni tugatish maqsadida berilgan mablag'lar bo'yicha Markaziy bankning, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining hamda Omonatlarni kafolatlash agentligining talablari;

ikkinchi navbatda – O'zbekiston Respublikasi "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi Qonuni 150-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan talablar;

uchinchi navbatda – O'zbekiston Respublikasi "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 31-moddasiga muvofiq Omonatlarni kafolatlash agentligiga o'tgan talablar;

to'rtinchi navbatda – O'zbekiston Respublikasi "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida belgilangan kafolatlash obyektlarining kafolatlangan omonat miqdoridan oshadigan qismiga doir talablar;

beshinchi navbatda – ushbu bandning uchinchi – oltinchi va sakkizinchi – o'n birinchi xatboshilarida nazarda tutilgan toifalarga tushmaydigan ta'minlanmagan talablar, shu jumladan bankning majburiyatlari bajarilishining ta'minoti sifatida taqdim etilgan mol-mulkni sotishdan tushgan mablag'lar yetarli bo'lmaganligi natijasida qanoatlantirilmagan talablar;

oltinchi navbatda – bankka aloqador shaxslarning talablari;

yettinchi navbatda – kapital vositasi bo'lmagan subordinar qarzlarga doir talablar;

sakkizinchi navbatda – ikkinchi darajali kapital vositasi bo'lgan talablar;

to'qqizinchi navbatda – birinchi darajali qo'shimcha kapital vositasi bo'lgan talablar.

Har bir keyingi navbatning talablari oldingi navbatning talablari to'liq qanoatlantirilganidan keyin qanoatlantiriladi.

315. Tugatuvchi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni tugatish massasi hisobidan, kreditorlarning talablari reyestriga muvofiq amalga oshiradi.

316. Tugatish jarayoni boshlanishi paytida bankning barcha aktivlari hamda tugatish jarayoni davomida aniqlangan mol-mulki tugatish massasini shakllantirish manbasi bo'ladi. Bunda tugatish massasiga quyidagilar kirmaydi:

garov narsasi bo'lgan mol-mulk, bundan ushbu Nizomning 319-bandi ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan hollar mustasno;

bank seyflarida saqlash uchun topshirilgan qimmatliklar;

bank ijara huquqi asosida foydalanayotgan, ishonchli boshqaruvda bo'lgan mol-mulk;

majburiy tugatish bilan bog'liq xarajatlarni amalga oshirish uchun Markaziy bankdan jalb etilgan mablag'lar;

qonunchilikka muvofiq bankning mulki bo'lmagan boshqa mol-mulk.

317. Kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun mablag'lar yetarli bo'lmagan taqdirda, tugatuvchi bankning aktivlarini, shu jumladan mol-mulkini sotishga haqli. Bunda tugatuvchi oraliq tugatish balansi Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan kundan e'tiboran o'n ikki oy ichida bank aktivlari sotilishini ta'minlashi kerak.

Tugatuvchining asoslantirilgan so'roviga asosan Markaziy bank aktivlarni sotish muddatini ko'pi bilan o'n ikki oyga uzaytirishga haqli.

318. Bankning sotilishi qiyin bo'lgan mol-mulki bir turdagi kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun ularning roziligi bilan ularga to'g'ridan-to'g'ri topshirilishi mumkin.

Ushbu Nizom maqsadlarida bankning sotilishi qiyin bo'lgan mol-mulki deganda tugatuvchi tomonidan tugatilayotgan bankning mol-mulkini sotish uchun barcha mavjud imkoniyatlar qo'llanilgandan so'ng sotilmay qolgan bankning mol-mulki tushuniladi.

319. Kreditorlarning bank mol-mulki bilan ta'minlangan talablarini qanoatlantirish ushbu mol-mulkni sotishdan tushgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Bunda garov narsasi bo'lgan bank mol-mulkini baholash baholovchi tashkilot tomonidan majburiy tartibda amalga oshiriladi.

Bank majburiyatlari bajarilishining ta'minoti sifatida taqdim etilgan mol-mulkni sotishdan tushgan mablag'lar mazkur kreditorlarning talablaridan ortgan taqdirda, ularning qolgan qismi tugatish massasiga yo'naltiriladi.

Bank majburiyatlari bajarilishining ta'minoti sifatida taqdim etilgan mol-mulkni sotishdan tushgan mablag'lar kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun yetarli bo'lmagan taqdirda, mazkur talablarning qanoatlantirilmagan qismi ushbu Nizomning 314-bandida belgilangan navbatga muvofiq qanoatlantiriladi.

320. Kreditorlarning talablari reyestriga kiritilgan talabni kreditorga qaytarish yoki mablag'larni uning hisobvarag'iga o'tkazish mumkin bo'lmagan taqdirda, mazkur kreditorga tegishli mablag'lar boshqa bankda uning foydasiga ochilgan hisobvaraqa o'tkaziladi.

321. Bir turdagi kreditorlarning talablarini to'liq qanoatlantirish uchun mablag'lar yetarli bo'lmaganda ushbu talablar har bir kreditorga tegishli bo'lgan summaga mutanosib ravishda qanoatlantiriladi.

322. Kreditorlarning tugatuvchi tomonidan shakllantirilgan talablar reyestriga kiritilmagan, bankni majburiy tugatishni boshlash to'g'risidagi e'londa belgilangan kreditorlar talablarini taqdim etish muddati tugaganidan keyin bildirilgan talablari, shuningdek majburiy tugatish boshlanganidan keyin yuzaga kelgan soliqlar va yig'imlar bo'yicha talablar ushbu Nizomning 315 va 316-bandlarida nazarda tutilgan tartibda, ular qaysi muddatda taqdim etilganidan qat'i nazar, talablar ro'yxatiga kiritilgan kreditorlarning talablari qanoatlantirilganidan keyin qanoatlantiriladi.

323. Kreditorlarning talablari tugatilayotgan bank va kreditor talablarini o'zaro hisobga olish yo'li bilan quyidagi shartlarga rioya etgan holda qanoatlantirilishi mumkin:

talablar bo'yicha to'lov muddatining yetib kelgan bo'lishi;

ikkala tarafning qarzni inkasso qilish va to'lash huquqiga ega bo'lishi;

kreditorning talablarini qanoatlantirish navbati yetib kelgan bo'lishi;

tafklar bir-biriga ariza bilan murojaat qilgan bo'lishi;

tafklar bir-biriga ariza bilan murojaat qilgan bo'lishi;

kreditorning tugatilayotgan bankka nisbatan talablari talab qilish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechishga doir shartnoma tufayli yuzaga kelmagan bo'lishi;

kreditorning bankka aloqador shaxs bo'lmasligi.

324. Kreditorlarning bankning mol-mulki yetarli bo'lmaganligi sababli qanoatlantirilmagan talablari qanoatlantirilgan deb hisoblanadi.

325. Tugatuvchi kreditorlarning talablari reyestriga kreditorlarning talablari qanoatlantirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritadi.

326. Kreditorlar bilan hisob-kitoblar yakunlanganidan keyin tugatuvchi yakuniy tugatish balansini tuzadi.

327. Kreditorlar bilan hisob-kitoblar yakunlanganidan keyin qolgan tugatish massasi aksiyadorlar o'rtasida qonunchilikka muvofiq taqsimlanadi.

### **10-§. Bankni tugatishni yakunlash**

328. Tugatuvchi ushbu bobning tegishincha 5 yoki 9-paragraflarida nazarda tutilgan tartib-taomillar yakunlanganidan keyin bank qimmatli qog'ozlari chiqarilishining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini bekor qilish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiradi.

329. Tugatuvchi bank qimmatli qog'ozlari chiqarilishining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi bekor qilingan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida Markaziy bankka tugatish yakunlanganligini tasdiqlovchi quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

tugatuvchi tomonidan qilingan ishlar to'g'risidagi hisobotni;

bankni tugatish to'g'risida ommaviy axborot vositalarida berilgan e'lonlarning ko'chirma nusxalarini;

bankning oxirgi ish kunidagi balansini;

yakuniy tugatish balansini;  
balansdan tashqari hisobvaraqlar bo'yicha yakuniy tugatish balansini;  
bank hujjatlarini va yig'majildlarini yo'q qilish uchun ajratish to'g'risidagi dalolatnomani;

bank hujjatlarini va elektron bazasi ma'lumotlarini arxivda saqlash uchun tuzilgan qabul qilish-topshirish to'g'risidagi dalolatnomani;

bankning muhrlari va shtamlari yo'q qilinganligini tasdiqlovchi hujjatni;  
bank qimmatli qog'ozlari chiqarilishining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi bekor qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlarni.

330. Tugatuvchi tomonidan qilingan ishlar to'g'risidagi hisobotda quyidagilar aks ettirilishi kerak:

tugatilayotgan bankning nomi va manzili;  
tugatuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar;  
undirilgan debitorlik qarzlarning umumiy summasi;

shakllantirilgan tugatish massasi to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan bankning mol-mulkini inventarizatsiya qilish jarayoni va natijalari haqidagi, mol-mulkni baholash jarayoni hamda natijalari to'g'risidagi, ularni sotishdan tushgan mablag'lar haqidagi, bankning mol-mulkini sotib olgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar;

yaroqsiz yoki qimmatga ega bo'lmagan deb topilgan aktivlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

tugatuvchining bankning qolgan aktivlari likvidli emasligi yoki ularni sotish murakkabligi haqidagi xulosasining asosi;

kreditorlar tomonidan taqdim etilgan talablarning umumiy summasi, shu jumladan tugatuvchi tomonidan tan olingan va tan olinmagan talablar summasi, har bir navbat kreditorlari talablarining qanoatlantirilgan umumiy summasi, bankning sotilmagan mol-mulki hisobidan to'g'ridan-to'g'ri qanoatlantirilgan talablar summasi;

bankning mol-mulki yetarli bo'lmaganligi sababli qanoatlantirilgan deb hisoblanadigan talablar summasi, shuningdek bankni majburiy tugatish bilan bog'liq xarajatlarning har bir moddasi to'g'risidagi ma'lumotlar – bank majburiy tugatilgan taqdirda. Bunda bankni majburiy tugatish bilan bog'liq xarajatlarning o'rnini qoplash uchun Markaziy bankning mablag'laridan foydalanilgan hollarda mazkur mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

331. Bank ixtiyoriy tugatilganda yoki suddan tashqari tartibda majburiy tugatilgan taqdirda, Markaziy bank yakuniy tugatish balansini ushbu Nizomning 330-bandida ko'rsatilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n ish kuni ichida tasdiqlaydi hamda Banklarning davlat reyestriga bankni tugatish yakunlanganligi va bank tugatilganligi to'g'risidagi yozuvni kiritadi.

332. Banklarning davlat reyestriga bank tugatilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilgan kundan e'tiboran bankni tugatish tamomlangan, bank esa tugatilgan deb hisoblanadi.

### **11-§. Bankni tugatish jarayonida tugatuvchining hisobdorligi**

333. Tugatuvchi har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar ushbu Nizomning 336-bandida ko'rsatilgan hisobot va ma'lumotlarni Markaziy bankka taqdim etishi lozim.

334. Tugatuvchi tomonidan Markaziy bankka taqdim etiladigan hisobot va ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

tugatish jarayoni to'g'risidagi, shu jumladan kreditorlarning qanoatlantirilgan talablari, sotilgan va sotilayotgan aktivlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisobotni;

bankni tugatish rejasini amalga oshirishga yoki bankni tugatishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan har qanday holatlar to'g'risidagi axborotni;

Markaziy bankning so'roviga ko'ra uning tugatish jarayoni ustidan nazoratni amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni.

## **VII bo'lim. Yakuniy qoidalar**

335. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

336. Bank faoliyatiga ruxsat berishga doir nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

337. Markaziy bankning qarorlari ustidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.”.

10. 11-ilovaning 6.1-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6.1. Sizning quyida keltirilgan sohalardagi bilim darajangiz:

Soha nomi	Bilim darajasi			
	yuqori	o'rtacha	past	mavjud emas

Bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari va ular bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchiliklar				
Moliyaviy bozorlar, shu jumladan pul bozori va qimmatli qog'ozlar bozori				
Buxgalteriya hisobi va hisoboti				
Tavakkalchiliklarni boshqarish				
Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish				
Ichki audit				
Axborot texnologiyalari va xavfsizlik				
O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari				
Strategik rejalashtirish				
Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillari				

*Nomzodning ushbu sohalarda tahsil olganligini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlar va ma'lumotnomalar ilova qilinishi lozim."*

11. 16-ilova mazkur o'zgartirish va qo'shimchalarning 1-ilovasiga muvofiq tahrirda bayon etilsin.

12. Mazkur o'zgartirish va qo'shimchalarning 2 va 3-illovalariga muvofiq tahrirdagi 17 va 18-illovalar bilan to'ldirilsin.

Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi  
va shartlari to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan  
o'zgartirish va qo'shimchalarga  
1-ILOVA

“Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi  
va shartlari to'g'risidagi nizomga  
16-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki

**Bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnoma berish to'g'risida  
ARIZA**

\_\_\_\_\_ (bankning to'liq firma nomi)

aksiyadorlari umumiy yig'ilishining (yagona aksiyadorining) 20\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_ dagi bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnomani olish to'g'risidagi \_\_\_\_\_-son qarori qabul qilinganligi munosabati bilan Sizdan bankni ixtiyoriy tugatishga doir dastlabki ruxsatnoma berishingizni so'raymiz.

I. Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR): \_\_\_\_\_

II. Bog'lanish uchun mas'ul shaxs:

F.I.O.: \_\_\_\_\_

Egallab turgan lavozimi: \_\_\_\_\_

Telefon raqami: \_\_\_\_\_

Elektron pochta manzili: \_\_\_\_\_

III. Arizaga ilova qilingan hujjatlar ro'yxati (\_\_\_ varaqda):

1) \_\_\_\_\_ (\_\_\_ varaqda)

2) \_\_\_\_\_ (\_\_\_ varaqda)

3) \_\_\_\_\_ (\_\_\_ varaqda)

...

“\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_ y.

**Kuzatuv kengashi raisi** \_\_\_\_\_”.

(imzo)

”.

Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi  
va shartlari to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan  
o'zgartirish va qo'shimchalarga  
2-ILOVA

“Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi  
va shartlari to'g'risidagi nizomga  
17-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki

**Bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnoma berish to'g'risida  
ARIZA**

*(bankning to'liq firma nomi)*

aksiyadorlari umumiy yig'ilishining (yagona aksiyadorining) 20\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_ dagi bankni ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi \_\_\_\_\_-son qarori qabul qilinganligi munosabati bilan Sizdan bankni ixtiyoriy tugatishga doir yakuniy ruxsatnoma berishingizni so'raymiz.

Ushbu orqali bankdagi kafolatlash obyektlari to'liq qaytarilganligini va (yoki) boshqa bankka o'tkazilganligini tasdiqlaymiz.

I. Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR): \_\_\_\_\_

II. Bog'lanish uchun mas'ul shaxs:

F.I.O.: \_\_\_\_\_

Egallab turgan lavozimi: \_\_\_\_\_

Telefon raqami: \_\_\_\_\_

Elektron pochta manzili: \_\_\_\_\_

III. Arizaga ilova qilingan hujjatlar ro'yxati (\_\_\_ varaqda):

1) \_\_\_\_\_ (\_\_\_ varaqda)

2) \_\_\_\_\_ (\_\_\_ varaqda)

3) \_\_\_\_\_ (\_\_\_ varaqda)

...

“\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_ y.

**Kuzatuv kengashi raisi** \_\_\_\_\_”.

(imzo)

”.

Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi  
va shartlari to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan  
o'zgartirish va qo'shimchalarga  
3-ILOVA

“Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi  
va shartlari to'g'risidagi nizomga  
18-ILOVA

**Tugatuvchi va tugatilayotgan bank o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi yuzasidan  
MA'LUMOT**

1. Tugatuvchining F.I.O.: \_\_\_\_\_;
2. Tugatuvchi va uning yaqin qarindoshlarining tugatilayotgan bank oldidagi majburiyatlari.  
Bunda yaqin qarindoshlar deganda ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari tushuniladi.

F.I.O.	JSHSHIR	Qarindoshlik darajasi <sup>1</sup>	Majburiyat miqdori		Majburiyat turi <sup>2</sup>	Majburiyat yuzaga kelgan sana
			Milliy valyutadagi majburiyat	Xorijiy valyutadagi majburiyat		

3. Tugatilayotgan bankning tugatuvchi va uning yaqin qarindoshlari oldidagi majburiyatlari:

F.I.O.	JSHSHIR	Qarindoshlik darajasi	Talab miqdori		Talab turi <sup>3</sup>	Talab yuzaga kelgan sana
			Milliy valyutadagi talab	Xorijiy valyutadagi talab		

4. Tugatuvchi va uning yaqin qarindoshlarining tugatilayotgan bankda so'nggi 5 yil ichidagi mehnat faoliyati:

F.I.O.	JSHSHIR	Qarindoshlik darajasi	Egallagan lavozimi	Mehnat faoliyati davri	
				Boshlangan sana	Yakunlangan sana

5. Tugatilayotgan bankda tugatuvchi va uning yaqin qarindoshlari tomonidan egalik qilinayotgan yoki so‘nggi 5 yil ichida egalik qilingan ulushlar:

F.I.O.	JSHSHI R	Qarindoshli k darajasi	Ulush miqdori <sup>4</sup>		Ulushga egalik qilish davri	
			So‘md a	Foizda	Boshlangan sana	Yakunlangan sana <sup>5</sup>

6. Tugatuvchining so‘nggi 5 yil davomida boshqa banklarning hal qiluvchi egalikka ega aksiyadori va (yoki) boshqaruv organlari a’zosi sifatidagi munosabatlari:

Bank nomi	Egallagan lavozimi	Ulush miqdori		Mehnat faoliyati (ulushga egalik qilish) davri	
		So‘mda	Foizda	Boshlangan sana	Yakunlangan sana

7. Tugatish jarayonida tugatuvchi o‘z vazifalarini xolis bajarishiga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan har qanday boshqa moliyaviy va ishbilarmonlik manfaatlari yoki holatlar haqida batafsil ma’lumotlar: \_\_\_\_\_

*Izoh:*

- 1. Shaxsning tugatuvchiga yaqin qarindoshlik darajasi aks ettiriladi.*
- 2. Tugatilayotgan bank oldidagi majburiyatlar har bir majburiyat turi (ipoteka krediti, avtokredit, mikroqarz va boshqalar) bo‘yicha alohida satrda ko‘rsatiladi.*
- 3. Tugatilayotgan bankka nisbatan talablar har bir talab turi (omonat, obligatsiya, subordinar qarz va boshqalar) bo‘yicha alohida satrda ko‘rsatiladi.*
- 4. Tugatilayotgan bankning ustav kapitalidagi ulush miqdori egalik qilinayotgan yoki so‘nggi 5 yil ichida egalik qilingan bank aksiyalarining nominal qiymati yig‘indisi va uning jami ustav kapitalidagi nisbati ko‘rinishida aks ettiriladi.*
- 5. Tugatuvchi va uning yaqin qarindoshlari tugatilayotgan bankdagi ulushlarga egalik qilishni davom ettirayotgan taqdirda, “Yakunlangan sana” ustuniga “-” yozuvi qayd etiladi.”.*



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3431-2  
2026 - yil 05 - Yanvar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING  
QARORI

**To'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash tartibi  
to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida**

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi hamda "Kiberxavfsizlikni ta'minlash sohasidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 18-apreldagi 8/3-son qarori (ro'yxat raqami 3431, 2023-yil 5-may) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2023-y., 10/23/3431/0265-son) bilan tasdiqlangan To'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki Raisi  
2025-yil 25-dekabr  
35/16-son



ISHMETOV TIMUR  
AMINDJANOVICH

**Kelishildi:**

Vakil o‘rinbosari  
2025-yil 17-noyabr



URUNOV JAMSHID  
OLIMOVICH

Rais  
2025-yil 17-noyabr



VAXABOV DAVRON  
ABDUJALALOVICH

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki  
boshqaruvining 2025-yil 25-dekabrda  
35/16-son qaroriga  
ILOVA

**To‘lov tizimi operatorlari va to‘lov tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash tartibi  
to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

**1.** 7-bobning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7-bob. To‘lov tizimi operatori va to‘lov tashkilotiga qo‘yiladigan tashkiliy, texnik, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta‘minlash, shubhali (frod) operatsiyalarga qarshi choralar ko‘rish hamda faoliyatning uzluksizligiga doir talablar”.

**2.** 17-bandda:

uchinchi xatboshi “tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlarining samarali ishlashi” degan so‘zlardan keyin “, shuningdek axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta‘minlash hamda shubhali (frod) operatsiyalarga qarshi choralar ko‘rish” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

sakkizinchi xatboshi “axborot xavfsizligi” degan so‘zlardan keyin “va kiberxavfsizlikni ta‘minlash, shubhali (frod) operatsiyalarga qarshi choralar ko‘rish” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

**3.** 18-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“18. To‘lov tizimi operatori va to‘lov tashkiloti axborot tizimlarining axborot xavfsizligi va kiberxavfsizligini ta‘minlashi hamda axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqishi shart.”.

**4.** 19-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“19. To‘lov tizimi operatori va to‘lov tashkiloti axborot tizimlarini “To‘lov tizimlari operatorlari va to‘lov xizmatlarini yetkazib beruvchilarning to‘lov tizimlarida axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta‘minlash hamda raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarni oldini olish choralari ko‘rish to‘g‘risida”gi nizomga (ro‘yxat raqami 3513, 21.05.2024-yil) muvofiq tashkil etishi zarur.”;

to‘rtinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

beshinchi – yettinchi xatboshilar tegishli ravishda to‘rtinchi – oltinchi xatboshilar deb hisoblansin.

**5.** 23-bandning to‘qqizinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“xavfsizlik siyosati haqidagi, shu jumladan tavakkalchiliklarni batafsil baholashni o‘z ichiga olgan hujjat, shuningdek axborot xavfsizligini va kiberxavfsizlikni hamda to‘lov xizmatidan foydalanuvchilarning himoya qilinishini ta‘minlash uchun tavakkalchiliklarni, shu jumladan firibgarlik hamda konfidensial va shaxsga doir ma‘lumotlardan qonunga zid ravishda foydalanish xavflarini kamaytirish bo‘yicha ko‘riladigan choralarning tavsifi”.

**6.** 49-bandning sakkizinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“to‘lov tizimining uzluksiz ishlashiga, shuningdek axborot xavfsizligini va kiberxavfsizlikni ta‘minlashga ta‘sir ko‘rsatuvchi qoidabuzarliklar Markaziy bankning birinchi ko‘rsatmasi yuborilgan kundan e‘tiboran uch oy mobaynida to‘lov tizimining operatori tomonidan bartaraf etilmaganda;”;



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3740  
2026 - yil 05 - Yanvar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING  
BUYRUG'I

**Mediatorlar tomonidan statistika ma'lumotlarini taqdim etish  
tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida**

O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq buyuraman:

1. Mediatorlar tomonidan statistika ma'lumotlarini taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir  
2025-yil 30-dekabr  
30-mh-son



TASHKULOV AKBAR  
DJURABAYEVICH

O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining  
2025-yil 30-dekabrda 30-mh-son buyrug'iga  
ILOVA

**Mediatorlar tomonidan statistika ma'lumotlarini taqdim etish tartibi  
to'g'risidagi  
NIZOM**

Mazkur Nizom mediatorlar tomonidan statistika ma'lumotlarini taqdim etish tartibini belgilaydi.

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**statistika ma'lumotlari** – mediatorlar tomonidan mustaqil taqdim etiladigan ma'lumotlar asosida ushbu Nizomning 1-ilovasida keltirilgan hisobot shakllariga muvofiq beriladigan ma'lumotlar;

**hisobot davri** – kalendar yil hisobidagi choraklik davr.

2. Mediatorlar tomonidan statistika ma'lumotlari avvalgi hisobot davri ma'lumotlari asosida o'sib borish tartibida taqdim etiladi hamda kalendar yilning boshidan yangidan boshlanadi.

3. Faoliyat yuritayotgan mediatorlar tomonidan statistika ma'lumotlari har bir hisobot davri uchun taqdim etiladi.

Mediator Mediatorlar reyestridan (bundan buyon matnda Reyestr deb yuritiladi) chiqarilayotganda, u Reyestrda chiqarilguniga qadar amalga oshirgan faoliyatiga oid statistika ma'lumotlarini taqdim etadi.

**2-bob. Statistika ma'lumotlarini taqdim qilish va umumlashtirish**

4. Mediatorlar tomonidan shakllantirilgan statistika ma'lumotlari ularni Reyestrga kiritgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalariga (bundan buyon matnda hududiy adliya organlari deb yuritiladi) ushbu Nizomning 1-ilovasiga muvofiq har chorak uchun hisobot davridan keyingi oyning 5-

sanasiga qadar yozma yoki elektron shaklda taqdim etiladi. Bunda, statistika ma'lumotlari mediator tomonidan qo'lda imzo qo'yiladi yoki elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi.

Bunda, mediator tomonidan statistika ma'lumotlari kiritilayotgan vaqtda tegishli katakchada ko'rsatkich yo'q bo'lgan holda nol qiymati bilan to'ldiriladi.

5. Statistika ma'lumotlarini taqdim etish muddatining so'nggi kuni dam olish yoki ishlanmaydigan bayram kuni yoxud boshqa ishlanmaydigan kunga to'g'ri kelsa, u holda statistika ma'lumotlarini taqdim etish muddati keyingi ish kuniga qadar uzaytiriladi.

6. Statistika ma'lumotlarining har bir katakchasidagi ko'rsatkich ushbu Nizomning 1-ilovasidagi hisobot shakllarida keltirilgan o'lchov birliklariga muvofiq ko'rsatiladi.

Bunda, mediator tomonidan statistika ma'lumotlari kiritilayotgan vaqtda tegishli katakchada ko'rsatkich yo'q bo'lgan holda nol qiymati bilan to'ldiriladi.

7. Mediator tomonidan statistika ma'lumotlari ishonchli ma'lumotlar asosida to'liq to'ldirilgan va ularni mantiqiy tekshirish natijasida aniqlangan xato va (yoki) kamchiliklar to'liq bartaraf etilgan bo'lishi lozim.

8. Hududiy adliya organlari statistika ma'lumotlarida xato va (yoki) kamchiliklarning mavjudligini aniqlagan holatlarda shu kunning o'zida mediatori mazkur xato va kamchiliklarni bartaraf etish haqida xabardor qiladi hamda mediator tomonidan tuzatilgan statistika ma'lumotlari ushbu Nizomning 10-bandida belgilangan tartibda taqdim etilishini nazoratga qiladi.

9. Mediatorlar hududiy adliya organlariga statistika ma'lumotlarini taqdim qilgandan so'ng, mazkur ma'lumotlarda xato va (yoki) kamchiliklarni aniqlagan holatlarda bu haqda hududiy adliya organlarini shu kunning o'zida xabardor qiladi.

10. Mediatorlar statistika ma'lumotlarida aniqlangan xato va (yoki) kamchiliklar to'g'risida xabardor qilinganidan so'ng, ularni bartaraf etishi hamda tuzatilgan statistik ma'lumotlarni bir ish kuni ichida hududiy adliya organlariga taqdim etishi lozim.

11. Hududiy adliya organlari tomonidan statistika ma'lumotlari ushbu Nizomning 2-ilovasidagi hisobot shakllariga muvofiq umumlashtiriladi va har bir hisobot davridan keyingi oyning 10-sanasidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga taqdim etiladi.

12. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hududiy adliya organlari tomonidan taqdim etilgan statistika ma’lumotlarini umumlashtiradi va vazirlikning rasmiy veb-saytiga har bir hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay joylashtiradi.

### **3-bob. Yakuniy qoida**

13. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradi.

Mediatorlar tomonidan statistika ma'lumotlarini  
taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizomga  
1-ILOVA

**Mediatorlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti  
ShAKLLARI**

20 \_\_ yil \_\_\_\_\_ holatiga

Hisobot davri: \_\_\_\_\_

**1-hisobot shakli**

<b>Mediator to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar</b>		
<b>Ko'rsatkichning nomi</b>	<b>Satr</b>	<b>Ma'lumot</b>
Familiyasi, ismi va otasining ismi	1	
Jinsi	2	
Yoshi	3	
Mutaxassisligi ( <i>oliy ma'lumotni tasdiqlovchi diplom bo'yicha</i> )	4	
Mediatsiya sohasidagi ixtisosligi	5	
Umumiy ish staji	6	
Mediatorlik faoliyatidagi ish staji	7	

**2-hisobot shakli**

<b>Mediatsiyada ko'rib chiqilgan nizolarga oid ma'lumotlar</b>				
<b>Ko'rsatkichning nomi</b>	<b>Satr</b>	<b>Jami</b>	<b>Shundan</b>	
			<b>Haq evaziga</b>	<b>Bepul</b>
<b>Mediatsiya ishlarining umumiy soni</b>	1			
<b>Shundan (ish bosqichi bo'yicha)</b>	Sudga qadar amalga oshirilgan mediatsiya	2		
	Sud jarayonida amalga oshirilgan mediatsiya	3		

	Arbitraj va hakamlik sudlarida ishni ko‘rishda amalga oshirilgan mediatsiya	4			
	Ijro etish jarayonida amalga oshirilgan mediatsiya	5			
<b>Shundan</b> (ish turi bo‘yicha)	Iqtisodiy ishlarga oid nizolar bo‘yicha	6			
	Fuqarolik ishlariga oid nizolar bo‘yicha	7			
	Oilaviy nizolar bo‘yicha	8			
	Mehnat nizolari bo‘yicha	9			
<b>Shundan</b> (ish turkumi bo‘yicha)	Nikohdan ajratish bo‘yicha nizolar	10			
	Umumiy mulkni bo‘lish bo‘yicha nizolar	11			
	Aliment undirish bo‘yicha nizolar	12			
	Uyga kiritish, turar joydan foydalanish huquqini yo‘qotgan deb topish va ko‘chirish to‘g‘risidagi nizolar	13			
	Boladan alohida yashaydigan otaning (onaning) ota-onalik huquqlarini amalga oshirish bo‘yicha nizolar	14			
	Qarz undirish bo‘yicha nizolar	15			
	Kredit undirish bo‘yicha nizolar	16			

	Ishga tiklash bo'yicha nizolar	17			
	Ish haqini undirish bo'yicha nizolar	18			
	Ushbu hisobot shaklining 17-18-satrlarida nazarda tutilmagan boshqa mehnat nizolari	19			
	Uy-joy bilan bog'liq nizolar	20			
	Sug'urta shartnomasi bo'yicha yuzaga keladigan nizolar	21			
	Yer nizolari	22			
	Intellectual mulk bo'yicha nizolar	23			
	Investitsiyaviy nizolar	24			
	Bitimlar bo'yicha nizolar	25			
	Ushbu hisobot shaklining 10-25-satrlarida nazarda tutilmagan boshqa turdagi nizolar	26			
<b>Shundan</b> (mediatsiya natijasi bo'yicha)	Mediativ kelishuv tuzilgan	27			
	Mediativ kelishuv tuzilmagan	28			
<b>Shundan</b> (mediatsiya taraflari bo'yicha)	Mediatsiya jarayonida faqat O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar ishtirok etgan	29			
	Mediatsiya jarayonida O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lgan	30			

	jismoniy shaxslar ishtirok etgan			
	Mediatsiya jarayonida O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan yuridik shaxslar yoki tadbirkorlik subyektlari ishtirok etgan	31		
	Mediatsiya jarayonida O‘zbekiston Respublikasi norezidenti bo‘lgan yuridik shaxslar yoki tadbirkorlik subyektlari ishtirok etgan	32		
	Mediatsiya jarayonida O‘zbekiston Respublikasining davlat organi (tashkilot, muassasa) ishtirok etgan	33		

### 3-hisobot shakli

<b>Mediatsiya jarayonlarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari haqida ma’lumotlar</b>		
<b>Ko‘rsatkichning nomi</b>	<b>Satr</b>	<b>Ma’lumot</b>
Bir nizoni ko‘rib chiqishda mediatsiyaga sarflanadigan o‘rtacha vaqt <i>(oy, kun va daqiqalarda ko‘rsatiladi)</i>	1	
Mediatsiyada bir uchrashuv uchun o‘rtacha sarflanadigan vaqt <i>(soat va daqiqada ko‘rsatiladi)</i>	2	
O‘rtacha mediatsiya harajati <i>(mediator haqi va mediatsiya jarayonida sarflanadigan barcha harajatlarning o‘rtacha miqdori ko‘rsatiladi)</i>	3	

Mediatorlar tomonidan statistik ma'lumotlarni  
taqdim qilish tartibi to'g'risidagi nizomga  
2-ILOVA

**Qoraqolpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va  
Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan  
umumlashtiriladigan mediatorlar faoliyatiga oid statistika**

**hisoboti  
SHAKLLARI**

\_\_\_\_\_ da mediatorlar faoliyatiga oid statistika  
**hisoboti** (tegishli hudud nomi )

20 \_\_ yil \_\_\_\_\_ holatiga

Hisobot davri: \_\_\_\_\_

**1-hisobot shakli**

<b>Mediatorlarga oid ma'lumotlar</b>			
<b>Ko'rsatkichning nomi</b>		<b>Satr</b>	<b>Son</b>
Mediatorlar soni		<b>1</b>	
Jinsi	Erkaklar	<b>2</b>	
	Ayollar	<b>3</b>	
Yoshi	30 yoshgacha bo'lgan	<b>4</b>	
	31 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan	<b>5</b>	
	41 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan	<b>6</b>	
	50 yoshdan oshgan	<b>7</b>	
Umumiy ish staji	1 yilgacha	<b>8</b>	
	1 yildan 3 yilgacha	<b>9</b>	
	3 yildan 5 yilgacha	<b>10</b>	
	5 yildan 10 yilgacha	<b>11</b>	
	10 yil va undan ortiq	<b>12</b>	
Mediatorlik faoliyatidagi ish staji	1 yilgacha	<b>13</b>	
	1 yildan 3 yilgacha	<b>14</b>	
	3 yildan 5 yilgacha	<b>15</b>	

	5 yildan ortiq	<b>16</b>	
Mutaxassisligi (oliy ma'lumotni tasdiqlovchi diplom bo'yicha)	Yurisprudensiya (huquq)	<b>17</b>	
	Biznes va boshqaruv	<b>18</b>	
	Pedagogika va (yoki) psixologiya	<b>19</b>	
	Moliya va (yoki) iqtisodiyot	<b>20</b>	
	San'at	<b>21</b>	
	Ijtimoiy fanlar	<b>22</b>	
	Arxitektura va qurilish	<b>23</b>	
	Muhandislik ishi	<b>24</b>	
	Filologiya	<b>25</b>	
	Axborot texnologiyalari	<b>26</b>	
	17-26-satrlarda keltirilmagan boshqa sohalar	<b>27</b>	

**2-hisobot shakli**

<b>Mediatsiyada ko'rib chiqilgan nizolarga oid ma'lumotlar</b>				
<b>Ko'rsatkichning nomi</b>	<b>Satr</b>	<b>Jami</b>	<b>Shundan</b>	
			<b>Haq evaziga</b>	<b>Bepul</b>
<b>Mediatsiya ishlarining umumiy soni (hisobot davrida)</b>	<b>1</b>			
<b>Shundan</b> (ish bosqichi bo'yicha)	Sudga qadar amalga oshirilgan mediatsiya	<b>2</b>		
	Sud jarayonida amalga oshirilgan mediatsiya	<b>3</b>		
	Arbitraj va hakamlilik sudlarida ishni ko'rishda	<b>4</b>		

	amalga oshirilgan mediatsiya			
	Ijro etish jarayonida amalga oshirilgan mediatsiya	5		
<b>Shundan</b> (ish turi bo'yicha)	Iqtisodiy ishlarga oid nizolar bo'yicha	6		
	Fuqarolik ishlariga oid nizolar bo'yicha	7		
	Oilaviy nizolar bo'yicha	8		
	Mehnat nizolari bo'yicha	9		
<b>Shundan</b> (ish turkumi bo'yicha)	Nikohdan ajratish bo'yicha nizolar	10		
	Umumiy mulkni bo'lish bo'yicha nizolar	11		
	Aliment undirish bo'yicha nizolar	12		
	Uyga kiritish, turar joydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish va ko'chirish to'g'risidagi nizolar	13		
	Boladan alohida yashaydigan otaning (onaning) ota-onalik huquqlarini amalga oshirish bo'yicha nizolar	14		

	Qarz undirish bo'yicha nizolar	15			
	Kredit undirish bo'yicha nizolar	16			
	Ishga tiklash bo'yicha nizolar	17			
	Ish haqini undirish bo'yicha nizolar	18			
	Ushbu shaklning 17-18-satrlarida nazarda tutilmagan boshqa mehnat nizolari	19			
	Uy-joy bilan bog'liq nizolar	20			
	Sug'urta shartnomasi bo'yicha yuzaga keladigan nizolar	21			
	Er nizolari	22			
	Intellectual mulk bo'yicha nizolar	23			
	Investitsiyaviy nizolar	24			
	Bitimlar bo'yicha nizolar	25			
	Ushbu shaklning 10-25-satrlarida nazarda tutilmagan boshqa turdagi nizolar	26			
<b>Shundan</b> <i>(mediatsiya natijasi</i>	Mediativ kelishuv tuzilgan	27			

<i>bo'yicha)</i>	Mediativ kelishuv tuzilmagan	<b>28</b>			
<b>Shundan</b> <i>(mediatsiya</i> <i>taflari</i> <i>bo'yicha)</i>	Mediatsiya jarayonida faqat O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar ishtirok etgan	<b>29</b>			
	Mediatsiya jarayonida faqat O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar ishtirok etgan	<b>30</b>			
	Mediatsiya jarayonida O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar yoki tadbirkorlik subyektlari ishtirok etgan	<b>31</b>			
	Mediatsiya jarayonida O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lgan yuridik shaxslar yoki tadbirkorlik subyektlari ishtirok etgan	<b>32</b>			

	<p>Mediatsiya jarayonida O‘zbekiston Respublikasining davlat organi (tashkilot, muassasa) ishtirok etgan</p>	33			
--	--	----	--	--	--

**3-hisobot shakli**

<b>Mediatsiya jarayonlarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari haqida ma’lumotlar</b>		
<b>Ko‘rsatkichning nomi</b>	<b>Satr</b>	<b>Ma’lumot</b>
<p>Bir nizoni ko‘rib chiqishda mediatsiyaga sarflanadigan o‘rtacha vaqt <i>(oy, kun va daqiqalarda ko‘rsatiladi)</i></p>	<b>1</b>	
<p>Mediatsiyada bir uchrashuv uchun o‘rtacha sarflanadigan vaqt <i>(soat va daqiqada ko‘rsatiladi)</i></p>	<b>2</b>	
<p>O‘rtacha mediatsiya xarajati <i>(mediator haqi va mediatsiya jarayonida sarflanadigan barcha harajatlarning o‘rtacha miqdori ko‘rsatiladi)</i></p>	<b>3</b>	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3741  
2026 - yil 05 - Yanvar

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING BUYRUG'I

### **Mediatorlarning kasb etikasi qoidalarini tasdiqlash haqida**

O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuniga asosan buyuraman:

1. Mediatorlarning kasb etikasi qoidalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir  
2025-yil 30-dekabr  
32-mh-son



TASHKULOV AKBAR  
DJURABAYEVICH

O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining  
2025-yil 30-dekabrda 32-mh-son  
buyrug'iga  
ILOVA

## **Mediatorlarning kasb etikasi qoidalari**

Mazkur Qoidalar mediatorlarning kasb etikasiga oid asosiy qoidalar va talablarni (bundan buyon matnda kasb etikasi qoidalari deb yuritiladi) belgilaydi.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Kasb etikasi qoidalarining maqsadi mediatorlar faoliyatida yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, jamoatchilik ongida mediatorlarga bo'lgan hurmat va ishonchni oshirish hamda mediatorlarning odob-axloq qoidalariga zid bo'lgan xatti-harakatlarining oldini olish hisoblanadi.

2. Mediatorlar kasb etikasi qoidalariga so'zsiz rioya qilishi, mediatorlik faoliyatini halol va vijdonan bajarishi, mediatorlarning sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hamda mediatorlik faoliyatining nufuzini saqlashi lozim.

3. Mediatorlar qonunchilik hujjatlariga va kasb etikasi qoidalariga qat'iy rioya etishi shart.

4. Mediatorlar Mediatorlar reyestriga kirish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalariga (bundan buyon matnda hududiy adliya organlari deb yuritiladi) ariza taqdim etganda mediatsiyaga oid qonunchilik hujjatlari va kasb etikasi qoidalari bilan tanishganligini tasdiqlashi kerak.

### **2-bob. Mediatorlar faoliyatining asosiy prinsiplari**

5. Mediatorlar o'z faoliyatini maxfiylik, ixtiyoriylik, mediatsiya taraflarining hamkorligi va teng huquqliligi, mediatorlarning mustaqilligi va xolisligi prinsiplari asosida amalga oshiradi.

6. Mediatorlarning maxfiylik prinsipiga quyidagilar kiradi:

mediatorlar mediatsiya jarayonida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni ularni taqdim etgan mediatsiya tarafining, uning huquqiy vorisining

yoki vakilining yozma rozilgisiz oshkor qilishga haqli emasligi.

Bunda, mediatorlarning hududiy adliya organlariga statistika ma'lumotlarini Mediatorlar tomonidan statistika ma'lumotlarini taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizomga (ro'yxat raqami 3740, 2025 yil 30-dekabr) muvofiq taqdim etib borishi maxfiylik prinsipini buzish hisoblanmaydi;

mediatorlar o'zlariga mediatsiya jarayonida ma'lum bo'lib qolgan holatlar haqida guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin emasligi;

mediatsiya taraflarining mediatorlarga murojaat qilganligi fakti, shu jumladan jismoniy shaxslarning ismlari va yuridik shaxslarning nomlarini oshkor qilmasligi;

mediatsiya tartib-taomillarini amalga oshirish jarayonida mediatorlar tomonidan mediatsiya taraflaridan olingan barcha ma'lumotlar va hujjatlarni oshkor qilmasligi;

mediatsiya tartib-taomillarini amalga oshirish jarayonida mediatsiya taraflari to'g'risida mediatorlarga ma'lum bo'lgan axborotlarni oshkor qilmasligi;

mediativ kelishuv yoki mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risidagi kelishuv mazmuni va shartlari, shu jumladan mediatorlar va mediatsiya taraflari o'rtasidagi moliyaviy hisob-kitoblarni oshkor qilmasligi.

#### 7. Mediatsiyaning ixtiyoriylik prinsipiga quyidagilar kiradi:

mediatsiya taraflarining mediatsiyani qo'llash to'g'risidagi kelishuvda ishtirok etishi mediatsiya taraflarining o'zaro ixtiyoriyligiga asoslanishi, bunda mediatsiya jarayonida mediatsiya taraflarining majburan jalb etilishi mumkin emasligi;

mediatsiya taraflari mediatsiyani qo'llashdan uning istalgan bosqichida voz kechishga haqli ekanligi va mediatsiya taraflari o'zaro maqbul kelishuvni muhokama qilish uchun masalalarni tanlashda erkinligi;

mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish vaqtida mediatsiya taraflarini yarashishga majburlash taqiqlanishi;

mediatsiya kelishuviga erishish yoki erishmaslik bo'yicha qaror qabul qilishda bosim o'tkazmasligi.

8. Mediatorlarning mediatsiya taraflari bilan hamkorligi va teng huquqliligi prinsipiga quyidagilar kiradi:

mediatorlar mediatsiya taraflarining mediatsiya tartib-taomilini mediativ kelishuv shartlariga bir tomonlama ta'sir ko'rsatmagan holda amalga oshirishi;

mediatorlar mediatsiya tartib-taomilini nizo xususida mediatsiya taraflarining hamkorligi asosida o'zaro maqbul qarorga erishish maqsadida amalga oshirishi;

mediatorlar mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish tartibini, mediatsiya tartib-taomilidagi o'z nuqtai nazarini, bu nuqtai nazarni himoya qilish usullari va vositalarini tanlashda, axborot olishda, mediativ kelishuv shartlarining o'zaro maqbulligini baholashda teng huquqlardan foydalanishi hamda ularning zimmasida teng majburiyatlar bo'lishi.

9. Mediatorlarning mustaqilligi va xolisligi prinsipiga quyidagilar kiradi:

mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishda mediatorning mustaqilligi;

mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishda mediatorlarning faoliyatiga biror-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmasligi;

mediatorlarning mediatsiya taraflaridan biri bilan shaxsiy yoki xizmat munosabatlariga kirishmasligi;

mediatorlarning mediatsiya natijasidan bevosita yoki bilvosita moliyaviy yoki boshqa turdagi manfaatdorligi bo'lmasligi;

mediatorlarning mediatsiyadan tashqari mediatsiya taraflaridan biri bilan hamkorlik qilmasligi.

Bunda, mediatsiya taraflarining roziligi bilan, mediatorlar o'zining to'liq mustaqil va xolis bo'la olishiga ishonch hosil qilgan taqdirda mediatsiyani boshlash yoki davom ettirishi mumkin.

Mediatorlar har doim xolis bo'lib harakat qilishi, mediatsiya jarayonini amalga oshirish maqsadida har ikki tarafga teng xizmat ko'rsatishni o'z oldiga ustuvor vazifa qilib qo'yishi kerak.

Mediatorlarning mustaqilligi va xolisligiga to'sqinlik qiladigan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, ular mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishdan voz kechishi kerak.

Mediatorlar mediatorlik faoliyatini targ'ib qilishda yolg'on va ishonchli bo'lmagan ma'lumotlardan foydalanishi taqiqlanadi.

### **3-bob. Mediatorlarning kasb etikasiga qo'yiladigan talablar**

10. Mediatorlar mediatsiya taraflarining mediatsiya jarayonida teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashi lozim.

Mediatorlar mediatsiya taraflarining shaxsiy xislatlari, ijtimoiy kelib chiqishi, qadriyatlarini, e'tiqodi yoki ularning mediatsiyada o'zini tutishiga qarab ularga nisbatan bir tomonlama munosabatda bo'lmasligi lozim.

11. Mediatsiya taraflari mediatsiya o'tkazishning qonuniy vositalari va usullarini qo'llash bo'yicha mediatorlarga ixtiyoriy rozilik bildirishi kerak.

12. Mediatorlar mediatsiya taraflari bilan munosabatlarda:

qonunchilik hujjatlari talablariga va Mediatorning kasb etikasi qoidalariga rioya etishi;

mediatsiya boshlanguniga qadar mediatsiya taraflariga mediatsiyaning maqsadini, shuningdek ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi;

ishga kirishishdan oldin mediatsiya taraflariga mediatsiyaning o'tkazish tartibi, qiymati (shu jumladan to'lov tartibi va shakli) va ularning oqibatlari to'g'risida ma'lumot berishi;

mediatsiya taraflariga o'zining kasbiy malakasi va ish tajribasi to'g'risida ishonchli ma'lumot berishi;

muzokaralar davomida mediatsiya taraflarining xavfsizligi va teng huquqliligi, o'zaro hurmat muhitini yaratishga ko'maklashishi;

mediatsiya taraflariga, ularning vakillariga, mediatsiyaning boshqa ishtirokchilariga nisbatan hurmat va xushmuomalalik ko'rsatishi;

mediatsiya taraflarini diqqat bilan tinglashi, ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirishi, muzokaralar jarayonini boshqarishi, mediatsiya taraflarini nizoni hal qilishning maqbul variantlarini izlashga undashi;

muzokaralar natijasini bir tarafning foydasini ko'zlab ish olib bormasligi lozim.

### **3-bob. Yakuniy qoida**

13. Mazkur kasb etikasi qoidalarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3742  
2026 - yil 05 - Yanvar

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING BUYRUG'I

### Notarial harakatlarni videokonferensaloqa rejimi orqali amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2025-yil 9-sentabrdagi PQ-280-son "Notariat institutini yanada rivojlantirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq **buyuraman:**

1. Notarial harakatlarni videokonferensaloqa rejimi orqali amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Notarial palatasi bilan kelishilgan.
3. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir  
30-dekabr 2025-yil  
29-mh son



TASHKULOV AKBAR  
DJURABAYEVICH

Kelishildi:

Rais

12-Dekabr 2025-yil



ASHUROV DILSHOD  
RUSTAMOVICH

O'zbekiston Respublikasi adliya  
vazirining 2025-yil 30-dekabrda  
29-mh-son buyrug'iga  
ILOVA

## **Notarial harakatlarni videokonferensaloqa rejimi orqali amalga oshirish tartibi to'g'risidagi**

### **NIZOM**

Mazkur Nizom notariuslar tomonidan jismoniy shaxs yoki yuridik shaxsning vakili (bundan buyon matnda murojaat qiluvchi deb yuritiladi) notarial idoraga kelmagan holda masofadan videokonferensaloqa rejimi (bundan buyon matnda videokonferensaloqa rejimi deb yuritiladi) orqali notarial harakatlarni amalga oshirish tartibini belgilaydi.

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom talablari notarial harakatlarni amalga oshirish jarayonida notarius, notarius yordamchisi, stajyori, kotibi hamda notarial harakat taraflariga nisbatan tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonunida nazarda tutilgan notarial harakatlar videokonferensaloqa rejimida orqali ko'rsatilishi mumkin.

2. Notarius, notarius yordamchisi, stajyori hamda kotibi o'z faoliyatini amalga oshirishi natijasida o'zlariga ma'lum bo'lgan notarial harakat taraf(lar)i haqidagi ma'lumotlarning maxfiylikini ta'minlashi kerak.

3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari hamda O'zbekiston Respublikasi Notarial palatasi va uning hududiy boshqarmalari ushbu Nizom talablari ijrosi bo'yicha notarial faoliyat ustidan doimiy nazorat va monitoringni amalga oshiradilar.

#### **2-bob. Notarial harakatlarni videokonferensaloqa rejimida amalga oshirishni tashkil etish**

4. Notarial harakatlar videokonferensaloqa rejimida “E-notarius.uz” axborot portali (bundan buyon matnda elektron tarmoq deb yuritiladi) hamda “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimi (bundan buyon matnda Tizim deb yuritiladi) orqali tasdiqlanadi.

5. Murojaat qiluvchi notarial harakatlarni videokonferensaloqa rejimida amalga oshirish uchun elektron tarmoqda shaxsini tasdiqlagan holda ro‘yxatdan o‘tadi.

6. Murojaat qiluvchi notarial harakatlarni videokonferensaloqa rejimida amalga oshirish uchun elektron tarmoqdan foydalanish shartlari bilan tanishadi va roziligini tasdiqlaydi.

7. Murojaat qiluvchi elektron tarmoqda tasdiqlashni (shahodatlashni) so‘rayotgan notarial harakatning nomini aniq ko‘rsatadi hamda ushbu harakatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni to‘ldiradi.

8. Notarial harakatni amalga oshirish to‘g‘risidagi murojaat (bundan buyon matnda murojaat deb yuritiladi) elektron tarmoq orqali murojaat qiluvchi tomonidan yoki avtomatik tarzda tanlangan notariusning Tizimdagi profiliga yuboriladi.

Notarius murojaat kelib tushgan kundan boshlab bir ish kuni ichida murojaatni o‘rganib chiqadi hamda murojaatda kamchiliklar mavjud yoki mavjud emasligi to‘g‘risida murojaat qiluvchiga elektron tarmoq orqali xabarnoma yuboradi. Bunda murojaatda ko‘rsatilgan murojaat qiluvchining telefon raqamiga ham xabarnoma yuborilishi mumkin.

Murojaatda kamchiliklar aniqlangan hollarda notarius elektron tarmoq orqali yuborilgan xabarnomada ushbu kamchiliklarni aniq ko‘rsatishi lozim.

Murojaat qiluvchi kamchiliklarni unga ma‘lum qilingan paytdan boshlab besh ish kuni ichida bartaraf etgan taqdirda notarial harakat davom ettiriladi. Kamchiliklar besh ish kuni ichida bartaraf etilmagan taqdirda, murojaat O‘zbekiston Respublikasining “Notariat to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan rad etiladi.

Notarius tomonidan hujjatlarni o‘rganib chiqishda kamchiliklar aniqlanmaganligi to‘g‘risidagi xabarnoma yuborilgan yoki aniqlangan kamchiliklar

bartaraf etilgan paytdan boshlab besh ish kuni ichida murojaat qiluvchi elektron tarmoq orqali notarial harakatni davom ettirishni tasdiqlaydi.

9. Murojaat qiluvchi tomonidan notarial harakatni davom ettirish tasdiqlangan kundan boshlab bir ish kuni ichida amalga oshiriladigan notarial harakat to'g'risidagi ma'lumotlar notarius, notarius yordamchisi, stajyori yoki kotibi tomonidan Tizimga to'liq kiritiladi.

Notarial harakat uchun undiriladigan to'lovlar miqdori Tizim tomonidan avtomatik ravishda hisoblanadi hamda elektron tarmoq orqali to'lov kvitansiyalari (invoys) murojaat qiluvchiga yuboriladi. Bunda murojaatda ko'rsatilgan murojaat qiluvchining telefon raqamiga ham to'lov kvitansiyalari (invoys) yuborilishi mumkin.

10. To'lov kvitansiyalari (invoys) murojaat qiluvchiga yuborilgan kunning o'zida notarius Tizim orqali notarial harakatni amalga oshirish vaqtini belgilaydi hamda notarial harakatni amalga oshirish vaqti to'g'risida murojaat qiluvchiga elektron tarmoq orqali xabarnoma yuboriladi. Bunda murojaatda ko'rsatilgan murojaat qiluvchining telefon raqamiga ham xabarnoma yuborilishi mumkin.

Notarial harakatni amalga oshirish vaqti to'lov kvitansiyalari (invoys) murojaat qiluvchiga yuborilgandan boshlab uch ish kunidan ko'p bo'lmagan muddat ichida belgilanadi.

11. Notarius tomonidan belgilangan notarial harakatni amalga oshirish vaqti murojaat qiluvchiga ma'qul bo'lmagan taqdirda, murojaat qiluvchi elektron tarmoq orqali notariusdan ikki ish kunidan ko'p bo'lmagan muddat ichidagi o'ziga qulay bo'lgan boshqa vaqtni belgilashni so'rashi mumkin. Bunda notarius murojaat qiluvchi bilan kelishgan holda maqbul vaqtni belgilaydi.

12. Murojaat qiluvchi notarial harakat amalga oshirilishi belgilangan vaqtga qadar to'lov kvitansiyalarida (invoysda) ko'rsatilgan to'lovlarni amalga oshirishi shart.

13. Notarial harakat amalga oshirilishi belgilangan vaqtda notarius Tizim orqali hamda notarial harakat taraflari elektron tarmoq orqali videokonferensaloqa rejimida bog'lanishlari lozim.

14. Notarius yoki notarial harakat taraf(lar)i notarial harakat amalga oshirilishi belgilangan vaqtda uzrli sabablarga ko'ra videokonferensaloqa rejimida bog'lana olmasligi ma'lum bo'lgan hollarda u(lar) boshqa notarial harakat taraf(lar)ini (notariusni) bu to'g'risida xabardor qilishi shart.

Bunda notarial harakat o'zaro kelishilgan holda notarial harakat amalga oshirilishi belgilangan kundan boshlab uch ish kunidan ko'p bo'lmagan boshqa vaqtda amalga oshirilishi mumkin.

15. Notarial harakat amalga oshirilishi belgilangan vaqtda notarial harakat taraf(lar)i videokonferensaloqa rejimida bog'lanmagan hollarda notarial harakatni amalga oshirish vaqti bir ish kuniga uzaytiriladi hamda bu to'g'risida elektron tarmoq orqali murojaat qiluvchiga xabarnoma yuboriladi. Bunda murojaatda ko'rsatilgan murojaat qiluvchining telefon raqamiga ham xabarnoma yuborilishi mumkin.

16. Notarial harakat taraf(lar)i uzrli sabablarga ko'ra bog'lana olmasligini ma'lum qilmagan yoki notarial harakatni amalga oshirish uchun uzaytirilgan vaqtda videokonferensaloqa rejimida bog'lanmagan hollarda murojaat rad etiladi hamda notarial harakatni tasdiqlash uchun to'langan to'lovlar qaytariladi.

17. Notarial harakat taraf(lar)i notarial xizmatdan foydalanishdan uni ko'rsatishning har qanday bosqichida bosh tortish huquqiga ega.

Notarial harakat taraf(lar) notarial xizmatdan foydalanishdan bosh tortgan taqdirda, murojaat ko'rmasdan qoldiriladi hamda notarial harakatni tasdiqlash uchun to'langan to'lovlar qaytariladi.

### **3-bob. Notarial harakat taraflarining shaxsini, muomala va huquq layoqatini aniqlash hamda Tizimga ma'lumotlarni kiritish**

18. Notarial harakat taraf(lar)ining shaxsi u(lar)ning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmagan holda ushbu hujjatlarning rekvizitlari orqali zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda identifikatsiya hamda biometrik ma'lumotlar (Face-ID) orqali verifikatsiya qilinadi, shuningdek qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa usullar bilan aniqlanishi mumkin.

Murojaat qiluvchining huquq layoqatini aniqlashda notarius tegishli axborot resurslaridan foydalanadi.

Notarius videokonferensaloqa rejimida muloqot qilayotgan shaxs(lar) aynan shu ekanligini Tizim yordamida (Face-ID orqali solishtirish usuli) aniqlaydi.

19. Notarius notarial harakat taraf(lar)ining muomala layoqatini videokonferensaloqa rejimida u(lar) bilan shaxsiy muloqot davomida aniqlaydi.

20. Notarial harakat taraf(lar)ining ruhiy holati buzilganligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z xatti-harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydi yoki shu harakatlarni boshqara olmaydi deb yoxud spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik va psixotrop moddalarni iste'mol qilishi oqibatida o'z oilasini og'ir moddiy ahvolga solib qo'yadi deb hisoblash uchun asosi bo'lsa (shubha tug'ilsa), ammo shu fuqaroning muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklanganligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lmasa, u notarial harakatni amalga oshirishni kechiktiradi va sudning shu shaxsni muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topganligi to'g'risidagi qarori mavjud yoki mavjud emasligini Tizim orqali tekshiradi.

Notarius notarial harakat taraf(lar)ining bosim yoki kuchli ruhiy hayajonlanish ostida deb hisoblash uchun asosi bo'lsa (shubha tug'dirsa), notarial harakatni amalga oshirishni kechiktiradi va zarur hollarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar beradi.

Agar mazkur shaxs(lar) sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, notarius notarial harakatni amalga oshirishni rad etish haqida qaror chiqaradi. Notarius ushbu qarordan norozi tomon(lar)ning sudga murojaat qilish huquqini tushuntirishi lozim.

Agar mazkur shaxs(lar) sud tomonidan muomala layoqati cheklangan deb topilgan bo'lsa, notarius notarial harakatni amalga oshirishda muomala layoqati cheklangan shaxs(lar) homiy(lari)ning yozma roziligini talab etadi. Bunda homiyning roziligi notarial harakatni to'g'ridan-to'g'ri imzolash yoki alohida ariza taqdim etish ko'rinishida bo'lishi mumkin.

21. Notarial harakatning mazmuni Tizimga aniq va to'liq kiritilishi lozim.

Notarius, notarius yordamchisi, stajyori yoki kotibi tomonidan notarial harakat Tizimga kiritiladi hamda har bir notarial harakat tegishli tartib raqami bilan ro'yxatga olinadi va notarial harakatni tasdiqlovchi yozuvda ko'rsatiladi.

22. Notarial harakatni rasmiylashtirishda notarius, notarius yordamchisi, stajyori yoki kotibi tomonidan Tizimga jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami kiritilishi shart.

23. Notarius bilan shaxsiy muloqot davomida notarial harakat taraf(lar)i joylashgan joyda ulardan boshqa shaxslarning bo'lmasligi, ular joylashgan joy, shovqindan holi, yorug' bo'lishi va videotasvir tiniq ko'rinishi shart.

Notarius shaxsiy muloqot davomida notarial harakat taraf(lar)i joylashgan joyda boshqa shaxslarning yo'qligiga ishonch hosil qilish uchun joyning 360 gradus aylanasi ko'rsatishni talab qilishi lozim.

#### **4-bob. Notarial harakatni imzolash tartibi**

24. Notarial harakat loyihasi imzolash uchun tayyor bo'lganidan so'ng, notarius tomonidan notarial harakat taraf(lar)iga u(lar)ning huquq va majburiyatlari, amalga oshirilayotgan notarial harakatning mazmuni va oqibatlari tushuntiriladi.

25. Notarius tegishli tasdiqlovchi yozuvni kiritib, Tizimda qayd qilingan tartib raqami va undirilgan to'lovlar (davlat boji, gerb yig'imi hamda huquqiy va texnik tUSDagi qo'shimcha harakatlar amalga oshirilganligi uchun haq) miqdorini ko'rsatadi hamda hujjat loyihasini Tizimda saqlaydi.

26. Videokonferensaloqa rejimida amalga oshirilgan notarial harakatlar bo'yicha videoyozuvlar avtomatik ravishda yozib olinadi va Tizimda qonunchilikda belgilangan muddatlar mobaynida saqlanadi, shuningdek Tizim orqali notarius tomonidan tasdiqlanadi.

27. Videokonferensaloqa rejimida amalga oshirilgan notarial harakatlar bo'yicha videoyozuvlar notarial harakat taraf(lar)i tomonidan notarial harakat tasdiqlanganligining (imzolanganligining) asosi hisoblanadi.

28. Notarius tomonidan notarial harakat taraf(lar)iga notarial harakat bilan tasdiqlangan (shahodatlangan) hujjat(lar)ning asl nusxa(lar)i shaxsan topshiriladi

yoki kuryerlik xizmatidan foydalangan holda yoxud boshqa usullar orqali yetkaziladi.

### **5-bob. Yakuniy qoida**

29. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3743  
2026 - yil 05 - Yanvar

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING BUYRUG'I

### Notariuslar tomonidan nikoh shartnomalarini tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi va 2025-yil 9-sentabrdagi PQ-280-son "Notariat institutini yanada rivojlantirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq **buyuraman:**

1. Notariuslar tomonidan nikoh shartnomalarini tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Notarial palatasi bilan kelishilgan.
3. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir  
2025-yil 30-dekabr  
33-mh-son



TASHKULOV AKBAR  
DJURABAYEVICH

Kelishildi:

Rais  
2025-yil 9-dekabr



ASHUROV DILSHOD  
RUSTAMOVICH

**Notariuslar tomonidan nikoh shartnomalarini  
tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi  
NIZOM**

Mazkur Nizom notariuslar tomonidan nikoh shartnomalarini notarial tartibda tasdiqlash tartibini belgilaydi.

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Notariuslar tomonidan nikoh shartnomasi (bundan buyon matnda shartnoma deb yuritiladi) notarial idora binosida, videokonferensaloqa orqali yoki murojaat qiluvchilarning xohishiga ko‘ra sayyor tartibda rasmiylashtiriladi.

2. Shartnoma videokonferensaloqa orqali rasmiylashtirilganda uning tasdiqlovchi yozuvida bu haqida ko‘rsatiladi hamda rasmiylashtirish jarayoni “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimida (bundan buyon matnda Tizim deb yuritiladi) avtomatik ravishda audio va videoda qayd etiladi.

Shartnoma sayyor tartibda rasmiylashtirilganda uning tasdiqlovchi yozuvida shartnoma rasmiylashtirilgan joyning manzili ko‘rsatiladi va shartnomani rasmiylashtirish hamda imzolash jarayoni notarius tomonidan majburiy audio va videoda qayd etiladi.

Shartnomani rasmiylashtirish jarayonini audio va videoda qayd etishda notarius va notarial harakatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi shaxslar tasvirga to‘liq tushirilishi shart. Bunda notarius tomonidan qanday turdagi notarial harakat amalga oshirilayotganligi, notarial harakat mazmuni va ahamiyati notarius tomonidan ovoz chiqarib taraflarga tushuntirib berilganligi hamda hujjat matni bilan taraflar to‘liq tanishganligi va ularning asl maqsadiga muvofiqligini tasdiqlagan holda imzolash hamda barmoq izlarini Tizimda skaner qilish jarayoni to‘liq audio va videoda qayd etilishi lozim.

3. O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonuniga (bundan buyon matnda Qonun deb yuritiladi) asosan O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi.

Rasmiylashtirilgan hujjat matni fuqarolarning talabiga binoan notarius tomonidan rus tilida yoki imkon bo'lsa, boshqa maqbul tilda beriladi.

4. Agar shartnoma taraf(lar) tushunmagan yoki yaxshi bilmagan tilda bajarilsa, unda hujjat matni notarius yoki taraf(lar) taklif etgan tarjimon tomonidan og'zaki tarjima qilinishi mumkin. Bu haqida hujjat matnida va tasdiqlovchi yozuvida kim tomonidan tarjima qilinganligi, shaxsini tasdiqlaydigan hujjatning nomi, uning raqami, berilgan sanasi va shu hujjatni bergan organning nomi hamda matn mazmuni tushuntirilganligi ko'rsatilishi kerak. Bunday holda taraf(lar) o'zi biladigan tilda ismi, familiyasi, otasining ismini to'liq yozib, imzo qo'yadi.

Tarjimon hujjat tarjimasini noto'g'ri yoki yolg'on tarjima qilganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi haqida notarius tomonidan ogohlantiriladi va bu haqda hujjat matnida ko'rsatiladi.

5. Murojaat qiluvchi(lar) notarial xizmatdan foydalanishdan uni ko'rsatishning har qanday bosqichida bosh tortish huquqiga ega. Murojaat qiluvchi(lar) notarial xizmatdan foydalanishdan bosh tortgan taqdirda, u(lar)ning murojaati ko'rmasdan qoldiriladi. Bunda, shartnomani tasdiqlash uchun to'langan to'lovlar qaytariladi.

6. Notarius o'z faoliyatini amalga oshirishi natijasida olingan murojaat qiluvchilar haqidagi ma'lumotlarning sir saqlanishini ta'minlashi kerak.

7. Shartnoma nikoh yoshiga yetgan shaxslar o'rtasida tuziladi. Shartnomani vakil tomonidan tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

8. Taraflar o'rtasida nikoh qayd etilmasa, shartnoma yuridik oqibatlar keltirib chiqarmaydi. Bunda, shartnomani alohida bekor qilish talab etilmaydi.

## **2-bob. Murojaat qilish tartibi**

9. Murojaat qiluvchi shartnomani rasmiylashtirish uchun notarial idoraga o'zi kelib murojaat qiladi yoki notarius xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud "E-

notarius.uz” axborot portali orqali (bundan buyon matnda elektron tarmoq deb yuritiladi) ro‘yxatdan o‘tadi.

10. Notarius Tizim orqali kelib tushgan murojaatlarni bir ish kuni ichida ko‘rib chiqishi va murojaat qilgan shaxs(lar)ni qabul qilishi shart.

11. Murojaat qiluvchi(lar) elektron tarmoq orqali notarius qabuliga navbatga yozilishni, shuningdek shartnomani rasmiylashtirilishi uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni jo‘natgan holda tegishli shartnoma loyihasining oldindan tayyorlab qo‘yilishini so‘rab murojaat qilish(lar)i mumkin.

12. Murojaat qiluvchi(lar)ning elektron tarmoq orqali notarius qabuliga yozilish bo‘yicha yo‘llagan murojaatlari Tizimda avtomatik tarzda qayd qilinadi.

13. Murojaat qiluvchi(lar)ning elektron tarmoq orqali shartnomani rasmiylashtirish uchun yuborgan murojaatlari ularning elektron raqamli imzosi yoki Face-ID bilan tasdiqlanadi.

Shartnoma loyihasi murojaat qiluvchi(lar) va notarius tomonidan kelishilgan vaqtda oldindan tayyorlab qo‘yilishi mumkin.

### **3-bob. Murojaat qiluvchi(lar)ni qabul qilish, uning shaxsini, muomala va huquq layoqatini aniqlash tartibi**

14. Murojaat qiluvchi(lar) notarial idoraga bevosita o‘zi kelganda uni notarius yordamchisi, notarius yordamchisi mavjud bo‘lmaganda kotib yoki notarius stajyori, yoxud notarius qabul qiladi va uning maqsadiga aniqlik kiritadi.

Bunda, notarius yordamchisi (kotib yoki notarius stajyori) murojaat qiluvchi(lar)ni notarius qabuliga elektron navbatga yozib qo‘yishi va bu haqda notariusni xabardor qilishi yoki bevosita notarius qabuliga yo‘naltirishi mumkin, bundan notarius qabuliga navbatga yozilgan murojaat qiluvchilar mavjud bo‘lmagan hollar mustasno.

15. Notarius murojaat qiluvchi(lar)ning shaxsini aniqlaydi.

Murojaat qiluvchi(lar)ning shaxsi quyidagi hujjatlarga asosan aniqlanadi:

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti, haydovchilik guvohnomasi, ID-kartasi;

harbiy xizmatchilar – harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo‘mondonligi tomonidan beriladigan shaxsiy guvohnomalar yoki harbiy biletlar yoxud ID-kartalar (harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy bileti bundan mustasno);

chet el fuqarolari – ularning milliy pasporti (qonunchilik hujjatlariga muvofiq chet el fuqarolari tegishli ichki ishlar organlari tomonidan ro‘yxatga olinishi lozim) yoki O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi, ID-kartasi yoxud diplomatik pasporti yoki O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilinganligini tasdiqlovchi akkreditatsiya kartochkasi;

xorijda doimiy yashayotgan va konsullik ro‘yxatida turgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasporti;

fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar – O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoki ID-karta.

Murojaat qiluvchi(lar) O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarning aslini taqdim etish(lar)i talab etilmaydi. Bunda murojaat qiluvchi(lar)ning shaxsi ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjat rekvizitlari orqali zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda identifikatsiya qilinadi hamda biometrik ma‘lumotlar (barmoq izi va Face-ID) orqali verifikatsiya qilinadi yoki O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va/yoki “Ijtimoiy karta” mobil ilovasi orqali beriladigan elektron shakli asosida tasdiqlanadi.

16. Notarius taraflarning muomala layoqatini ular bilan shaxsiy muloqot davomida aniqlaydi.

17. Notariusda taraflarning ruhiy holati buzilganligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z xatti-harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydi yoki shu harakatlarni boshqara olmaydi deb yoxud spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik va psixotrop moddalarni iste‘mol qilishi oqibatida o‘z oilasini og‘ir moddiy ahvolga solib qo‘yadi deb hisoblash uchun asos bo‘lsa (shubha tug‘dirsa), ammo shu shaxslarning muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklanganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar bo‘lmasa, notarius notarial harakatni amalga oshirishni kechiktiradi va sudning shu shaxslarni muomalaga layoqatsiz yoki muomala

layoqati cheklangan deb topganligi to'g'risidagi qarori mavjud yoki mavjud emasligini Tizim orqali tekshiradi.

18. Notarius shartnomani rasmiylashtirishda ishtirok etuvchi shaxslarning bosim yoki kuchli ruhiy hayajonlanish ostida deb hisoblash uchun asosi bo'lsa (shubha tug'dirsa) notarial harakatni amalga oshirishni kechiktiradi va zarur hollarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar beradi.

Agar mazkur shaxs(lar) sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, notarius notarial harakatni amalga oshirishni rad etish haqida qaror chiqaradi. Notarius ushbu qarordan norozi tarafning sudga murojaat qilish huquqini tushuntirishi lozim.

Agar mazkur shaxs(lar) sud tomonidan muomala layoqati cheklangan deb topilgan bo'lsa, notarius notarial harakatni amalga oshirishda muomala layoqati cheklangan shaxs homiysining yozma roziligini talab etadi. Bunda, homiying roziligi shartnomani to'g'ridan-to'g'ri imzolash yoki alohida ariza taqdim etish ko'rinishida bo'lishi mumkin.

#### **4-bob. Kar-soqovlik nuqsoni va ko'zi ojiz bo'lgan shaxslar ishtirokida shartnomani tasdiqlash**

19. Shartnomani rasmiylashtirishni so'rab kar-soqovlik nuqsoni (kar-soqov, kar, qulog'i og'ir, zaif eshituvchi), ko'zi ojiz (ko'r, zaif ko'ruvchi) bo'lgan shaxs(lar) murojaat qilsa hamda u(lar) savodsiz bo'lsa, shartnomani tasdiqlash paytida u(lar) bilan muomala qila oladigan va shartnomaning mazmunini u(lar)ning xohish-irodasiga muvofiq ekanligini o'z imzosi bilan tasdiqlovchi surdo yoki tiflo tarjimon hozir bo'lishi shart.

Agarda notarius kar-soqovlik nuqsoni (kar-soqov, kar, qulog'i og'ir, zaif eshituvchi) bo'lgan fuqarolar bilan muloqot qila olsa va ko'zi ojiz (ko'r, zaif ko'ruvchi) shaxslar uchun mo'ljallangan moslama bilan ishlay olsa, unda surdo yoki tiflo tarjimonning ishtiroki talab etilmaydi. Bu holatda notarius o'zi tomonidan jismoniy nuqsoni mavjud bo'lgan shaxslar bilan shaxsan muloqot qilganligi haqida shartnoma matni va tasdiqlovchi yozuvida yozib qo'yadi.

20. Notarius mazkur harakatlarni amalga oshirishda hujjatni imzolagan shaxsning, surdo yoki tiflo tarjimonning imzosi haqiqiyligini shahodatlashni

alohida notarial harakat sifatida ro'yxatga olmaydi.

Bir shaxs hujjatni imzolovchi, surdo yoki tiflo tarjimon sifatida notarial harakatni amalga oshirishda ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

Surdo tarjimonning vakolati unga O'zbekiston Karlar jamiyati tomonidan va tiflo tarjimonning vakolati unga O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati tomonidan berilgan ishonchnoma va xizmat guvohnomasi orqali aniqlanadi.

21. Kar-soqovlik nuqsoni (kar-soqov, kar, qulog'i og'ir, zaif eshituvchi) bo'lgan hamda muomala layoqatiga ega bo'lgan savodli shaxs notarial harakatlarni amalga oshirishni so'rab murojaat qilsa, shartnoma uning o'zi tomonidan va surdo tarjimon tomonidan imzolanishi mumkin.

Kar-soqovlik nuqsoni (kar-soqov, kar, qulog'i og'ir, zaif eshituvchi) bo'lgan, muomala layoqatiga ega bo'lgan, biroq surdo tarjimon bilan muloqot qila olmaydigan savodli shaxs o'z imzosi bilan shartnoma mazmuni o'zining xohish-irodasiga muvofiq ekanligini notarius bilan yozma ravishda bildiradigan bo'lsa, notarial harakatlarni amalga oshirishda surdo tarjimonning ishtiroki shart emas. Ushbu yozishmalar shartnoma bilan birga tikib qo'yiladi.

Mazkur bandda belgilangan tartibda shartnomani imzolash jarayoni audio va videoyozuv vositalaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

22. Surdo tarjimon yoxud tiflo tarjimon hujjat tarjimasini noto'g'ri yoki yolg'on tarjima qilganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi haqida notarius tomonidan ogohlantiriladi va bu haqda hujjat matnida ko'rsatiladi.

### **5-bob. Shartnoma bilan bog'liq hujjatlarni ko'rib chiqish va shartnoma loyihasini tayyorlash**

23. Shartnomani tasdiqlashda notarius quyidagilarni aniqlaydi:

taflarning nikoh yoshiga yetganligini;

taflar o'rtasida nikoh tuzilgan yoki tuzilmaganligini;

taflardan birining boshqa shaxs bilan nikohi qayd etilmaganligini;

ilgari shartnoma tuzilmaganligini.

Bunda ushbu bandda nazarda tutilgan barcha ma'lumotlar notarial idoralar tomonidan mustaqil ravishda, fuqarolardan ortiqcha ma'lumot talab qilmasdan, "FHDYning yagona elektron arxivi" axborot tizimi orqali olinadi.

Elektron tizimlarda texnik nosozliklar bo'lganda yoki "FHDYning yagona elektron arxivi"da ma'lumotlar mavjud bo'lmaganda, axborot almashuvi kuryerlik xizmati orqali amalga oshiriladi. Bunda xorijiy davlatlarda qayd etilgan nikoh to'g'risidagi ma'lumotlar taraflarning o'zlaridan olinadi yoki qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda kuryerlik xizmatidan foydalangan holda aniqlanadi.

24. Shartnomani tasdiqlash uchun bevosita yoki elektron taqdim etilgan hujjatlar notariuslar tomonidan quyidagi hollarda qabul qilinmaydi:

qirib o'chirilgan yoki qo'shimchalar kiritilgan, so'zlari ustidan chizilgan va izoh berilmagan boshqa tuzatishlari bo'lgan, shuningdek qalamda yozilgan hujjatlar;

bir necha varaqlarda bayon etilib, varaqlari raqamlanmagan va ip o'tkazib tikilmagan hujjatlar, hujjatni bergan tashkilot mansabdor shaxsining imzosi va muhri bo'lmagan hujjatlar;

faksimile imzo muhri qo'yilgan hujjatlar.

25. Taqdim etilgan hujjatning aynanligiga shubha tug'ilsa, notarius bu hujjatni olib qolib, uni ekspertizaga yuborishga haqlidir.

Notarius hujjatni ekspertizaga yuborish to'g'risida qaror chiqaradi va unda qaror chiqarilgan sana, qaror chiqargan notariusning familiyasi, ismi va otasining ismi, notarial idoraning nomi, hujjatning nomi, u kimning nomiga berilganligi, notarial harakatni amalga oshirish uchun hujjat kim tomonidan taqdim etilganligi (familiyasi, ismi, otasining ismi, turar joyi va shaxsini tasdiqlovchi hujjat, hujjatni ekspertizaga yuborish zaruratini keltirib chiqargan holatlar, hujjat ekspertiza qilinishi uchun qayerga (qaysi ekspertiza muassasasiga) yuborilayotganligi va ekspertiza hal etishi uchun qo'yilayotgan savollar ko'rsatiladi. Bunda ekspertiza xarajatlari murojaat etuvchi hisobidan qoplanadi.

Notarius o'z tashabbusi bilan yoki manfaatdor shaxslarning iltimosiga ko'ra notarial tasdiqlab berilgan hujjatning barcha nusxalariga uning mohiyatini o'zgartirmaydigan qo'shimchalarni kiritishi yoki uning aniq arifmetik xatolarinigina tuzatishi mumkin.

26. Notarius tomonidan kuryerlik xizmatidan foydalangan holda olinadigan ma'lumotlar hamda hujjatning aslidan olib qolinadigan nusxalar shartnomaning hujjatlar yig'majildiga tikib qo'yiladi.

27. Notarius tomonidan hujjatlar tekshirilganidan so'ng notarius, notarius yordamchisi, stajyori yoki kotibi tomonidan shartnoma loyihasi tayyorlanadi.

Shartnoma loyihasi taraflar tomonidan mustaqil tayyorlangan va notariusga taqdim etilgan hollarda esa notarius shartnoma loyihasining qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

Taraflar tomonidan taqdim qilingan shartnomaning loyihalari yoki notarial idorada tayyorlanadigan shartnomaning loyihalari qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmasligi lozim.

Shartnoma loyihasi notarial idorada tayyorlangan hollarda taraflarning xohishiga qarab shartnoma matni o'zgartirilishi yoki unga qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

28. Shartnoma matni aniq va ravshan yozilgan bo'lishi lozim, hujjatning mazmuniga taalluqli sana va muddatlar hech bo'lmaganda bir marta so'z bilan yozilishi lozim. Taraflarning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash yoki turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olingan manzili, notarial harakatlarni amalga oshirishda chet el fuqarolari qatnashayotgan bo'lsa, ularning fuqaroligi ham ko'rsatib o'tilishi kerak.

Bunda, shartnomaning mazmuni Tizimga aniq va to'liq kiritilishi hamda taraflarga tushuntirilishi lozim.

29. Shartnomaning matnida:

shartnomaning nomi;

shartnoma imzolangan sana so'zlar bilan qayd qilinishi;

shartnoma tasdiqlangan notarial idoraning nomi va joylashgan yeri (pochta manzili) va notariusning ismi, familiyasi, otasining ismi;

taflarning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash yoki turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olingan manzili, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR), shaxsini tasdiqlovchi hujjatning raqami, qachon va kim tomonidan berilganligi, shartnoma taraflaridan biri chet el fuqarosi bo'lsa, uning fuqaroligi;

shartnoma predmeti;

shartnoma necha nusxada tuzilganligi;

shartnomaning mazmuni, ahamiyati notarius tomonidan tushuntirilganligi, shartnoma matni bilan taraflar to'liq tanishganligi va taflarning asl maqsadiga muvofiq kelishi o'z aksini topishi kerak.

30. Shartnoma Tizimga kiritiladi hamda har bir shartnoma alohida tartib raqami bilan ro'yxatga olinadi.

31. Ro'yxatga olingan shartnomada tasdiqlovchi yozuv ko'rsatiladi.

Tasdiqlovchi yozuvda notariusning familiyasi, ismi va otasining ismi, notarial idoraning to'liq nomi, notarial harakat amalga oshirilgan vaqt va sana qayd etiladi.

### **6-bob. Shartnomani tasdiqlash uchun to'lovlarni amalga oshirish**

32. Tasdiqlanayotgan shartnoma, shu jumladan shartnomani tasdiqlash uchun murojaat qilgan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar Tizimga to'liq kiritilganidan so'ng, mazkur notarial harakat uchun undiriladigan to'lovlar miqdori Tizimda avtomatik ravishda hisoblanadi.

33. Shartnoma loyihasi taflarga o'qib tanishib chiqish uchun taqdim etilgandan keyin Tizim orqali to'lov kvitansiyalari (invoys) shartnomani tasdiqlash uchun murojaat qilgan shaxsga chiqarib beriladi hamda uning Tizimga kiritilgan mobil telefoni raqamiga to'lovlarning miqdori, notarial harakatni tasdiqlash kodi hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining "ishonch telefoni" raqami ko'rsatilgan SMS xabar yo'llanadi.

Notarial harakatni amalga oshirish uchun murojaat qilgan shaxsning mobil telefoni mavjud bo'lmaganda, istisno tariqasida, Tizimga u tomonidan ko'rsatilgan, notarial idoraga birga kelgan boshqa shaxsning mobil telefoni raqamini, agar faqat o'zi kelgan bo'lsa, notariusning mobil telefoni raqamini kiritishga ruxsat etiladi.

Shartnoma to'lovlar amalga oshirilganligi haqidagi ma'lumotlar Tizimga kelib tushgandan hamda notarial harakatni amalga oshirish uchun murojaat qilgan shaxs notarial harakatni tasdiqlash kodini notariusga berganidan so'ng tasdiqlanadi.

To'lovlar amalga oshirilganligi haqidagi ma'lumot (invoys) Tizimda saqlanadi.

### **7-bob. Shartnomani taraflar tomonidan imzolash**

34. To'lovlar amalga oshirilib, shartnoma loyihasi to'liq tayyor bo'lgandan so'ng, taraflar shartnomani imzolash uchun notarius huzuriga bir vaqtda taklif etiladi.

35. Shartnoma loyihasi taraflarga o'qib tanishib chiqish uchun taqdim etiladi.

Agar taraf(lar) savodsiz, ko'zi ojiz bo'lsa yoki qandaydir sabablar tufayli ko'zi yaxshi ko'ra olmasa, shuningdek kasalligi tufayli shartnomani o'qiy olmasa, notarius unga hujjat matnini ovoz chiqarib o'qib beradi va bu haqda hujjat matnida va tasdiqlovchi yozuvda qayd etadi.

36. Shartnomaning barcha nusxalarini taraflar familiyasi, ismi va otasining ismini to'liq yozib notarius ishtirokida shaxsan imzolaydilar.

Agar taraf(lar) jismoniy nuqsoni, kasalligi, savodsizligi tufayli yoki qandaydir boshqa sabablarga ko'ra shartnomani o'z qo'li bilan imzolay olmasa, shartnomani uning topshirig'iga ko'ra uning o'zi va notarius hozirligida boshqa shaxs imzolashi mumkin, bunda notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan shaxsning hujjatni o'z qo'li bilan imzolay olmaganligi sabablari hujjat matniga va tasdiqlovchi yozuvga yozib qo'yilishi lozim. Bunday hollarda notarial harakatlarni amalga oshirish chog'ida audio va videoyozuv vositalaridan foydalaniladi.

Taraf(lar) jismoniy nuqsoni, kasalligi tufayli yoki qandaydir boshqa sabablarga ko'ra shartnomani o'z qo'li bilan imzolay olmaganida, shartnomani

u(lar)ning topshirig'iga ko'ra imzolagan shaxs, hujjatni tarjima qilib bergan tarjimon, surdo yoki tiflo tarjimon va boshqalar ham o'zlariga ma'lum bo'lgan axborotlarni oshkor qilishi taqiqlanadi.

37. Taraflarning kamida ikkita barmoq izlari maxsus moslamalarda skaner qilinadi.

Agar taraf(lar) jismoniy nuqsoni (barmoqlarning yo'qligi, barmoq izlari yo'qolganligi va boshqa) sababli maxsus moslamalarda ularning barmoq izlarini skaner qilish imkoniyati mavjud bo'lmasa, notarial harakatlarni imzolash jarayoni majburiy audio va videoyozuv vositalarida qayd etiladi hamda bu haqida shartnomaning tasdiqlovchi yozuvida qayd etiladi.

38. Shartnomaning barcha nusxalariga notarius tegishli tasdiqlovchi yozuvni yozib, Tizimda qayd qilingan tartib raqamini, undirilgan to'lovlar (huquqiy va texnik tusdagi qo'shimcha harakatlar amalga oshirilganligi uchun haq) miqdorini ko'rsatib imzolaydi va muhrini qo'yadi.

39. Shartnoma bir necha alohida varaqlarda bayon etilgan taqdirda, ular maxsus teshik ochgich (lyuvers) yordamida teshgan holda ip o'tkazib tikiladi, varaqlari esa raqamlanadi, hujjatning oxirgi varag'i yorliq bilan yelimlangan holda notariusning imzosi bilan tasdiqlanib, notarial idoraning muhri bosiladi.

### **8-bob. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish**

40. Agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin. Bunda shartnoma qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, uni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuv ham shunday shaklda tuziladi.

41. Shartnomani o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish asosiy shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi.

42. Shartnomani bekor qilish uchun alohida kelishuv tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalariga shartnoma bekor qilinganligi haqida yozib qo'yiladi, unga notariusning imzosi va muhri qo'yiladi hamda Tizimga bu haqida ma'lumot kiritiladi. Shartnomaning taraflarga berilgan nusxalarini taqdim etish imkoni bo'lmagan (yo'qolgan yoki boshqa) hollarda bu haqida ariza olinadi.

Notarius shartnomani haqiqiy emas deb topganligi to'g'risidagi sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrimini olgan taqdirda, bu haqda shartnomaning notarial idora hujjatlari yig'majildlarida saqlanadigan asl nusxasiga tegishli yozuv kiritadi, o'z imzosi va muhrini qo'yadi va Tizimga ma'lumot kiritadi.

Shartnoma bekor qilingan vaqtda to'langan huquqiy va texnik tusdagi qo'shimcha harakatlar amalga oshirilganligi uchun to'lovlar qaytarilmaydi.

43. Shartnomaning mazmuniga ta'sir qilmaydigan qo'shimcha va tuzatishlar uchun qo'shimcha kelishuv talab etilmaydi. Bunda ushbu qo'shimcha va tuzatishlar taraflarning imzosidan oldin izohlanishi va tasdiqlovchi yozuvning oxirida notariusning imzosidan oldin takroran izohlanishi, notariusning imzosi va muhri bilan tasdiqlanishi kerak. Tasdiqlovchi yozuvdagi tuzatishlar notariusning imzosidan oldin izohlanishi va imzosi hamda muhri bilan tasdiqlanishi kerak.

Shartnomaning mazmuniga ta'sir qilmaydigan qo'shimcha va tuzatishlar shunday qilinishi kerakki, o'chirilgan barcha so'zlarni va raqamlarni boshlang'ich matnda o'qish imkoni bo'lishi lozim.

44. Tasdiqlovchi yozuvning matni texnik vositalarda (kompyuterda) o'chirilmasdan aniq yozilishi shart. Ochiq joylarga chiziq tortib qo'yilishi, yozuvlar va boshqa tuzatishlar ushbu Nizomning 43-bandi asosida izohlanishi kerak.

Tasdiqlovchi yozuv tegishli hujjatga sig'magan taqdirda, u hujjatga biriktirib qo'yilgan alohida qog'oz varag'ida davom ettirilishi yoki to'la bayon etilishi mumkin. Bunda hujjat matni bayon etilgan varaqlar va tasdiqlovchi yozuv varaqlari maxsus teshik ochgich (lyuvers) yordamida teshgan holda ip o'tkazib tikiladi, raqamlanadi, hujjatning oxirgi varag'i yorliq bilan yelimplangan holda notariusning imzosi bilan tasdiqlanib, muhr bosiladi.

45. Notarius yo'l qo'ygan xatosi natijasida o'zi rasmiylashtirgan shartnomaning noto'g'riligini bilib qolgan taqdirda, u ana shu shartnomani belgilangan tartibda bekor qilish choralarini ko'rish uchun bu haqda prokurorga xabar qilishga majbur. Notarius prokurorni xabardor qilganligi to'g'risida tegishli hududiy adliya organlarini xabardor qiladi.

## **9-bob. Notarial harakatni amalga oshirishni rad etish**

46. Notarius quyidagi hollarda notarial harakatni amalga oshirishni uch ish kunida rad etadi, agar:

bunday harakatni amalga oshirish qonunga zid bo'lsa;

muomalaga layoqatsiz fuqaro yoxud zarur vakolatlari bo'lmagan vakil notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan bo'lsa;

shartnoma qonun hujjatlari talablariga muvofiq bo'lmasa;

notarial harakatni amalga oshirish uchun zarur hujjatlar qonunchilik talablariga muvofiq bo'lmasa.

Notarial harakatni amalga oshirish rad etilgan taqdirda notarial harakatni amalga oshirishni rad etish haqida notarius murojaat qilingan kundan boshlab uch kundan kechiktirmasdan qaror chiqaradi.

Notarius notarial harakatni amalga oshirish to'g'risidagi murojaati rad etilgan shaxsning iltimosiga binoan rad etish sababini yozma ravishda bayon etishi va rad etish ustidan shikoyat qilish tartibini tushuntirib berishi lozim.

47. Notarius notarial harakatni amalga oshirishni rad etganda to'langan huquqiy va texnik tusdagi qo'shimcha harakatlar uchun undirilgan to'lovlar qaytariladi.

### **10-bob. Yakuniy qoida**

48. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3741  
2026 - yil 05 - Yanvar

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING BUYRUG'I

### **Mediatorlarning kasb etikasi qoidalarini tasdiqlash haqida**

O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuniga asosan buyuraman:

1. Mediatorlarning kasb etikasi qoidalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir  
2025-yil 30-dekabr  
32-mh-son



TASHKULOV AKBAR  
DJURABAYEVICH

O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining  
2025-yil 30-dekabrda 32-mh-son  
buyrug'iga  
ILOVA

## **Mediatorlarning kasb etikasi qoidalari**

Mazkur Qoidalar mediatorlarning kasb etikasiga oid asosiy qoidalar va talablarni (bundan buyon matnda kasb etikasi qoidalari deb yuritiladi) belgilaydi.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Kasb etikasi qoidalarining maqsadi mediatorlar faoliyatida yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, jamoatchilik ongida mediatorlarga bo'lgan hurmat va ishonchni oshirish hamda mediatorlarning odob-axloq qoidalariga zid bo'lgan xatti-harakatlarining oldini olish hisoblanadi.

2. Mediatorlar kasb etikasi qoidalariga so'zsiz rioya qilishi, mediatorlik faoliyatini halol va vijdonan bajarishi, mediatorlarning sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hamda mediatorlik faoliyatining nufuzini saqlashi lozim.

3. Mediatorlar qonunchilik hujjatlariga va kasb etikasi qoidalariga qat'iy rioya etishi shart.

4. Mediatorlar Mediatorlar reyestriga kirish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalariga (bundan buyon matnda hududiy adliya organlari deb yuritiladi) ariza taqdim etganda mediatsiyaga oid qonunchilik hujjatlari va kasb etikasi qoidalari bilan tanishganligini tasdiqlashi kerak.

### **2-bob. Mediatorlar faoliyatining asosiy prinsiplari**

5. Mediatorlar o'z faoliyatini maxfiylik, ixtiyoriylik, mediatsiya taraflarining hamkorligi va teng huquqliligi, mediatorlarning mustaqilligi va xolisligi prinsiplari asosida amalga oshiradi.

6. Mediatorlarning maxfiylik prinsipiga quyidagilar kiradi:

mediatorlar mediatsiya jarayonida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni ularni taqdim etgan mediatsiya tarafining, uning huquqiy vorisining

yoki vakilining yozma rozilgisiz oshkor qilishga haqli emasligi.

Bunda, mediatorlarning hududiy adliya organlariga statistika ma'lumotlarini Mediatorlar tomonidan statistika ma'lumotlarini taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizomga (ro'yxat raqami 3740, 2025 yil 30-dekabr) muvofiq taqdim etib borishi maxfiylik prinsipini buzish hisoblanmaydi;

mediatorlar o'zlariga mediatsiya jarayonida ma'lum bo'lib qolgan holatlar haqida guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin emasligi;

mediatsiya taraflarining mediatorlarga murojaat qilganligi fakti, shu jumladan jismoniy shaxslarning ismlari va yuridik shaxslarning nomlarini oshkor qilmasligi;

mediatsiya tartib-taomillarini amalga oshirish jarayonida mediatorlar tomonidan mediatsiya taraflaridan olingan barcha ma'lumotlar va hujjatlarni oshkor qilmasligi;

mediatsiya tartib-taomillarini amalga oshirish jarayonida mediatsiya taraflari to'g'risida mediatorlarga ma'lum bo'lgan axborotlarni oshkor qilmasligi;

mediativ kelishuv yoki mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risidagi kelishuv mazmuni va shartlari, shu jumladan mediatorlar va mediatsiya taraflari o'rtasidagi moliyaviy hisob-kitoblarni oshkor qilmasligi.

#### 7. Mediatsiyaning ixtiyoriylik prinsipiga quyidagilar kiradi:

mediatsiya taraflarining mediatsiyani qo'llash to'g'risidagi kelishuvda ishtirok etishi mediatsiya taraflarining o'zaro ixtiyoriyligiga asoslanishi, bunda mediatsiya jarayonida mediatsiya taraflarining majburan jalb etilishi mumkin emasligi;

mediatsiya taraflari mediatsiyani qo'llashdan uning istalgan bosqichida voz kechishga haqli ekanligi va mediatsiya taraflari o'zaro maqbul kelishuvni muhokama qilish uchun masalalarni tanlashda erkinligi;

mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish vaqtida mediatsiya taraflarini yarashishga majburlash taqiqlanishi;

mediatsiya kelishuviga erishish yoki erishmaslik bo'yicha qaror qabul qilishda bosim o'tkazmasligi.

8. Mediatorlarning mediatsiya taraflari bilan hamkorligi va teng huquqliligi prinsipiga quyidagilar kiradi:

mediatorlar mediatsiya taraflarining mediatsiya tartib-taomilini mediativ kelishuv shartlariga bir tomonlama ta'sir ko'rsatmagan holda amalga oshirishi;

mediatorlar mediatsiya tartib-taomilini nizo xususida mediatsiya taraflarining hamkorligi asosida o'zaro maqbul qarorga erishish maqsadida amalga oshirishi;

mediatorlar mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish tartibini, mediatsiya tartib-taomilidagi o'z nuqtai nazarini, bu nuqtai nazarni himoya qilish usullari va vositalarini tanlashda, axborot olishda, mediativ kelishuv shartlarining o'zaro maqbulligini baholashda teng huquqlardan foydalanishi hamda ularning zimmasida teng majburiyatlar bo'lishi.

9. Mediatorlarning mustaqilligi va xolisligi prinsipiga quyidagilar kiradi:

mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishda mediatorning mustaqilligi;

mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishda mediatorlarning faoliyatiga biror-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmasligi;

mediatorlarning mediatsiya taraflaridan biri bilan shaxsiy yoki xizmat munosabatlariga kirishmasligi;

mediatorlarning mediatsiya natijasidan bevosita yoki bilvosita moliyaviy yoki boshqa turdagi manfaatdorligi bo'lmasligi;

mediatorlarning mediatsiyadan tashqari mediatsiya taraflaridan biri bilan hamkorlik qilmasligi.

Bunda, mediatsiya taraflarining roziligi bilan, mediatorlar o'zining to'liq mustaqil va xolis bo'la olishiga ishonch hosil qilgan taqdirda mediatsiyani boshlash yoki davom ettirishi mumkin.

Mediatorlar har doim xolis bo'lib harakat qilishi, mediatsiya jarayonini amalga oshirish maqsadida har ikki tarafga teng xizmat ko'rsatishni o'z oldiga ustuvor vazifa qilib qo'yishi kerak.

Mediatorlarning mustaqilligi va xolisligiga to'sqinlik qiladigan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, ular mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishdan voz kechishi kerak.

Mediatorlar mediatorlik faoliyatini targ'ib qilishda yolg'on va ishonchli bo'lmagan ma'lumotlardan foydalanishi taqiqlanadi.

### **3-bob. Mediatorlarning kasb etikasiga qo'yiladigan talablar**

10. Mediatorlar mediatsiya taraflarining mediatsiya jarayonida teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashi lozim.

Mediatorlar mediatsiya taraflarining shaxsiy xislatlari, ijtimoiy kelib chiqishi, qadriyatlarini, e'tiqodi yoki ularning mediatsiyada o'zini tutishiga qarab ularga nisbatan bir tomonlama munosabatda bo'lmasligi lozim.

11. Mediatsiya taraflari mediatsiya o'tkazishning qonuniy vositalari va usullarini qo'llash bo'yicha mediatorlarga ixtiyoriy rozilik bildirishi kerak.

12. Mediatorlar mediatsiya taraflari bilan munosabatlarda:

qonunchilik hujjatlari talablariga va Mediatorning kasb etikasi qoidalariga rioya etishi;

mediatsiya boshlanguniga qadar mediatsiya taraflariga mediatsiyaning maqsadini, shuningdek ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi;

ishga kirishishdan oldin mediatsiya taraflariga mediatsiyaning o'tkazish tartibi, qiymati (shu jumladan to'lov tartibi va shakli) va ularning oqibatlari to'g'risida ma'lumot berishi;

mediatsiya taraflariga o'zining kasbiy malakasi va ish tajribasi to'g'risida ishonchli ma'lumot berishi;

muzokaralar davomida mediatsiya taraflarining xavfsizligi va teng huquqliligi, o'zaro hurmat muhitini yaratishga ko'maklashishi;

mediatsiya taraflariga, ularning vakillariga, mediatsiyaning boshqa ishtirokchilariga nisbatan hurmat va xushmuomalalik ko'rsatishi;

mediatsiya taraflarini diqqat bilan tinglashi, ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirishi, muzokaralar jarayonini boshqarishi, mediatsiya taraflarini nizoni hal qilishning maqbul variantlarini izlashga undashi;

muzokaralar natijasini bir tarafning foydasini ko'zlab ish olib bormasligi lozim.

#### **4-bob. Yakuniy qoida**

13. Mazkur kasb etikasi qoidalarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3745  
2026 - yil 06 - Yanvar

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

### Farmakologik vositalar hamda dori vositalarining klinik tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-avgustdagi PF-137-son "Dori vositalari va tibbiy jihozlar muomalasini tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq **buyuraman:**

1. Farmakologik vositalar hamda dori vositalarining klinik tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar 2-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.
3. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil va O'zbekiston Savdo sanoat palatasi bilan kelishilgan.
4. Mazkur buyruq 2026-yil 26-fevraldan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir  
24-Dekabr 2025-yil  
28 son



XUDAYAROV ASILBEK  
ANVAROVICH

**Kelishildi:**

Vakil o'rinbosari  
10-Dekabr 2025-yil



URUNOV JAMSHID  
OLIMOVICH

Rais  
09-Dekabr 2025-yil



TURAXUJAYEV HALILILLO  
SOBIRJONOVICH

Rais  
28-Noyabr 2025-yil



VAXABOV DAVRON  
ABDUJALALOVICH

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash  
vazirining 2025-yil 24-dekabrda  
28-son buyrug‘iga  
1-ILOVA

## **Farmakologik vositalar hamda dori vositalarining klinik tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM**

Mazkur Nizom farmakologik vositalar hamda dori vositalarining klinik tadqiqotlarini (bundan buyon matnda klinik tadqiqotlar deb yuritiladi) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**ariza beruvchi** – O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining “Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” davlat muassasasiga (bundan buyon matnda Markaz deb yuritiladi) farmakologik vositalar yoki dori vositalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va guvohnoma olish uchun murojaat qiluvchi ishlab chiquvchi, ishlab chiqaruvchi, ro‘yxatdan o‘tkazilganlik guvohnomasining egasi yoki ular nomidan ishonchnoma asosida harakat qiluvchi yuridik shaxs;

**audit** – klinik tadqiqotning klinik tadqiqot bayonnomasi hamda O‘z DSt 2765:2018 “Yaxshi klinika amaliyoti” (GCP) standarti talablariga muvofiq holda o‘tkazilayotganligini aniqlash uchun ariza beruvchi tomonidan o‘tkaziladigan kompleks va mustaqil tekshiruv;

**dori vositalari** – kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo‘yish va ularni davolash, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini o‘zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo‘llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalari (substansiyalar) va yordamchi moddalar asosida olingan vositalar, dori moddalari (substansiyalar), dori preparatlari;

**jenerik dori vositasi** – original (patentlangan) dori vositasining faol moddasi bilan sifat va miqdoriy jihatdan bir xil tarkibga, dori shakliga ega bo‘lgan, lekin patent muddati tugagandan so‘ng ishlab chiqarilgan dori vositasi bo‘lib, xavfsizligi, ta‘sir kuchi, xossalari, qo‘llanilish sohasi hamda bioekvivalentligi original dori vositasiga nisbatan tasdiqlangan dori vositasi. Faol moddaning turli tuzlari, efirlari, izomerlari, izomerlar aralashmalari, komplekslari yoki hosilalari xavfsizligi va samaradorligi jihatidan sezilarli farq qilmasa, bir xil faol modda sifatida e‘tirof etiladi. Og‘iz orqali qabul qilish uchun mo‘ljallangan va ta‘sir etuvchi moddasi tez ajraladigan turli dori shakllari biokiraolishlikni o‘rganish doirasida bir xil dori shakli sifatida tan olinadi;

**individual qayd qilish shakli** – har bir klinik tadqiqot subyekti bo‘yicha klinik tadqiqot bayonnomasida ko‘zda tutilgan barcha ma‘lumotlarni kiritishga va ariza beruvchiga taqdim etishga mo‘ljallangan, qog‘oz yoki elektron tashuvchidagi hujjat;

**klinik baza** – O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxatga kiritilgan, farmakologik vositalar yoki dori vositalarining klinik tadqiqotlarini o‘tkazishi mumkin bo‘lgan davolash-profilaktika muassasalari;

**klinik tadqiqot** – farmakologik vositalar yoki dori vositalarining xavfsizligi va samaradorligini aniqlash maqsadida ularning farmakologik xossalari, nojo‘ya ta‘sirlari va boshqa dori vositalari bilan o‘zaro ta‘sir samarasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘rganish uchun odam ishtirokida o‘tkaziladigan tadqiqot;

**klirik tadqiqot bayonnomasi** – ariza beruvchi tomonidan O‘z DSt 2765:2018 “Yaxshi klinika amaliyoti” (GCP) standartiga muvofiq tayyorlanadigan, klinika tadqiqotning maqsadi, vazifalari, dizayni, metodologiyasi, klinika tadqiqot subyektlarini tanlab olish mezonlari, tadqiqot o‘tkazilayotgan farmakologik vositalar yoki dori vositalarining samaradorligi va xavfsizligini baholash usullari, shuningdek o‘tkazilayotgan klinika tadqiqotga oid boshqa statistik ma’lumotlarni aks ettiruvchi hujjat;

**klirik tadqiqot rahbari** – klinika bazada klinika tadqiqotni o‘tkazishga mas’ul bo‘lgan, barcha shifokor-tadqiqotchilarning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi shifokor;

**klirik tadqiqot subyekti** – farmakologik vositani yoki dori vositasini klinika tadqiqot etishda o‘zining yozma ravishdagi roziligi bilan ixtiyoriy asosda ishtirok etuvchi jismoniy shaxs;

**klirik tadqiqot hisoboti** – klinika baza tomonidan ariza beruvchiga taqdim qilinadigan yozma shakldagi klinika tadqiqot natijalarini aks ettiruvchi hujjat;

**ko‘p markazli klinika tadqiqot** – bittadan ortiq klinika bazada yagona klinika tadqiqot bayonnomasi bo‘yicha o‘tkaziladigan klinika tadqiqot;

**monitoring** – klinika tadqiqotni o‘tkazish hamda uning natijalarini rasmiylashtirish jarayonining klinika tadqiqot bayonnomasi hamda O‘z DSt 2765:2018 “Yaxshi klinika amaliyoti” (GCP) standart talablariga muvofiq holda o‘tkazilayotganligini nazorat qilish maqsadida ariza beruvchi tomonidan butun klinika tadqiqot davomida doimiy ravishda o‘tkaziladigan tekshiruv;

**original dori vositasi** – sifati, samaradorligi va xavfsizligi klinika oldi va klinika tadqiqotlar natijalari asosida tasdiqlangan, dunyo farmatsevtika bozorida birinchi bo‘lib ro‘yxatga olingan yangi ta’sir etuvchi moddaga yoki moddalarga ega bo‘lgan dori vositasi;

**shifokor-tadqiqotchi** – klinika bazada farmakologik vositalar yoki dori vositalarining bevosita klinika tadqiqotini o‘tkazuvchi mutaxassis;

**farmakologik vositalar** – muayyan dori shakliga, klinika oldi tadqiqotlarda aniqlangan farmakologik faollikka va xavfsizlikka ega bo‘lgan, klinika tadqiqot obyektlari bo‘lgan modda yoki moddalar aralashmasi;

**Etika qo‘mitasi** – klinika tadqiqotlarni o‘tkazishning etika jihatidan asoslanganligi yuzasidan etika ekspertizasini o‘tkazish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tibbiyot, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, oliy ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillaridan iborat tarkibda tasdiqlanadigan, jamoatchilik asosida doimiy faoliyat yurituvchi kollegial organ;

**qonuniy vakil** – klinika tadqiqot subyekti nomidan klinika tadqiqotda ixtiyoriy ishtirok etishga rozilik berish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs (ota-onalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar).

**2.** Quyidagi hollarda davlat ro‘yxatdan o‘tkazishda klinika tadqiqotlar o‘tkazish talab etilmaydi:

dori moddalari (substansiyalar);

tan olish yo‘li bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan dori vositalari;

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan qayta malakalangan (prequalification) dori vositalari;

O‘zbekiston Respublikasida klinika tadqiqotlari oldin o‘tkazilgan dori vositalari;

odam hujayralarini muhim o‘zgarishsiz qayta ishlash natijasida olingan hujayra texnologiyasi asosida ishlab chiqarilgan biotexnologiya dori vositalari;

referent preparatga nisbatan bioekvivalentligi validatsiyalangan in vivo yoki in vitro tadqiqot usullaridan foydalangan holda isbotlangan, natijalari miqdoriy ko'rsatkichlar shaklida taqdim etilgan peroral jenerik dori vositalari;

biofarmasevtik klassifikatsiya tizimi (BKT) bo'yicha BKT I va III sinfga mansub bioekvivalentligi bioveyver usuli yordamida referent preparat bilan qiyoslangan holda isbotlangan, qattiq dori shakliga ega peroral qo'llaniladigan jenerik dori preparatlari (til ostiga va milkka qo'yiladigan hamda ajralib chiqishi modifikatsiyalangan dori vositalari bundan mustasno);

parenteral yuboriladigan jenerik dori vositalari;

peroral qo'llash uchun suvli eritmalar (sirop, eliksir, nastoyka), peroral qo'llanadigan tuzli eritmalar, mineral preparatlar, vitaminlar, polivitaminlar va ularning minerallar bilan majmuasi, metabolik jarayonlarni rag'batlantiruvchi jenerik dori vositalari;

aynan bir xil konsentratsiyadagi suvli eritma ko'rinishida quloqqa, burunga va ko'zga tomiziladigan tomchilar shaklidagi jenerik dori vositalari;

gaz shaklidagi jenerik dori vositalari;

sirtga qo'llash uchun ta'sir etuvchi, qitiqlovchi, yallig'lanishga qarshi va mahalliy og'riqsizlantiruvchi, antiseptik va mikroblarga qarshi ta'sirga ega (inson organizmiga rezorbtiv (umumiy) ta'sirga ega bo'lmagan) jenerik dori vositalari (bioekvivalentlikni o'rganishga oid in vitro tadqiqot natijalari taqdim etilgan hollarda);

ishlab chiqarish texnologiyasining transferi asosida ishlab chiqarilgan jenerik dori vositalari;

prebiotik, probiotik va euobiotiklar, surg'i vositalari va meteorizmga qarshi jenerik dori vositalari;

bir ishlab chiqaruvchi tomonidan shartnoma asosida turli savdo nomlari ostida ishlab chiqilgan, tarkibi bir xil bo'lgan dori vositalari (ushbu dori vositalarining kamida bittasi klinik tadqiqotlarning ijobiy natijasi asosida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lishi kerak);

xalq tabobatida keng qo'llaniladigan o'simlik xomashyosidan olinadigan monokomponentli va polikomponentli jenerik dori vositalari va galen preparatlari;

xavfsizligi va samaradorligi 20 yil va undan ortiq muddat davomida isbotlangan mahalliy, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda muomalada bo'lgan hamda Yevroosiyo iqtisodiy Ittifoqi talablariga muvofiq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan jenerik dori vositalari (mazkur dori vositalarining samaradorligi va xavfsizligini aks ettiruvchi tan olingan ilmiy nashrlardan tayyorlangan adabiyotlar sharhi to'liq hajmda taqdim etilishi lozim).

Farmakologik vositalar faqat klinik tadqiqotlarning ijobiy natijasi asosida davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

**3.** Farmakologik vositalar yoki dori vositalarining klinik tadqiqotlarini o'tkazish to'g'risidagi qaror Markaz tavsiyasi asosida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tashkil etilgan Ekspertlar kengashi (bundan buyon matnda Ekspertlar kengashi deb yuritiladi) tomonidan qabul qilinadi.

## **2-bob. Klinik tadqiqotlarni o'tkazishni tashkil etish**

**4.** Klinik tadqiqotlar mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq sxema bo'yicha o'tkaziladi.

**5.** Ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan farmakologik vositalar yoki dori vositalarining namunalari dastlab Markazning laboratoriyalarida yetmish besh kungacha bo'lgan muddatda laboratoriya sinovlaridan o'tkaziladi.

**6.** Laboratoriya sinovlari yakunlangandan so'ng Markaz to'qson kungacha bo'lgan muddatda ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-noyabrdagi 738-son qarori bilan tasdiqlangan Dori vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning 14-bandida nazarda tutilgan hujjatlarni (bundan buyon matnda davlat ro'yxatidan o'tkazish hujjatlari deb yuritiladi) ixtisoslashtirilgan ekspertizadan o'tkazadi hamda ularni Markaz laboratoriyalarining xulosalari bilan taqqoslaydi.

**7.** Laboratoriya sinovlarining natijalari ijobiy bo'lib, biroq davlat ro'yxatidan o'tkazish hujjatlarining ekspertizasi jarayonida kamchiliklar aniqlanganda Markaz ariza beruvchiga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida "uzpharminfo.uz" elektron tizimi (bundan buyon matnda elektron tizim deb yuritiladi) orqali xabarnoma yuboradi.

Ariza beruvchi ushbu xabarnomani olgan vaqtdan e'tiboran to'qson kun ichida xabarnomada ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda tegishli hujjatlarni Markazga elektron tizim orqali takroran taqdim etadi.

**8.** Laboratoriya sinovlarining natijalari hamda davlat ro'yxatidan o'tkazish hujjatlarining ekspertiza natijalari ijobiy bo'lganda Markaz mazkur natijalar olingan vaqtdan boshlab o'n besh kun ichida farmakologik vositalar yoki dori vositalarini klinik tadqiqotlar o'tkazilgan holda davlat ro'yxatidan o'tkazish mumkinligi to'g'risida Ekspertlar kengashiga tavsiyalar kiritadi.

**9.** Markaz tomonidan farmakologik vositalar yoki dori vositalarini klinik tadqiqotlarning ijobiy natijasi asosida davlat ro'yxatidan o'tkazish mumkinligi to'g'risidagi tavsiya berilganda Ekspertlar kengashi ushbu tavsiya olingan vaqtdan boshlab bir ish kuni ichida klinik tadqiqotlarni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi.

**10.** Ekspertlar kengashining qarori qabul qilingan vaqtdan boshlab bir ish kun ichida Markaz tomonidan ariza beruvchiga elektron tizim orqali klinik tadqiqotlarni o'tkazish mumkinligi, klinik tadqiqot uchun taqdim etilishi zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati hamda ularni taqdim etish muddati, shuningdek o'tkaziladigan klinik tadqiqotlarning turi, dizayni hamda ushbu tadqiqotlar o'tkazilishi mumkin bo'lgan klinik bazalar ro'yxati ko'rsatilgan xabarnoma yuboriladi.

Bunda, xabarnomaga laboratoriya sinovlarining natijalari ilova qilinadi.

**11.** Ariza beruvchi xabarnomani olgan kundan e'tiboran qirq besh kun ichida Markazga quyidagi hujjatlarni elektron tizim orqali taqdim etadi:

O'z DSt 2765:2018 "Yaxshi klinika amaliyoti" (GCP) standartiga muvofiq tuzilgan klinik tadqiqot bayonnomasining loyihasi;

mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shakldagi individual qayd qilish shakli;

ushbu Nizomning 3-ilovasida nazarda tutilgan ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan klinik tadqiqot subyekti uchun ma'lumotnoma;

mazkur Nizomning 4-ilovasida nazarda tutilgan ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan klinik tadqiqot subyektining klinik tadqiqotlarda ixtiyoriy ishtirok etishi uchun rozilik shakli;

O'z DSt 2765:2018 "Yaxshi klinika amaliyoti" (GCP) standartiga muvofiq tuzilgan tadqiqotchi uchun broshyura;

mazkur Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakldagi klinik tadqiqot rahbari bilan klinik tadqiqotni o'tkazish yuzasidan kelishuv;

klinik tadqiqot rahbarining tibbiy faoliyati to'g'risidagi ma'lumot;

klinik tadqiqot subyektining hayotiga, sog'lig'iga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligiga doir sug'urta shartnomasining nusxasi (sug'urta polisi).

**12.** Ariza beruvchi tomonidan mazkur Nizomning 11-bandida nazarda tutilgan hujjatlar (bundan buyon matnda klinik tadqiqot hujjatlari deb yuritiladi) to'liq taqdim etilgan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida Markaz tomonidan ushbu hujjatlar birlamchi (dastlabki) ekspertizadan o'tkaziladi.

**13.** Klinik tadqiqot hujjatlari qirq besh kun ichida ariza beruvchi tomonidan taqdim etilmasa, Markaz tomonidan Ekspertlar kengashiga farmakologik vosita yoki dori vositasining klinik tadqiqoti bo'yicha ish yuritilishini to'xtatish masalasi kiritiladi hamda Ekspertlar kengashi tomonidan klinik tadqiqot bo'yicha ish yuritilishini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

**14.** Birlamchi (dastlabki) ekspertiza natijasida ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda quyidagi kamchiliklar aniqlangan holda, Markaz ushbu kamchiliklarni bartaraf etish muddatini ko'rsatgan holda ariza beruvchiga elektron tizim orqali xabarnoma yuboradi:

klinik tadqiqot subyekti uchun ma'lumotnomada farmakologik vosita yoki dori vositasining xususiyatlari, qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlar to'liq aks ettirilmaganligi;

klinik tadqiqot bayonnomasida keltirilgan tekshiruv usullarining ilmiy jihatdan asoslanmaganligi;

klinik tadqiqot bayonnomasida farmakologik vosita yoki dori vositasining xavfsizligi va samaradorligi mezonlarining to'liq aks ettirilmaganligi.

Bunda, xabarnomada ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'ladigan vaqtga mutanosib bo'lishi, biroq ushbu muddat o'ttiz ish kunidan ortiq bo'lmasligi kerak.

**15.** Ariza beruvchi xabarnomada ko'rsatilgan kamchiliklarni ushbu xabarnomada belgilangan muddatda bartaraf etgan holda klinik tadqiqot hujjatlarini elektron tizim orqali Markazga takroran taqdim etadi.

**16.** Klinik tadqiqot hujjatlarining birlamchi (dastlabki) ekspertizasi o'tkazilganidan so'ng, o'n besh kun ichida ushbu hujjatlar Markaz tomonidan mustaqil ekspert jalb etilgan holda ixtisoslashtirilgan ekspertizadan o'tkaziladi.

Bunda, mustaqil ekspert sifatida klinik tadqiqotlar sohasida zarur bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan mutaxassislar jalb etiladi.

Ixtisoslashtirilgan ekspertiza jarayonida mustaqil ekspert tomonidan:

klinik tadqiqot o'tkaziladigan klinik baza, klinik tadqiqot dizayni va qiyosiy dori vositasi to'g'ri tanlanganligi;

tekshirilayotgan farmakologik yoki dori vositasining samaradorligi va xavfsizligini o'rganishda ilg'or zamonaviy tekshirish usullari tanlanganligi tekshiriladi.

**17.** Klinik tadqiqot hujjatlari mazkur Nizomning 16-bandi to'rtinchi va beshinchi xatboshilarida keltirilgan talablarga muvofiq bo'lganda mustaqil ekspert tomonidan ixtisoslashtirilgan ekspertiza natijalari bo'yicha ijobiy xulosa beriladi.

Mustaqil ekspert tomonidan ixtisoslashtirilgan ekspertiza natijalari bo'yicha ijobiy xulosa berilganda Markaz tomonidan ariza beruvchiga klinik tadqiqot hujjatlarini hamda ixtisoslashtirilgan ekspertizaning ijobiy xulosasini Etika qo'mitasiga taqdim etish mumkinligi to'g'risida ikki ish kuni ichida elektron tizim orqali xabarnoma yuboriladi.

**18.** Klinik tadqiqot hujjatlarida mazkur Nizomning 16-bandi to'rtinchi va beshinchi xatboshilarida keltirilgan talablarga nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda, mustaqil ekspert tomonidan salbiy xulosa beriladi hamda Markaz tomonidan ariza beruvchiga aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish muddati ko'rsatilgan holda elektron tizim orqali xabarnoma yuboriladi.

Bunda, xabarnomada ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'ladigan vaqtga mutanosib bo'lishi, biroq ushbu muddat o'ttiz ish kunidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Ariza beruvchi xabarnomada ko'rsatilgan kamchiliklarni ushbu xabarnomada belgilangan muddatda bartaraf etgan holda klinik tadqiqot hujjatlarini elektron tizim orqali Markazga takroran taqdim etadi.

Ariza beruvchi tomonidan takroran taqdim etilgan klinik tadqiqot hujjatlari ular elektron tizim orqali kelib tushgan vaqtdan boshlab bir ish kuni ichida mazkur Nizomning 16 va 17-bandlarida keltirilgan tartibda ko'rib chiqiladi va ariza beruvchiga klinik tadqiqot hujjatlarini hamda ixtisoslashtirilgan ekspertizaning ijobiy xulosasini Etika qo'mitasiga taqdim etish mumkinligi to'g'risida elektron tizim orqali xabarnoma yuboriladi.

**19.** Ariza beruvchi tomonidan klinik tadqiqot hujjatlari Etika qo'mitasiga ikki ish kuni ichida taqdim etiladi.

Etika qo'mitasida klinik tadqiqotlarni o'tkazishning etika jihatidan asoslanganligi to'g'risida xulosa berish maqsadida etika ekspertizasi o'tkaziladi.

Klinik tadqiqotlarini o'tkazishga mazkur tadqiqotlarni o'tkazish etika jihatidan asoslanganligi to'g'risidagi etika ekspertizasining xulosasiz yo'l qo'yilmaydi.

**20.** Etika qo'mitasining majlisi bir oyda kamida bir marta o'tkaziladi. Etika qo'mitasiga taqdim etilgan hujjatlar uning majlisida muhokama qilinadi.

Etika qo'mitasi muhokama natijalari asosida:

klinik tadqiqotni o'tkazishning etika jihatidan asoslanganligi to'g'risida;

klinik tadqiqotni o'tkazishning etika jihatidan asoslanmaganligi to'g'risida xulosa beradi.

Etika qo'mitasining xulosasi Etika qo'mitasi majlisining bayonnomasi ko'rinishida rasmiylashtiriladi hamda uning raisi tomonidan tasdiqlanadi.

**21.** Etika qo'mitasi tomonidan klinik tadqiqotni o'tkazishning etika jihatidan asoslanganligi to'g'risida xulosa berilganda Etika qo'mitasi mazkur xulosani besh ish kuni ichida ariza beruvchiga yuboradi.

Etika qo'mitasining klinik tadqiqotni o'tkazishning etika jihatidan asoslanganligi to'g'risida xulosasi ariza beruvchi tomonidan Markazga darhol yuboriladi.

**22.** Etika qo'mitasi tomonidan quyidagi hollarda klinik tadqiqotni o'tkazishning etika jihatidan asoslanmaganligi to'g'risida xulosa beriladi:

klinik tadqiqotni o'tkazish uchun farmakologik vosita yoki dori vositasining qo'llanilish sohasiga nomuvofiq klinik baza tanlanganda;

klinik tadqiqot bayonnomasidagi klinik tadqiqot dizayni va statistik tahlil usuli O'z DSt 2765:2018 "Yaxshi klinika amaliyoti" (GCP) standarti talablariga muvofiq kelmaganda;

klinik tadqiqot subyekti uchun ma'lumotnoma matni mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq kelmaganda.

**23.** Etika qo'mitasi tomonidan klinik tadqiqotni o'tkazishning etika jihatidan asoslanmaganligi to'g'risida xulosa berilganda Etika qo'mitasi tomonidan bir ish kuni ichida ariza beruvchiga mazkur xulosa berilishi uchun asos bo'lgan, ushbu Nizomning 22-bandida nazarda tutilgan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini ko'rsatilgan holda xabarnoma yuboriladi.

Bunda, xabarnomada ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'ladigan vaqtga mutanosib bo'lishi, biroq ushbu muddat o'ttiz ish kunidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Ariza beruvchi xabarnomada ko'rsatilgan kamchiliklarni ushbu xabarnomada belgilangan muddatda bartaraf etgan holda klinik tadqiqot hujjatlarini Etika qo'mitasiga yuboradi.

Ariza beruvchi tomonidan takroran taqdim etilgan klinik tadqiqot hujjatlari Etika qo'mitasi tomonidan mazkur Nizomning 20 va 21-bandlarida nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqiladi.

**24.** Etika qo'mitasining klinik tadqiqotni o'tkazishning etika jihatdan asoslanganligi to'g'risidagi xulosasi Markazga kelib tushgandan so'ng o'n besh kun ichida klinik tadqiqot hujjatlari va ariza beruvchi tomonidan tanlangan klinik baza Markazning navbatdagi majlisida ma'qullanadi hamda klinik tadqiqotni o'tkazishni boshlash mumkinligi to'g'risida ariza beruvchiga va klinik tadqiqotni o'tkazuvchi klinik baza rahbariga elektron tizim orqali xabarnoma yuboriladi.

Markaz majlislari bir oyda kamida ikki marta o'tkaziladi.

**25.** Original dori vositalarining, shuningdek farmakologik vositalarning klinik tadqiqotlari ko'p markazli klinik tadqiqot tarzida yagona klinik tadqiqot bayonnomasi bo'yicha ikki va undan ortiq klinik bazada o'tkaziladi.

Jenerik dori vositalarining klinik tadqiqotlari bitta klinik bazada o'tkaziladi.

### **3-bob. Klinik bazada klinik tadqiqotlarni o'tkazish**

**26.** Markazning klinik tadqiqotni o'tkazishni boshlash mumkinligi to'g'risidagi xabarnomasi olingandan so'ng, o'n besh kun ichida ariza beruvchi klinik baza rahbari bilan klinik tadqiqotni o'tkazish to'g'risida shartnoma tuzadi.

Klinik baza rahbari ariza beruvchidan tadqiq etilayotgan farmakologik vosita yoki dori vositasini, qiyosiy dori vositasi va uning sifat sertifikatini (agar klinik tadqiqot bayonnomasida ko'zda tutilgan bo'lsa), Markazning laboratoriyalarida o'tkazilgan laboratoriya sinovi natijalarini va klinik tadqiqot hujjatlarini dalolatnoma asosida qabul qilib oladi.

Dalolatnoma ariza beruvchi va klinik baza rahbari tomonidan imzolanadi.

**27.** Farmakologik vositalar yoki dori vositalarining klinik tadqiqotlari har bir tadqiqot guruhiga (asosiy va qiyosiy guruh) kamida 30 nafar klinik tadqiqot subyekti jalb etilgan holda o'tkaziladi.

Klinik tadqiqotda klinik tadqiqot subyekting ishtiroki uning ushbu Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda to'ldirilgan yozma roziligi asosida amalga oshiriladi.

Klinik tadqiqot voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz subyekt ishtirokida o'tkazilgan hollarda tadqiqot boshlanishidan oldin uning qonuniy vakilidan mazkur Nizomning 4a-ilovasiga muvofiq shaklda to'ldirilgan yozma ravishda rozilik olinishi lozim.

**28.** Klinik tadqiqot rahbari klinik tadqiqot subyektiga ushbu tadqiqot usulining ahamiyati, tadqiqotning mohiyati va ehtimol tutilgan xavfi haqida batafsil tushuntirib berishi shart. Klinik tadqiqot subyekti tadqiqotning istalgan bosqichida unda ishtirok etishni rad qilishga haqli.

Klinik tadqiqot subyekti farmakologik vosita yoki dori vositasi qo'llanilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan, klinik tadqiqot subyekti uchun ma'lumotnomada keltirilgan barcha nojo'ya ta'sirlarga to'liq tekshiruvlardan o'tkazilgandan so'ng, klinik tadqiqot rahbari (shifokor-tadqiqotchi) tomonidan klinik tadqiqotga jalb qilinadi.

**29.** Klinik tadqiqotning sifatli o'tkazilishini nazorat qilish ariza beruvchi tomonidan monitoring va audit o'tkazish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Monitoring va audit ariza beruvchi tomonidan mustaqil yoki klinik tadqiqotlar sohasida zarur bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan mutaxassislar jalb etilgan holda O'z DSt 2765:2018 "Yaxshi klinika amaliyoti" (GCP) standarti talablariga muvofiq o'tkaziladi.

**30.** Klinik baza rahbari klinik tadqiqot vaqtida paydo bo'lgan barcha nojo'ya ta'sirlar va holatlar yuzasidan besh kun ichida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga yozma shaklda xabar berishi lozim.

Klinik tadqiqot subyektining hayoti, sog'lig'i uchun tahdid paydo bo'lgan taqdirda, klinik baza rahbari klinik tadqiqotni to'xtatib turishi hamda tadqiqotni davom ettirish yoki to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligini bir ish kuni ichida yozma shaklda xabardor qilishi kerak.

**31.** O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan klinik baza rahbarining xabarnomasi mazkur xabarnoma kelib tushgan kundan e'tiboran bir ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi quyidagi hollarda klinik tadqiqotni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qiladi hamda mazkur qarorning nusxasini Markazga va klinik baza rahbariga yuboradi:

kamida bir nafar klinik tadqiqot subyektida nojo'ya ta'sir (anafilaktik shok) yuz berganida (tadqiqot subyekti reanimatsiya bo'limiga og'ir ahvolda tushganida);

nojo'ya ta'sir oqibatida klinik tadqiqot subyektida nogironlik yoki o'lim holati yuz berganda;

klinik tadqiqot subyektlarining kamida o'ttiz foiz qismida nojo'ya ta'sir yuz berganda;

klinik tadqiqot jarayonida klinik tadqiqot subyektlarining kamida o'ttiz foiz qismida farmakologik vosita yoki dori vositasining samarasiz ekanligi aniqlangan hollarda.

**32.** Klinik tadqiqot muddatidan oldin to'xtatilgan hollarda klinik tadqiqot hisoboti klinik tadqiqotni to'xtatish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining qarori qabul qilinguniga qadar amalga oshirilgan ishlar holati bo'yicha tayyorlanadi hamda klinik baza rahbari tomonidan tasdiqlangan holda Markazga yuboriladi.

Klinik baza rahbari tomonidan taqdim etilgan klinik tadqiqot hisoboti Markazning Ekspertlar kengashiga kiritiladi.

Ekspertlar kengashi o'zining majlisida farmakologik vosita yoki dori vositasini tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Ekspertlar kengashining majlisi o'n besh kunda bir marta o'tkaziladi.

**33.** Klinik tadqiqot yakunlangandan so'ng klinik tadqiqot rahbari va shifokor-tadqiqotchilar tomonidan imzolangan individual qayd qilish shakllari va klinik tadqiqot subyektlarining rozilik blanklari ariza beruvchiga taqdim etiladi.

**34.** O'tkazilgan klinik tadqiqot yakunlari bo'yicha klinik tadqiqot hisoboti tuziladi hamda klinik tadqiqot rahbari va shifokor-tadqiqotchilar tomonidan imzolanadi.

Klinik tadqiqot hisoboti klinik baza rahbari tomonidan tasdiqlanib, ariza beruvchiga 10 kun ichida taqdim etiladi.

**35.** Ariza beruvchi klinik tadqiqot hisobotini olgan vaqtdan boshlab bir oy ichida uni Markazga taqdim etadi.

**36.** Ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan klinik tadqiqot hisoboti o'n besh kun ichida Markaz tomonidan klinik tadqiqot bayonnomasiga amal qilingan holda o'tkazilganligi yuzasidan yakuniy ekspertizadan o'tkazilishi lozim.

**37.** Mazkur Nizomning 36-bandida nazarda tutilgan muddatda klinik tadqiqot o'tkazilgan klinik bazada O'z dst 2765:2018 "Yaxshi klinika amaliyoti" (GCP) standarti talablariga muvofiq klinik tadqiqot hujjatlarining (kasallik tarixi, ambulator karta, individual qayd etish shakli) o'zaro muvofiqligi o'rganilishi hamda natijalariga ko'ra dalolatnoma tuzilishi zarur.

**38.** Yakuniy ekspertiza natijasida klinik tadqiqot hisoboti va klinik tadqiqot bayonnomasi o'rtasida nomuvofiqliklar aniqlanmaganda klinik tadqiqot hisobotining yakuniy ekspertizasi natijalari Ekspertlar kengashiga kiritiladi.

**39.** Ekspertlar kengashi o'zining majlisida farmakologik vositalar yoki dori vositalarining tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat berish to'g'risida qaror qabul qiladi.

**40.** Klinik tadqiqot hisobotining yakuniy ekspertizasi natijasida mazkur hisobot va klinik tadqiqot bayonnomasi o'rtasida nomuvofiqliklar aniqlangan hollarda Markaz ariza beruvchiga mazkur nomuvofiqliklarni bartaraf etish zarurligi to'g'risida ushbu nomuvofiqliklarni bartaraf etish muddatini ko'rsatgan holda elektron tizim orqali xabarnoma yuboradi.

Bunda, xabarnomada ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'ladigan vaqtga mutanosib bo'lishi, biroq ushbu muddat o'ttiz ish kunidan ortiq bo'lmasligi kerak.

**41.** Ariza beruvchi xabarnomada ko'rsatilgan nomuvofiqliklarni ushbu xabarnomada belgilangan muddatda bartaraf etadi hamda klinik tadqiqot hisobotini Markazga takroran taqdim etadi.

Ariza beruvchi tomonidan takroran taqdim etilgan klinik tadqiqot hisoboti Markaz va Ekspertlar kengashi tomonidan mazkur Nizomning 36 va 38-bandlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

#### **4-bob. Klinik tadqiqotlarni o'tkazish jarayonida tomonlarning huquqlari va majburiyatlari**

**42.** Klinik tadqiqotlarni o'tkazish jarayonida Markaz quyidagi huquqlarga ega:  
klinik tadqiqotlar turlarini (ko'p markazli klinik tadqiqot, cheklangan va cheklangan qiyosiy klinik tadqiqot) belgilash;

ariza beruvchidan klinik tadqiqotga oid hujjatlarning puxta va sifatli tayyorlanishini talab qilish;

klinik tadqiqotga oid hujjatlarni ko'rib chiqish jarayoniga tegishli mutaxassislarni jalb etish.

**43.** Markaz:

ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ushbu Nizom talablariga amal qilgan holda ekspertizadan o'tkazishi;

klinik tadqiqot natijalarini uchinchi shaxslarga va ushbu klinik tadqiqotga aloqasi bo'lmagan boshqa shaxslarga bermasligi lozim.

**44.** Klinik tadqiqot rahbari quyidagi huquqlarga ega:

ariza beruvchi tomonidan taqdim etilayotgan farmakologik vositalar yoki dori vositalarini hamda qiyosiy dori vositasini qabul qilish;

klinik tadqiqot vaqtida klinik tadqiqot subyektining salomatligini ta'minlash maqsadida uni klinik tadqiqotdan chiqarib, muqobil davolashga o'tkazish yuzasidan qaror qabul qilish;

ariza beruvchi bilan kelishgan holda klinik tadqiqot natijalari asosida ilmiy maqolalar chop ettirish.

**45.** Klinik tadqiqot rahbari:

klinik tadqiqot boshlanishidan oldin klinik tadqiqot subyektlarining klinik tadqiqotda ixtiyoriy ishtirok etish yuzasidan yozma roziligini olishi;

tekshirilayotgan farmakologik vositalar yoki dori vositalarini ariza beruvchining yo'riqnomalariga muvofiq saqlashi;

klirik tadqiqotlarni o'tkazish jarayonida O'z DSt 2765:2018 "Yaxshi klinika amaliyoti" (GCP) standarti talablariga rioya qilishi;

individual qayd qilish shaklidagi ma'lumotlarning to'g'ri, to'liq va tushunarli to'ldirilishini, saqlanishini hamda ariza beruvchiga o'z vaqtida taqdim qilinishini ta'minlashi;

ariza beruvchi tomonidan monitoring va audit o'tkazilishiga sharoit yaratib berishi lozim.

**46.** Klinik tadqiqot rahbari klinik tadqiqot doirasida klinik tadqiqot subyektlariga tibbiy yordam ko'rsatish yuzasidan tibbiy xususiyatga ega bo'lgan barcha qabul qilinayotgan qarorlar uchun javobgardir.

Klinik bazada tekshirilayotgan farmakologik vosita yoki dori vositalari hisobini yuritish yuzasidan javobgarlik klinik tadqiqot rahbari zimmasiga yuklanadi.

**47.** Klinik tadqiqot muddatidan oldin to'xtatilgan hollarda shifokor-tadqiqotchi mazkur holat to'g'risida darhol klinik tadqiqotga jalb etilgan klinik tadqiqot subyektlarini xabardor qilishi, ularni muvofiq ravishda davolashni va kuzatuvini ta'minlashi lozim.

**48.** Ariza beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

klirik tadqiqot o'tkazishning barcha bosqichlarida malakali mutaxassislarni (biostatistlar, klinik farmakologlar, shifokorlarni) jalb qilish;

klirik tadqiqotning sifat nazoratini ta'minlash maqsadida klinik tadqiqot monitoringi va auditini o'tkazish;

Markaz mansabdor shaxslarining harakati (harakatsizligi) yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish.

**49.** Ariza beruvchi:

klirik tadqiqot bilan bog'liq barcha xarajatlarni qoplashi;

klirik tadqiqot boshlanishidan oldin sug'urta tashkiloti bilan klinik tadqiqot subyekting hayotiga, sog'lig'iga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligiga doir sug'urta shartnomasini tuzishi;

klirik bazaga farmakologik vositalar yoki dori vositalari hamda qiyosiy dori vositalarining o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlashi;

farmakologik vositalar yoki dori vositalarining olib kelinishi, qabul qilinishi, klinik bazaga berilishi, klinik baza tomonidan qaytarilishi, shuningdek yo'q qilinishini o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirishi lozim.

### **5-bob. Ariza beruvchilarning shikoyatini ko'rib chiqish**

**50.** Ariza beruvchi mazkur Nizom talablarining buzilishi, klinik tadqiqotlarni o'tkazish bo'yicha mansabdor shaxslar yoki xodimlarning harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga yoki bevosita sudga shikoyat qilishga haqli.

**51.** Ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan shikoyat O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan mazkur shikoyat kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

**52.** O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi shikoyatni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qilishga haqli:

e'tiroz asossiz bo'lsa, shikoyatni qanoatlantirishni rad etish;


e'tiroz asosli bo'lsa, qabul qilingan qarorni qayta ko'rib chiqish yoki uning mansabdor shaxsi zimmasiga berilgan shikoyat mohiyati bo'yicha muayyan harakatlarni amalga oshirish majburiyatini yuklash.


#### **6-bob. Yakuniy qoida**


**53.** Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.


Farmakologik vositalar hamda dori  
vositalarining klinik tadqiqotlarini  
o'tkazish tartibi to'g'risidagi  
nizomga  
1-ILOVA


**Klinik tadqiqotlarni o'tkazish sxemasi**











Farmakologik vositalar hamda  
dori vositalarining klinik  
tadqiqotlarini o'tkazish tartibi  
to'g'risidagi nizomga  
2-ILOVA

## INDIVIDUAL QAYD QILISH SHAKLI

### Klinik tadqiqot nomi

“ \_\_\_\_\_ ” korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan  
“ \_\_\_\_\_ ” farmakologik vosita/dori vositasining  
**KLINIK SAMARADORLIGI VA O'ZLASHTIRA OLINISHINI O'RGANISH  
YUZASIDAN KLINIK TADQIQOT**

(F.I.)

**Klinik tadqiqot subyektining raqami (№) \_\_\_\_\_**

**Kasallik tarixi/ambulator karta raqami**

\_\_\_\_\_

**Klinik baza:** \_\_\_\_\_

**Muassasa rahbari:** \_\_\_\_\_

**Klinik tadqiqot rahbari:** \_\_\_\_\_

**Shifokor-tadqiqotchi** \_\_\_\_\_

**Klinik tadqiqot monitori:** \_\_\_\_\_

**Klinik tadqiqotning boshlanish sanasi:**

\_\_\_\_\_

**Klinik tadqiqotning yakunlanish sanasi:**

\_\_\_\_\_

Subyekt raqami \_\_\_\_\_; Kasallik tarixi/ambulator karta raqami \_\_\_\_\_

**Tadqiqotga kiritish mezonlari** (klinik tadqiqot bayonnomasining 5.1 bandi) Savollarga javoblar  
**HA** bo'lishi kerak.

HA	YO'Q	
↓	↓	• Ma'lumotnoma asosida yozma rozilik mavjudligi
↓	↓	• Klinik tadqiqot subyektining yoshi (klinik tadqiqotlar asosan 18 yoshdan oshgan subyektlarda o'tkaziladi)

↓	↓	• Tashxis
↓	↓	• Tashxis (tegishli tashxis tagiga chizilsin)

**Tadqiqotga kiritib bo'lmalik mezonlari** (*linik tadqiqot bayonnomasining 5.2 bandi*) Savollarga javoblar **YO'Q** bo'lishi kerak.

HA	YO'Q	
↓	↓	• Mazkur tadqiqotdan 30 kun oldin boshqa tadqiqotda ishtirok etganligi
↓	↓	• Quyida keltirilgan dori vositalaridan birontasi bilan yo'ldosh davolash o'tkazilganligi:
↓	↓	• Tekshirilayotgan farmakologik vosita/dori vositasini qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar aniqlanganligi: 1. 2. 3.
↓	↓	• Homiladorlik (homiladorlarda qo'llanilishi lozim bo'lgan holatlar bundan mustasno)
↓	↓	• Emizish davri (emizikli ayollarda qo'llanilishi lozim bo'lgan holatlar bundan mustasno)
↓	↓	• Tekshirilayotgan farmakologik vosita/dori vositasiga yoki uning tarkibiy komponentlariga yuqori sezuvchanlik mavjudligi
↓	↓	•

**Jinsi** \_\_\_\_\_ **yoshi** \_\_\_\_\_ **tana vazni** \_\_\_\_\_

**Asosiy tashxis**

---

**Asoratlar**

---

**Yondosh kasalliklar**

---

**Subyektivi obyektiv ko'ruv natijalari:**

**Umumiy ahvoli**

---

**ongi** \_\_\_\_\_

**Teri va shilliq qavatlari**

---

**Ko'krak qafasi**

---

**Palpatsiya**

---

**Perkussiya** \_\_\_\_\_

**Auskultatsiya** \_\_\_\_\_

**Yurak tonlari** \_\_\_\_\_

**Til** \_\_\_\_\_

**Qorin** \_\_\_\_\_

**Jigar (palpatsiya va perkussiya)**

\_\_\_\_\_

**Avval qabul qilingan dori vositalari**

**Buyurilgan davolash**

**Tekshirilayotgan farmakologik vosita/dori vositasining nomi**

\_\_\_\_\_

**Davolash sxemasi**

\_\_\_\_\_

**Yondosh davolash**

<b>Dori vositasining nomi, dori shakli</b>	<b>Doza</b>	<b>Qo'llash usuli</b>	<b>Qabul qilishlar soni</b>	<b>Qabul qilish boshlangan sana</b>	<b>Qabul qilish tugallangan sana</b>

**Klinik tadqiqot subyektining klinik tekshiruv natijalari**

<b>Chora-tadbirlar</b>	<b>Boshlang'ich tashrif (0-vizit)</b>
Ko'ruv	
Skrining	
Ma'lumotnoma asosida rozilik olish	

**Obyektiv tekshiruv natijalari dinamikasi**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Davolashdan oldin</b>	<b>Davolashdan keyin</b>
Arterial bosim		

Yurak qisqarishlari soni		
Tana harorati		

**Alohida simptomlar dinamikasi**

Simptomlar	Davolashdan oldin	___-chi kun	___-chi kun	___-chi kun

Simptomlarning namoyon bo'lishi yaqqollik darajasi quyidagi shkala bo'yicha ballarda baholanadi:  
0 — yo'q, 1 — biroz, 2 — o'rtacha, 3 — yaqqol darajada

**Klinik-laborator ko'rsatkichlarning dinamikasi**

	Davolashdan oldin	___-chi kun	___-chi kun	___-chi kun
<b>Klinik tekshiruvlar</b>				
Qon umumiy tahlili				
<b>Biokimyoviy tekshiruvlar</b>				
ALT				
AST				
<b>Siydik umumiy tahlili</b>				
<b>Glikemiya</b>				
<b>Lipid spektri</b>				
<b>Maxsus tekshiruvlar</b>				

**Nojo'ya holatlarni qayd etish**

<b>Sana</b>	
<b>Nojo'ya holatning ta'rifi</b>	
<b>Yaqqollik darajasi</b>	
<b>Tekshirilayotgan farmakologik vosita/dori vositasi bilan bog'liqligining ehtimoli</b>	
<b>Farmakologik</b>	

<b>vosita/dori vositasini bekor qilishni talab etadi (ha/yo‘q)</b>	
<b>Bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar</b>	
<b>Nojo‘ya holat to‘g‘risidagi xabar yuborilganligi to‘g‘risida ma‘lumot</b>	

**Farmakologik vosita/dori vositasining samaradorligini baholash (ballarda)**

**Farmakologik vosita/dori vositasining o‘zlashtira olinishini baholash (ballarda)**

**Shifokor-tadqiqotchi (lavozimi, F.I.O) \_\_\_\_\_**

*Mazkur **Individual qayd etish shaklidagi** ma‘lumotlar men tomondan tekshirilganini e‘tirof etaman hamda undagi ma‘lumotlar to‘liq va ishonchli ekanligini tasdiqlayman*

**Klinik tadqiqot rahbari (lavozimi, F.I.O) \_\_\_\_\_**

Farmakologik vositalar hamda  
dori vositalarining klinik  
tadqiqotlarini o'tkazish tartibi  
to'g'risidagi nizomga  
3-ILOVA

### Klinik tadqiqot subyekti uchun ma'lumotnoma

Klinik tadqiqot nomi

“ \_\_\_\_\_ ” korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan  
“ \_\_\_\_\_ ” farmakologik vosita/dori vositasining  
**KLINIK SAMARADORLIGI VA O'ZLASHTIRA OLINISHINI O'RGANISH  
YUZASIDAN KLINIK TADQIQOT**

*Klinik baza:* \_\_\_\_\_

#### **Tadqiqotning (o'rganishning) mohiyati, mazmuni:**

Sizga “ \_\_\_\_\_ ”  
korxonasining \_\_\_\_\_ farmakologik vosita/dori vositasini  
qabul etib, uning klinik \_\_\_\_\_ samaradorligi va  
o'zlashtirilishini o'rganish bo'yicha tibbiy va ilmiy tadqiqotda ishtirok etish taklif etiladi.

#### **Iltimos, ushbu axborotni diqqat bilan o'qib chiqing!**

Sizga farmakologik vosita/dori vositasining klinik tadqiqotida ishtirok etish taklif etilmoqda. Mazkur tadqiqotda ishtirok etish ixtiyoriydir. Ishtirok etish haqida qaror qabul qilishingizdan oldin, Siz ushbu klinik tadqiqotning maqsadlari bilan, Sizning ma'lumotlaringizdan qanday foydalanilishi, tadqiqotning protseduralari va tadqiqotdagi ishtirokingiz bilan bog'liq foyda, xavf-xatar va noqulayliklar ehtimoli bilan tanishib chiqishingiz zarur. Qaror chiqarishga shoshilmang. Mazkur hujjatni diqqat bilan o'qib chiqing. Agar istasangiz, tadqiqotda ishtirok etish masalasini davolovchi shifokoringiz bilan muhokama qiling. Agar Siz uchun nimadir tushunarsiz bo'lib qolsa yoki ko'proq ma'lumot olmoqchi bo'lsangiz, Sizni qiziqtiradigan savollarni tadqiqotchi-shifokorga bering. Shoshilmang, qaror chiqarishdan oldin o'ylab ko'ring, o'z oilangiz va do'stlaringiz bilan muhokama qiling. Klinik tadqiqotda ishtirok etish standart tibbiy yordamning qismi emas.

Klinik tadqiqotda ishtirok etish ixtiyoriydir. Tadqiqotda ishtirok etishga rozilik bildirish yoki rad qilish haqidagi qarorni faqat o'zingiz qabul qilasiz. Agar Siz ishtirok etishga qaror qilsangiz, Siz klinik tadqiqot subyekti uchun ma'lumotnoma nusxasini olasiz va Sizdan klinik tadqiqotda ishtirok etishga ixtiyoriy rozilik shaklini imzolashingiz so'raladi. Agar Siz klinik tadqiqotda ishtirok etmaslikka qaror qilsangiz, istagan vaqtingizda sababini tushuntirmasdan klinik tadqiqotdan chiqib ketish huquqiga egasiz.

Sizning tadqiqotdan chiqib ketish haqidagi qaroringiz yoki tadqiqotda ishtirok etmaslik haqidagi qaroringiz Sizga ko'rsatiladigan tibbiy yordamning sifatiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Tadqiqotni o'tkazish paytida farmakologik vosita/dori vositasining odam organizmiga qanday ta'sir qilishi haqidagi yangi ma'lumotlar, xususan avval ma'lum bo'lmagan nojo'ya ta'sirlari haqidagi ma'lumotlar aniqlanishi mumkin. Bunday vaziyatda Sizga yangilangan axborot taqdim etiladi va uning asosida Siz tadqiqotdagi ishtirokingizni davom ettirish to'g'risidagi qaroringizni o'zgartirishingiz mumkin

#### **Farmakologik xususiyatlari:**

Tekshirilayotgan farmakologik vosita/dori vositasining farmakologik xususiyatlari klinik tadqiqot subyektiga tushunarli tarzda qisqa, biroq batafsil yoritib beriladi.

**Qo'llanilishi:**

Mazkur klinik tadqiqotda farmakologik vosita/dori vositasining nima maqsadda qo'llanilishiga ta'rif beriladi

**Qo'llash usuli va dozalari:**

Mazkur klinik tadqiqotda farmakologik vosita/dori vositasining qo'llash usuli va muayyan dozalari keltiriladi.

**Nojo'ya ta'sirlari:**

Tekshirilayotgan farmakologik vosita/dori vositasining barcha nojo'ya ta'sirlari to'g'risida batafsil ma'lumot beriladi, masalan:

*Yurak-qon tomir tizimi tomonidan:* taxikardiya, arterial bosimni o'zgarishi;

*Markaziy nerv tizimi tomonidan:* psixomotor qo'zg'alish;

*Ovqat-hazm qilish tizimi tomonidan:* dispeptik holatlar;

*Allergik reaksiyalar:* terini qichishishi, qizarish, toshma, shish;

**Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar:**

Barcha "Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar" birma-bir sanab o'tiladi.

Shuningdek, quyidagi holatlar keltiriladi:

homiladorlik, laktatsiya davri;

dori vositasiga yuqori sezuvchanlik mavjudligi;

18 yoshgacha bo'lgan subyektlarda qo'llash mumkin emas.

**Klinik tadqiqotning borishi:**

Shifokor ko'rigi va tekshiruvlardan so'ng, Siz ushbu klinik dasturda qatnashish imkoniyatiga ega bo'lib, qo'shimcha ravishda " \_\_\_\_\_ " korxonasining \_\_\_\_\_ farmakologik vosita/dori vositasini yoki " \_\_\_\_\_ " korxonasining \_\_\_\_\_ dori vositasini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

**Klinik tadqiqotning samaradorligi:**

Sizning bu klinik tadqiqotlarda ishtirokingiz davomida Sizga farmakologik vosita/dori vositasini qabul qilish sharoiti yaratiladi. Agar shifokoringiz bu farmakologik vosita/dori vositasining ta'sirini kam deb hisoblasa, Siz boshqa ma'lum dori vositalari yordamida standart davolashga o'tkazilasiz.

**Qo'shimcha davolash:**

\_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ korxonasining \_\_\_\_\_ farmakologik vosita/dori vositasini yoki " \_\_\_\_\_ " korxonasining \_\_\_\_\_ dori vositasini qo'llash bilan birga Sizdagi kasallikni davolash uchun zarur bo'lgan davo muolajalarini olasiz.

Sizni nazorat qiluvchi shifokor Sizga barcha zarur ma'lumotlarni taqdim etadi.

**Ta'siri va noqulayliklarni baholash:**

Davolash davomida Siz shifokorning doimiy nazoratida bo'lasiz, agar Sizning sog'lig'ingizga ta'sir qiluvchi yoki nojo'ya ta'siri kuzatilishi bilan farmakologik vosita/dori vositasi bekor qilinadi.

**Izlanishlarning olib borilishi:**

Sizdan klinik tadqiqotlarda ixtiyoriy ishtirok etish uchun rozilik olingandan so'ng, shifokor-tadqiqotchi Sizga hozirgi kasalligingiz haqida bir nechta savollar beradi, tekshirishlar olib boradi. Agar shifokor bu klinik tadqiqotda Sizning ishtirokingizni lozim deb topsa, Sizga klinik tadqiqot

bayonnomasiga binoan farmakologik vosita/dori vositasini qabul qilish tavsiya etiladi. Sizning sog‘lig‘ingiz to‘g‘risidagi hamma o‘zgarishlarni, ushbu o‘zgarishlar farmakologik vosita/dori vositasi bilan bog‘liq yoki bog‘liq emasligidan qat’i nazar shifokorga darhol xabar bering.

**Maxfiyligi (Konfidensialligi):**

Sizning bu klinik tadqiqotda ishtirokingiz qat’iy ravishda sir bo‘lib qoladi.

**Huquqlar:**

Agar Sizda klinik tadqiqotda ishtirok etish va Sizning huquqlaringiz yuzasidan savollar tug‘ilsa, shifokoringizga \_\_\_\_\_ telefon raqami orqali qo‘ng‘iroq qilishingiz mumkin.

Farmakologik vositalar hamda dori  
vositalarining klinik tadqiqotlarini o'tkazish  
tartibi to'g'risidagi nizomga  
4-ILOVA

**Klinik tadqiqot subyektining klinik tadqiqotda ixtiyoriy ishtirok etishga yozma roziligi  
shakli**

**Klinik tadqiqot nomi:**

“ \_\_\_\_\_ ” korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan  
“ \_\_\_\_\_ ” farmakologik vosita/dori vositasining  
**KLINIK SAMARADORLIGI VA O'ZLASHTIRA OLINISHINI O'RGANISH  
YUZASIDAN KLINIK TADQIQOT**

*Klinik baza:* \_\_\_\_\_

*Men,*

\_\_\_\_\_

(F.I.O)

(pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-karta ma'lumotlari)

manzilda istiqomat qilaman va klinik tadqiqot subyektini uchun ma'lumotnoma matnidan va davolovchi shifokordan olingan ma'lumotlarga asoslanib, ushbu tadqiqotda ishtirok etishga o'z xohishim bilan rozilik beraman. Men shifokorga tadqiqotning barcha aspektlari yuzasidan savollar berish imkoniga ega bo'ldim. Barchasiga aniqlik kiritilgandan so'ng, men davolovchi shifokor bilan hamkorlik qilishga va ahvolim hamda kayfiyatimdagi har qanday o'zgarishlar to'g'risida unga xabar berishga roziman. Men o'zimning huquqlarim va majburiyatlarim to'g'risida batafsil ma'lumot oldim va ushbu tadqiqotda ishtirok etishdan sabablarini tushuntirmasdan istalgan vaqtda voz kechish huquqiga egaman va bu menga keyingi tibbiy xizmat ko'rsatilishida aks etmaydi. Mening klinik tadqiqotdagi ishtirokim mutlaqo maxfiy ekanligini bilaman. Men, klinik tadqiqot natijalarini, klinik tadqiqot o'tkazayotgan klinik tadqiqot rahbari tomonidan klinik tadqiqotga mas'ul shaxslarga hamda davlat organlari vakillaridan iborat tekshiruvchilarga berilishiga roziman.

\_\_\_\_\_

Tadqiqot olib boruvchi shifokor

\_\_\_\_\_

F.I.O

\_\_\_\_\_

Guvoh imzosi

\_\_\_\_\_

F.I.O

**“O'qidim va roziman”**

\_\_\_\_\_

Klinik tadqiqot subyektining imzosi

Sana “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_ y

Farmakologik vositalar hamda dori  
vositalarining klinik tadqiqotlarini o'tkazish  
tartibi to'g'risidagi nizomga  
4a-ILOVA

**Voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz klinik tadqiqot subyekti qonuniy vakilining  
ixtiyoriy yozma roziligi shakli**

**Klinik tadqiqot nomi:**

“ \_\_\_\_\_ ” korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan  
“ \_\_\_\_\_ ” farmakologik vosita/dori vositasining  
**KLINIK SAMARADORLIGI VA O'ZLASHTIRA OLINISHINI O'RGANISH  
YUZASIDAN KLINIK TADQIQOT**

*Klinik baza:* \_\_\_\_\_

*Men,*

\_\_\_\_\_

qonuniy vakilning F.I.O

\_\_\_\_\_

(pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-karta ma'lumotlari)

manzilda istiqomat qilaman va klinik tadqiqot subyekti uchun ma'lumotnoma matnidan va davolovchi shifokordan olingan ma'lumotlarga asoslanib, farzandim (vakilligim ostidagi)

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

klinik tadqiqot subyekti (F.I.O)

**ushbu klinik tadqiqotda ishtirok etishiga o'z xohishim bilan rozilik beraman.** Men shifokorga tadqiqotning barcha aspektlari yuzasidan savollar berish imkoniga ega bo'ldim. Barchasiga aniqlik kiritilgandan so'ng, men davolovchi shifokor bilan hamkorlik qilishga va farzandim (yoki vakilligim ostidagi shaxs)ning ahvoli hamda kayfiyatidagi har qanday o'zgarishlar to'g'risida shifokorga xabar berishga roziman. Men o'zimning va farzandim (yoki vakilligim ostidagi shaxs)ning huquqlari va majburiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumot oldim va ushbu tadqiqotda ishtirok etishdan sabablarini tushuntirmasdan istalgan vaqtda voz kechish huquqiga egaman va bu farzandim (yoki vakilligim ostidagi shaxs)ga keyingi tibbiy xizmat ko'rsatilishida aks etmaydi. Mening farzandim (yoki vakilligim ostidagi shaxs)ning klinik tadqiqotdagi ishtiroki mutlaqo maxfiy ekanligini bilaman. Men, klinik tadqiqot natijalarini, klinik tadqiqot o'tkazayotgan klinik tadqiqot rahbari tomonidan klinik tadqiqotga mas'ul shaxslarga hamda davlat organlari vakillaridan iborat tekshiruvchilarga berilishiga roziman.

\_\_\_\_\_

Tadqiqot olib boruvchi shifokor

\_\_\_\_\_

F.I.O

\_\_\_\_\_

Guvoh imzosi

\_\_\_\_\_

F.I.O

**“O'qidim va roziman”**

\_\_\_\_\_

Qonuniy vakilning imzosi

Sana “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_ y

Farmakologik vositalar hamda dori  
vositalarining klinik tadqiqotlarini o'tkazish  
tartibi to'g'risidagi nizomga  
5-ILOVA

### **Klinik tadqiqot rahbari bilan klinik tadqiqotni o'tkazish yuzasidan kelishuv**

Men mazkur klinik tadqiqot bayonnomasini, shifokor-tadqiqotchi uchun broshyurani, shu jumladan farmakologik vosita/dori vositasining mumkin bo'lgan xavflari va nojo'ya ta'sirini, shuningdek, ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan farmakologik vosita/dori vositasi va klinik tadqiqot haqidagi boshqa ma'lumotlarni o'qib chiqqanim va tushunganimni tasdiqlayman. Men mazkur tadqiqotni ushbu klinik tadqiqot bayonnomasi talablariga muvofiq o'tkazishga, shuningdek Jahon tibbiyot assotsiatsiyasining Xelsinki deklaratsiyasida belgilangan etika talablariga, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga hamda O'z DSt 2765:2018 "Yaxshi klinika amaliyoti" (GCP) standarti qoidalariga muvofiq klinik tadqiqot subyektlarining huquqlari, xavfsizligi, maxfiyligini himoya qilishga rozilik bildiraman.

Men ariza beruvchini xabardor qilgandan keyingina klinik tadqiqot bayonnomasiga o'zgartirish kiritishga rozilik bildiraman, klinik tadqiqot subyektlarining xavfsizligi va huquqlarini himoya qilish zarur bo'lgan holatlar bundan mustasnodir. O'z DSt 2765:2018 "Yaxshi klinika amaliyoti" (GCP) tamoyillariga muvofiq, men ariza beruvchini klinik tadqiqot davomida yuzaga kelgan nojo'ya holatlar haqida xabardor qilishga roziman. Men birlamchi hujjatlarni ko'rish uchun ruxsat berilishini ta'minlashga tayyorman hamda ariza beruvchi tomonidan monitoring va audit o'tkazilishiga, shuningdek nazorat qiluvchi organlar vakillaridan iborat tekshiruvchilar tomonidan klinik tadqiqot yakunining tekshirilishiga rozilik bildiraman. Men klinik tadqiqotlarni o'tkazishga oid barcha xalqaro standartlar, shuningdek O'z DSt 2765:2018 "Yaxshi klinika amaliyoti" (GCP) standarti talablariga rioya qilishga rozilik bildiraman.

**Klinik tadqiqot rahbari**

F.I.O \_\_\_\_\_

Imzo:

**Ariza beruvchi**

F.I.O \_\_\_\_\_

Imzo:

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining  
2025-yil 24-dekabrda 28-son buyrug‘iga  
2-ILOVA

**O‘z kuchini yo‘qotgan deb topilayotgan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar  
RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2023-yil 16-maydagi 12-son “Farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining klinik tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3439, 2023-yil 5-iyun) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.06.2023-y., 10/23/3439/0331-son; 04.06.2025 y., 10/25/3627/0494-son).

2. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2025-yil 3-yanvardagi 31-son “Alohida dori vositalarini klinik tadqiqotlarsiz davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3600, 2025-yil 17-yanvar) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.01.2025-y., 10/25/3600/0046-son).

3. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2025-yil 20-maydagi 9-son “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘iga (ro‘yxat raqami 3627, 2025-yil 4-iyun) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.06.2025-y., 10/25/3627/0494-son) ilovaning 2-bandi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3746  
2026 - yil 7 - Yanvar

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

### Tibbiy jihozlarning klinik tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-avgustdagi PF-137-son "Dori vositalari va tibbiy jihozlar muomalasini tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq buyuraman:

1. Tibbiy jihozlarning klinik tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil hamda O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq 2026-yil 26-fevraldan kuchga kiradi.

Vazir  
2025-yil 22-dekabr  
27-son



XUDAYAROV ASILBEK  
ANVAROVICH

Kelishildi:

Vakil o'rinbosari  
2025-yil 7-dekabr



URUNOV JAMSHID  
OLIMOVICH

Rais  
2025-yil 5-dekabr



VAXABOV DAVRON  
ABDUJALALOVICH

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni  
saqlash vazirining 2025-yil  
22-dekabrda 27-son buyrug‘iga  
ILOVA

**Tibbiy jihozlarning klinik tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi  
NIZOM**

Ushbu Nizom tibbiy jihozlarning klinik tadqiqotlarini (bundan buyon matnda klinik tadqiqotlar deb yuritiladi) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**ariza beruvchi** – O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining “Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” davlat muassasasiga (bundan buyon matnda Markaz deb yuritiladi) tibbiy jihozlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va guvohnoma olish uchun murojaat qiluvchi ishlab chiquvchi, ishlab chiqaruvchi, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik guvohnomasining egasi yoki ular nomidan ishonchnoma asosida harakat qiluvchi yuridik shaxs;

**audit** – klinik tadqiqotlarning klinik tadqiqot bayonnomasi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq holda o‘tkazilayotganligini aniqlash uchun ariza beruvchi tomonidan o‘tkaziladigan kompleks va mustaqil tekshiruv;

**klinik baza** – O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxatga kiritilgan, klinik tadqiqotlarni o‘tkazishi mumkin bo‘lgan davolash-profilaktika muassasalari;

**klinik tadqiqot** – tibbiy jihozlarning xavfsizligi, samaradorligi, ularning nojo‘ya ta’sirlari, foyda-xavf nisbati va ishlash ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida klinik tadqiqot subyekti ishtirokida o‘tkaziladigan tadqiqot;

**klinik tadqiqot subyekti** – tibbiy jihozni klinik tadqiq etishda o‘zining yozma ravishdagi roziligi bilan ixtiyoriy asosda ishtirok etuvchi jismoniy shaxs;

**klinik tadqiqot bayonnomasi** – ariza beruvchi tomonidan tibbiy jihozlarning O‘z DSt 2765:2018 “Yaxshi klinika amaliyoti” (GCP) standartiga muvofiq tayyorlanadigan, klinik tadqiqotning maqsadi, vazifalari, dizayni, metodologiyasi, klinik tadqiqot subyektlarini tanlab olish mezonlari, tadqiqot o‘tkazilayotgan tibbiy jihozlarning samaradorligi va xavfsizligini baholash usullari,

shuningdek o'tkazilayotgan klinik tadqiqotga oid boshqa statistik ma'lumotlarni aks ettiruvchi hujjat;

**klinik tadqiqot rahbari** – klinik bazada klinik tadqiqotni o'tkazishga mas'ul bo'lgan, barcha shifokor-tadqiqotchilarning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi shifokor;

**klinik tadqiqot hisoboti** – klinik baza tomonidan ariza beruvchiga taqdim qilinadigan yozma shakldagi klinik tadqiqot natijalarini aks ettiruvchi hujjat;

**ko'p markazli klinik tadqiqot** – bittadan ortiq klinik bazada yagona klinik tadqiqot bayonnomasi bo'yicha o'tkaziladigan klinik tadqiqot;

**monitoring** – klinik tadqiqotni o'tkazish hamda uning natijalarini rasmiylashtirish jarayonining klinik tadqiqot bayonnomasi hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq holda o'tkazilayotganligini nazorat qilish maqsadida ariza beruvchi tomonidan butun klinik tadqiqot davomida doimiy ravishda o'tkaziladigan tekshiruv;

**tibbiy jihozlar** – kasalliklar profilaktikasi, tashxis qo'yish, davolash, bemorlarni rehabilitatsiya qilish va (yoki) sanab o'tilgan jarayonlarni ta'minlash uchun, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini aniqlash, tiklash, almashtirish hamda o'zgartirish, monitoring qilish, homiladorlikning oldini olish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan, qo'llanilishi natijasida odam organizmiga farmakologik, immunologik yoki metabolik ta'sir ko'rsatmaydigan, ayrim holda, majmua yoki tizimlar sifatida qo'llaniladigan jihozlar, apparatlar, uskunalar, priborlar, asboblar, qurilmalar, majmualar va dasturiy ta'minotlar;

**shifokor-tadqiqotchi** – klinik bazada klinik tadqiqotni o'tkazuvchi mutaxassis;

**Etika qo'mitasi** – klinik tadqiqotlarni o'tkazishning etika jihatidan asoslanganligi yuzasidan etika ekspertizasini o'tkazish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tibbiyot, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillaridan iborat tarkibda tasdiqlanadigan, jamoatchilik asosida doimiy faoliyat yurituvchi kollegial organ;

**qonuniy vakil** – klinik tadqiqot subyekti nomidan klinik tadqiqotda ixtiyoriy ishtirok etishga rozilik berish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxs (ot-onalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar).

2. Quyidagi tibbiy jihozlar klinik tadqiqotlarsiz davlat ro'yxatidan o'tkaziladi:

xavfsizlik klassifikatsiyasi bo'yicha I sinfga mansub tibbiy jihozlar;

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan qayta malakalangan (prequalification), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bilan hamkorlikda ro'yxatdan o'tkaziladigan "in vitro" tashxis tibbiy jihozlari;

O'zbekiston Respublikasida klinik tadqiqotlari oldin o'tkazilgan tibbiy jihozlar;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi PF-6221-son "Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq tan olish yo'li bilan ro'yxatdan o'tkaziladigan tibbiy jihozlar;

klinik xavfsizligi va samaradorligi isbotlangan mahalliy, xorijiy davlatlarda muomalada bo'lgan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan tibbiy jihozlar (mazkur tibbiy jihozlarning samaradorligi va xavfsizligini aks ettiruvchi tan olingan ilmiy nashrlardan tayyorlangan adabiyotlar sharhi to'liq hajmda taqdim etilishi lozim).

3. Klinik tadqiqotlarni o'tkazish to'g'risidagi qaror Markaz tavsiyasi asosida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tashkil etilgan Ekspertlar kengashi (bundan buyon matnda Ekspertlar kengashi deb yuritiladi) tomonidan qabul qilinadi.

## **2-bob. Klinik tadqiqotlarni o'tkazishni tashkil etish**

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-noyabrdagi 738-son qarori bilan tasdiqlangan Tibbiy jihozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan tibbiy jihozning birlamchi ekspertizasidan ijobiy xulosa olingandan so'ng, tibbiy jihozning laboratoriya sinovlari, ixtisoslashtirilgan ekspertizasi bir vaqtning o'zida olib boriladi.

5. Tibbiy jihozning laboratoriya sinovlari, ixtisoslashtirilgan ekspertizasi natijalari ijobiy bo'lganda, Markaz mazkur natijalar olingan vaqtdan boshlab o'n besh kun ichida tibbiy jihozlarni klinik tadqiqotlar yoki klinik tadqiqotlarsiz davlat ro'yxatidan o'tkazish mumkinligi to'g'risida Ekspertlar kengashiga tavsiyalar kiritadi.

6. Klinik tadqiqotlar mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq sxema bo'yicha o'tkaziladi.

7. Markaz tomonidan klinik tadqiqotlar asosida davlat ro'yxatidan o'tkazish mumkinligi to'g'risida tavsiya berilganda, Ekspertlar kengashi ushbu

tavsiya olingan vaqtdan boshlab bir ish kuni ichida klinik tadqiqotlarni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi.

8. Ekspertlar kengashining qarori qabul qilingan vaqtdan boshlab bir ish kun ichida Markazning tomonidan ariza beruvchiga elektron tizim orqali klinik tadqiqotlarni o'tkazish mumkinligi, klinik tadqiqot uchun taqdim etilishi zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati hamda ularni taqdim etish muddati, shuningdek o'tkaziladigan klinik tadqiqotlarning turi, dizayni hamda ushbu tadqiqotlar o'tkazilishi mumkin bo'lgan klinik bazalar ro'yxati ko'rsatilgan xabarnoma yuboriladi.

Bunda xabarnomaga laboratoriya sinovlarining natijalari ilova qilinadi.

9. Ariza beruvchi xabarnomani olgan kundan e'tiboran qirq besh kun ichida Markazga quyidagi hujjatlarni elektron tizim orqali taqdim etadi:

O'z DSt 2765:2018 "Yaxshi klinika amaliyoti" (GCP) standartiga muvofiq tuzilgan klinik tadqiqot bayonnomasining loyihasi;

mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shakldagi individual qayd qilish shakli;

ushbu Nizomning 3-ilovasida nazarda tutilgan ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan klinik tadqiqot subyekti uchun ma'lumotnoma;

mazkur Nizomning 4-ilovasida nazarda tutilgan ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan klinik tadqiqot subyektining klinik tadqiqotlarda ixtiyoriy ishtirok etishi uchun rozilik shakli;

shifokor-tadqiqotchi uchun broshyura;

mazkur Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakldagi klinik tadqiqot rahbari bilan klinik tadqiqotni o'tkazish yuzasidan kelishuv;

klinik tadqiqot rahbarining tibbiy faoliyati to'g'risidagi ma'lumot;

klinik tadqiqot subyektining hayotiga, sog'lig'iga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish shartnomasining nusxasi (sug'urta polisi).

10. Ariza beruvchi tomonidan mazkur Nizomning 9-bandida nazarda tutilgan hujjatlar (bundan buyon matnda klinik tadqiqot hujjatlari deb yuritiladi) to'liq taqdim etilgan kundan e'tiboran ikki ish kuni ichida Markaz tomonidan ushbu hujjatlar birlamchi (dastlabki) ekspertizadan o'tkaziladi.

11. Klinik tadqiqot hujjatlari qirq besh kun ichida ariza beruvchi tomonidan taqdim etilmasa, Markaz tomonidan Ekspertlar kengashiga tibbiy jihozning klinik tadqiqoti bo'yicha ish yuritilishini to'xtatish masalasi kiritiladi hamda Ekspertlar kengashi tomonidan klinik tadqiqot bo'yicha ish yuritilishini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

12. Birlamchi (dastlabki) ekspertiza natijasida ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda quyidagi kamchiliklar aniqlangan hollarda, Markaz ushbu kamchiliklarni bartaraf etish muddatini ko'rsatgan holda ariza beruvchiga elektron tizim orqali xabarnoma yuboradi:

    klinik tadqiqot subyekti uchun ma'lumotnomada tibbiy jihozning xususiyatlari, qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlar to'liq aks ettirilmaganligi;

    klinik tadqiqot bayonnomasida keltirilgan tekshiruv usullarining ilmiy jihatdan asoslanmaganligi;

    klinik tadqiqot bayonnomasida tibbiy jihozning xavfsizligi va samaradorligi mezonlarining to'liq aks ettirilmaganligi.

Bunda, xabarnomada ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'ladigan vaqtga mutanosib bo'lishi, biroq ushbu muddat o'ttiz ish kunidan ortiq bo'lmasligi kerak.

13. Ariza beruvchi xabarnomada ko'rsatilgan kamchiliklarni ushbu xabarnomada belgilangan muddatda bartaraf etgan holda klinik tadqiqot hujjatlarini elektron tizim orqali Markazga takroran taqdim etadi.

14. Klinik tadqiqot hujjatlarining birlamchi (dastlabki) ekspertizasi o'tkazilganidan so'ng, o'n besh kun ichida ushbu hujjatlar Markaz tomonidan mustaqil ekspert jalb etilgan holda ixtisoslashtirilgan ekspertizadan o'tkaziladi.

Bunda, mustaqil ekspert sifatida klinik tadqiqotlar sohasida zarur bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan mutaxassislar jalb etiladi.

Ixtisoslashtirilgan ekspertiza jarayonida mustaqil ekspert tomonidan:

    klinik tadqiqot o'tkaziladigan klinik baza, klinik tadqiqot dizayni to'g'ri tanlanganligi;

    tekshirilayotgan tibbiy jihozning samaradorligi va xavfsizligini o'rganishda ilg'or zamonaviy tekshirish usullari tanlanganligi tekshiriladi.

15. Klinik tadqiqot hujjatlari mazkur Nizomning 14-bandi to'rtinchi va beshinchi xatboshilarida keltirilgan talablarga muvofiq bo'lganda, mustaqil ekspert tomonidan ixtisoslashtirilgan ekspertiza natijalari bo'yicha ijobiy xulosa beriladi.

Mustaqil ekspert tomonidan ixtisoslashtirilgan ekspertiza natijalari bo'yicha ijobiy xulosa berilganda, Markaz tomonidan ariza beruvchiga klinik tadqiqot hujjatlarini hamda ixtisoslashtirilgan ekspertizaning ijobiy xulosasini Etika qo'mitasiga taqdim etish mumkinligi to'g'risida ikki ish kuni ichida elektron tizim orqali xabarnoma yuboriladi.

16. Klinik tadqiqot hujjatlarida mazkur Nizomning 14-bandi to'rtinchi va beshinchi xatboshilarida keltirilgan talablarga nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda, mustaqil ekspert tomonidan salbiy xulosa beriladi hamda Markaz tomonidan ariza beruvchiga aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish muddati ko'rsatilgan holda elektron tizim orqali xabarnoma yuboriladi.

Bunda xabarnomada ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'ladigan vaqtga mutanosib bo'lishi, biroq ushbu muddat o'ttiz ish kunidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Ariza beruvchi xabarnomada ko'rsatilgan kamchiliklarni ushbu xabarnomada belgilangan muddatda bartaraf etgan holda klinik tadqiqot hujjatlarini elektron tizim orqali Markazga takroran taqdim etadi.

Ariza beruvchi tomonidan takroran taqdim etilgan klinik tadqiqot hujjatlari ular elektron tizim orqali kelib tushgan vaqtdan boshlab bir ish kuni ichida mazkur Nizomning 14 va 15-bandlarida keltirilgan tartibda ko'rib chiqiladi.

17. Ariza beruvchi tomonidan klinik tadqiqot hujjatlari Etika qo'mitasiga ikki ish kuni ichida taqdim etiladi.

Etika qo'mitasida klinik tadqiqotlarni o'tkazishning etika jihatidan asoslanganligi to'g'risida xulosa berish maqsadida etika ekspertizasi o'tkaziladi.

Klinik tadqiqotlarni o'tkazishga mazkur tadqiqotlarni o'tkazish etika jihatidan asoslanganligi to'g'risidagi etika ekspertizasining xulosasisiz yo'l qo'yilmaydi.

18. Etika qo'mitasining majlisi bir oyda kamida bir marta o'tkaziladi. Etika qo'mitasiga taqdim etilgan hujjatlar uning majlisida muhokama qilinadi.

Etika qo'mitasi muhokama natijalari asosida:

klinik tadqiqotni o'tkazishning etika jihatidan asoslanganligi to'g'risida;

klinik tadqiqotni o'tkazishning etika jihatidan asoslanmaganligi to'g'risida xulosa beradi.

Etika qo'mitasining xulosasi Etika qo'mitasi majlisining bayonnomasi ko'rinishida rasmiylashtiriladi hamda uning raisi tomonidan tasdiqlanadi.

19. Etika qo'mitasi tomonidan klinik tadqiqotni o'tkazishning etika jihatidan asoslanganligi to'g'risida xulosa berilganda, Etika qo'mitasi mazkur xulosani besh ish kuni ichida ariza beruvchiga yuboradi.

Etika qo'mitasining klinik tadqiqotni o'tkazishning etika jihatidan asoslanganligi to'g'risida xulosasi ariza beruvchi tomonidan Markazga darhol yuboriladi.

20. Etika qo'mitasi tomonidan quyidagi hollarda klinik tadqiqotni o'tkazishning etika jihatidan asoslanmaganligi to'g'risida xulosa beriladi:

klirik tadqiqotni o'tkazish uchun tibbiy jihozning qo'llanilish sohasiga nomuvofiq klinik baza tanlanganda;

klirik tadqiqot bayonnomasidagi klinik tadqiqot dizayni va statistik tahlil usuli O'z DSt 2765:2018 "Yaxshi klinika amaliyoti" (GCP) standarti talablariga muvofiq kelmaganda;

klirik tadqiqot subyekti uchun ma'lumotnoma matni mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq kelmaganda.

21. Etika qo'mitasi tomonidan klinik tadqiqotni o'tkazishning etika jihatidan asoslanmaganligi to'g'risida xulosa berilganda, Etika qo'mitasi tomonidan bir ish kuni ichida ariza beruvchiga mazkur xulosa berilishi uchun asos bo'lgan, ushbu Nizomning 22-bandida nazarda tutilgan kamchiliklarni bartaraf etish muddati ko'rsatilgan holda xabarnoma yuboriladi.

Bunda, xabarnomada ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'ladigan vaqtga mutanosib bo'lishi, biroq ushbu muddat o'ttiz ish kundan ortiq bo'lmasligi kerak.

Ariza beruvchi xabarnomada ko'rsatilgan kamchiliklarni ushbu xabarnomada belgilangan muddatda bartaraf etgan holda klinik tadqiqot hujjatlarini Etika qo'mitasiga yuboradi.

Ariza beruvchi tomonidan takroran taqdim etilgan klinik tadqiqot hujjatlari Etika qo'mitasi tomonidan mazkur Nizomning 18–20-bandlarida nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqiladi.

22. Etika qo'mitasining klinik tadqiqotni o'tkazishning etika jihatidan asoslanganligi to'g'risidagi xulosasi Markazga kelib tushgandan so'ng o'n besh kun ichida klinik tadqiqot hujjatlari va ariza beruvchi tomonidan tanlangan klinik baza Markazning navbatdagi majlisida ma'qullanadi hamda klinik tadqiqotni o'tkazishni boshlash mumkinligi to'g'risida ariza beruvchiga va klinik tadqiqotni o'tkazuvchi klinik baza rahbariga elektron tizim orqali xabarnoma yuboriladi.

Markaz majlislari o'n besh kunda bir marta o'tkaziladi.

### **3-bob. Klinik bazada klinik tadqiqotlarni o'tkazish**

23. Markazning klinik tadqiqotni o'tkazishni boshlash mumkinligi to'g'risidagi xabarnomasi olingandan so'ng, o'n besh kun ichida ariza beruvchi klinik baza rahbari bilan klinik tadqiqotni o'tkazish to'g'risida shartnoma tuzadi.

Klinik baza rahbari ariza beruvchidan tadqiq etilayotgan tibbiy jihozni va uning sifat sertifikatini (agar klinik tadqiqot bayonnomasida ko'zda tutilgan

bo'lsa), Markazning laboratoriyalarida o'tkazilgan laboratoriya sinovi natijalarini va klinik tadqiqot hujjatlarini dalolatnoma asosida qabul qilib oladi.

Dalolatnoma ariza beruvchi va klinik baza rahbari tomonidan imzolanadi.

24. Klinik tadqiqotlar tibbiy jihozning xavfsizlik darajasiga ko'ra kamida 20 nafar klinik tadqiqot subyekti jalb etilgan holda o'tkaziladi.

Klinik tadqiqotlar tibbiy jihozning xavfsizlik darajasiga ko'ra ko'p markazli klinik tadqiqot tarzida yagona klinik tadqiqot bayonnomasi bo'yicha ikki va undan ortiq klinik bazada o'tkazilishi mumkin.

25. Klinik tadqiqotda klinik tadqiqot subyektining ishtiroki uning ushbu Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda to'ldirilgan yozma roziligi asosida amalga oshiriladi.

Klinik tadqiqot voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz subyekt ishtirokida o'tkazilgan hollarda, tadqiqot boshlanishidan oldin uning qonuniy vakilidan mazkur Nizomning 4a-ilovasiga muvofiq shaklda yozma ravishda rozilik olinishi lozim.

26. Klinik tadqiqot rahbari klinik tadqiqot subyektiga ushbu tadqiqot usulining ahamiyati, tadqiqotning mohiyati va ehtimol tutilgan xavfi haqida batafsil tushuntirib berishi shart. Klinik tadqiqot subyekti tadqiqotning istalgan bosqichida unda ishtirok etishni rad qilishga haqli.

Klinik tadqiqot subyekti tibbiy jihozdan foydalanilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan, klinik tadqiqot subyekti uchun ma'lumotnomada keltirilgan barcha nojo'ya ta'sirlarga to'liq tekshiruvlardan o'tkazilgandan so'ng, klinik tadqiqot rahbari (shifokor-tadqiqotchi) tomonidan klinik tadqiqotga jalb qilinadi.

27. Klinik tadqiqotning sifatli o'tkazilishini nazorat qilish ariza beruvchi tomonidan monitoring va audit o'tkazish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Monitoring va audit ariza beruvchi tomonidan mustaqil yoki klinik tadqiqotlar sohasida zarur bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan mutaxassislar jalb etilgan holda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq o'tkaziladi.

28. Klinik baza rahbari klinik tadqiqot vaqtida paydo bo'lgan barcha nojo'ya ta'sirlar va holatlar yuzasidan besh kun ichida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga yozma shaklda xabar berishi lozim.

Klinik tadqiqot subyektining hayoti, sog'lig'i uchun tahdid paydo bo'lgan taqdirda, klinik baza rahbari klinik tadqiqotni to'xtatib turishi hamda tadqiqotni davom ettirish yoki to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilish uchun O'zbekiston

Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligini bir ish kuni ichida yozma shaklda xabardor qilishi kerak.

29. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan klinik baza rahbarining xabarnomasi mazkur xabarnoma kelib tushgan kundan e'tiboran bir ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi quyidagi hollarda klinik tadqiqotni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qiladi hamda mazkur qarorning nusxasini Markazga va klinik baza rahbariga yuboradi:

kamida bir nafar klinik tadqiqot subyektida nojo'ya ta'sir (anafilaktik shok) yuz berganida (tadqiqot subyekti reanimatsiya bo'limiga og'ir ahvolda tushganida);

nojo'ya ta'sir oqibatida klinik tadqiqot subyektida nogironlik yoki o'lim holati yuz berganda;

klinik tadqiqot subyektlarining kamida o'ttiz foiz qismida nojo'ya ta'sir yuz berganda;

klinik tadqiqot jarayonida klinik tadqiqot subyektlarining kamida o'ttiz foiz qismida tibbiy jihozning samarasiz ekanligi aniqlangan hollarda.

30. Klinik tadqiqot muddatidan oldin to'xtatilgan hollarda, klinik tadqiqot hisoboti klinik tadqiqotni to'xtatish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining qarori qabul qilinguniga qadar amalga oshirilgan ishlar holati bo'yicha tayyorlanadi hamda klinik baza rahbari tomonidan tasdiqlangan holda Markazga yuboriladi.

Klinik baza rahbari tomonidan taqdim etilgan klinik tadqiqot hisoboti Ekspertlar kengashiga kiritiladi.

Ekspertlar kengashi o'zining majlisida tibbiy jihozni tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Ekspertlar kengashining majlisi o'n besh kunda bir marta o'tkaziladi.

31. Klinik tadqiqot yakunlangandan so'ng klinik tadqiqot rahbari va shifokor-tadqiqotchilar tomonidan imzolangan individual qayd qilish shakllari va klinik tadqiqot subyektlarining rozilik blanklari ariza beruvchiga taqdim etiladi.

32. O'tkazilgan klinik tadqiqot yakunlari bo'yicha klinik tadqiqot hisoboti tuziladi hamda klinik tadqiqot rahbari va shifokor-tadqiqotchilar tomonidan imzolanadi.

Klinik tadqiqot hisoboti klinik baza rahbari tomonidan tasdiqlanib, ariza beruvchiga o'n kun ichida taqdim etiladi.

33. Ariza beruvchi klinik tadqiqot hisobotini olgan vaqtdan boshlab bir oy ichida Markazga taqdim etadi.

34. Ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan klinik tadqiqot hisoboti o'n besh kun ichida Markaz tomonidan klinik tadqiqot bayonnomasiga amal qilingan holda o'tkazilganligi yuzasidan yakuniy ekspertizadan o'tkaziladi.

Bunda shu muddat davomida klinik tadqiqot o'tkazilgan klinik bazada O'z DSt 2765:2018 "Yaxshi klinika amaliyoti" (GCP) standarti talablariga muvofiq klinik tadqiqot hujjatlarining (kasallik tarixi, ambulator karta, individual qayd etish shakli) o'zaro muvofiqligi o'rganiladi hamda natijalariga ko'ra dalolatnoma tuziladi.

35. Yakuniy ekspertiza natijasida klinik tadqiqot hisoboti va klinik tadqiqot bayonnomasi o'rtasida nomuvofiqliklar aniqlanmaganda, klinik tadqiqot hisobotining yakuniy ekspertizasi natijalari Ekspertlar kengashiga kiritiladi.

36. Klinik tadqiqot hisobotining yakuniy ekspertizasi natijasida mazkur hisobot va klinik tadqiqot bayonnomasi o'rtasida nomuvofiqliklar aniqlangan hollarda, Markaz ariza beruvchiga mazkur nomuvofiqliklarni bartaraf etish zarurligi to'g'risida ushbu nomuvofiqliklarni bartaraf etish muddatini ko'rsatgan holda elektron tizim orqali xabarnoma yuboradi.

Bunda, xabarnomada ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'ladigan vaqtga mutanosib bo'lishi, biroq ushbu muddat o'ttiz ish kunidan ortiq bo'lmasligi kerak.

37. Ariza beruvchi xabarnomada ko'rsatilgan nomuvofiqliklarni ushbu xabarnomada belgilangan muddatda bartaraf etadi hamda klinik tadqiqot hisobotini Markazga takroran taqdim etadi.

Ariza beruvchi tomonidan takroran taqdim etilgan klinik tadqiqot hisoboti Markaz va Ekspertlar kengashi tomonidan mazkur Nizomning 34 va 36-bandlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

38. Ekspertlar kengashi o'zining navbatdagi majlisida tibbiy jihozni tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat berish to'g'risida qaror qabul qiladi.

#### **4-bob. Klinik tadqiqotlarni o'tkazish jarayonida tomonlarning huquqlari va majburiyatlari**

39. Klinik tadqiqotlarni o'tkazish jarayonida Markaz quyidagi huquqlarga ega:  
klinik tadqiqotlar turlarini (ko'p markazli klinik tadqiqot, cheklangan va cheklangan qiyosiy klinik tadqiqot) belgilash;

ariza beruvchidan klinik tadqiqotga oid hujjatlarning puxta va sifatli tayyorlanishini talab qilish;

klinik tadqiqotga oid hujjatlarni ko'rib chiqish jarayoniga tegishli mutaxassislarni jalb etish.

40. Markaz:

ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ushbu Nizom talablariga amal qilgan holda ekspertizadan o'tkazishi;

klirik tadqiqot natijalarini uchinchi shaxslarga va ushbu klinik tadqiqotga aloqasi bo'lmagan boshqa shaxslarga bermasligi lozim.

41. Klinik tadqiqot rahbari quyidagi huquqlarga ega:

ariza beruvchi tomonidan taqdim etilayotgan tibbiy jihozni qabul qilish;

klirik tadqiqot vaqtida klinik tadqiqot subyekting salomatligini ta'minlash maqsadida uni klinik tadqiqotdan chiqarib, muqobil davolashga o'tkazish yuzasidan qaror qabul qilish;

ariza beruvchi bilan kelishgan holda klinik tadqiqot natijalari asosida ilmiy maqolalar chop ettirish.

42. Klinik tadqiqot rahbari:

klirik tadqiqot boshlanishidan oldin klinik tadqiqot subyektlarining klinik tadqiqotda ixtiyoriy ishtirok etish yuzasidan yozma roziligini olishi;

tekshirilayotgan tibbiy jihozlarning ariza beruvchining yo'riqnomalariga muvofiq saqlashi;

klirik tadqiqotlarni o'tkazishda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga rioya qilishi;

individual qayd qilish shaklidagi ma'lumotlarning to'g'ri, to'liq va tushunarli to'ldirilishini, saqlanishini hamda ariza beruvchiga o'z vaqtida taqdim qilinishini ta'minlashi;

ariza beruvchi tomonidan monitoring va audit o'tkazilishiga sharoit yaratib berishi lozim.

43. Klinik tadqiqot rahbari klinik tadqiqot doirasida klinik tadqiqot subyektlariga tibbiy yordam ko'rsatish yuzasidan tibbiy xususiyatga ega bo'lgan barcha qabul qilinayotgan qarorlar uchun javobgardir.

Klinik bazada tekshirilayotgan tibbiy jihozning hisobini yuritish yuzasidan javobgarlik klinik tadqiqot rahbari zimmasiga yuklanadi.

44. Klinik tadqiqot muddatidan oldin to'xtatilgan hollarda shifokor-tadqiqotchi mazkur holat to'g'risida darhol klinik tadqiqotga jalb etilgan klinik tadqiqot subyektlarini xabardor qilishi, ularni muvofiq ravishda davolashni va kuzatuvini ta'minlashi lozim.

45. Ariza beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

klirik tadqiqot o'tkazishning barcha bosqichlarida malakali mutaxassislarni jalb qilish;

klirik tadqiqotning sifat nazoratini ta'minlash maqsadida klinik tadqiqot monitoringi va auditini o'tkazish;

Markaz mansabdor shaxslarining harakati (harakatsizligi) yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish.

46. Ariza beruvchi:

klinik tadqiqot bilan bog'liq barcha xarajatlarni qoplashi;

klinik tadqiqot boshlanishidan oldin sug'urta tashkiloti bilan klinik tadqiqot subyektining hayotiga, sog'lig'iga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish shartnomasini tuzishi;

klinik bazaga tibbiy jihozlarning o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlashi;

tibbiy jihozlarning olib kelinishi, qabul qilinishi, klinik bazaga berilishi, klinik baza tomonidan qaytarilishi, shuningdek yo'q qilinishini o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirishi lozim.

### **5-bob. Ariza beruvchilarning shikoyatini ko'rib chiqish**

47. Ariza beruvchi mazkur Nizom talablarining buzilishi, klinik tadqiqotlarni o'tkazish bo'yicha mansabdor shaxslar yoki xodimlarning harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga yoki bevosita sudga shikoyat qilishga haqli.

48. Ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan shikoyat O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan mazkur shikoyat kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

49. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi shikoyatni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qilishga haqli:

e'tiroz asossiz bo'lsa, shikoyatni qanoatlantirishni rad etish;

e'tiroz asosli bo'lsa, qabul qilingan qarorni qayta ko'rib chiqish yoki uning mansabdor shaxsi zimmasiga berilgan shikoyat mohiyati bo'yicha muayyan harakatlarni amalga oshirish majburiyatini yuklash.

### **6-bob. Yakuniy qoida**

50. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Tibbiy jihozlarning klinik  
tadqiqotlarini o'tkazish  
tartibi to'g'risidagi nizomga  
1-ILOVA

**Klinik tadqiqotlarni o'tkazish sxemasi**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Ariza beruvchi	Tibbiy jihozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni va namunalarni Markazga taqdim etadi.	Ariza beruvchining xohishiga ko'ra
2-bosqich	Ro'yxatdan o'tkazish bo'limi	Ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlar birlamchi ekspertizasini o'tkazadi va tibbiy jihozlarning namunalarni qabul qiladi va ko'rib chiqadi. Mazkur hujjatlarni Markazning tarkibiy bo'linmalariga yuboradi.	10 ish kuni ichida
3-bosqich	Markaz laboratoriyalari	Laboratoriya sinovlarini o'tkazadi: tibbiy jihozlar xavfsizlik darajasiga ko'ra IIa sinf	45 ish kuni
		tibbiy jihozlar xavfsizlik darajasiga ko'ra IIb va III sinflar	65 ish kunigacha
		Markazning boshqa tarkibiy bo'linmalariga xulosalar taqdim etadi	
	Markaz	Taqdim etilgan hujjatlarni ixtisoslashtirilgan ekspertizadan o'tkazadi: tibbiy jihozlar xavfsizlik darajasiga ko'ra IIa sinf	33 ish kuni
		tibbiy jihozlar xavfsizlik darajasiga ko'ra IIb va III sinflar	43 ish kuni

4-bosqich	Markaz	Tibbiy jihozni klinik tadqiqotlar o'tkazilgan holda davlat ro'yxatidan o'tkazish mumkinligi to'g'risida Ekspertlar kengashiga tavsiyalar kiritadi	15 kuni ichida
	Ekspertlar kengashi	Klinik tadqiqot o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi	1 ish kuni ichida
	Markaz	Ariza beruvchiga klinik tadqiqot hujjatlarini taqdim etish to'g'risida yozma xabarnoma yuboradi	1 ish kuni ichida
5-bosqich	Ariza beruvchi	Klinik tadqiqot hujjatlarini elektron tizim orqali Markazga taqdim etadi	45 kun ichida
6-bosqich	Markaz	Klinik tadqiqot hujjatlarini qabul qiladi va dastlabki ekspertizadan o'tkazadi	5 kun ichida
	Markaz	Hujjatlarda kamchiliklar aniqlanganda, ularni bartaraf etish to'g'risida ariza beruvchiga elektron tizim orqali xabarnoma yuboradi	
	Ariza beruvchi	Xabarnomada ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etadi	Xabarnomada ko'rsatilgan muddatda
	Markaz	Klinik tadqiqot hujjatlarida kamchiliklar aniqlanmaganda, mustaqil ekspertlar jalb etilgan holda ushbu hujjatlar ixtisoslashtirilgan ekspertizadan o'tkaziladi	15 kun ichida
6-bosqich	Markaz	Ixtisoslashtirilgan ekspertiza natijalari ijobiy bo'lganda, klinik tadqiqot hujjatlarini elektron tizim orqali Etika qo'mitasiga taqdim etish mumkinligi to'g'risida ikki ish kuni ichida elektron tizim orqali ariza beruvchiga xabarnoma yuboriladi	2 ish kuni ichida
	7-bosqich	Ariza beruvchi	Klinik tadqiqot hujjatlarini Etika qo'mitasiga taqdim etadi

	Etika qo‘mitasi	Taqdim etilgan klinik tadqiqot hujjatlarini majlisida ko‘rib chiqib: klinik tadqiqotlarni o‘tkazish etika jihatidan asoslanganligi to‘g‘risida; yoki klinik tadqiqotlarni o‘tkazish etika jihatidan asoslanmaganligi to‘g‘risida xulosa beradi	Etika qo‘mitasining majlisida (bir oyda bir marta o‘tkaziladi)
8-bosqich	Etika qo‘mitasi	O‘zining etika jihatidan asoslanganligi to‘g‘risida xulosasini ariza beruvchiga yuboradi	5 ish kuni ichida
	Etika qo‘mitasi	Klinik tadqiqotlarni o‘tkazish etika jihatidan asoslanmaganligi to‘g‘risida xulosa berganda Ariza beruvchiga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to‘g‘risida xabarnoma yuboradi	1 ish kuni ichida
9-bosqich	Ariza beruvchi	Xabarnomada ko‘rsatilgan kamchiliklarni elektron tizim orqali bartaraf etadi	Xabarnomada ko‘rsatilgan muddatda
10-bosqich	Ariza beruvchi	Kamchiliklarni bartaraf etgan holda klinik tadqiqot hujjatlarini Etika qo‘mitasiga takroran taqdim etadi	Xabarnomada ko‘rsatilgan muddatda
11-bosqich	Markaz	Etika qo‘mitasining klinik tadqiqotlarni o‘tkazish etika jihatidan asoslanganligi to‘g‘risida xulosasi asosida klinik tadqiqot hujjatlari va tanlangan klinik bazani ma’qullaydi. Klinik tadqiqotni o‘tkazish mumkinligi to‘g‘risida ariza beruvchiga va klinik tadqiqotni o‘tkazuvchi klinik baza rahbariga yozma shakldagi xabarnoma yuboradi	15 kun ichida
12-bosqich	Ariza beruvchi	Klinik baza rahbari bilan klinik tadqiqotni o‘tkazish to‘g‘risida shartnoma tuzadi	Xabarnoma olingandan so‘ng 15 kun ichida
13-bosqich	Klinik baza	Klinik tadqiqotni o‘tkazadi	Tibbiy

		<p>Klinik tadqiqot natijalari asosida klinik tadqiqot hisobotini tayyorlaydi.</p> <p>Hisobot klinik baza rahbari tomonidan tasdiqlanib, ariza beruvchiga taqdim etiladi</p>	<p>jihozning xususiyatidan kelib chiqqan holda</p> <p>Klinik tadqiqot tugaganidan keyin</p> <p>10 kun ichida</p>
14-bosqich	Ariza beruvchi	Klinik tadqiqot hisobotini Markazga taqdim etadi	Klinik tadqiqot hisobotini olgan vaqtdan boshlab 1 oy ichida
15-bosqich	Markaz	<p>Klinik tadqiqot hisobotini yakuniy ekspertizadan o'tkazadi</p> <p>Yakuniy ekspertiza natijasida mazkur hisobot va klinik tadqiqot bayonnomasi o'rtasida nomuvofiqliklar aniqlangan hollarda, ariza beruvchiga mazkur nomuvofiqliklarni bartaraf etish zarurligi to'g'risida xabarnoma yuboradi</p> <p>Yakuniy ekspertiza natijasida nomuvofiqliklar aniqlanmasa, klinik tadqiqot hisobotini Ekspertlar kengashiga kiritadi</p>	15 kun
16-bosqich	Ariza beruvchi	Xabarnomada ko'rsatilgan nomuvofiqliklarni bartaraf etadi va klinik tadqiqot hisobotini Markazga takroran taqdim etadi.	Xabarnomada ko'rsatilgan muddatda
	Markaz	Takroran taqdim etilgan klinik tadqiqot hisobotini ko'rib chiqadi	15 kun ichida

17-bosqich	Ekspertlar kengashi	Tibbiy jihozni tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat berish yoki ruxsat berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi	Ekspertlar kengashining majlisida (o'n besh kunda bir marta o'tkaziladi)
------------	---------------------	---	--

Tibbiy jihozlarning klinik  
tadqiqotlarini o'tkazish  
tartibi to'g'risidagi nizamga  
2-ILOVA

## INDIVIDUAL QAYD QILISH SHAKLI

### Klinik tadqiqot nomi

“ _____ ” korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan “ _____ ” tibbiy jihozning <b>KLINIK TADQIQOTI</b>
---

1. Umumiy ma'lumotlar
1.1. Klinik tadqiqot subyekti ID:
1.2. Klinik tadqiqot kodi (ID):
1.3. Klinik tadqiqot markazi:
1.4. Klinik tadqiqotchi F.I.O:
1.5. Klinik tadqiqotda ishtirok etish sanasi:
1.6. Rozilik olingan sana:
1.7. Klinik tadqiqot subyektiga berilgan kod:
2. Demografik ma'lumotlar
2.1. F.I.O:
2.2. Tug'ilgan sana:
2.3. Yoshi:
2.4. Jinsi:
• <input type="checkbox"/> Erkak
• <input type="checkbox"/> Ayol
2.5. Millati:
2.6. Manzili:
2.7. Telefon raqami:
3. Tibbiy tashxis
3.1. Asosiy kasalliklar:
3.2. Hozirgi davolash (dor-u/usullar):
3.3. Yondosh kasalliklar:
3.4. Allergiyalar:
• <input type="checkbox"/> Yo'q
• <input type="checkbox"/> Bor (ko'rsatilsin):

4. Tibbiy jihoz bo'yicha ma'lumotlar
4.1. Tibbiy jihoz nomi:
4.2. Modeli / seriyasi:
4.3. Qo'llash maqsadi:
4.4. Sinov turi:
• <input type="checkbox"/> Klinik tadqiqot
• <input type="checkbox"/> Kliniko-laboratoriya tadqiqot
5. Boshlang'ich ko'rsatkichlar (Baseline data)
5.1. Qon bosimi:
5.2. Yurak urishi:
5.3. Nafas olish chastotasi:
5.4. Harorat:
5.5. Laboratoriya natijalari:
• Gemoglobin:
• Glyukoza:
• Xususiy ko'rsatkichlar:
6. Tibbiy jihoz qo'llanilishi
6.1. Qo'llash sanasi:
6.2. Qo'llash muddati:
6.3. Qo'llash uslubi:
6.4. Qo'llash paytidagi texnik holat:
7. Kuzatuv natijalari
7.1. Klinik samaradorlik belgilari:
7.2. Subyekt holatining dinamikasi:
7.3. Kuzatuv sanasi:
8. Nojo'ya hodisalar (Adverse Events)
8.1. Nojo'ya hodisa aniqlandimi?
• <input type="checkbox"/> Yo'q
• <input type="checkbox"/> Ha (tafsiloti):
8.2. Jiddiy nojo'ya hodisa:
• <input type="checkbox"/> Yo'q
• <input type="checkbox"/> Ha
8.3. Sababli aloqadorlik:
• <input type="checkbox"/> Aniq bog'liqlik
• <input type="checkbox"/> Ehtimol bog'liqlik
• <input type="checkbox"/> Nomuvofiq
9. Yakuniy baholash

9.1. Tadqiqotchi xulosasi:
9.2. Foyda-xavf nisbati:
9.3. Subyektida klinik o'ziga xos o'zgarishlar:
10. Imzolar
Tadqiqotchi: _____ (imzo, sana)
Subyekt: _____ (imzo, sana)
Kuzatuvchi: _____

### Klinik tadqiqot subyekti uchun ma'lumotnoma

Klinik tadqiqot nomi

“ \_\_\_\_\_ ” korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan

“ \_\_\_\_\_ ” tibbiy jihozning

### KLINIK TADQIQOTI

<i>Klinik baza:</i> _____
<b>Tadqiqotning (o'rganishning) mohiyati, mazmuni:</b>
Sizga “ _____ ” korxonasining _____ tibbiy jihozni qo'llanilishi, uning klinik samaradorligi va xavfsizligini o'rganish bo'yicha tibbiy va ilmiy tadqiqotda ishtirok etish taklif etiladi.
<b>Itimos, ushbu axborotni diqqat bilan o'qib chiqing!</b>
Sizga tibbiy jihozning klinik tadqiqotida ishtirok etish taklif etilmoqda. Mazkur tadqiqotda ishtirok etish ixtiyoriydir. Ishtirok etish haqida qaror qabul qilishingizdan oldin, Siz ushbu klinik tadqiqotning maqsadlari bilan, Sizning ma'lumotlaringizdan qanday foydalanilishi, tadqiqotning protseduralari va tadqiqotdagi ishtirokingiz bilan bog'liq foyda, xavf-xatar va noqulayliklar ehtimoli bilan tanishib chiqishingiz zarur. Qaror chiqarishga shoshilmang.
Mazkur hujjatni diqqat bilan o'qib chiqing. Agar istasangiz, tadqiqotda ishtirok etish masalasini davolovchi shifokoringiz bilan muhokama qiling. Agar Siz uchun nimadir tushunarsiz bo'lib qolsa yoki ko'proq ma'lumot olmoqchi bo'lsangiz, Sizni qiziqtiradigan savollarni tadqiqotchi-shifokorga bering. Shoshilmang, qaror chiqarishdan oldin o'ylab ko'ring, o'z oilangiz va do'stlaringiz bilan muhokama qiling. Klinik tadqiqotda ishtirok etish standart tibbiy yordamning qismi emas.
Klinik tadqiqotda ishtirok etish ixtiyoriydir. Tadqiqotda ishtirok etishga rozilik bildirish yoki rad qilish haqidagi qarorni faqat o'zingiz qabul qilasiz. Agar Siz ishtirok etishga qaror qilsangiz, Siz klinik tadqiqot subyekti uchun ma'lumotnoma nusxasini olasiz va Sizdan klinik tadqiqotda ishtirok etishga ixtiyoriy rozilik shaklini imzolashingiz so'raladi. Agar Siz klinik tadqiqotda ishtirok etmaslikka qaror qilsangiz, istagan vaqtingizda sababini tushuntirmasdan klinik tadqiqotdan chiqib ketish huquqiga egasiz.
Sizning tadqiqotdan chiqib ketish haqidagi qaroringiz yoki tadqiqotda ishtirok etmaslik haqidagi qaroringiz Sizga ko'rsatiladigan tibbiy yordamning sifatiga ta'sir ko'rsatmaydi.
Tadqiqotni o'tkazish paytida tibbiy jihozning odam organizmiga qanday ta'sir qilishi haqidagi yangi ma'lumotlar, xususan avval ma'lum bo'lmagan nojo'ya ta'sirlari haqidagi ma'lumotlar aniqlanishi mumkin. Bunday vaziyatda Sizga yangilangan axborot taqdim etiladi va uning asosida Siz tadqiqotdagi ishtirokingizni davom ettirish to'g'risidagi qaroringizni o'zgartirishingiz mumkin
<b>Tibbiy jihozning xususiyatlari:</b>

<p>Tekshirilayotgan tibbiy jihozning xususiyatlari klinik tadqiqot subyektiga tushunarli tarzda qisqa, biroq batafsil yoritib beriladi.</p>
<p><b>Qo'llanilishi:</b></p> <p>Mazkur klinik tadqiqotda tibbiy jihozning nima maqsadda qo'llanilishiga ta'rif beriladi.</p>
<p><b>Qo'llash usuli va tavsifi:</b></p> <p>Mazkur klinik tadqiqotda tibbiy jihozning ishlash mexanizmi, texnik xususiyatlari, qo'llash usuli, kuzatuv davri.</p>
<p><b>Nojo'ya ta'sirlari:</b></p> <p>Tekshirilayotgan tibbiy jihozning barcha nojo'ya ta'sirlari to'g'risida batafsil ma'lumot beriladi, masalan: <i>Yurak-qon tomir tizimi tomonidan:</i> taxikardiya, arterial bosimni o'zgarishi; <i>Markaziy nerv tizimi tomonidan:</i> psixomotor qo'zg'alish; <i>Ovqat-hazm qilish tizimi tomonidan:</i> dispeptik holatlar; <i>Allergik reaksiyalar:</i> terini qichishishi, qizarish, toshma, shish;</p>
<p><b>Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar:</b></p> <p>Barcha "Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar" birma-bir sanab o'tiladi. Shuningdek, quyidagi holatlar keltiriladi: homiladorlik, laktatsiya davri; tibbiy jihozga yuqori sezuvchanlik mavjudligi; 18 yoshgacha bo'lgan subyektlarda qo'llash mumkin emas.</p>
<p><b>Klinik tadqiqotning borishi:</b></p> <p>Shifokor ko'rigi va tekshiruvlardan so'ng, Siz ushbu klinik dasturda qatnashish imkoniyatiga ega bo'lib, qo'shimcha ravishda " _____ " korxonasining _____ tibbiy jihozini qo'llash imkoniyatiga ega bo'lasiz.</p>
<p><b>Klinik tadqiqotning samaradorligi:</b></p> <p>Sizning bu klinik tadqiqotlarda ishtirokingiz davomida Sizga tibbiy jihozni qabul qilish sharoiti yaratiladi. Agar shifokoringiz bu tibbiy jihozning ta'sirini kam deb hisoblasa, Siz boshqa ma'lum tibbiy jihoz yordamida standart davolashga o'tkazilasiz.</p>
<p><b>Qo'shimcha davolash:</b></p> <p>" _____ " korxonasining _____ tibbiy jihozini qo'llash bilan birga Sizdagi kasallikni davolash uchun zarur bo'lgan davo muolajalarini olasiz. Sizni nazorat qiluvchi shifokor Sizga barcha zarur ma'lumotlarni taqdim etadi.</p>
<p><b>Ta'siri va noqulayliklarni baholash:</b></p> <p>Davolash davomida Siz shifokorning doimiy nazoratida bo'lasiz, agar Sizning sog'lig'ingizga ta'sir qiluvchi yoki nojo'ya ta'sirini kuzatilishi bilan tibbiy jihoz qo'llanilishi bekor qilinadi.</p>
<p><b>Izlanishlarning olib borilishi:</b></p>

Sizdan klinik tadqiqotlarda ixtiyoriy ishtirok etish uchun rozilik olingandan so'ng, shifokor-tadqiqotchi Sizga hozirgi kasalligingiz haqida bir nechta savollar beradi, tekshirishlar olib boradi. Agar shifokor bu klinik tadqiqotda Sizning ishtirokingizni lozim deb topsa, Sizga klinik tadqiqot bayonnomasiga binoan tibbiy jihozni qo'llash tavsiya etiladi. Sizning sog'lig'ingiz to'g'risidagi hamma o'zgarishlarni, ushbu o'zgarishlar tibbiy jihoz bilan bog'liq yoki bog'liq emasligidan qat'i nazar shifokorga darhol xabar bering.

**Maxfiyligi:**

Sizning bu klinik tadqiqotda ishtirokingiz qat'iy ravishda sir bo'lib qoladi.

**Huquqlar:**

Agar Sizda klinik tadqiqotda ishtirok etish va Sizning huquqlaringiz yuzasidan savollar tug'ilsa, shifokoringizga \_\_\_\_\_ telefon raqami orqali qo'ng'iroq qilishingiz mumkin.

Tibbiy jihozlarining klinik  
tadqiqotlarini o'tkazish tartibi  
to'g'risidagi nizomga  
4-ILOVA

**Klinik tadqiqot subyektining klinik tadqiqotda ixtiyoriy ishtirok etishga yozma roziligi  
shakli**

**Klinik tadqiqot nomi:**

“ \_\_\_\_\_ ” korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan  
“ \_\_\_\_\_ ” tibbiy jihozning

**KLINIK TADQIQOTI**

<i>Klinik baza:</i> _____	
<i>Men,</i> _____ _____	
(F.I.O)	
(pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-karta ma'lumotlari)	
manzilda istiqomat qilaman va klinik tadqiqot subyektini uchun ma'lumotnoma matnidan va davolovchi shifokordan olingan ma'lumotlarga asoslanib, ushbu tadqiqotda ishtirok etishga o'z xohishim bilan rozilik beraman. Men shifokorga tadqiqotning barcha aspektlari yuzasidan savollar berish imkoniga ega bo'ldim. Barchasiga aniqlik kiritilgandan so'ng, men davolovchi shifokor bilan hamkorlik qilishga, ahvolim va kayfiyatimdagi har qanday o'zgarishlar to'g'risida unga xabar berishga roziman. Men o'zimning huquqlarim va majburiyatlarim to'g'risida batafsil ma'lumot oldim va ushbu tadqiqotda ishtirok etishdan sabablarini tushuntirmasdan istalgan vaqtda voz kechish huquqiga egaman va bu menga keyingi tibbiy xizmat ko'rsatilishiga ta'sir ko'rsatmaydi. Mening klinik tadqiqotdagi ishtirokim mutlaqo maxfiy ekanligini bilaman. Men, klinik tadqiqot natijalarini, klinik tadqiqot o'tkazayotgan klinik tadqiqot rahbari tomonidan klinik tadqiqotga mas'ul shaxslarga hamda davlat organlari vakillaridan iborat tekshiruvchilarga berilishiga roziman.	
_____	_____
Klinik tadqiqot olib boruvchi shifokor	F.I.O
_____	_____
Guvoh imzosi	F.I.O

<b>“O‘qdim va roziman”</b>
_____
Klinik tadqiqot subyektining imzosi
Sana “_____” _____ 20__ y

Tibbiy jihozlarning klinik  
tadqiqotlarini o'tkazish tartibi  
to'g'risidagi nizomga  
4a-ILOVA

**Voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz klinik tadqiqot subyekti qonuniy vakilining  
ixtiyoriy yozma roziligi shakli**

**Klinik tadqiqot nomi:**

“ \_\_\_\_\_ ” korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan  
“ \_\_\_\_\_ ” tibbiy jihozning

**KLINIK TADQIQOTI**

*Klinik baza:* \_\_\_\_\_

*Men,*

\_\_\_\_\_  
*qonuniy vakilning F.I.O*

\_\_\_\_\_  
(pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-karta ma'lumotlari)

manzilda istiqomat qilaman va klinik tadqiqot subyekti uchun ma'lumotnoma matnidan va davolovchi shifokordan olingan ma'lumotlarga asoslanib, farzandim (vakilligim ostidagi) \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
klinik tadqiqot subyekti (F.I.O)

**ushbu klinik tadqiqotda ishtirok etishiga o'z xohishim bilan rozilik beraman.** Men shifokorga tadqiqotning barcha aspektlari yuzasidan savollar berish imkoniga ega bo'ldim. Barchasiga aniqlik kiritilgandan so'ng, men davolovchi shifokor bilan hamkorlik qilishga va farzandim (yoki vakilligim ostidagi shaxs)ning ahvoli va kayfiyatidagi xar qanday o'zgarishlar to'g'risida shifokorga xabar berishga roziman. Men o'zimning va farzandim (yoki vakilligim ostidagi shaxs)ning huquqlari va majburiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumot oldim va ushbu tadqiqotda ishtirok etishdan sabablarini tushuntirmasdan istalgan vaqtda voz kechish huquqiga egaman va bu farzandim (yoki vakilligim ostidagi shaxs)ga keyingi tibbiy xizmat ko'rsatilishida aks etmaydi. Mening farzandim (yoki vakilligim ostidagi shaxs)ning klinik tadqiqotdagi ishtiroki mutlaqo maxfiy ekanligini bilaman. Men, klinik tadqiqot natijalarini, klinik tadqiqot o'tkazayotgan klinik tadqiqot rahbari tomonidan klinik tadqiqotga mas'ul shaxslarga hamda davlat organlari vakillaridan iborat tekshiruvchilarga berilishiga roziman.

\_\_\_\_\_  
Klinik tadqiqotni olib boruvchi shifokor

\_\_\_\_\_  
F.I.O

---

Guvoh imzosi

---

F.I.O

**“O‘qidim va roziman”**

---

Qonuniy vakilning imzosi

Sana “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_ y

Tibbiy jihozlarining klinik  
tadqiqotlarini o'tkazish tartibi  
to'g'risidagi nizomga  
5-ILOVA

**Klinik tadqiqot rahbari bilan klinik tadqiqotni  
o'tkazish yuzasidan kelishuv**

Men mazkur klinik tadqiqot bayonnomasini, tadqiqotchi uchun broshyurani, shu jumladan tibbiy jihozning mumkin bo'lgan xavflari va nojo'ya ta'sirini, shuningdek, ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan tibbiy jihozning klinik tadqiqoti haqidagi boshqa ma'lumotlarni o'qib chiqqanligim va tushunganligimni tasdiqlayman. Men mazkur tadqiqotni ushbu klinik tadqiqot bayonnomasi talablariga muvofiq o'tkazishga, shuningdek Jahon tibbiyot assotsiatsiyasining Xelsinki deklaratsiyasida belgilangan etika talablariga, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga hamda O'z DSt 2765:2018 "Yaxshi klinika amaliyoti" (GCP) standarti qoidalariga muvofiq klinik tadqiqot subyektlarining huquqlari, xavfsizligi, maxfiyligini himoya qilishga rozilik bildiraman.

Men ariza beruvchini xabardor qilgandan keyingina klinik tadqiqot bayonnomasiga o'zgartirish kiritishga rozilik bildiraman, klinik tadqiqot subyektlarining xavfsizligi va huquqlarini himoya qilish zarur bo'lgan holatlar bundan mustasnodir. O'z DSt 2765:2018 "Yaxshi klinika amaliyoti" (GCP) standarti qoidalariga muvofiq, men ariza beruvchini klinik tadqiqot davomida yuzaga kelgan nojo'ya holatlar haqida xabardor qilishga roziman. Men birlamchi hujjatlarni ko'rish uchun ruxsat berilishini ta'minlashga tayyorman hamda ariza beruvchi tomonidan monitoring va audit o'tkazilishiga, shuningdek nazorat qiluvchi organlar vakillaridan iborat tekshiruvchilar tomonidan klinik tadqiqot yakunining tekshirilishiga rozilik bildiraman. Men klinik tadqiqotlarni o'tkazishga oid barcha xalqaro standartlar, shuningdek O'z DSt 2765:2018 "Yaxshi klinika amaliyoti" (GCP) standarti talablariga rioya qilishga rozilik bildiraman.

**Klinik tadqiqot rahbari**

F.I.O. \_\_\_\_\_ Imzo:

\_\_\_\_\_.

**Ariza beruvchi**

F.I.O. \_\_\_\_\_ Imzo:

\_\_\_\_\_.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3747  
2026 - yil 07 - Yanvar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI  
HUZURIDAGI TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI  
DIREKTORINING BUYRUG'I

**Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish  
tashkilotlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan  
o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlarni tasdiqlash  
haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan.

3. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor  
22-Dekabr 2025-yil  
8-son



YULDASHEV BAXTIYOR  
GAYRADJONOVICH

Kelishildi:

Vazir  
09-Dekabr 2025-yil



SHARIPOV KONGRATBAY  
AVEZIMBETOVICH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2025-yil  
22-dekabrda 8-son buyrug'iga ILOVA

**Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish  
tashkilotlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan  
o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlar**

**I bo'lim. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish  
tashkilotlarining ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan  
o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha**

**INDIKATORLAR**

<b>T/r</b>	<b>Mezon</b>	<b>Indikator</b>
<b>1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi</b>		
1	Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi	<p>Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy tuzilma (institut, markaz, fakultet, kafedra, bo'lim) (bundan buyon matnda tarkibiy tuzilma deb yuritiladi)ni tashkil etish uchun zarur moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejalar mavjud*</p> <p>Tarkibiy tuzilmaning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari ta'lim dasturini samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan va ta'lim dasturi doirasida belgilangan maqsadlarga uyg'un tarzda aniq belgilangan</p> <p>Ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun tarkibiy tuzilma moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari bilan ta'minlangan hamda tarkibiy tuzilmaning ish rejaları ishlab chiqilgan**</p> <p>Tarkibiy tuzilma tomonidan ta'lim dasturini mehnat bozori talablariga va texnologik o'zgarishlarga muvofiq</p>

		muntazam takomillashtirish mexanizmlari yo'lga qo'yilgan**
2	Ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 3 yillik istiqbolli rejaning (bundan buyon matnda istiqbolli reja deb yuritiladi) mavjudligi	Istiqbolli reja kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tashkilotining (bundan buyon matnda ta'lim tashkiloti deb yuritiladi) maqsadi (missiya, strategiyasi) bilan mos holda ishlab chiqilgan va ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlangan
		Istiqbolli rejada ta'lim sifati, ta'lim dasturini rivojlantirish, kadrlar salohiyati, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik va moliyaviy barqarorlik yo'nalishlari qamrab olingan
		Istiqbolli rejadagi har bir yo'nalish bo'yicha aniq maqsadlar, vazifalar va ushbu vazifalarning amalga oshirish mexanizmlari, moliyaviy manbalari, mas'ullar va bajarish muddati belgilangan
		Istiqbolli rejada belgilangan vazifalarning bajarilishini doimiy monitoring qilish mexanizmlari mavjud va aniqlangan kamchiliklarni tuzatish choralari ko'riladi**
3	Ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani	Ta'lim dasturini ichki monitoring qilish va sifatni ta'minlash tizimi yo'lga qo'yilgan va monitoring muntazam (yillik/yarim yillik) amalga oshiriladi
		Pedagoglar, ish beruvchilar, buyurtmachilar, soha mutaxassislari va tinglovchilardan (bundan buyon matnda manfaatdor tomonlar deb yuritiladi) muntazam ravishda fikr-mulohazalar yig'ilib, tahlil qilinadi hamda ushbu tahlillar natijasiga ko'ra ta'lim dasturi takomillashtirilgan**

		Takomillashtirilgan ta'lim dasturlarini ta'lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) ijtimoiy tarmoqlarida ochiq e'lon qilingan**
4	Mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi	Mehnat bozori va ta'lim sohasi ehtiyojlarini muntazam o'rganish, prognozlash va tahlil qilish tizimi joriy qilingan
		Monitoring jarayoniga manfaatdor tomonlarning tizimli ishtiroki ta'minlangan**
		Monitoring natijalari tahlil qilinib, ta'lim dasturlarini yangilash, mazmunni mehnat bozori talablari bilan moslashtirish bo'yicha aniq choralar belgilangan va amalga oshirilgan**
		Monitoring natijalari asosida tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishlari takomillashtirilgan**
<b>2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi</b>		
5	Manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim talabi va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi	Ishchi guruh tarkibiga ish beruvchilar, soha mutaxassislari, pedagoglar va zarur hollarda tinglovchilar jalb etilgan
		Ta'lim dasturining mazmuni davlat ta'lim talabi, milliy malakalar ramkasi va tegishli kasbiy standartlar (malaka talablari) hamda mehnat bozori tahliliga muvofiq ishlab chiqilgan*
		Tegishli ta'lim dasturlari manfaatdor tomonlar bilan kelishilgan holda tasdiqlangan, ta'lim dasturlarida uning maqsadi va o'qitish natijalari (kompetensiyalar), bilim ko'nikma va malakaga oid aniq talablar belgilangan

		<p>Ta'lim dasturini ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish bo'yicha qabul qilingan qarorlar, muhokama bayonnomalari hujjatlashtirilgan</p>
		<p>Ta'lim dasturi haqidagi asosiy axborot (maqsad, o'qitish natijalari, qabul talablari, o'qish shartlari) jamoatchilik va tinglovchilar uchun ochiq va muntazam yangilanib boriladi**</p>
6	<p>Ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgani</p>	<p>Ta'lim dasturining mazmuni milliy ta'lim tizimi ustuvor yo'nalishlari (milliy malaka ramkasi) va barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi bo'yicha tahlil qilingan</p>
		<p>Ta'lim dasturi ilg'or xorijiy tajribalar (yoki xalqaro standartlar) asosida ishlab chiqilgan</p>
		<p>Ta'lim dasturining xorijiy ilg'or tajribalar asosida ishlab chiqilganligi bo'yicha xorijiy va (yoki) mahalliy ekspertlar tomonidan berilgan rasmiy xulosa mavjud</p>
7	<p>Ta'lim dasturining davomiyligi, modullarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani</p>	<p>Ta'lim dasturining davomiyligi (umumiy kreditlar (soatlar), o'qish muddati) ushbu dasturning maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga mos ravishda belgilangan</p>
		<p>Ta'lim dasturida fanlar (modullar) o'rtasida mantiqiy izchillik va uzviylik ta'minlangan hamda fanlar (modullar) ta'lim dasturi yakunida kutilayotgan o'quv natijalarga erishishga yo'naltirilgan</p>
		<p>Fan (modul)lardagi amaliy va nazariy mashg'ulotlar o'rtasida o'zaro integratsiya ta'minlangan</p>

		Mashg'ulot turlari (nazariy, amaliy va boshqalar) ta'lim dasturi mazmuniga muvofiq ravishda belgilangan
8	Ta'lim mazmunining zamonaviy andragogik yondashuvlarga mosligi, modullar muammoli keyslar asosida shakllantirilgani	Ta'lim mazmuni zamonaviy andragogik prinsiplar (katta yoshdagi tinglovchilarning ehtiyojlari, tajribaga tayangan o'qitish, o'z-o'zini o'rganishga yo'naltirish, motivatsion yondashuv va boshqalar) asosida ishlab chiqilgan
		Fan (modul)lar kompetensiyaga yo'naltirilgan, amaliy faoliyatga asoslangan va real ish muhitidagi muammoli vaziyatlar bo'yicha ishlab chiqilgan
		Ta'lim jarayonida muammoli keyslar, real sektorlardan misollar, ishlab chiqarishdan olingan vaziyatli topshiriqlardan tizimli ravishda foydalaniladi**
		Muammoli keyslarni qo'llash samaradorligi monitoringi amalga oshiriladi**
9	Amaldagi ta'lim dasturlarining tizimli ravishda monitoringi yuritilgani hamda uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilgani	Tinglovchilarni ta'lim dasturlari fan (modul)lari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari doimiy ravishda monitoring qilingan**
		Monitoring natijasidan kelib chiqib, ta'lim dasturlari fan (modul)larini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan**
		Monitoring natijalari asosida zaruratga ko'ra ta'lim dasturi, shu jumladan fanlarning (modullarning) mazmuni, o'qitish usullariga zarur o'zgartishlar kiritilgan**
<b>3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi</b>		

10	O'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani va malaka oshirishning muqobil shakllarining yo'lga qo'yilgani	Davlat ta'lim talablari (malaka talablari) asosida o'quv reja va o'quv dasturlari (ishchi o'quv reja va dasturlar) ishlab chiqilgan va tasdiqlangan*
		Malaka oshirishning muqobil shakllari (masofaviy, aralash) bo'yicha metodik materiallar ishlab chiqilgan
		O'quv mashg'ulotlari o'quv reja va dasturlar hamda dars jadvaliga muvofiq tashkil etilgan**
		O'quv natijalarini baholash tizimi joriy etilgan bo'lib, baholash vositalari o'quv natijalarini aniqlashga xizmat qiladi va muntazam ravishda tahlil qilinadi**
		O'quv jarayonining sifatini ichki monitoring qilish mexanizmi mavjud, monitoring natijalari asosida o'quv jarayoni takomillashtiriladi**
11	O'quv jarayonining to'g'ri tashkil etilgani, uning doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani	O'quv reja asosida dars jadvali ishlab chiqilgan
		O'quv mashg'ulotlari dars jadvaliga muvofiq holda, uzluksiz va tizimli ravishda tashkil etilgan**
		O'quv jarayoni sifatini baholash, tahlil qilish va takomillashtirish ishlari amalga oshirilgan**
12	Amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning qo'llanilgani va tegishli samaradorlikka erishilgani	Dars jarayonlarida ilg'or pedagogik yondashuvlar muntazam qo'llaniladi**
		Ilg'or pedagogik yondashuvlar fanlar (modullar) mazmunini chuqur o'zlashtirish va ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga samarali erishishga qaratiladi**
		Ilg'or pedagogik yondashuvlar tinglovchilarda mustaqil ta'lim olish, tahliliy,

		tanqidiy va ijodiy fikrlash hamda hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi**
		Ilg'or pedagogik yondashuvlar samaradorligi bo'yicha muntazam monitoring va tahlil olib boriladi**
		Monitoring va tahlil natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ilg'or pedagogik yondashuvlar bo'yicha pedagoglarning salohiyati muntazam rivojlantiriladi**
13	Tinglovchilarning kirish va chiqish testlari, baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi	Test savollari o'quv dasturiga mos ravishda ishlab chiqilgan
		Tinglovchilarning baholash natijalari va testlar bo'yicha fikr-mulohazalarini anonim so'rovnomalar hamda LMS/onlayn shakllar orqali muntazam ravishda yig'ish va tahlil qilish tizimi yo'lga qo'yilgan
		Kirish va chiqish testlari natijalari fanlar (modullar) kesimida tahlil qilinib, tinglovchilarning bilim va ko'nikmalardagi o'zgarishi aniqlangan**
		Tinglovchilarning fikr-mulohazalari va test natijalari ilmiy-metodik kengashlar yoki kafedra majlislarida muhokama qilinadi**
14	Ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi	Ta'lim tashkilotida akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid tartib (qoidalar) va yo'riqnomalar mavjud
		Plagiat va boshqa akademik halollik qoidalarini buzilishini oldini olish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha antiplagiat tizimi va tashkiliy choralar joriy etiladi**
		Akademik halollik qoidalarini buzish holatlarini ko'rib chiqish va javobgarlik

		choralarini belgilash bo'yicha shaffof tartib mavjud**
<b>4-bob. Tinglovchilar faoliyati yo'nalishi</b>		
15	Ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani	Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga tinglovchilar kontingentini shakllantirish mexanizmi mavjud
		Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga tinglovchilarni qabul qilish tartibi tasdiqlangan
		Qabul jarayonlari amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda tashkil etilgan**
		Qabul jarayonlari hujjatlashtirilgan, tegishli buyruqlar qabul qilingan**
		Malaka oshirish kurslariga buyurtma berish hamda tinglovchilarni qabul qilish jarayonlari raqamlashtirilgan
16	Malaka oshirish reja-grafigi ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi hamda ta'lim dasturlarini samarali amalga oshirish uchun yetarliligi	Malaka oshirish kurslarining davriyligi, shakllari, muddatlari belgilangan
		Ta'lim dasturi bo'yicha qabul parametr(lar)i ta'lim tashkilotining infratuzilmasi, moliyaviy imkoniyatlari, auditoriya, laboratoriya, o'quv amaliyot bazalari va davlat ta'lim talablariga mos ravishda belgilangan
		Ta'lim dasturi bo'yicha qabul parametr(lar)i hududning mehnat bozori, ta'lim tashkilotining maqsadi (missiya, strategiya), pedagoglar soni va tarkibi, ularning ish (o'quv) yuklamasi bilan uyg'unlashtirilgan
		Malaka oshirish kurslari reja-grafigi va tinglovchilar kontingentini tasdiqlash to'g'risida tegishli hujjatlar mavjud

		Ta'lim dasturi bo'yicha qabul parametr(lar)ining bajarilish holati bo'yicha har yili tahlillar amalga oshiriladi, tahlil natijalari asosida kelgusi yil qabul rejasiga o'zgartirishlar kiritiladi**
17	Tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi	Ta'lim dasturi bo'yicha tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash, shu jumladan akademik, ijtimoiy va kasbiy yo'nalish bo'yicha maslahat berish tizimi joriy qilingan
		Tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash va maslahat xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlar ochiq (veb-sayt, bukletlar, axborot stendlari orqali) yoritilgan
		Tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash va maslahat xizmatlaridan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar tizimli ravishda yig'iladi, tahlil qilinadi, xizmatlardan qoniqish darajasi o'rganiladi hamda maslahat tizimi samaradorligi takomillashtiriladi**
<b>5-bob. Inson resurslari yo'nalishi</b>		
18	Ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi	Boshqaruv xodimlar soni va ularning malakasi belgilangan shtat normativlariga mos, vazifalar taqsimlangan va lavozim yo'riqnoma (kasbiy standart)lari tasdiqlangan
		Pedagog kadrlar soni ta'lim dasturi talablari va tinglovchi nisbatiga mos keladi
		Pedagog kadrlar mutaxassisligi o'qitiladigan fanlar (modullar) bilan mos keladi yoki tegishli yo'nalishi bo'yicha amaliy ish tajribasiga ega, ularning diplom/sertifikatlari va malaka tasdig'i hujjatlar bilan tasdiqlangan

		Ilmiy salohiyat (PhD, DSc, professor, dotsent va boshqalar) darajasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq
19	Amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi modullarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlangani	Pedagog kadrlarning mutaxassisligi, ish staji va tajribasi malaka oshirish kurslari fanlar (modullar) bo'yicha fan profiliga mos keladi**
		Malaka oshirish kurslari fanlar (modullar) bo'yicha tegishli oliy ma'lumot va kasbiy tayyorgarlikka ega pedagog kadrlar bilan ta'minlangan**
		Pedagog kadrlar ilmiy maqolalar, ilmiy nashrlar yoki ilmiy-texnik loyihalar va tadqiqotlarda faol ishtirok etgan**
		Pedagog kadrlar davriy ravishda malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida, seminar va treninglarda yoki stajirovkalarda ishtirok etgan**
		Fanlarning (modullarning) amaliy (laboratoriya) qismlarini olib borish uchun pedagog kadrlarning yetarli malakasi mavjud**
20	Yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi modullarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi	Yangi ta'lim dasturi bo'yicha pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj tahlil qilingan*
		Yangi ta'lim dasturlari bo'yicha pedagog kadrlarni jalb qilish strategiyasi (tanlov, konkurs, grantlar orqali) belgilangan
		Fanlar (modullar) mazmuniga mos kasbiy ko'nikmaga ega bo'lgan pedagog kadrlarni ishga qabul qilish va kadrlar zaxirasini yaratish mexanizmi mavjud
		O'quv jarayoniga pedagogik mahorat va kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassislarni jalb qilish imkoniyatlari ko'zda tutilgan

21	Amaliyotchi hamda xorijiy mutaxassislarni jalb qilish imkoniyatlarining mavjudligi	O'quv jarayoniga xalqaro va mahalliy tashkilotlardan amaliyotchi mutaxassislarni jalb qilish bo'yicha hamkorlik memorandum (huquqiy asos)lari mavjud
		Amaliyotchi hamda xorijiy mutaxassislarni jalb qilishning moliyaviy manbalari (budget va budgetdan tashqari mablag'lar va boshqalar) belgilangan
		Ta'lim dasturlari mazmuniga mos amaliyotchi va xorijiy mutaxassislar jalb etilishi hamda ular tomonidan master-klasslar yoki treninglar o'tkazish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan
22	Kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi	Pedagog va xodimlar uchun kasbiy rivojlanish va malaka oshirish chora tadbirlari ishlab chiqilgan
		Pedagoglar va xodimlar uchun moddiy rag'batlantirish tizimi (mukofotlash, lavozim o'sishi) joriy etilgan
		Pedagog va xodimlar uchun ma'naviy rag'batlantirish tizimi (faxriy yorliq, tashakkurnoma, diplom va boshqalar) yo'lga qo'yilgan
23	Xorijda malaka oshirgan professor-o'qituvchilarning o'quv jarayoniga jalb qilingani	Xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan pedagog kadrlarga oid to'liq ma'lumotlar bazasi mavjud
		Xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan pedagog kadrlar ta'lim dasturlari va fanlar (modullar) doirasida dars berishga jalb qilingan**
		Xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan pedagog kadrlar tomonidan ta'lim tashkilotida master klasslar o'tkazilgan**
<b>6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi</b>		

24	<p>Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani</p>	<p>Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha infratuzilma, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, xomashyo materiallari va inventarlar mavjud hamda ular ta'lim dasturining talablariga mos*</p>
		<p>Ta'lim dasturi bo'yicha jihozlar va texnikalar soni tinglovchilar kontingentidan (guruh hajmidan) kelib chiqqan holda ta'minlangan</p>
		<p>Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha korxonalar, tashkilotlar, ta'lim tashkilotlari bilan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha hamkorlik shartnomalari yoki kelishuvlar mavjud</p>
		<p>Mashg'ulotlarda zarur asbob-uskuna va texnikalardan foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalar, yo'riqnomalar mavjud</p>
		<p>Xomashyo va (yoki) yonilg'i-moylash materiallaridan foydalanish hamda ularni hisobdan chiqarish tartibi mavjud va ular yuritib (hujjatlashtirib) boriladi**</p>
		<p>Asbob-uskuna va texnikalar bilan ishlash bo'yicha pedagog kadrlar va tinglovchilar uchun soha mutaxassislari yoki ish beruvchilar bilan hamkorlikda treninglar o'tkazish yo'lga qo'yilgan**</p>
25	<p>Modullar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani</p>	<p>Har bir fan (modul) bo'yicha o'quv adabiyotlar, qo'llanmalar va o'quv uslubiy majmualar mavjud*</p>
		<p>O'quv adabiyotlari, qo'llanmalar va o'quv uslubiy majmualar fan (modul)ning mazmuni va o'quv maqsadlariga mos</p>

		<p>Fan (modul)lari bo'yicha raqamli ta'lim resurslari ishlab chiqilgan va elektron kutubxonaga joylashtirilgan**</p>
		<p>Pedagog kadrlar va tinglovchilar uchun elektron ta'lim resurslarga uzluksiz kirish imkoniyati mavjud**</p>
		<p>O'quv jarayonida adabiyotlar va elektron resurslarning qo'llanilishi samaradorligi (tinglovchi faolligi, natijalar tahlili orqali) muntazam tahlil qilinadi va yangilab boriladi**</p>
		<p>Fan (modul) mazmuniga mos zamonaviy xorijiy adabiyotlardan va qo'shimcha materiallardan foydalanish imkoniyati yaratilgan**</p>
26	<p>O'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning tinglovchilar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani</p>	<p>Ta'lim tashkiloti tinglovchilar kontingentidan kelib chiqqan holda o'quv xonalari bilan ta'minlangan*</p>
		<p>Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar o'tkaziladigan o'quv xonalari va moddiy-texnik baza mehnatni muhofaza qilish qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, shaharsozlik normalari va qoidalari hamda yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga javob beradi</p>
		<p>Laboratoriyalar va ustaxonalar (poligonlar) ta'lim dasturiga mos asbob-uskunalar, jihozlar va texnikalar bilan ta'minlangan, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish vositalari mavjud, evakuatsiya yo'llari (sxemalari) belgilangan hamda xavfsizlik jurnallarini yuritish yo'lga qo'yilgan</p>
		<p>Fanlar (modullar) ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv xonalarida axborot-</p>

		<p>kommunikatsiya vositalari (proyektor, komputer va boshqalar) o'rnatilgan hamda IT infratuzilma shakllantirilgan</p> <p>O'quv, laboratoriya xonalari va ustaxonalarda (poligonlarda) tinglovchilar uchun yetarli o'rindiqlar va ish joylari mavjud</p>
27	<p>Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani</p>	<p>Ta'lim tashkiloti binolar va o'quv xonalari, shu jumladan yo'laklar, panduslar, liftlar, eshiklar va sanitariya xonalari nogironligi bo'lgan shaxslar (tinglovchilar) uchun moslashtirilgan</p> <p>Inklyuziv ta'lim uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (bundan buyon matnda AKT deb yuritiladi), elektron ta'lim resurslari va dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyati yaratilgan</p> <p>Ta'lim jarayonida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi pedagog va psixolog tomonidan yordam ko'rsatish tizimi mavjud**</p>
28	<p>Axborot-resurs markazining (kutubxonaning) (bundan buyon matnda ARM deb yuritiladi) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, komputerlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi</p>	<p>ARMda ta'lim dasturiga mos o'quv qo'llanma va adabiyotlar, badiiy adabiyotlar mavjud, kutubxona fondi yaratilgan</p> <p>ARMda o'quv zali, elektron kutubxonadan foydalanish va internet tarmog'iga ulanish imkoniyati yaratilgan</p> <p>ARM komputer vositalari va internet tarmog'iga ulangan elektron qurilmalar bilan jihozlangan hamda Wi-Fi zonalarni tashkil etilgan</p> <p>Elektron kutubxona tizimida ta'lim dasturi bo'yicha o'quv qo'llanma va adabiyotlar, o'qitish materiallari to'plami,</p>

		<p>raqamli ta'lim resurslari va multimedia kontentlar raqamli formatda joylashtirilgan</p> <p>ARM dan foydalanish tartibi qulay va ochiq, elektron ma'lumotlar bazasiga erkin kirish ta'minlangan, kutubxona xizmatlaridan foydalanish samaradorligi monitoringi yuritilgan**</p>
29	Raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari)	<p>Ta'lim dasturi bo'yicha tinglovchilar va pedagoglar uchun barqaror internet ulanishi, Wi-Fi zonalari va zarur raqamli qurilmalardan (komputerlar, planshetlar va boshqalar) foydalanish imkoniyati yaratilgan</p> <p>Ta'lim dasturi bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish, baholash va monitoring qilish uchun LMS va (yoki) ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimlari joriy etilgan va amalda qo'llanilmoqda</p> <p>Ta'lim dasturi bo'yicha onlayn kurslar, video darslar, testlar va boshqa raqamli ta'lim resurslari mavjud bo'lib, ular o'quv reja va o'quv natijalari bilan uyg'unlashtirilgan hamda muntazam yangilanib boriladi</p> <p>Masofaviy ta'lim platformalari orqali o'quv jarayonida qatnashish imkoniyati yaratilgan, masofaviy ta'limda ishtirok etayotgan pedagoglar va tinglovchilar soni bo'yicha monitoring olib boriladi va natijalar tahlil qilinadi</p> <p>Raqamli ta'lim resurslari va LMSdan foydalanishni boshqarish bo'yicha mas'ul xodim hamda texnik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mavjud.</p> <p>LMS, masofaviy ta'lim platformalari va raqamli ta'lim texnologiyalaridan</p>

	foydalanish bo'yicha pedagoglar va tinglovchilar uchun muntazam o'quv-seminarlar, treninglar va vebinarlar tashkil etib boriladi**
--	--

Izoh:

1) mezonlarni majburiy va umumiy turlarga ajratish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi;

2) majburiy va umumiy indikatorlar "muvofiq" yoki "muvofiq emas" tarzida baholanadi;

3) majburiy va umumiy indikatorlar bo'yicha mezonni baholash mazkur izohning 4-kichik bandining talablarini hisobga olgan holda quyidagi tartibda aniqlanadi:

60 foiz va undan ortiq indikatorlar "muvofiq" deb baholansa – mezon "muvofiq";

50 foizdan 60 foizgacha indikatorlar "muvofiq" deb baholansa – mezon "qisman muvofiq";

50 foizgacha indikatorlar "muvofiq" deb baholansa – mezon "muvofiq emas" deb baholanadi;

4) mezon tarkibidagi mavjud majburiy indikator (majburiy indikatorlardan biri) "muvofiq emas" deb topilsa, umumiy natijadan qat'i nazar, ushbu mezon "muvofiq emas" deb baholanadi;

5) indikatorlarda nazarda tutilgan kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotining ichki hujjatlarini (tartib, nizom, qoidalar, chora-tadbir rejasi, monitoring va tahlil natijalari) birlashtirish (unifikatsiya qilish) mumkin;

6)\*majburiy indikatorlar;

\*\*faqat amaldagi ta'lim dasturlari uchun foydalaniladigan umumiy indikatorlar.

**II bo'lim. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish  
tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash  
mezonlari bo'yicha  
INDIKATORLAR**

<b>T/r</b>	<b>Mezon</b>	<b>Indikator</b>
<b>1-bob. Tashkiliy-boshqaruv faoliyati yo'nalishi</b>		
1	Ta'lim tashkilotida Ilmiy-pedagogik (metodik) kengashning (bundan buyon matnda Kengash deb yuritiladi) tashkil etilgani va uning faoliyati samaradorligi	<p>Kengash tashkil etilgan hamda ta'lim tashkilotining boshqaruv tuzilmasida o'z o'rniga ega</p> <p>Kengash tarkibi, vakolatlari, funksiyalari va mas'uliyati ichki nizomlarda aniq belgilangan, a'zolarning malakasi ta'lim sifati bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi</p> <p>Kengashning yillik ish rejasi tasdiqlangan hamda reja asosida o'tkazilgan yig'ilishlar, ko'rib chiqilgan masalalar va qabul qilingan qarorlar tegishli tartibda bayonnomalarda rasmiylashtirilgan</p> <p>Kengash tomonidan qabul qilinadigan qarorlar ta'lim sifati, strategik rivojlanish, moliyaviy boshqaruv va resurslardan samarali foydalanishni yaxshilashga qaratilgan</p> <p>Kengash qarorlarining ijrosi bo'yicha mas'ullar va muddatlar aniqlangan, qarorlar o'quv jarayoni, ilmiy-metodik faoliyat, moddiy-texnik baza va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatadi</p> <p>Kengash qarorlarining ijrosi va samaradorligi bo'yicha monitoring tizimi joriy etilgan, natijalar muntazam tahlil</p>

		qilinadi va zarur hollarda tuzatish chora-tadbirlari ko'riladi
2	Ta'lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va rejalashtirish, ta'lim sifatini ta'minlash uchun moliyaviy resurslarning maqsadli yo'naltirilgani	Ta'lim tashkilotining istiqbolli rivojlanish rejasi, yillik ish rejasi va moliyaviy rejasi (smeta) o'zaro uyg'un holda ishlab chiqilgan, ta'lim sifati ko'rsatkichlarini yaxshilashga yo'naltirilgan va tasdiqlangan
		Moliyaviy resurslarni shakllantirish manbalari aniqlangan, ulardan foydalanish tartibi va ustuvor yo'nalishlari ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan holda hujjatlashtirilgan
		Moliyaviy rejada ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar salohiyatini rivojlantirish va moddiy-texnik bazani yangilashga yo'naltirilgan xarajatlar aniq belgilangan, mablag'lar maqsadli va samarali yo'naltiriladi
		Mablag'larning belgilangan yo'nalishlarda maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlovchi ichki audit va moliyaviy nazorat jarayonlari yo'lga qo'yilgan, audit natijalari bo'yicha tegishli tuzatish va takomillashtirish chora-tadbirlari ko'riladi
3	Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasining ishlab chiqilgani va uni amalga oshirish uchun resurslar mavjudligi, shuningdek, uning jamoatchilik uchun	Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasi sohaning ustuvor yo'nalishlari, mehnat bozori tahlillari va kadrlar malakasini oshirish bilan uyg'un holda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan*
		Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasida maqsadlar, ustuvor yo'nalishlar, muddat va

	ochiqligi va monitoringi yuritilgani	<p>mas'ul ijrochilar hamda kutilayotgan natijalar belgilangan</p> <p>Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy, moddiy va inson resurslari ajratilgan, ularning taqsimoti ustuvor yo'nalishlar bilan uyg'unlashtirilgan</p> <p>Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasining bajarilish holati va natijalarini ochiq hamda shaffof tarzda jamoatchilikka yetkazib borish mexanizmlari yaratilgan</p>
4	Ta'lim tashkilotining hudud va respublikaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasi	<p>Tashkilotlar, korxonalar va muassasalar bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan</p> <p>Tashkilotning hududiy va respublika darajasida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni rivojlantirishdagi ishtiroki va qo'shgan hissasi</p> <p>Madaniy-ma'rifiy yoki ilmiy tadbirlar (konferensiya, seminar, davra suhbatlari, festival, ko'rgazma va boshqa anjumanlar) tashkil etilgan</p>
5	Ta'lim jarayonlarini boshqarish hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha axborot tizimining mavjudligi va ushbu tizimning ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilingani	<p>Ta'lim tashkilotida o'quv jarayonlari va ta'lim sifatini boshqarishga xizmat qiluvchi raqamli axborot tizimi joriy etilgan</p> <p>Axborot tizimi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlari va boshqa tashkilotlarning axborot tizimlariga integratsiya qilingan, ma'lumotlar avtomatik almashinuvi yo'lga qo'yilgan</p> <p>Axborot tizimi foydalanuvchilar uchun qulay, ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligi ta'minlangan</p> <p>Axborot tizimi orqali o'quv jarayonlarini rejalashtirish, monitoring va hisobot ishlari</p>

		<p>yuritilgan, ma'lumotlar asosida yillik tahliliy hisobotlar tayyorlangan va kollegial organining yig'ilishlarida muhokama qilingan</p> <p>Axborot tizimining samaradorligi, ma'lumotlar bilan ishlash jarayonlari va integratsiya holati bo'yicha doimiy monitoring tizimi amalga oshirilgan hamda aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun zarur tuzatishlar kiritish chora-tadbirlari ko'rilgan</p>
6	<p>Ta'lim tashkilotini xalqarolashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yilgan</p>	<p>Xorijiy ta'lim, ilmiy va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan</p> <p>Pedagoglar sohasi bo'yicha nufuzli xorijiy tashkilotlarda malaka oshirish va stajirovkalarda ishtirok etgan</p> <p>Ta'lim jarayoniga malakali xorijiy mutaxassislar jalb etilgan</p> <p>Xalqaro hamkorlik orqali o'quv jarayonlari, ilmiy salohiyat va ta'lim dasturlarining rivojlanishiga erishilgan</p>
<b>2-bob. Ta'lim sifatini ta'minlash yo'nalishi</b>		
7	<p>Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda ta'lim sifatini ichki ta'minlashning yo'lga qo'yilgani</p>	<p>Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi faoliyati yo'lga qo'yilgan, uning asosiy maqsad va vazifalari belgilangan</p> <p>Ta'lim tashkilotida ta'lim sifati samaradorligini aniqlash bo'yicha tegishli mezonlar ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan</p> <p>Manfaatdor tomonlar fikrini o'rganish bo'yicha so'rov va tahlil ishlari tizimli amalga oshirilgan</p>

8	Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilib borilgani va tahlil natijalari asosida takomillashtirish choralarning ko'rilgani	Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi Kengash yig'ilishlarida muhokama qilingan
		Tahlil natijalari asosida malaka oshirish tizimida aniqlangan muammolar, ularni bartaraf etish, takomillashtirish bo'yicha takliflar olingan
		Tahlillar hamda manfaatdor tomonlar tavsiyalari asosida ta'lim dasturlari va jarayonlariga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan
9	Ichki baholash jarayoni o'tkazilgani, baholash natijalari asosida chora-tadbirlarning amalga oshirilgani.	Ichki baholash jarayoni ta'lim tashkilotida tasdiqlangan tartib asosida o'tkazilgan
		Ichki baholash natijalari bo'yicha aniqlangan muammo va rivojlanish sohalari uchun aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan
		Chora-tadbirlar rejasidagi bandlar belgilangan muddatlarda bajarilgan, ijro holati bo'yicha muntazam monitoring va hisobdorlik tizimi yo'lga qo'yilgan
10	Tinglovchilar bilimini baholashning belgilangan tartibda amalga oshirilgani va uning o'quv natijalariga muvofiqligi	Tinglovchilar bilimini baholash tizimi va mezonlari bo'yicha tartib va ko'rsatmalar ishlab chiqilgan
		Baholash tizimi ta'lim dasturlaridagi o'quv natijalari va fan (modul) maqsadlariga mos ravishda ishlab chiqilgan
		Pedagoglar baholash mezonlaridan xabardor va ularni amaliyotda qo'llay oladi
		Baholash jarayonida raqamli texnologiyalar samarali qo'llaniladi hamda jarayon ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga asoslanib tashkil etilgan

		<p>Baholash natijalari bo'yicha apellyatsiya yoki qayta ko'rib chiqish mexanizmi mavjud</p> <p>Baholash natijalari doimiy monitoring qilib borilgan hamda manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda muhokama qilingan</p>
11	<p>Ta'lim tashkilotida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi</p>	<p>Akademik halollik qoidalari ta'lim tashkilotining ichki hujjatlari orqali rasman tasdiqlangan</p> <p>Akademik halollikni ta'minlash uchun mas'ul (komissiya yoki bo'linma) belgilangan, uning vakolatlari, funksiyasi hujjatlashtirilgan hamda muntazam faoliyat yuritadi</p> <p>Tinglovchilar uchun akademik halollik qoidalariga oid targ'ibot ishlari muntazam o'tkazilgan va axborot materiallari tayyorlangan</p> <p>Ilmiy va o'quv ishlarida plagiat hamda soxtalik holatlarini oldini olish maqsadida elektron tekshiruv tizimi joriy etilgan, tinglovchilar va pedagog xodimlar uchun tizimdan ochiq foydalanish imkoniyati yaratilgan</p>
12	<p>Ish beruvchilarning malaka oshirgan tinglovchilarga oid fikr-mulohazalarining tahlil qilingani</p>	<p>Ta'lim tashkilotida ish beruvchilar fikrini yig'ish bo'yicha amaliyot (anketalar, intervyular, onlayn platforma) yo'lga qo'yilgan</p> <p>Ish beruvchilar bilan muntazam hamkorlik va aloqa mexanizmlarining yo'lga qo'yilgan</p> <p>Ish beruvchilar fikrlari asosida ta'lim dasturlariga o'zgartirishlar kiritilishi imkoniyati mavjud</p>

<b>3-bob. Tinglovchilar faoliyati yo'nalishi</b>		
13	Qabul parametrlarining ta'lim tashkiloti resurslari va imkoniyatlariga mosligi	Tinglovchilarni o'qishga qabul qilishda ta'lim tashkilotining quvvati, bino va inshootlar sig'imi, moliyaviy resurslari hamda moddiy-texnik bazasi imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilangan*
		Ta'lim tashkilotining o'qituvchilari va tinglovchilari sonining bir nafar o'qituvchi hisobiga nisbatining cheklangan normativlari mavjud
		Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan didaktik imkoniyatlarning mavjudligi
		Tinglovchilarni o'qishga qabul qilish parametrlarining monitoringi olib borilgan
		Monitoring natijalari asosida qabul rejasiga zarur o'zgartirishlar kiritiladi
14	Tinglovchilarni o'qishga qabul qilish belgilangan tartib-qoidalar asosida to'g'ri tashkil qilingani	Tinglovchilarni o'qishga qabul qilish tartib-qoidalari, mezonlari va komissiya faoliyati ta'lim tashkilotining ichki hujjatlarida belgilangan bo'lib, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi
		Korrupsiyaning oldini olish, manfaatlar to'qnashuvi xavfini kamaytirish va baholashning xolisligini ta'minlovchi raqamlashtirilgan tizim joriy etilgan
		Tinglovchilar hujjatlarni qabul qilish va tekshirish bo'yicha aniq reglamentlar, mas'ullar va muddatlar belgilangan
		Tinglovchilarni o'qishga qabul qilish jarayonining doimiy monitoringi amalga oshirilgan
<b>4-bob. O'quv jarayonini tashkil etish yo'nalishi</b>		

15	O'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlarining ishlab chiqilgani va belgilangan tartibda tasdiqlangani	Davlat ta'lim talablari (malaka talablari) asosida o'quv reja va o'quv dasturlari ishlab chiqilgan va tasdiqlangan*
		Ishchi o'quv reja va dasturlar ta'lim dasturlariga mos holatda ishlab chiqilgan
		Dars jadvallari o'quv rejadagi kredit/soat hajmi, fan (modul)lar ketma-ketligi bo'yicha ishlab chiqilib, tasdiqlangan hamda o'quv kursi boshlanishidan oldin e'lon qilingan
		Ma'ruza, amaliy, laboratoriya, seminar-trening, ko'chma mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim bo'yicha haftalik yuklama taqsimoti hujjatlashtirilgan
		O'quv jarayonini rejalashtirishga oid asosiy hujjatlar (dars jadvallari, imtihonlar jadvali va boshqalar) tinglovchi, pedagog va manfaatdor tomonlar uchun ochiq holda veb-sayt yoki axborot tizimi orqali e'lon qilingan
16	Professor-o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari belgilangan talab asosida ishlab chiqilgani, tasdiqlangani va yuritilishi	O'quv dasturlarda fan (modul)ning maqsad va vazifalari, o'quv natijalari, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, ta'lim texnologiyalari aniq belgilangan
		Har bir fan (modul)ning o'quv dasturi davlat ta'lim talablari va ta'lim dasturining maqsad va natijalariga mos holda ishlab chiqilgan*
		O'quv-me'yoriy hujjatlar pedagoglarga dars mashg'ulotlari boshlanishidan oldin yetkazilgan va tinglovchilar uchun ham ochiq holda taqdim etilgan
		O'quv-me'yoriy hujjatlarning sifati, mazmuni va amaliy ahamiyati muntazam

		ravishda tegishli bo'limlar tomonidan nazorati amalga oshirib boriladi
17	Professor-o'qituvchilarga o'quv yuklamalarining belgilangan normalarga muvofiq ajratilgani	Ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilarining o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-metodik va ma'naviy-ma'rifiy ish turlari hajmini belgilash qoidalari mavjud va tasdiqlangan
		Professor-o'qituvchilar mutaxassisligi o'qitiladigan fanlar (modullar) bilan to'liq mos keladi yoki tegishli yo'nalishi bo'yicha amaliy ish tajribasiga ega
		O'quv yuklama pedagoglar o'rtasida ularning ish stavkasi va zaruratga ko'ra ilmiy daraja va ilmiy unvonlardan kelib chiqib mutanosib ravishda taqsimlangan.
		O'quv yuklama to'g'risidagi ma'lumotlar o'quv yili boshlanishidan avval o'z vaqtida pedagoglarga tegishli tartibda yetkazilgan
		O'quv yuklama taqsimoti barcha pedagoglar uchun ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilgan
18	Ta'lim dasturlarini iqtisodiyot, sanoat va soha ehtiyojlaridan kelib chiqib, takomillashtirilgani hamda mazmunining yangilangani	Ta'lim dasturlarini takomillashtirish jarayonida ish beruvchi va buyurtmachilar, soha mutaxassislari fikr-mulohazalari o'rganilgan
		Ta'lim dasturlari mehnat bozori, soha ehtiyojlari va iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda ishlab chiqilgan
		Dastur mazmuniga raqamli texnologiyalar, zamonaviy kompetensiyalar va innovatsion yondashuvlar integratsiya qilingan

		Ta'lim dasturlariga kiritilgan o'zgarishlar tinglovchilar, pedagoglar va ish beruvchilarga ochiq va shaffof tarzda yetkazilgan
19	Ta'lim tashkilotida dars tahlillarining olib borilgani va natijalarining muhokama qilingani	Dars tahlillarini o'tkazish tartibi, mezonlari va baholash ko'rsatkichlari ichki hujjatlarda belgilangan
		Dars tahlillari o'tkazish reja-grafigi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan
		Dars tahlillari belgilangan reja asosida muntazam amalga oshiriladi
		Dars tahlillari natijalari kafedra, fakultet yoki tegishli bo'linma yig'ilishlarida muhokama qilinadi
		Aniqlangan kamchiliklar va takomillashtirish imkoniyatlari bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi
<b>5-bob. Inson resurslari yo'nalishi</b>		
20	Ta'lim tashkilotida belgilangan talablar va me'yorlarga muvofiq ilmiy salohiyatga ega pedagog kadrlarning mavjudligi	Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga sohaning yetuk professor-o'qituvchilari hamda tajribali mutaxassislari jalb qilingan*
		Har bir qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlaridan kelib chiqib yetarlicha ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega pedagoglar jalb qilingan
		Pedagog kadrlar ilmiy-tadqiqot faoliyatida faol ishtirok etadi, ularning ilmiy ishlari va natijalari doimiy tahlil qilinadi
21	Ta'lim tashkilotida pedagog kadrlarning mutaxassisligi (ixtisosligi) va faoliyat yo'nalishlari	Pedagoglarning o'qitayotgan fanlari bo'yicha tegishli oliy ma'lumoti, ixtisosligi va kasbiy tayyorgarligi mavjud
		Pedagoglarning mutaxassisligi o'qitilayotgan fanlarning profili va

	dars o'tadigan fan(lar)ga mosligi	mazmuniga mos keladi Ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayoniga jalb qilingan pedagoglar dars berayotgan fan (modul)i bo'yicha malaka oshirishdan yoki qisqa muddatli treninglardan o'tkazilgan
22	Ta'lim tashkilotiga pedagog kadrlarni belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish to'g'ri tashkil qilingani hamda kadrlar qo'nimsizligining oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rilgani	Pedagog kadrlarni ishga qabul qilish jarayonlari amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlar asosida amalga oshiriladi Ishga qabul qilish ochiq va shaffof tanlov asosida tashkil etiladi hamda xolis baholash mezonlari qo'llaniladi Ishga qabul qilingan pedagog xodimlar bilan mehnat shartnomalari mehnat qonunchiligi talablari asosida rasmiylashtiriladi Pedagog kadrlarni ishdan bo'shatish jarayonlari mehnat qonunchiligi talablariga qat'iy rioya etgan holda amalga oshiriladi
23	Pedagog kadrlarning xorijda va/yoki ishlab chiqarish korxonalarida malaka oshirishi yoki stajirovkalari tashkil etilgani	Ta'lim tashkiloti xorijiy ta'lim tashkilotlari, ilmiy markazlar va ishlab chiqarish korxonalari bilan malaka oshirish va stajirovka bo'yicha hamkorlik kelishuvlariga ega Oxirgi uch yilda stajirovka va malaka oshirishda ishtirok etgan pedagoglar ulushi o'sish tendensiyasini ko'rsatgan Malaka oshirish va stajirovka jarayonlari uchun zarur moliyaviy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratilgan Malaka oshirish yoki stajirovka natijalari bo'yicha olingan bilim va ko'nikmalar o'quv jarayoniga joriy etilgan

24	Xodimlar faoliyati samaradorligini baholash tizimi (KPI)ning yo'lga qo'yilgani hamda u asosida xodimlarning moddiy va ma'naviy rag'batlantirilgani	Ta'lim tashkilotida rahbar va xodimlar hamda pedagoglar faoliyati samaradorligini baholash tizimi (KPI) to'g'risidagi tartib ishlab chiqilgan
		KPI ko'rsatkichlari va baholash mezonlari aniq belgilangan
		KPI baholash jarayoni ochiqlik va xolislik tamoyillari asosida amalga oshiriladi
		KPI baholash natijalari bo'yicha xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish amaliyoti yo'lga qo'yilgan
		KPI tizimining samaradorligi davriy ravishda tahlil qilinib, natijalari bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi
<b>6-bob. Tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishi</b>		
25	Ta'lim xizmatlari yuzasidan tinglovchilar fikr-mulohazalarining monitoring qilinishi va uning natijalari asosida takomillashtirish choralari ko'rilgani	Tinglovchilar fikr-mulohazalarini o'rganish mexanizmlari yo'lga qo'yilgan
		Tinglovchilar qoniqishini baholash bo'yicha so'rovnoma (anketa) shakli va metodologiyasi ishlab chiqilgan
		Fikr-mulohazalarni yig'ish bo'yicha monitoring tizimi mavjud (onlayn anketa platformasi)
		Tinglovchilar fikr-mulohazalarining umumiy natijalari kafedra (bo'lim, kengash va b.) yig'ilishida muhokama qilingan
26	Tinglovchilarga yetarli darajada ta'lim olish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish hamda karyera xizmatlarining tashkil etilgani	Tinglovchilarni ijtimoiy, akademik va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish tizimi yo'lga qo'yilgan
		Tinglovchilar ijtimoiy, akademik va psixologik qo'llab-quvvatlash uchun malakali mutaxassislar jalb qilingan

		Tinglovchilardan olingan fikr-mulohazalar asosida xizmatlar faoliyati takomillashtirilgan
27	Ijtimoiy himoyaga muhtoj va imkoniyati cheklangan tinglovchilar uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilgani	Ijtimoiy himoyaga mansub tinglovchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil qilishda imtiyozlar belgilangan
		Imkoniyati cheklangan tinglovchilar uchun ta'lim va infratuzilma sharoitlari yaratilgan
		Ta'lim tashkilotida tinglovchilar turar joyi (TTJ) mavjud va uning faoliyati tashkil etilgan
		TTJda madaniy va ma'rifiy tadbirlari hamda tinglovchilar bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha faoliyat yo'lga qo'yilgan
28	Tinglovchilarning huquqlarini himoya qilish va shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibining mavjudligi	Tinglovchilar huquqlarini himoya qilish, shikoyat va murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonini tartibga soluvchi ichki hujjat mavjud
		Shikoyat va murojaatlarni qabul qilish uchun axborot tizimi joriy etilgan
		Tinglovchilar murojaatlarini ko'rib chiqish muddati va tartibiga rioya qilinadi
		Shikoyatlar va murojaatlar bo'yicha qarorlar rasmiy ravishda hujjatlashtirilgan
		Murojaatlar natijalari tahlil qilinib, tizimli choralar ko'rilgan
<b>7-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi</b>		
29	Ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, o'quv jarayonini tashkil qilish uchun tinglovchilar kontingentiga mos ravishda	Ta'lim muassasasining umumiy maydoni tinglovchilarning kontingenti hisobga olingan holda o'quv xonalari, laboratoriyalar, amaliy mashg'ulot xonalari,

	<p>zarur bino va inshootlar, zamonaviy moddiy-texnik baza, xomashyo materiallari va dasturiy ta'minot bilan ta'minlangan</p>	<p>axborot resurs markazi va boshqa infratuzilmalar bilan ta'minlangan*</p> <p>Ta'lim tashkilotining bino va inshootlari va moddiy-texnik bazasi mehnatni muhofaza qilish qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, shaharsozlik normalari va qoidalari hamda yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga javob beradi</p> <p>Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar tinglovchilarning amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, musiqa asboblari, texnik vositalar va xomashyo bilan yetarli darajada ta'minlangan</p> <p>Tinglovchilar va pedagoglarning elektron ta'lim platformalari hamda dasturiy ta'minotlarga kirish imkoniyati mavjud</p> <p>Infratuzilmadan foydalanish va uni rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'lar bo'yicha moliyaviy hisobotlar mavjud</p>
30	<p>Ta'lim jarayonlari uchun zarur bo'lgan amaliyot bazalari, ustaxonalari va laboratoriyalari mavjudligi yoki sanoat hamkorlari va boshqa ta'lim tashkilotlari bazalaridan foydalanish yo'lga qo'yilgani</p>	<p>Amaliyot o'tish uchun zarur moddiy-texnik baza va infratuzilma (laboratoriyalar, ustaxonalar, amaliyot xonalari) mavjud va faoliyat ko'rsatmoqda*</p> <p>Ta'lim dasturiga mos laboratoriya va amaliyot bazalari tashkil etilgan hamda zarur jihozlar bilan ta'minlangan</p> <p>Laboratoriya jihozlari va asbob-uskunalar ishchi holatda bo'lib, ularni yangilash bo'yicha rejali ishlar amalga oshirilgan</p>
31	<p>Axborot-resurs markazining</p>	<p>Axborot-resurs markazining (kutubxonaning) fondi tarkibi va undan</p>

	<p>(kutubxonaning) zaruriy o'quv va badiiy adabiyotlar, axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda unda o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi</p>	<p>foydalanish ko'rsatkichlari, shu jumladan kitoblar sonining (elektron manbalarning) tinglovchilar soniga nisbati o'quv-metodik ta'minotga qo'yiladigan minimal talablarga mos keladi</p> <p>Fanlar (modullar) bo'yicha zarur o'quv, ilmiy adabiyotlar va o'quv uslubiy majmualar yetarli miqdorda mavjud</p> <p>Elektron kutubxona va ma'lumotlar bazalari (jumladan xalqaro) foydalanish uchun ochiq</p> <p>Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (komputerlar, internet, elektron katalog) joriy etilgan</p> <p>Elektron katalog va onlayn foydalanish tizimi yaratilgan va muntazam yangilanadi</p> <p>Axborot-resurs markazi sohaviy ilmiy manbalar va jurnallar bilan ta'minlangan</p> <p>Kutubxona va elektron resurslardan foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi va hisobot yuritiladi</p>
32	<p>Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani</p>	<p>Ta'lim tashkiloti binolar va o'quv xonalari, shu jumladan yo'laklar, panduslar, liftlar, eshiklar va sanitariya xonalari nogironligi bo'lgan shaxslar (talabalar) uchun moslashtirilgan</p> <p>Ta'lim dasturlari bo'yicha maxsus o'quv materiallari (Brayl alifbosidagi kitoblar, ko'rgazmali materiallar), ergonomik o'rindiqlar, maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar mavjud</p> <p>Inklyuziv ta'lim uchun AKT, elektron ta'lim resurslari va dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyati (audio-video</p>

		<p>resurslar, Brayl alifbosi, subtitr yoki boshqalar) yaratilgan</p> <p>Individual ta'lim rejalari ishlab chiqilgan va amalga oshiriladi</p> <p>Inklyuziv ta'lim jarayonlari samaradorligi muntazam tahlil qilinadi va hisobot yuritiladi</p>
33	<p>O'quv va laboratoriya xonalarida jihozlarning xavfsizlik qoidalari hamda o'qitish ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtirilgani</p>	<p>O'quv va laboratoriya xonalarida jihozlar va asbob-uskunalarining joylashuvi o'quv mashg'ulotlarining mazmuni va amaliyot jarayonlariga mos</p> <p>O'quv va laboratoriya xonalarida erkin harakatlanish ta'minlangan hamda favqulodda holatlarda evakuatsiya chiqish yo'llari belgilangan</p> <p>Laboratoriya asboblari xavfsiz masofada o'rnatilgan va foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar mavjud</p> <p>Elektr uskunalar xavfsiz ulangan, muntazam tekshiruvlar amalga oshiriladi</p> <p>Havo aylanishi va yoritish tizimlari sanitar-gigiyenik talablarga javob beradi</p> <p>Javon va saqlash joylari xavfsizlik talablariga muvofiq tashkil etilgan</p>
34	<p>O'quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangani va raqamli ta'lim muhiti yaratilgani</p>	<p>O'quv xonalari AKT vositalari (kompyuterlar, elektron doskalar, proyektorlar yoki boshqalar) bilan jihozlangan</p> <p>Raqamli ta'lim muhiti (LMS, elektron jurnal, elektron kutubxona, raqamli o'quv resurslari) joriy etilgan va o'quv jarayonida faol qo'llaniladi</p> <p>Pedagoglar o'quv jarayonida elektron ta'lim platformalari, multimedia vositalari</p>

	va interaktiv uskunalardan samarali foydalanadi
	Onlayn darslar va videokonferensiyalar uchun to'liq texnik sharoit yaratilgan
	AKT vositalaridan foydalanish bo'yicha xavfsizlik texnikasi va tartib-qoidalari ishlab chiqilgan
	O'quv binolarida barqaror va yuqori tezlikdagi internet tarmog'i ta'minlangan va Wi-Fi qamrov hududi yetarli darajada tashkil etilgan

*Izoh:*

1) mezonlarni majburiy va umumiy turlarga ajratish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi;

2) majburiy va umumiy indikatorlar "muvofiq" yoki "muvofiq emas" tarzida baholanadi;

3) majburiy va umumiy indikatorlar bo'yicha mezonni baholash mazkur izohning 4-kichik bandining talablarini hisobga olgan holda quyidagi tartibda aniqlanadi:

60 foiz va undan ortiq indikatorlar "muvofiq" deb baholansa – mezon "muvofiq";

50 foizdan 60 foizgacha indikatorlar "muvofiq" deb baholansa – mezon "qisman muvofiq";

50 foizgacha indikatorlar "muvofiq" deb baholansa – mezon "muvofiq emas" deb baholanadi;

4) mezon tarkibidagi mavjud majburiy indikator (majburiy indikatorlardan biri) "muvofiq emas" deb topilsa, umumiy natijadan qat'i nazar, ushbu mezon "muvofiq emas" deb baholanadi;

5) *indikatorlarda nazarda tutilgan kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim tashkilotining ichki hujjatlarini (tartib, nizom, qoidalar, chora-tadbirlar rejasi, monitoring, tahlil natijalari) birlashtirish (unifikatsiya qilish) mumkin;*

6)\**majburiy indikatorlar.*



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3748  
2026 - yil 08 - Yanvar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI  
HUZURIDAGI TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI  
DIREKTORINING BUYRUG'I

**Oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim va  
ilmiy tashkilotlarni kompleks hamda maxsus davlat  
akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha  
indikatorlarni tasdiqlash haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. Oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarni kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan.

3. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor  
22-Dekabr 2025-yil  
6-son



YULDASHEV BAXTIYOR  
GAYRADJONOVICH

Kelishildi:

Vazir  
19-Noyabr 2025-yil



SHARIPOV KONGRATBAY  
AVEZIMBETOVICH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2025-yil  
22-dekabrda 6-son buyrug'iga ILOVA

**Oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim va  
ilmiy tashkilotlarni kompleks hamda maxsus davlat  
akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha  
indikatorlar**

**I bo'lim. Oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim  
va ilmiy tashkilotlarning ta'lim dasturlarini maxsus davlat  
akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha  
INDIKATORLAR**

<b>T/r</b>	<b>Mezon</b>	<b>Indikator</b>
<b>1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi</b>		

1	Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi	<p>Oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturi (bundan buyon matnda ta'lim dasturi deb yuritiladi)ni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida oliy ta'lim va/yoki ilmiy tashkilot (bundan buyon matnda ta'lim tashkiloti deb yuritiladi)ning muvofiqlashtiruvchi kollegial organining (ilmiy kengash, kengash, ilmiy-texnik kengash, ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash va boshqalar) (bundan buyon matnda Kollegial organ deb yuritiladi) tegishli qarori mavjud</p>
		<p>Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy tuzilmani (kafedrani, bo'limni) (bundan buyon matnda tarkibiy tuzilma deb yuritiladi) tashkil etish hamda uni moddiy-texnik baza va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejalar mavjud*</p>
		<p>Tarkibiy tuzilmaning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari ta'lim dasturini samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan va ta'lim dasturi doirasida belgilangan maqsadlarga uyg'un tarzda aniq belgilangan</p>
		<p>Ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun tarkibiy tuzilma moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari bilan ta'minlangan hamda tarkibiy tuzilmaning ish rejaları ishlab chiqilgan**</p>
		<p>Tarkibiy tuzilmaning faoliyati ta'lim tashkiloti hamda ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga uyg'un**</p>

		<p>Tarkibiy tuzilma faoliyati muntazam monitoring va tahlil orqali tizimli ravishda tahlil qilinadi**</p>
		<p>Monitoring va tahlil natijalari asosida tarkibiy tuzilmaning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirib boriladi**</p>
2	<p>Ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha uch yillik istiqbolli rejaning (bundan buyon matnda istiqbolli reja deb yuritiladi) mavjudligi</p>	<p>Istiqbolli reja ishlab chiqilgan hamda ta'lim tashkilotining strategik rejasi (missiyasi, strategiyasi) bilan mos</p>
		<p>Istiqbolli rejada tadqiqot sifati, kadrlar salohiyati, infratuzilma, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik va moliyaviy barqarorlik yo'nalishlari qamrab olingan</p>
		<p>Istiqbolli rejani amalga oshirish uchun ta'lim tashkilotida moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari mavjud</p>
		<p>Istiqbolli rejada belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ta'sir qiluvchi xavf tahlili mavjud hamda ushbu xavflarni bartaraf etish bo'yicha muqobil choralar belgilangan</p>
		<p>Istiqbolli rejaning bajarilishi bo'yicha monitoring va tahlil tizimi yo'lga qo'yilgan**</p>
		<p>Monitoring va tahlil natijalari taqozo etgan taqdirda, istiqbolli rejaga tegishli o'zgartirishlar kiritib boriladi**</p>

3	Ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki	Ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash bo'yicha ichki hujjatlar, shu jumladan tartib (qoidalar) ta'lim tashkilotining strategik rejasida (missiyasida, strategiyasida) belgilangan maqsadlar va institutsional sifatni ta'minlash siyosatiga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan, tasdiqlangan hamda jamoatchilik uchun ochiq
		Ta'lim dasturini muntazam monitoring qilish, tahlil qilish va qayta ko'rib chiqish tartibi (qoidalari) mavjud
		Ta'lim dasturini ishlab chiqish va takomillashtirishda izlanuvchilar, ilmiy rahbar (konsultant)lar, ish beruvchilar, soha mutaxassislari va bitiruvchilarning (bundan buyon matnda manfaatdor tomonlar deb yuritiladi) fikr-mulohazalarini inobatga olish mexanizmi mavjud**
		Manfaatdor tomonlar fikri asosida ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan**
		Sifatni ichki ta'minlash tizimi doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligi muntazam ravishda baholab boriladi**

4	Mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi	Mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalariga oid ma'lumotlarni muntazam ravishda to'plash, tahlil va monitoring qilish tartibi mavjud hamda ushbu masalalar yuzasidan tarkibiy tuzilmaning vazifa va funksiyalari aniq belgilangan
		Yig'ilgan ma'lumotlar ta'lim dasturini rejalashtirish va ishlab chiqishda foydalanilgan**
		Ilmiy-tadqiqot va mehnat bozoridagi so'nggi tendensiyalar tahlil qilinib, ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab boriladi**
		Tahlil va monitoring natijalari va belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish yakunlaridan kelib chiqib, ta'lim dasturiga zarur o'zgartishlar kiritiladi**
		Ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalari bo'yicha yig'ilgan ma'lumotlar manfaatdor tomonlar foydalanishi uchun ochiq e'lon qilinadi**

5	Ta'lim dasturining samaradorligini monitoring qilish va takomillashtirish mexanizmlarining joriy etilgani	Izlanuvchilar va sohaning yetakchi mutaxassislari o'rtasida ta'lim dasturlari bo'yicha so'rovnomalar (intervyular, muhokamalar va izlanuvchilar fikrini o'rganishga qaratilgan boshqa tadbirlar) o'tkazish tartibi belgilangan
		So'rovnomalar ta'lim dasturining tashkiliy-boshqaruv, o'quv va ilmiy jarayonlari sifati bilan bog'liq savollarni (masalalarni) qamrab olgan
		So'rovnoma savollari (masalalari) va o'tkazish jarayonlari ilmiy-metodologik asoslangan**
		So'rovnoma natijalari bo'yicha muammolarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqilgan**
		Tahlil natijalari va amalga oshirilgan chora-tadbirlar yakunlaridan kelib chiqib, ta'lim dasturiga zarur o'zgartishlar kiritib boriladi**
		Izlanuvchilar so'rovnoma natijalari va ular asosida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida xabardor qilinadi**
<b>2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi</b>		

6	Manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim talabi va milliy malakalar ramkasi (bundan buyon matnda MMR deb yuritiladi) talablariga muvofiqligi	Ta'lim dasturini ishlab chiqish, tasdiqlash va qayta ko'rib chiqish bo'yicha tartib mavjud
		Ta'lim dasturini ishlab chiqish jarayonida ish beruvchilar, soha mutaxassislari va ilmiy rahbar (konsultant)lar ishtiroki ta'minlanib, mazkur jarayon tizimli yo'lga qo'yilgan
		Ta'lim dasturi maqsadlari, kutilgan ilmiy natijalari va kompetensiyalari aniq belgilangan hamda o'zaro uzviy bog'langan
		Ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan ilmiy natijalari MMR, davlat ta'lim talabi, kasbiy standart(lar) va (yoki) xalqaro ta'lim standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan
		Ta'lim dasturida sohaga oid dolzarb ilmiy, nazariy va amaliy bilimlar o'z aksini topgan
		Ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan ilmiy natijalari ta'lim tashkilotining strategik rejasi (missiyasi, strategiyasi) va akademik profiliga muvofiq ishlab chiqilgan

7	Ta'lim dasturini rivojlantirish bo'yicha yillik ustuvor yo'nalishlar ishlab chiqilgani, asosiy faoliyat samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI), zarur resurslar va mas'ullar bilan ta'minlangani	Ta'lim dasturini rivojlantirish bo'yicha yillik ustuvor yo'nalishlar rasmiy hujjat (reja yoki dastur) sifatida ishlab chiqilgan
		Yillik ustuvor yo'nalishlar bo'yicha aniq maqsad va vazifalar belgilab qo'yilgan
		Yillik ustuvor yo'nalishlar bo'yicha aniq maqsad va vazifalar uchun samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ishlab chiqilgan
		Ta'lim dasturini rivojlantirish bo'yicha yillik faoliyat natijalari tahlil qilinib, keyingi yil uchun taklif va tavsiyalar shakllantirilgan**
		Yillik ustuvor yo'nalishlar va KPI ijrosi bo'yicha hisobotlar ta'lim tashkiloti kollegial organida ko'rib chiqilib, tasdiqlangan**

8	Qabul parametrlari ta'lim tashkilotining tadqiqot va ilmiy rahbarlik salohiyati, jamiyatdagi ilmiy va ijtimoiy ehtiyojlar, mehnat bozori tahlili asosida shakllantirilgani	Qabul parametrlarini belgilashda mehnat bozori tahlillari va prognozlash ma'lumotlaridan foydalanilgan (oldingi faoliyat natijalari, ilmiy tadqiqot ishini himoya qilgan izlanuvchilarning natijalari)
		Qabul parametrlarini shakllantirishda tegishli ixtisosliklar bo'yicha tadqiqotlar olib borayotgan fan nomzodlari, falsafa doktorlari (PhD) va fan doktorlari salohiyati tahlil qilingan va hisobga olingan*
		Qabul parametrlarini belgilashda jamiyatning ilmiy va ijtimoiy ehtiyojlari inobatga olingan
		Qabul kvotalarini shakllantirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga amal qilingan
		Qabul natijalari tahlil qilinib, keyingi yil uchun qabul parametrlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan**

9	Ta'lim dasturi ilmiy-tadqiqot rejasida belgilangan davomiylik muddatida kutilayotgan tadqiqot natijalariga erishilishini ta'minlashga qaratilgani	Ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish bo'yicha yillik tadqiqot rejasida mavjud hamda maqsad va vazifalari aniq belgilangan
		Ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha ijro va natijalarni monitoring qilish tizimi mavjud
		Ilmiy-tadqiqot natijalari ilmiy maqolalar, monografiya, tezislar yoki patentlar ko'rinishida rasmiylashtirilgan**
		Tadqiqot natijalari amaliyotga joriy qilingan (fan, ta'lim, amaliyot yoki metodik ishlarda qo'llanilgan)**
		Ilmiy-tadqiqot faoliyati bo'yicha ilmiy rahbar (konsultant)lar tomonidan doimiy nazorat amalga oshirilgan**
		Tadqiqot ishlari natijasi bo'yicha kafedra/bo'lim yoki kollegial organ muhokamasi o'tkazilgan**
		Ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha ixtisoslikka mos ilmiy yutuqlar (grantlar, mukofotlar, natijalar) mavjud**

10	Amaldagi ta'lim dasturlarining tizimli ravishda monitoringi yuritilgani hamda uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilgani	Ta'lim dasturlarining samaradorligini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilgan**
		Ta'lim dasturi bo'yicha tizimli monitoring va tahlil jarayonlari ta'lim tashkiloti tomonidan belgilangan davriylikda izchil amalga oshiriladi**
		Monitoring va tahlil natijalari tadqiqot sifati bo'yicha ichki yig'ilishlarda muhokama qilingan va tegishli qarorlar qabul qilingan**
		Monitoring va tahlil natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar tizimli ravishda ishlab chiqiladi hamda mazkur chora-tadbirlarning ijro holati nazoratga olinadi**
		Ta'lim dasturining monitoringi va tahlil natijalari elektron axborot tizimga doimiy joylashtiriladi hamda ulardan ochiq foydalanish imkoniyati mavjud**

11	Ta'lim dasturining mazmunida o'qish jarayoni davomida tadqiqot faoliyatining ko'zda tutilgani va izlanuvchilarni tadqiqot faoliyatiga tayyorlashga yo'naltirilgani	Ilmiy izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirokini ta'minlovchi tadqiqot rejasi va ularni amalga oshirishning mexanizmlari ishlab chiqilgan
		Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun ilmiy rahbar (konsultant)lar tomonidan rahbarlik va maslahat tizimi yo'lga qo'yilgan
		Ilmiy izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlarini baholash va hisobot tizimi mavjud
		Ilmiy izlanuvchilar uchun ilmiy anjumanlar, konferensiyalar va seminarlarda ishtirok etish imkoniyati yaratilgan
		Ta'lim jarayonida tadqiqot metodologiyasi va ilmiy tahlil usullari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi**
		Ta'lim dasturida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish bo'yicha yillik tahliliy hisobotlar tayyorlanadi**
<b>3-bob. Tadqiqot jarayonini tashkil etish va tadqiqot natijalarini baholash yo'nalishi</b>		

12	Ta'lim dasturida izlanuvchilar faoliyatini baholash tartibining mavjudligi va baholash usullari belgilangan tadqiqot natijalariga qay darajada erishilganini aniqlashga yo'naltirilgani	Izlanuvchilar faoliyatini baholash jarayonlarini samarali tashkil etish uchun tartib va uni amalga oshirish mexanizm(lar)i ishlab chiqilgan
		Ilmiy rahbar (konsultant)lar tomonidan izlanuvchilar faoliyatining samaradorligini muntazam nazorat qilish va baholash tizimi yo'lga qo'yilgan
		Izlanuvchilarning yarim yillik va yil yakunidagi ilmiy faoliyati natijalari yuzasidan hisobot taqdim etish amaliyoti mavjud**
		Hisobot natijalari asosida ilmiy-tadqiqot samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar va chora-tadbirlar ishlab chiqilgan**
		Ilmiy ishlar natijalari (maqolalar, monografiya, konferensiya chiqishlari, patentlar) baholash tizimida inobatga olingan**
		Baholash natijalari asosida izlanuvchilarga individual tavsiyalar berib boriladi**

13	Ta'lim dasturida akademik erkinlik va halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi	Ta'lim tashkilotida akademik halollik, etika va erkinlikka oid tartib (qoidalar) va (yoki) yo'riqnomalar mavjud
		Plagiat va boshqa akademik halollik qoidalari buzilishining oldini olish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha antiplagiat tizimi mavjud
		Akademik halollik tamoyillari ta'lim dasturini ishlab chiqish, o'qitish, baholash va tadqiqot faoliyati jarayonlariga tizimli ravishda integratsiya qilinadi**
		Akademik halollik qoidalarini buzish holatlarini ko'rib chiqish va javobgarlik choralari belgilash bo'yicha shaffof tartib mavjud**
		Izlanuvchilar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar, innovatsion g'oyalar yoki ixtirolar bo'yicha mualliflik huquqi va intellektual mulk egaligi aniq belgilangan
		Izlanuvchilar, ilmiy rahbar (konsultant)lar uchun akademik halollik, etika, plagiat, sun'iy intellektdan to'g'ri foydalanish, mualliflik huquqi va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha muntazam ravishda treninglar (seminarlar, ma'ruzalar) tashkil etiladi**
		Akademik halollik, etika va erkinlik bo'yicha mas'ul shaxs yoki komissiya faoliyati tashkil etilgan**

14	Izlanuvchilarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi	Izlanuvchilarning baholash natijalari yuzasidan takliflari, fikr-mulohazalari va shikoyatlarini yig'ish, ko'rib chiqish va tahlil qilish, shuningdek ushbu masalalarni bajarish uchun mas'ul ijrochilarni belgilash bo'yicha tartib ishlab chiqilgan
		Ishlab chiqilgan tartibda shikoyat berish shakllari, muddatlari, ularni ko'rib chiqish tartibi va qaror qabul qilish mexanizmi belgilangan
		Takliflar, fikr-mulohazalar va shikoyatlar izlanuvchilar uchun qulay sharoitlarda va ularning ehtiyojlariga mos shakllar orqali qabul qilinadi hamda ularni ko'rib chiqish jarayoni shaffoflik, hisobdorlik va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik tamoyillariga asosan amalga oshiriladi**
		Izlanuvchilarning baholash jarayoni, natijalari bo'yicha shikoyatlari ta'lim tashkilotining apellyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi va tizimli ravishda tahlil qilinadi**
		Tahlil natijalari bo'yicha hisobotlar tayyorlanadi hamda baholash jarayonini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanadi, baholash tartibi va mezonlariga zarur o'zgartirishlar kiritib boriladi**
		<b>4-bob. Izlanuvchilar faoliyati yo'nalishi</b>

15	Ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani	Ta'lim dasturiga qabul qilish mezonlari va talablari aniq belgilangan, hujjat topshiruvchilar va barcha manfaatdor tomonlarga ochiq tarzda yetkazish mexanizmi mavjud
		Qabul jarayonlari va mezonlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq
		Qabul komissiyasi tarkibi va ish faoliyati bo'yicha ichki hujjat mavjud
		Qabul jarayoni va natijalari bo'yicha apellyatsiya va qayta ko'rib chiqish mexanizmi mavjud
		Ta'lim dasturiga qabul talablari izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot natijalari va boshqa tegishli ichki hamda tashqi mezonlar asosida muntazam ravishda tizimli qayta ko'rib chiqiladi va zarur hollarda yangilanadi**

16	Qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi	Qabul yo'nalishlari ta'lim tashkilotining moddiy-texnik bazasi va kadrlar imkoniyatlariga mos belgilangan*
		Ilmiy rahbar (konsultant)larning soni doktorantura ta'lim dasturiga qabul qilinadigan izlanuvchilar soniga nisbati qonunchilik hujjatlariga mos keladi
		Moliyaviy imkoniyatlardan (budjet, grantlar, kontrakt tushumlari) kelib chiqqan holda qabul parametrlari shakllantirilgan
		Qabul parametrlari ta'lim tashkilotining strategik rejasi (missiyasi, strategiyasi) va akademik profili bilan uyg'unlashtirilgan
		Qabul parametrlarini bajarilish holati bo'yicha har yili tahlil amalga oshiriladi hamda tahlil natijalari asosida qabul parametrlariga zarur o'zgartishlar kiritib boriladi**

17	Izlanuvchilarni o'qishga qabul qilish, o'qishdan chetlashtirish va o'qish muddatini uzaytirish tartibining belgilangani	Izlanuvchilar harakati bo'yicha ichki hujjat(lar) (qoidalar, tartib, nizom) o'qishga qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarga mos ravishda ishlab chiqilgan
		Izlanuvchilar harakatiga oid jarayonlar va qarorlar bo'yicha shikoyat berish imkoniyati mavjud
		Izlanuvchilar ularning harakati bo'yicha ichki hujjat(lar) (qoidalar, tartib, nizom), izlanuvchilar harakati jarayonlari hamda natijalari haqida xabardor qilinadi**
		Yakka tartibdagi rejasini belgilangan muddatda bajarmagan izlanuvchilar bilan ishlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilangan**
		O'qishga qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tegishli buyruq orqali rasmiylashtiriladi**

18	Izlanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash va ularga maslahat berish xizmatlarining mavjudligi	Izlanuvchilar uchun psixologik maslahat va yordam markazi mavjud
		Izlanuvchilarni ilmiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan
		Ilmiy mentorlik (akademik rahbarlik) tizimi joriy etilgan va samarali ishlaydi**
		Maslahat berish xizmatlaridan foydalanish va ushbu xizmatlarning samaradorligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar muntazam yig‘iladi va tahlil qilinadi**
		Izlanuvchilarning maslahat xizmatlariga bo‘lgan qoniqish darajasi muntazam o‘rganiladi va tizim shu asosda takomillashtiriladi**
<b>5-bob. Inson resurslari yo‘nalishi</b>		
19	Ilmiy rahbar va konsultantlarning ko‘nikma, malaka va ilmiy darajalarining ixtisoslikka mosligi	Ilmiy rahbar (konsultant)lar ixtisosliklar bo‘yicha mos ilmiy daraja va unvonlarga ega
		Ilmiy rahbar (konsultant)larning ixtisosliklari ta‘lim dasturining yo‘nalishiga muvofiq
		Ilmiy rahbar (konsultant)larning mos tadqiqot yo‘nalishi bo‘yicha yuqori impakt faktorli nufuzli ilmiy jurnallarda nashrlari mavjud**
		Ilmiy rahbar (konsultant)lar xorijiy hamda mahalliy malaka oshirish kurslarida, shuningdek boshqa ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etganlik to‘g‘risida sertifikat(ma‘lumot)larga ega**

20	Ta'lim dasturi yetarlicha mutaxassis va ma'muriy-boshqaruv xodimlari bilan ta'minlangani, ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga javob berishi	<p>Ta'lim dasturi bo'yicha mutaxassis va ma'muriy-boshqaruv xodimlari bilan ta'minlanganlik darajasi belgilangan shtat normativlariga javob beradi <i>(Bunda yangi ta'lim dasturi uchun mutaxassis va ma'muriy-boshqaruv xodimlari tarkibi bo'yicha aniq reja taqdim etilgan taqdirda mutaxassis va ma'muriy-boshqaruv xodimlari bilan amalda ta'minlanish talab etilmaydi)</i></p>
		<p>Ilmiy yordamchi kadrlar (laborant, metodist va boshqalar) soni ta'lim dasturlariga mos ta'minlangan <i>(Bunda yangi ta'lim dasturi uchun ilmiy yordamchi kadrlar tarkibi bo'yicha aniq reja taqdim etilgan taqdirda ilmiy yordamchi kadrlar bilan amalda ta'minlanish talab etilmaydi)</i></p>
		<p>Xodimlarni rag'batlantirish va lavozim o'sishi tizimi joriy etilgan**</p>
21	Ilmiy rahbar va konsultantlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi	<p>Ilmiy rahbar (konsultant)lar uchun mukofot va qo'shimcha haq to'lash tartibi mavjud</p>
		<p>Ilmiy rahbar (konsultant)lik faoliyati samaradorligini baholash tizimi mavjud</p>
		<p>Ilmiy faoliyatda faol bo'lgan xodimlar moddiy va ma'naviy rag'batlantiriladi**</p>

22	Xorijlik ilmiy rahbar va konsultantlarni jalb qilish imkoniyatlarining mavjudligi	Xorijiy ilmiy rahbar (konsultant)lar bilan tuzilgan shartnomalar mavjud**
		Xorijiy ilmiy rahbar (konsultant)lar ishtirokidagi ilmiy-tadqiqot ishlari mavjud**
		Xorijiy ilmiy tashkilotlar (tashkilot xodimlari) bilan qo'shma ilmiy loyihalar va tadqiqot natijalari mavjud**
		Xorijiy ilmiy rahbar (konsultant)lar tomonidan masofaviy maslahat berish tizimi yo'lga qo'yilgan
		Xorijiy ilmiy rahbar (konsultant)larni jalb qilish uchun huquqiy hamda moliyaviy asos mavjud
<b>6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi</b>		
23	Ixtisoslik xususiyatidan va izlanuvchilar sonidan kelib chiqib, tadqiqot sohasi bo'yicha ilmiy manbalarning mavjudligi va elektron resurslar bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani	Ilmiy kutubxona fondi barcha ixtisosliklarni qamrab olgan va doimiy yangilanib boriladi
		Elektron kutubxona va ma'lumotlar bazalari mavjud
		Ilmiy manbalarga izlanuvchilarning onlayn kirish imkoniyati mavjud
		Ilmiy adabiyotlar ro'yxatida xalqaro nashrlar ulushi qonunchilik hujjatlardagi talablarga mos
		Izlanuvchilarning ilmiy manbalardan foydalanish faolligi bo'yicha statistikasi yuritiladi**

24	Mahalliy hamda xalqaro axborot va ma'lumotlar bazasidan (Scopus, Web of Science yoki boshqa umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalari jurnallari) foydalanish imkoniyatlarining yaratilgani	Ta'lim tashkiloti xalqaro umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalariga rasmiy ravishda obuna bo'lgan
		Izlanuvchilarga xalqaro umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish bo'yicha imkoniyat yaratilgan
		Xalqaro bazalardan foydalanish bo'yicha o'quv seminarlari o'tkaziladi**
		Foydalanish statistikasi (izlanuvchi faolligi) mavjud va doimiy yuritiladi**
		Xalqaro ma'lumotlar bazalari bo'yicha ichki yo'riqnoma mavjud
25	Ilmiy-eksperimental laboratoriyalar bilan ta'minlanganlik darajasi, ularning zamonaviy asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalar bilan ta'minlangani va ulardan foydalanilishi holati	Ilmiy-eksperimental laboratoriyalardagi asbob-uskunalar va ularning soni mavjud barcha ixtisosliklariga mos keladi
		Asbob-uskunalarining zamonaviyligi, texnik holati va yaroqlilik muddatlari doimiy ravishda nazorat qilinadi va yangilanib boriladi
		Ilmiy-eksperimental laboratoriyalardan foydalanish grafigi va izlanuvchilar ishtiroki ta'minlangan
		Asbob-uskunalar, jihozlar va texnikalarning texnik pasportlari mavjud, texnik ko'rikdan o'tkazilgan, texnik xizmat ko'rsatilganlik (ta'mirlash, profilaktika) ishlari hujjatlashtirib boriladi**

26	Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan (bundan buyon matnda AKT deb yuritiladi) foydalanish imkoniyati yaratilgani	Ta'lim tashkiloti binolari va o'quv xonalari, shu jumladan yo'laklar, panduslar, liftlar, eshiklar va sanitariya xonalari nogironligi bo'lgan shaxslar (izlanuvchilar) uchun moslashtirilgan
		Maxsus o'quv materiallari (Brayl alifbosidagi kitoblar, ko'rgazmali materiallar), maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar mavjud
		Inklyuziv ta'lim uchun AKT, elektron resurslar, dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyati (audio-video resurslar, Brayl yozuvi alifbosi, subtitr va boshqalar) yaratilgan
		Imkoniyati cheklangan izlanuvchilar uchun psixologik maslahat xizmatlari faoliyati yo'lga qo'yilgan

Izoh:

1) mezonlarni majburiy va umumiy turlarga ajratish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi;

2) majburiy va umumiy indikatorlar "muvofiq" yoki "muvofiq emas" tarzida baholanadi;

3) majburiy va umumiy indikatorlar bo'yicha mezonni baholash mazkur izohning 4-kichik bandining talablarini hisobga olgan holda quyidagi tartibda aniqlanadi:

70 foiz va undan ortiq indikatorlar "muvofiq" deb baholansa – mezon "muvofiq";

50 foizdan 70 foizgacha indikatorlar "muvofiq" deb baholansa – mezon "qisman muvofiq";

50 foizgacha indikatorlar “muvofiq” deb baholansa – mezon “muvofiq emas” deb baholanadi;

4) mezon tarkibidagi mavjud majburiy indikator (majburiy indikatorlardan biri) “muvofiq emas” deb topilsa, umumiy natijadan qat’i nazar, ushbu mezon “muvofiq emas” deb baholanadi;

5) indikatorlarda nazarda tutilgan oliy ta’limdan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim va ilmiy tashkilotning ichki hujjatlarini (tartib, nizom, qoidalar, chora-tadbir rejasi, monitoring va tahlil natijalari) birlashtirish (unifikatsiya qilish) mumkin;

6)\*majburiy indikatorlar;

\*\*faqat amaldagi ta’lim dasturlari uchun foydalaniladigan umumiy indikatorlar.

**II bo‘lim. Oliy ta’limdan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim va ilmiy tashkilotlarni kompleks davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazishda baholash mezonlari bo‘yicha  
INDIKATORLAR**

T/r	Mezon	Indikator
<b>1-bob. Tashkiliy-boshqaruv faoliyati yo‘nalishi</b>		
1	Ta’lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va rejalashtirish, ta’lim sifatini ta’minlash uchun moliyaviy resurslarning maqsadli yo‘naltirilgani	<p>Ta’lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va tadqiqot sifatini ta’minlash maqsadida ta’lim tashkilotini rivojlantirish rejasiga (strategik reja, missiya, strategiya) muvofiq moliyaviy mablag‘larni boshqarish va taqsimlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan</p> <p>Moliyaviy resurslar ustuvor yo‘nalishlar (infratuzilma, metodik ta’minot, kadrlar malakasi, raqamli texnologiyalar)ga muvofiq taqsimlangan</p> <p>Moliyaviy rejalar ijrosi bo‘yicha tizimli monitoring, tahlil va ichki nazorat tizimi yo‘lga qo‘yilgan hamda ularning natijalari asosida tegishli qarorlar qabul qilingan</p>

		<p>Moliyaviy boshqaruv tizimi orqali ta'lim sifat ko'rsatkichlari barqaror ravishda yaxshilangan</p> <p>Mablag'lardan foydalanish jarayoni shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari asosida tashkil etilgan hamda xarajatlar samaradorligi, natijadorligi muntazam tahlil qilingan</p>
2	<p>Ilmiy kengashlar (ilmiy kengash, kengash, ilmiy-texnik kengash, ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash va boshqalar) (bundan buyon matnda kollegial organ deb yuritiladi) tashkil etilgani va uning faoliyati samaradorligi</p>	<p>Ta'lim tashkilotida kollegial organning mavjudligi, ushbu kollegial organlarni tashkil etish asoslari, maqsadlari va vazifalari aniq belgilangan hamda ularning tadqiqot sifatini ta'minlashdagi ishtiroki ta'minlangan</p> <p>Kollegial organ qarorlarini qabul qilish jarayonida izlanuvchilar, ilmiy rahbar (konsultant)lar, ish beruvchilar, soha mutaxassislari va bitiruvchilarning (bundan buyon matnda manfaatdor tomonlar deb yuritiladi) taklif va fikr-mulohazalari inobatga olingan</p> <p>Kollegial organ yig'ilishlari belgilangan reja asosida muntazam o'tkaziladi</p> <p>Yig'ilishlarda ta'lim va/yoki ilmiy faoliyatga oid dolzarb masalalar ko'rib chiqiladi</p> <p>Kollegial organ qarorlari va ushbu qarorlar yuzasidan qabul qilingan chora-tadbirlar rejasi ijrosi bo'yicha yagona monitoring tizimi joriy etilgan hamda monitoring natijalar muntazam tahlil qilingan</p>
3	<p>Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasining ishlab chiqilgani va uni</p>	<p>Ta'lim tashkilotining rivojlantirish rejasi (strategik reja, missiya, strategiya) sohaning ustuvor yo'nalishlari, mehnat</p>

	<p>amalga oshirish uchun resurslar mavjudligi, shuningdek, uning jamoatchilik uchun ochiqligi va monitoringi yuritilgani</p>	<p>bozori tahlillari va kadrlar tayyorlash maqsadi bilan uyg'un holda ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan</p>
		<p>Rivojlantirish rejasini samarali amalga oshirish uchun ta'lim tashkilotidagi barcha tarkibiy bo'linmalarning yillik ish rejalari tasdiqlangan</p>
		<p>Rivojlantirish rejasini amalga oshirish uchun ta'lim tashkilotining barcha tarkibiy bo'linmalarini yillik ish rejalari ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan</p>
		<p>Rivojlantirish rejasini amalga oshirish uchun moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari ajratilgan, ularning taqsimoti rivojlantirish rejasining maqsadlari va vazifalari bilan uyg'unlashtirilgan</p>
		<p>Ta'lim tashkilotining rivojlantirish rejasini bajarilish holati va natijalari ochiq hamda shaffof tarzda jamoatchilikka muntazam taqdim etilgan</p>
		<p>Ta'lim tashkilotining rivojlantirish rejasini muntazam tahlillar, monitoring natijalari, manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari va takliflari asosida takomillashtirish choralari ko'rilgan</p>
<p>4</p>	<p>Ta'lim tashkilotining hudud va respublikaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasi</p>	<p>Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini rivojlantirish yo'nalishlarida tashkilotlar, korxonalar va muassasalar bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan</p>
		<p>Madaniy-ma'rifiy va ilmiy tadbirlar (festivallar, ko'rgazmalar, anjumanlar va boshqalar) tashkil etilgan</p>
		<p>Ta'lim tashkiloti tashabbusi bilan hudud yoki jamoatchilik manfaatiga xizmat</p>

		<p>qiluvchi loyihalar amalga oshirilgan</p> <p>Ta'lim tashkiloti ilmiy faoliyati natijalari mahalliy yoki milliy OAV orqali yoritilgan</p> <p>Jamoatchilik bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy va ilmiy tadbirlarning natijalari tahlil qilingan</p>
5	<p>Tadqiqot jarayonlarini boshqarish hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha ochiq axborot tizimining (bundan buyon matnda axborot tizimi deb yuritiladi) mavjudligi va ushbu tizimning ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilingani</p>	<p>Ta'lim tashkilotida ilmiy faoliyatni boshqarish, monitoring qilish va nazoratni amalga oshirish uchun axborot tizimi (HEMIS, LMS, elektron jurnal, boshqaruv platformasi va boshqalar) joriy etilgan*</p> <p>O'zaro ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yish maqsadida axborot tizimi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligining axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan</p> <p>Axborot tizimini texnik qo'llab-quvvatlash va axborot xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rilgan hamda axborot tizimida foydalanuvchilarning samarali va qulay ishlay olishi ta'minlagan</p> <p>Axborot tizimi orqali o'quv va ilmiy faoliyatni rejalashtirish, monitoring va hisobot ishlari yuritilgan, ma'lumotlar asosida yillik tahliliy hisobotlar tayyorlangan va kollegial organ yig'ilishlarida muhokama qilingan</p> <p>Axborot tizimining samaradorligi, ma'lumotlar bilan ishlash jarayonlari va integratsiya holati bo'yicha doimiy monitoring tizimi amalga oshirilgan</p>

		hamda aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilgan
6	Ta'lim tashkilotini xalqarolashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilgani	Xorijiy ta'lim tashkilotlari, shuningdek nufuzli xalqaro institutlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan
		Ta'lim tashkilotida qo'shma doktorantura ta'lim dasturlari, ilmiy loyihalar yoki ilmiy nashrlar amalga oshirilgan
		Ilmiy xodimlar, izlanuvchilar xorijda o'z sohalari bo'yicha yetakchi xorijiy ta'lim va/yoki ilmiy tashkilotlarda malaka oshirish, tajriba almashish va stajirovka dasturlarida ishtirok etgan
		Tadqiqot jarayonlariga tegishli sohalar bo'yicha yuqori malakaga ega xorijiy mutaxassislar jalb etilgan hamda ularning ilmiy faoliyatdagi ishtiroki tadqiqot sifatini oshirishga xizmat qilgan
		Xalqaro hamkorlik natijasida ilmiy-tadqiqot faoliyati va ta'lim dasturlarining mazmuni takomillashtirilgan
		Tahlillar natijasida samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlanib, xalqaro hamkorlik faoliyati qayta ko'rib chiqilgan va manfaatli yo'nalishlarda rivojlantirilgan
<b>2-bob. Tadqiqot sifatini ta'minlash yo'nalishi</b>		
7	Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda ta'lim sifatini ichki ta'minlashning yo'lga qo'yilgani	Tadqiqot sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligini aniqlash bo'yicha baholash tartibi manfaatdor tomonlar ishtirokida ishlab chiqilgan va ijroga yo'naltirilgan

		<p>Tadqiqot sifatini ichki ta'minlash tizimi faoliyatida ilmiy rahbar (konsultant)lar, izlanuvchilar, ish beruvchilar, bitiruvchilar va jamoatchilik vakillarining ishtiroki ta'lim tashkilotining ichki hujjatlari bilan tartibga solingan</p>
		<p>Tadqiqot sifatini ichki ta'minlash jarayonida manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangan hamda ularning ishtirokida muntazam tadbirlar (uchrashuvlar, seminar-treninglar, muhokamalar, anjumanlar so'rovnomalar, intervyular, fokus-guruhlar va boshqalar) o'tkazilgan</p>
		<p>Yig'ilgan ma'lumotlar, shu jumladan manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari va (yoki) ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi asosida tadqiqot sifatini ichki ta'minlash tizimi, ta'lim dasturlari va jarayoniga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan hamda muntazam takomillashtirilgan</p>
		<p>Olingan tavsiyalar asosida tadqiqot sifatini ichki ta'minlash tizimi, ta'lim dasturlariga tegishli o'zgartirish va takomillashtirishlar kiritilgan</p>
<p>8</p>	<p>Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilib borilgani, izlanuvchilar faoliyati samaradorligining monitoringi yuritilgani va natijalar asosida takomillashtirish choralari ko'rilgani</p>	<p>Ta'lim tashkilotida ichki ta'lim sifati auditini amalga oshirishga mas'ul ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi yoki shtati joriy etilgan</p> <p>Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligini aniqlash bo'yicha baholash tartibi amaliyotga joriy etilgan</p> <p>Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi faoliyati muntazam ravishda (yillik yoki</p>

		<p>yarim yillik) monitoring qilingan hamda tahlillar asosida baholab borilgan</p> <p>Monitoring va tahlil natijalari kollegial organ yig'ilishlarida muhokama qilingan hamda jamoatchilik va manfaatdor tomonlarga yetkazilgan</p> <p>Monitoring va tahlil natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan</p> <p>Aniqlangan muammo va kamchiliklar chora-tadbirlar rejasiga muvofiq o'z vaqtida bartaraf etilgan</p>
9	<p>Ta'lim tashkilotida akademik halollik va erkinlik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi</p>	<p>Ta'lim tashkilotida akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid tartib (qoidalar) va (yoki) yo'riqnoma(lar) mavjud</p> <p>Akademik halollik tamoyillari ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, o'qitish, baholash va tadqiqot faoliyati jarayonlariga tizimli ravishda integratsiya qilingan</p> <p>Plagiat va boshqa akademik halollik qoidalari buzilishini oldini olish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha antiplagiat tizimi va tashkiliy choralar joriy etilgan*</p> <p>Akademik halollik qoidalarini buzish holatlarini ko'rib chiqish va javobgarlik choralari belgilash bo'yicha shaffof tartib mavjud</p>

		<p>Izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar akademik halollik va etika qoidalari bilan tanishtirilgan</p>
		<p>Izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar uchun akademik halollik, etika, plagiat, sun'iy intellektdan to'g'ri foydalanish, mualliflik huquqi va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha muntazam ravishda treninglar (seminarlar, ma'ruzalar) tashkil etilgan</p>
		<p>Izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar, innovatsion g'oyalar, ixtirolar va boshqa intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar himoya qilingan</p>
		<p>Akademik halollik tizimining samaradorligi doimiy tahlil qilingan hamda uni takomillashtirish bo'yicha amaliy choralar ko'rilgan</p>
10	<p>Dissertatsiya ishi himoyasi uchun mavjud ilmiy kengashlar faoliyati, ularning tarkibiy tuzilishi, ish tartibi va qabul qilingan qarorlarining ilmiy-huquqiy asoslangani</p>	<p>Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tomonidan tasdiqlangan va ro'yxatga olingan</p>
		<p>Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash tarkibi fan sohalari bo'yicha malakali mutaxassislardan shakllantirilgan</p>
		<p>Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash faoliyati belgilangan nizom va reglament asosida amalga oshiriladi</p>
		<p>Dissertatsiyalar himoyasi ochiqlik va ilmiy halollik prinsiplariga muvofiq o'tkaziladi</p>
		<p>Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash tomonidan qabul qilingan qarorlar ilmiy va</p>

		huquqiy jihatdan asoslangan
		Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash faoliyati natijalari bo'yicha hisobotlar yuritiladi va OAKga taqdim etiladi
<b>3-bob. Tadqiqotchilar faoliyati yo'nalishi</b>		
11	Qabul parametrlari ilmiy-tadqiqotlar uchun mavjud mablag'lar, tadqiqot loyihalari yoki boshqa moliyalashtirish manbalari imkoniyatlarini inobatga olgan holda belgilangani	<p>Qabul parametrlari (izlanuvchilar soni, ixtisosliklar kesimidagi kvotalar va boshqalar) ta'lim tashkilotining auditoriyalari, maxsus xonalar, laboratoriyalari, amaliyot bazalari, texnikaviy jihozlanishi hamda ta'lim, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy va sog'lomlashtirish faoliyatini ta'lim dasturlarida belgilangan maqsadlarni amalga oshirish imkonini beradigan infratuzilma quvvatiga mos ravishda belgilangan*</p> <p>Qabul parametrlari mehnat bozori ehtiyojlari, ustuvor tadqiqot yo'nalishlari, amaliyot bazalari va ilmiy salohiyat bilan uyg'un holda shakllantirilgan</p> <p>Qabul parametrlari ta'lim tashkilotining rivojlantirish rejasi (strategik rejasi, missiyasi, strategiyasi) va akademik profili bilan uyg'unlashtirilgan</p> <p>Qabul parametrlari ilmiy-tadqiqotlar, grantlar va tashqi moliyalashtirish manbalari bilan uzviy bog'langan holda rejalashtirilgan</p> <p>Qabul jarayonlarini tashkil etish hamda qabul parametrlari bajarilishi bo'yicha muntazam monitoring olib boriladi</p> <p>Qabul parametrlarini bajarilish holati bo'yicha har yili tahlil amalga oshirilgan hamda tahlil natijalari asosida qabul</p>

		parametrlariga zarur o'zgartirishlar kiritib borilgan
12	Izlanuvchilarni o'qishga qabul qilish, o'qishdan chetlashtirish va o'qish muddatini uzaytirish belgilangan tartib-qoidalar asosida to'g'ri tashkil qilingani hamda shaffof va adolatli amalga oshirilgani	Izlanuvchilarni o'qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari, baholash usullari va qabul komissiyasi faoliyati belgilangan va hujjatlashtirilgan
		Izlanuvchilarni o'qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari, baholash usullari va qabul komissiyasi faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq
		Korrupsiyani oldini olish, manfaatlar to'qnashuvi xavfini kamaytirish va baholashning xolisligini ta'minlovchi raqamlashtirilgan tizim joriy etilgan
		Qabul natijalari bo'yicha apellyatsiya komissiyasiga kelib tushgan arizalar rasmiylashtirilgan, ko'rib chiqilgan va ularning ijrosi nazoratga olingan
		Qabul jarayoni doimiy ravishda nazorat va tahlil qilingan hamda tahlil natijalari asosida qabul jarayonini takomillashtirish choralari ko'rilgan
13	Izlanuvchilarning belgilangan talablar asosida dissertatsiya ishini tayyorlashning yakka tartibdagi rejasi, ixtisoslik bo'yicha nazariy-metodologik dasturi ishlab chiqilgani va tasdiqlangani	Izlanuvchilarning dissertatsiya ishini tayyorlash bo'yicha yakka tartibdagi rejasi ishlab chiqilgan hamda ilmiy rahbar (konsultant) va ta'lim tashkiloti rahbariyati tomonidan tasdiqlangan*
		Ixtisoslik bo'yicha nazariy-metodologik dastur ishlab chiqilgan va tasdiqlangan hamda vazifalarning bajarilishi muntazam monitoring qilinadi

		<p>Izlanuvchilarning dissertatsiya ishlari bo'yicha oraliq va yakuniy hisobotlar topshirilib boriladi</p>
		<p>Dissertatsiya ishini tayyorlash jarayonida ilmiy seminarlar va muhokamalar tashkil etilgan</p>
		<p>Izlanuvchilarning ilmiy faoliyati natijalari ilmiy rahbar (konsultant) va mas'ul bo'limlar tomonidan monitoring qilinadi hamda rasmiy ravishda hujjatlashtiriladi</p>
14	<p>Respublika va xorijiy mamlakatlardagi ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish sektori bilan akademik mobillikni yo'lga qo'yilgani</p>	<p>Respublika va xorijiy mamlakatlardagi ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish sektorlari bilan akademik mobillikni tartibga soluvchi ichki tartib mavjud</p>
		<p>Respublika va xorijiy mamlakatlardagi ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish sektorlari bilan akademik mobillikni amalga oshirish bo'yicha kelishuv shartnomalari (memorandumlar va hamkorlik bitimlari) tuzilgan</p>
		<p>Akademik mobillikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tarkibiy bo'linma tashkil etilgan va (yoki) mas'ul ijrochi(lar) belgilangan</p>
		<p>Akademik mobillik jarayonlari milliy va xalqaro akademik mobillik talablari asosida amalga oshirilgan</p>
		<p>Ilmiy rahbar (konsultant)lar va izlanuvchilarning akademik mobillik loyihalarida, shu jumladan hamkorlik dasturlari asosida yo'lga qo'yilgan loyihalarda ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlar yaratilgan</p>

		Akademik mobillikda ishtirok etgan ilmiy rahbar (konsultant)lar va izlanuvchilar ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi, ta'lim dasturlari va o'quv hamda ilmiy jarayonni yaxshilashga qo'shayotgan hissasi tizimli tahlil qilingan
<b>4-bob. Tadqiqot jarayonini tashkil etish yo'nalishi</b>		
15	Ilmiy rahbarlar (konsultant) faoliyati belgilangan talab asosida ishlab chiqilgani, tasdiqlangani va yuritilishi	Ilmiy rahbar (konsultant)larni tayinlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq
		Ilmiy rahbar (konsultant)lar zimmasiga yuklatilgan vazifalar aniq belgilangan, ularning faoliyatini baholash va samaradorligini monitoring qilish tizimi yo'lga qo'yilgan
		Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatining natijalari bo'yicha tahlil va takliflar tayyorlanadi
		Ilmiy rahbar (konsultant)lar uchun malaka oshirish va uslubiy ko'mak tizimi yo'lga qo'yilgan
16	Dissertatsiya mavzularining jamiyat, iqtisodiyot va sanoatdagi dolzarb muammolarning yechimiga qaratilgani, olingan ilmiy natijalarning amaliyotga joriy etilgani	Dissertatsiya mavzulari jamiyat, iqtisodiyot va sanoatdagi dolzarb muammolarning yechimi va amaliy ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirilgan
		Dissertatsiya mavzulari ta'lim tashkiloti tadqiqot yo'nalishlariga muvofiq va manfaatdor tashkilotlar va ishlab chiqarish sohasi bilan kelishilgan holda tanlangan
		Ilmiy-tadqiqot natijalari amaliyotda qo'llanilgan yoki joriy etilgan

		(dalolatnoma, ma'lumotnoma yoki kelishuv hujjatlari rasmiylashtirilgan)
		Dissertatsiya mavzulari bo'yicha olingan natijalar ilmiy va amaliy konferensiyalarda taqdim etilgan
		Ilmiy natijalar bo'yicha patent, monografiya, mualliflik guvohnomasi yoki litsenziya olingan (tegishli sohalar bo'yicha)
17	Ilmiy rahbarlar (konsultant) yuklamalarining belgilangan normalariga muvofiq ajratilgani	Ilmiy rahbar (konsultant)lar yuklamalarini belgilash tartibi ichki hujjat(lar) (qoidalar, tartib, nizom) bilan tartibga solingan
		Har bir ilmiy rahbar (konsultant)ga yuklama ajratishda belgilangan normativlar (izlanuvchilar soni, vaqt me'yorlari va vazifalar hajmi) inobatga olingan
		Ilmiy rahbar (konsultant)lik yuklamasi izlanuvchilar soniga mutanosib ravishda aniq hisoblangan
		Ilmiy rahbar (konsultant)lar yuklamasi to'g'risidagi ma'lumotlar elektron yoki qog'oz shaklida hisobga olinadi
18	Izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot natijalari asosida chop etilgan maqola, tezis va intellektual mulk huquqini himoya qiluvchi hujjatlarga egaligi	Ilmiy ish natijasiga doir intellektual mulk huquqini himoya qiluvchi hujjatlar (patent, guvohnoma va boshqalar) olingan
		Chop etilgan ishlar va patentlar bo'yicha ma'lumotlar ta'lim tashkilotining elektron axborot bazasiga kiritilgan
		Izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot natijalari (ilmiy yangilik, amaliy ahamiyat va ilmiy nashrlari) ilmiy daraja talablariga

		muvofigligi jihatidan muhokama qilingan va baholangan.
19	Ta'lim tashkilotida tadqiqotlar natijadorligi tahlillarining olib borilgani va natijalarining muhokama qilingani	Ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligi bo'yicha yillik yoki yarim yillik tahliliy hisobotlarni yurituvchi monitoring tizimi mavjud
		Tahlil natijalari kollegial organ yoki maxsus komissiya yig'ilishlarida muhokama qilingan
		Muhokama natijalari asosida ilmiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan
		Ilmiy faoliyat natijalari tahlili bo'yicha hisobotlar ma'lumotlar bazasi yoki axborot tizimida saqlanadi
20	Izlanuvchilar belgilangan shaxsiy ish rejalarining o'rnatilgan tartibda bajarilishi monitoring qilib borilgani	Yakka tartibdagi rejalarining bajarilishi bo'yicha monitoring grafigi va nazorat tizimi yo'lga qo'yilgan
		Ilmiy rahbar (konsultant)lar tomonidan izlanuvchilar faoliyati bo'yicha davriy hisobotlar taqdim etiladi
		Izlanuvchilarning yakka tartibdagi rejasi bajarilishi natijalari bo'yicha yig'ilishlar yoki muhokamalar o'tkaziladi
		Monitoring natijalari asosida xulosalar va tavsiyalar tayyorlanadi
		Bajarilmagan vazifalar bo'yicha choralar belgilangan va ijro nazorati amalga oshiriladi
<b>5-bob. Inson resurslari yo'nalishi</b>		
21	Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatining belgilangan talablarga muvofiqligi va ularning	Har bir ilmiy rahbar (konsultant) bo'yicha rahbarlik qilgan izlanuvchilar ro'yxati shakllantirilgan

	<p>rahbarligida so'nggi uch yilda bitirgan izlanuvchilarning o'z vaqtida himoya qilganlari salmog'i</p>	<p>Ilmiy rahbar (konsultant)lar kesimida izlanuvchilarning so'nggi uch yildagi himoya qilganlik hisoboti yuritilgan</p> <p>Izlanuvchilardan belgilangan muddatlarda himoya qilganlar salmog'i hisoblangan</p> <p>Ilmiy rahbar (konsultant)lik samaradorligi bo'yicha tahlil yo'lga qo'yilgan</p> <p>Ilmiy rahbar (konsultant)lik faoliyati natijalari kollegial organning yig'ilishlarida muhokama qilingan</p>
<p>22</p>	<p>Ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan fan doktorlarining ilmiy rahbarlik (konsultantlik)ka jalb etilgani</p>	<p>Ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan fan doktorlarning ixtisosliklar kesimidagi ilmiy rahbar (konsultant)likka jalb etilgan</p> <p>Ilmiy rahbar (konsultant) sifatida faoliyat yuritayotgan fan doktorlari va izlanuvchilarning ixtisosliklari o'rtasidagi muvofiqlik ta'minlangan</p> <p>Fan doktorlarining ilmiy rahbar (konsultant)lik faoliyati natijalari bo'yicha tahliliy hisobot yuritilgan</p>
<p>23</p>	<p>Ilmiy rahbar (konsultant)lar tarkibining sifat ko'rsatkichlari hamda ularning ilmiy-tashkiliy faoliyati natijadorligi</p>	<p>Ilmiy rahbar (konsultant)larning so'nggi 3 yildagi chop etilgan ilmiy nashrlari ro'yxati yuritilgan</p> <p>Ilmiy rahbar (konsultant)larning amalga oshirgan ilmiy-loyihaviy va innovatsion ishlarda ishtiroki ta'minlangan</p> <p>Ilmiy rahbar (konsultant)lar ishtirokida ixtiro yoki seleksiya yutug'i (patent), shuningdek salmoqli ilmiy yangiliklar olgan va impakt-faktori tegishli darajada yuqori va xalqaro tizimga kirgan ilmiy</p>

		jurnallarda maqolalar (belgilangan talabda) bilan himoya qilingan ishlanmalar mavjud
		Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyati samaradorligi bo'yicha yillik baholash natijalari mavjud
24	Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyati samaradorligini baholash tizimining yo'lga qo'yilgani va shu asosida moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning tashkil etilgani	Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini baholash mezon va ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan
		Baholash jarayonini amalga oshirish tartibi (davriyligi, mas'ul tuzilmalar) belgilangan
		Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyati bo'yicha yillik yoki yarim yillik baholash natijalari mavjud
		Baholash natijalari asosida rag'batlantirish yoki takliflar kiritish amaliyoti yo'lga qo'yilgan
		Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyati samaradorligi bo'yicha moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi amalda yo'lga qo'yilgan
25	O'z vaqtida himoya qilmagan tadqiqotchilar bilan olib borilgan ishlar, nazorat tadbirlari va samaradorligi, ilmiy rahbar hamda maslahatchilarga choralar ko'rilgani	O'z vaqtida himoya qilmagan izlanuvchilar ro'yxati shakllantirilgan va ular bo'yicha tahlil yuritilgan
		O'z vaqtida himoya qilmagan izlanuvchilar bilan olib borilgan tushuntirish, maslahat va yordam tadbirlari mavjud
		Ilmiy rahbar (konsultant)larning mas'uliyatini baholash yoki ularga nisbatan choralar ko'rish amaliyoti mavjud
		Izlanuvchilar bilan individual reja yoki qayta ish rejasi ishlab chiqilgan va

		bajarilishi nazorat qilingan
		O‘z vaqtida himoya qilmagan izlanuvchilar ulushi yillar kesimida tahlil qilinib, samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlangan
<b>6-bob. Ilmiy-tadqiqot ishlari yo‘nalishi</b>		
26	Xalqaro miqyosda va respublika miqyosidagi ilmiy-metodik va amaliy anjumanlar o‘tkazilgani	Ta‘lim tashkiloti tomonidan xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlar o‘tkazilgan
		Anjumanlar yo‘nalishi va mavzulari ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlariga mos
		Anjumanlarda ilmiy izlanuvchilar, ilmiy rahbar (konsultant)lar, xodimlar, tizim tashkilotlari va xorijiy tashkilotlar ishtirok etgan
		Anjuman materiallari (tezislar, maqolalar to‘plami) nashr etilgan
		Anjumanlar natijasi bo‘yicha qabul qilingan qarorlar, tavsiyalar yoki amaliy takliflar mavjud
		Anjumanlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligiga ta’siri bo‘yicha tahlil yoki hisobot mavjud
27	Ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda korxonalar va tashkilotlar bilan tadqiqot natijalarini tatbiq etish yo‘nalishida hamkorlik yo‘lga qo‘yilgani	Tashkilotlar bilan hamkorlik bo‘yicha imzolangan shartnomalar va amal qilish muddatlari mavjud
		Amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalar mavjud
		Ilmiy natijalarni tatbiq etish bo‘yicha dalolatnomalar, bayonnomalar yoki tasdiqlovchi hujjatlar mavjud
		Hamkor tashkilotlar ishtirokida o‘tkazilgan ilmiy anjumanlar, seminarlar yoki taqdimotlar mavjud

28	<p>Ta'lim tashkilotining tegishli sohalarda mahalliy va xalqaro ilmiy grant tanlovlarida ishtirok etgani hamda uning natijadorligi</p>	<p>Ta'lim tashkiloti ilmiy rahbar (konsultant) va izlanuvchilari tomonidan mahalliy hamda xalqaro ilmiy grant tanlovlarida muntazam ishtirok etish imkoniyati yaratilgan</p> <p>Ta'lim tashkilotida ilmiy rahbar (konsultant) va izlanuvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha o'quv-seminarlar, treninglar va master-klasslar o'tkazilgan</p> <p>Davlat buyurtmasi asosida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot va "Startap" loyihalari mavjud</p> <p>Xalqaro ilmiy fondlar, dasturlar va donor tashkilotlari tomonidan moliyalashtirilgan grantlar mavjud</p> <p>Yutib olingan grantlar ta'lim tashkilotining ustuvor ilmiy yo'nalishlariga mos bo'lib, ularning natijalari ishlab chiqarish hamda o'quv jarayoniga joriy etilgan, shuningdek tegishli ta'lim dasturlarini rivojlantirish va takomillashtirish jarayoniga bevosita integratsiya qilingan</p> <p>Grant loyihalari doirasida ilmiy-tadqiqotlar olib borilib, ularning natijasida ilmiy maqolalar, patentlar, monografiyalar, yangi texnologiyalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va joriy etilgan</p>
29	<p>Mahalliy hamda xalqaro axborot va ma'lumotlar bazasidan (Scopus, Web of Science yoki boshqa umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan</p>	<p>Ta'lim tashkilotida indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyati mavjud</p> <p>Axborot resurslaridan, shu jumladan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish bo'yicha</p>

	ma'lumotlar bazalari (jurnallari) (bundan buyon matnda indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalari deb yuritiladi) foydalanish imkoniyatlarining yaratilgani	ko'rsatmalar (yo'riqnomalar) ishlab chiqilgan hamda o'quv-seminarlar va treninglar o'tkazilgan
		Izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar uchun indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyati (IP manzil, login, korporativ akkaunt yoki boshqalar) yaratilgan
		Ilmiy maqolalar indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalarida chop etilgan hamda chop etilgan ilmiy maqolalar va ularga iqtiboslik ko'rsatkichlari bo'yicha izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar kesimida tahlillar yuritilgan
		Ilmiy natijalari xalqaro darajada tan olinishini belgilovchi ko'rsatkich "Xirsh" indeksi (h-indeks) besh va undan yuqori bo'lgan izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar bo'yicha tahlillar yuritilgan hamda ularni moddiy rag'batlantirib borish tizimi joriy etilgan
		Axborot resurslaridan, shu jumladan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish samaradorligi bo'yicha tahlil olib borilgan va hisobotlar yuritilgan
30	Ilmiy-noshirlik faoliyatida ko'chirmachilikni aniqlash bo'yicha axborot tizimining joriy etilgani hamda doimiy hisobotlarning yuritilishi	Ilmiy-noshirlik faoliyatida antiplagiat tizimi joriy etilgan*
		Ko'chirmachilikni aniqlash bo'yicha ichki tartib (yo'riqnoma) ishlab chiqilgan va tasdiqlangan
		Barcha dissertatsiyalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar va tezislarni antiplagiat tizimi orqali tekshirish yo'lga qo'yilgan

		<p>Tekshiruv natijalari bo'yicha hisobotlar shakllantirilgan hamda ma'lumotlar bazasi yuritilgan</p> <p>Plagiat holatlarini tahlil qilish va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi mavjud</p> <p>Ilmiy ishlarning o'rtacha o'xshashlik foizi va tendensiyalari bo'yicha yillik hisobotlari tayyorlangan</p>
<b>7-bob. Tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishi</b>		
31	<p>Ta'lim xizmatlari yuzasidan tadqiqotchilarning fikr-mulohazalarini monitoring qilinishi va uning natijalari asosida takomillashtirish choralari ko'rilgani</p>	<p>Izlanuvchilar qoniqishini aniqlashga qaratilgan muntazam so'rovnomalar o'tkaziladi</p>
		<p>Fikr-mulohazalarni yig'ishda onlayn va an'anaviy usullardan foydalaniladi</p>
		<p>Izlanuvchilar fikrlarini tahlil qilish bo'yicha mas'ul komissiya yoki guruh faoliyati yo'lga qo'yilgan</p>
		<p>So'rov natijalari bo'yicha tahliliy hisobotlar tayyorlanadi va mas'ul bo'linma(lar)ga taqdim etiladi</p>
		<p>Fikr-mulohazalarni o'rganish natijalari tadqiqot jarayonlarini takomillashtirishda inobatga olinadi</p>
32	<p>Tadqiqotchilar uchun ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'yicha o'quv-metodologik treninglar tashkil etilgani</p>	<p>Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'yicha o'quv-metodologik treninglar rejasi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan</p>
		<p>Oxirgi 3 yilda izlanuvchilar uchun muntazam ravishda treninglar, seminarlar yoki master-klasslar o'tkazilgan</p>
		<p>Treninglarda izlanuvchilar, ilmiy rahbar (konsultant)lar va tashqi ekspertlar ishtirok etgan</p>

		Treninglar natijasida ilmiy-tadqiqot faoliyatida ijobiy natijalar qayd etilgani haqida tahliliy ma'lumotlar shakllantirilgan
33	Tadqiqotchilarga yetarli darajada tadqiqot olib borish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish xizmatlarining tashkil etilgani	Izlanuvchilarni ijtimoiy, akademik va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish xizmatlari mavjud
		Ijtimoiy himoya va moddiy yordam choralari tizimli amalga oshiriladi
		Izlanuvchilardan olingan fikr-mulohazalar asosida maslahat berish xizmatlari takomillashtirilgan
34	Tadqiqotchilarning huquqlarini himoya qilish va shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibining mavjudligi	Izlanuvchilar huquq va erkinliklarini ta'minlash tartibi belgilangan
		Shikoyat va murojaatlarni qabul qilish tizimi yo'lga qo'yilgan
		Murojaatlar va shikoyatlarni qabul qilish uchun ochiq axborot kanallari (onlayn/ an'anaviy) mavjud
		Izlanuvchilar murojaatlarini ko'rib chiqish muddati va tartibiga rioya qilinadi
		Shikoyatlar va murojaatlar bo'yicha qarorlar rasmiy ravishda hujjatlashtirilgan
<b>8-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi</b>		
35	Ilmiy-eksperimental laboratoriya va maydonlar bilan ta'minlanganlik darajasi, ularning zamonaviy asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallar va boshqalar bilan ta'minlangani va ulardan foydalanilishi holati	Ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun maxsus ilmiy-eksperimental laboratoriyalar va maydon (poligon)lar mavjud
		Laboratoriyalar va ilmiy maydon (poligon)lar asbob-uskunalar, jihozlar va inventarlar bilan jihozlangan*
		Asbob-uskunalarining texnik holati, kalibrovka va/yoki xizmat ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yilgan

		<p>Laboratoriyalardagi jihozlardan doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar foydalanish imkoniyati muntazam ta'minlangan</p>
		<p>Ilmiy faoliyat uchun xomashyo, material va reaktivlar bilan ta'minlash tizimi mavjud va muntazam yangilanib boriladi</p>
36	<p>Tadqiqot olib borish uchun zarur bo'lgan amaliyot bazalari va laboratoriyalari mavjudligi yoki sanoat hamkorlari va boshqa ta'lim tashkilotlari bazalaridan foydalanish yo'lga qo'yilgani</p>	<p>Ilmiy-tadqiqotlar uchun zarur baza va infratuzilma mavjud</p>
		<p>Ixtisosliklarga mos laboratoriyalar faoliyat ko'rsatadi</p>
		<p>Laboratoriya jihozlari ishchi holatda va doimiy yangilanib boriladi</p>
		<p>Ilmiy-tadqiqotlar va stajirovkalar uchun sanoat hamkorlari bilan shartnomalar qilingan</p>
		<p>Tadqiqot natijalarining tahlillari ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun qo'llaniladi</p>
37	<p>Ixtisoslik xususiyatidan va izlanuvchilar sonidan kelib chiqib tadqiqot sohasi bo'yicha ilmiy manbalarning mavjudligi va elektron resurslar bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani</p>	<p>Ixtisosliklar bo'yicha zamonaviy ilmiy manbalar fondi mavjud</p>
		<p>Izlanuvchilar uchun ilmiy jurnallar, dissertatsiyalar va statistik ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati yaratilgan</p>
		<p>Ta'lim tashkilotida ilmiy elektron va/yoki an'anaviy kutubxona faoliyat ko'rsatadi</p>
		<p>Ilmiy manbalar va elektron resurslar doimiy yangilanib boriladi va izlanuvchilar ehtiyojiga moslashtirilgan</p>
		<p>Izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar tomonidan elektron</p>

		bazalardan foydalanishning statistik tahlili yuritiladi
		Axborot-ta'lim muhitida foydalanuvchilar uchun yo'riqnoma va qo'llanmalar ishlab chiqilgan hamda amalda qo'llaniladi
38	Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani	Ta'lim tashkilotida pandus, lift va maxsus hojatxonalar mavjud
		Ta'lim tashkilotiga kirish va harakatlanish qulayligi ta'minlangan
		Auditoriyalar imkoniyati cheklanganlar uchun maxsus uskunalar bilan jihozlangan
		Ta'lim tashkilotida maxsus o'quv materiallari (brayl yoki audio materiallar) mavjud
		Maxsus axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda yordamchi vositalari joriy etilgan
		Imkoniyati cheklangan izlanuvchilar uchun individual ta'lim olish rejasi tuzilgan

*Izoh:*

1) mezonlarni majburiy va umumiy turlarga ajratish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi;

2) majburiy va umumiy indikatorlar "muvofiq" yoki "muvofiq emas" tarzida baholanadi;

3) majburiy va umumiy indikatorlar bo'yicha mezonni baholash mazkur izohning 4-kichik bandining talablarini hisobga olgan holda quyidagi tartibda aniqlanadi:

70 foiz va undan ortiq indikatorlar "muvofiq" deb baholansa – mezon "muvofiq";

50 foizdan 70 foizgacha indikatorlar “muvofiq” deb baholansa – mezon “qisman muvofiq”;

50 foizgacha indikatorlar “muvofiq” deb baholansa – mezon “muvofiq emas” deb baholanadi;

4) mezon tarkibidagi mavjud majburiy indikator (majburiy indikatorlardan biri) “muvofiq emas” deb topilsa, umumiy natijadan qat’i nazar, ushbu mezon “muvofiq emas” deb baholanadi;

5) indikatorlarda nazarda tutilgan oliy ta’limdan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim va ilmiy tashkilotning ichki hujjatlarini (tartib, nizom, qoidalar, yo‘riqnoma, chora-tadbirlar, monitoring va tahlil natijalari) birlashtirish (unifikatsiya qilish) mumkin;

6)\*majburiy indikatorlar.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3154-3  
2026 - yil 09 - Yanvar

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI BOJXONA QO'MITASINING QARORI

**“Tovarlarni bojxona ko‘zdan kechiruvi va bojxona ko‘rigidan o‘tkazishda hamda namuna va (yoki) sinamalar olishda bojxona tartib-taomillarini amalga oshirish to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi qaror, shuningdek unga o‘zgartirish va qo‘shimchalarni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-noyabrdagi 700-son “Bojxona sohasidagi ayrim tartib-taomillarni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi qaror qiladi:

1. Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.
2. Mazkur qaror 2026-yil 8-fevraldan e‘tiboran kuchga kiradi.

Rais  
2025-yil 29-dekabr  
1-son



MAVLONOV AKMALXUJA  
YUSUPOVICH

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi  
Bojxona qo'mitasining 2025-yil  
29-dekabrda 1-son qaroriga  
ILOVA

**O'z kuchini yo'qotgan deb topilayotgan idoraviy normativ-huquqiy  
hujjatlar RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2019-yil 20-fevraldagi 01-02/12-7-son "Tovarlarni bojxona ko'zdan kechiruvi va bojxona ko'rigidan o'tkazishda hamda namuna va (yoki) sinamalar olishda bojxona tartib-taomillarini amalga oshirish to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 3154, 2019-yil 19-aprel) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2019-y., 10/19/3154/2972-son).
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2020-yil 9-sentabrdagi 01-02/12-44-son "Tovarlarni bojxona ko'zdan kechiruvi va bojxona ko'rigidan o'tkazishda hamda namuna va (yoki) sinamalar olishda bojxona tartib-taomillarini amalga oshirish to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 3154-1, 2020-yil 13-oktabr) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.10.2020-y., 10/20/3154-1/1380-son).
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2022-yil 16-martdagi 12/05-22-00569-son "Tovarlarni bojxona ko'zdan kechiruvi va bojxona ko'rigidan o'tkazishda hamda namuna va (yoki) sinamalar olishda bojxona tartib-taomillarini amalga oshirish to'g'risidagi yo'riqnomaga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 3154-2, 2022-yil 25-mart) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.03.2022-y., 10/22/3154-2/0239-son).
4. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2023-yil 23-iyundagi 41-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va Moliya vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi buyruqqa (ro'yxat raqami 3447, 2023-yil 14-iyul) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.07.2023-y., 10/23/3447/0484-son) ilovaning 6-bandi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3749  
2026 - yil 09 - Yanvar

## ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI SOғLIҚNI SAҚLASH VAZIRINING BUYRUGHI

**Ўзбекистон Республикасида вақтинчалик танқислиги юзага келган дори воситалари ва тиббий жиҳозларни давлат рўйхатидан ўтказмасдан мажбурий сертификатлаштириш шarti билан тиббиёт амалиётида қўллаш ва олиб киришга рухсат бериш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 19 августдаги ПФ–137-сон “Дори воситалари ва тиббий жиҳозлар муомаласини тартибга солишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармониға мувофиқ буюраман:

1. Ўзбекистон Республикасида вақтинчалик танқислиги юзага келган дори воситалари ва тиббий жиҳозларни давлат рўйхатидан ўтказмасдан мажбурий сертификатлаштириш шarti билан тиббиёт амалиётида қўллаш ва олиб киришга рухсат бериш тартиби тўғрисидаги низом иловаға мувофиқ тасдиқлансин.

2. Мазкур буйруқ Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Божхона қўмитаси, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича вакил, Ўзбекистон Республикаси Савдо саноат палатаси билан келишилган.

3. Мазкур буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучға киради.

Vazir  
05-Yanvar 2026-yil  
24-son



XUDAYAROV ASILBEK  
ANVAROVICH

Kelishildi:

Rais  
20-Dekabr 2025-yil



MAVLONOV AKMALXUJA  
YUSUPOVICH

Vakil o'rinbosari  
16-Dekabr 2025-yil



URUNOV JAMSHID  
OLIMOVICH

Rais  
10-Dekabr 2025-yil



VAXABOV DAVRON  
ABDUJALALOVICH

Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазирининг  
2026 йил 5 январдаги 24-сон буйруғига  
ИЛОВА

**Ўзбекистон Республикасида вақтинчалик танқислиги юзага  
келган дори воситалари ва тиббий жиҳозларни давлат рўйхатидан  
ўтказмасдан мажбурий сертификатлаштириш шарти билан  
тиббиёт амалиётида қўллаш ва олиб киришга рухсат бериш  
тартиби тўғрисидаги  
НИЗОМ**

Мазкур Низом Ўзбекистон Республикасида вақтинчалик танқислиги юзага келган дори воситалари ва тиббий жиҳозларни давлат рўйхатидан ўтказмасдан мажбурий сертификатлаштириш шарти билан тиббиёт амалиётида қўллаш ва олиб киришга рухсат бериш тартибини белгилайди.

**1-боб. Умумий қоидалар**

1. Ушбу Низомда қуйидаги тушунчалар қўлланилади:

**вақтинчалик танқислик** – дори воситалари ва тиббий жиҳозларнинг республика аҳолиси ва давлат соғлиқни сақлаш тизимидаги тиббиёт муассасаларининг (бундан буён матнда тиббиёт муассасалари деб юритилади) эҳтиёжини қондириш учун етарли миқдорда мавжуд эмаслиги ёки чекланган миқдорда мавжуд бўлиш ҳолати;

**дори воситалари** – касалликлар профилактикаси, уларга ташхис қўйиш ва уларни даволаш, шунингдек одам организмининг ҳолати ва функцияларини ўзгартириш учун тиббиёт амалиётида қўлланилишига рухсат этилган дори моддалари (субстанциялар) ва ёрдамчи моддалар асосида олинган воситалар, дори моддалари (субстанциялар), дори препаратлари;

**тиббий жиҳозлар** – касалликлар профилактикаси, ташхис қўйиш, даволаш, беморларни реабилитация қилиш ва (ёки) санаб ўтилган жараёнларни таъминлаш учун, шунингдек одам организмининг ҳолати ва функцияларини аниқлаш, тиклаш, алмаштириш ҳамда ўзгартириш, мониторинг қилиш, ҳомиладорликнинг олдини олиш учун тиббиёт амалиётида қўлланилишига рухсат этилган, қўлланилиши

натижасида одам организмига фармакологик, иммунологик ёки метаболик таъсир кўрсатмайдиган, айрим ҳолда, мажмуа ёки тизимлар сифатида қўлланиладиган жиҳозлар, аппаратлар, ускуналар, приборлар, асбоблар, қурилмалар, мажмуалар ва дастурий таъминотлар;

**импорт қилувчи ташкилот** – Ўзбекистон Республикаси Худудига дори воситалари ва тиббий жиҳозларни олиб киришни (импортни) амалга оширувчи, дори воситаларини улгуржи реализация қилиш учун лицензияга эга юридик шахс.

2. Ўзбекистон Республикасида вақтинчалик танқислик юзага келган тақдирда дори воситалари ва тиббий жиҳозлар билан таъминлаш қуйидаги йўллар орқали амалга оширилади:

тиббиёт муассасаларидаги мавжуд дори воситалари ва тиббий жиҳозлар захираларини қайта тақсимлаш;

давлат рўйхатидан ўтказмасдан, мажбурий сертификатлаштириш шарти билан дори воситалари ва тиббий жиҳозларни Ўзбекистон Республикаси Худудига олиб кириш (импорт қилиш) ва тиббиёт амалиётига тўғридан-тўғри фойдаланиш.

**2-боб. Ўзбекистон Республикасида вақтинчалик танқислик юзага келган тақдирда дори воситалари ва тиббий жиҳозлар билан таъминлашни ташкил этиш**

3. Ўзбекистон Республикасида вақтинчалик танқислик юзага келган тақдирда дори воситалари ва тиббий жиҳозлар билан таъминлашни ташкил этиш қуйидагилар томонидан тақдим этиладиган мазкур Низомнинг 4-бандида келтирилган маълумотларни таҳлил қилиш асосида аниқланади:

- 1) республика даражасидаги тиббиёт муассасалари;
- 2) тиббиётнинг ихтисослаштирилган йўналишларидаги ассоциациялари;
- 3) улгуржи фармацевтика ташкилотлари;
- 4) Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги (бундан буён матнда Вазирлик деб юритилади) ҳузуридаги Фармацевтика тармоғини ривожлантириш агентлиги;

5) Вазирликнинг тегишли таркибий бўлинмалари (“Электрон соғлиқни сақлаш” ахборот тизими орқали дори воситалари ва тиббий жиҳозларнинг танқислиги аниқланганда).

4. Республика даражасидаги тиббиёт муассасалари, тиббиётнинг ихтисослаштирилган йўналишларидаги ассоциациялари, улгуржи фармацевтика ташкилотлари, Вазирлик ҳузуридаги Фармацевтика тармоғини ривожлантириш агентлиги ҳамда Вазирликнинг тегишли таркибий бўлинмалари қуйидагилар тўғрисидаги маълумотларни Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазири томонидан тасдиқланган вақтинчалик танқислиги юзага келган ҳолатларда дори воситалари ва тиббий жиҳозлар билан таъминлаш бўйича доимий ишчи гуруҳга (бундан буён матнда Ишчи гуруҳ деб юритилади) тақдим этади:

дори воситаси ва тиббий жиҳознинг клиник аҳамияти, шу жумладан қамраб олинадиган аҳоли сони, далилларга асосланган тиббиётда самарадорлиги;

дори воситаси ва тиббий жиҳознинг терапия тузилишидаги хавфлар, шу жумладан танқисликнинг келиб чиқишига сабаб бўлган омиллар ҳамда тиббиёт муассасаларида мавжуд қолдиқлари;

дори воситаси ва тиббий жиҳознинг Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кирилиши (импорт қилиниши) ёки ишлаб чиқарилиши тўхтатилиши режалаштирганлиги;

вақтинчалик танқисликни бартараф этиш учун зарур бўлган дори воситаси ва тиббий жиҳознинг 3 ойлик минимал миқдори (сони).

Бунда дори воситаларининг халқаро патентланмаган номи, доза ва шакллари, тиббий жиҳозларнинг техник талаблари кўрсатилади.

5. Мазкур Низомнинг 4-бандидаги маълумотлар Ишчи гуруҳ томонидан улар тақдим этилган кундан бошлаб 3 иш куни ичида кўриб чиқилади ва маълумотларни ўрганиш учун Вазирлик ҳузуридаги Фармацевтика тармоғини ривожлантириш агентлиги ҳамда “Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази” ва “Харидлар маркази” давлат муассасаларига юборилади.

6. Вазирлик ҳузуридаги Фармацевтика тармоғини ривожлантириш агентлиги 5 иш куни ичида вақтинчалик танқислиги юзага келган дори воситаси ёки тиббий жиҳоз ҳақида қуйидаги маълумотларни ўрганади ва ўрганиш натижаларини Ишчи гуруҳга тақдим этади:

Ўзбекистон фармацевтика бозорида мавжуд ёки мавжуд эмаслиги;

маҳаллий ишлаб чиқарувчилар томонидан ишлаб чиқариш ҳолати ва ишлаб чиқариш режалари;

божхона ҳамда улгуржи ташкилотларнинг омборларида мавжудлиги.

7. Вазирлик ҳузуридаги “Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази” давлат муассаси 5 иш куни ичида вақтинчалик танқислиги юзага келган дори воситаси ёки тиббий жиҳоз ҳақида қуйидаги маълумотларни ўрганади ва ўрганиш натижаларини Ишчи гуруҳга тақдим этади:

давлат рўйхатидан ўтказилганлиги ҳамда ўрнини босувчи дори воситаларининг давлат рўйхатидан ўтказилганлиги ва сертификатлаштирилганлиги;

дозаси, дори шакли ва қўллаш йўли бўйича мослиги тўғрисидаги маълумотлар.

8. Вазирлик ҳузуридаги “Харидлар маркази” давлат муассасаси 5 иш куни ичида вақтинчалик танқислиги юзага келган дори воситаси ёки тиббий жиҳознинг давлат хариди режасига киритилганлиги ва етказиб бериш муддатлари ҳақидаги маълумотларни ўрганади ва ўрганиш натижаларини Ишчи гуруҳга тақдим этади.

9. Ишчи гуруҳ Вазирлик ҳузуридаги Фармацевтика тармоғини ривожлантириш агентлиги ҳамда “Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази” ва “Харидлар маркази” давлат муассасалари томонидан тақдим этилган ўрганиш натижалари асосида 5 иш куни ичида Ўзбекистон Республикасида дори воситалари ва тиббий жиҳозларнинг вақтинчалик танқислигини бартараф этиш юзасидан қуйидаги қарорлардан бирини қабул қилади:

Ўзбекистон Республикасида вақтинчалик танқислиги юзага келган дори воситалари ва тиббий жиҳозларни мавжуд тиббиёт муассасалари доирасида қайта тақсимлаш;

Ўзбекистон Республикасида вақтинчалик танқислиги юзага келган дори воситалари ва тиббий жиҳозларни республикада фаолият юритаётган улгуржи фармацевтика ташкилотлари ёки маҳаллий ишлаб чиқарувчилардан харид қилиш мумкинлиги тўғрисида республика даражасидаги тиббиёт муассасалари ҳамда тиббиётнинг ихтисослаштирилган йўналишларидаги ассоциацияларга тавсия бериш;

Ўзбекистон Республикасида вақтинчалик танқислиги юзага келган дори воситалари ва тиббий жиҳозларни давлат рўйхатидан ўтказмасдан мажбурий сертификатлаштириш шарти билан Ўзбекистон Республикаси Ҳудудига олиб кириш (импорт қилиш) ва тиббиёт амалиётида қўллаш мумкинлиги ҳамда уларнинг вақтинчалик танқислигини бартараф этиш учун зарур минимал миқдорларини белгилаш;

давлат рўйхатидан ўтказилган, бироқ Ўзбекистон Республикасида тасдиқланган қадоқланишдан фарқ қилувчи қадоқлардаги дори воситаларини мажбурий сертификатлаштириш шарти билан Ўзбекистон Республикаси Ҳудудига олиб кириш (импорт қилиш) ва тиббиёт амалиётида қўллаш мумкинлиги ҳамда уларнинг вақтинчалик танқислигини бартараф этиш учун зарур минимал миқдорларини белгилаш.

10. Ишчи гуруҳда кўриб чиқиладиган масалаларнинг хусусиятига кўра манфаатдор вазирлик ва идораларнинг вакиллари, тиббиёт соҳасида фаолият юритувчи муассасаларнинг вакиллари таклиф этилиши мумкин.

11. Ишчи гуруҳни мажлисларини Ишчи гуруҳ раиси, Ишчи гуруҳ раиси бўлмаган тақдирда Ишчи гуруҳ раиси ўринбосари бошқаради.

12. Ишчи гуруҳ мажлиси унда Ишчи гуруҳ аъзоларининг камида учдан икки қисми қатнашганда ўтказилган ҳисобланади.

13. Ишчи гуруҳ қарори унинг мажлисида қатнашган аъзоларнинг кўпчилик овози билан қабул қилинади. Овозлар тенг бўлган тақдирда Ишчи гуруҳ раисининг ёки раислик қилувчининг овози ҳал қилувчи овоз ҳисобланади.

14. Ишчи гуруҳ қарорлари Ишчи гуруҳ мажлиси баёни билан расмийлаштирилади. Ишчи гуруҳ мажлисининг баёни Ишчи гуруҳ раиси ёки раислик қилувчи томонидан тасдиқланади.

15. Ишчи гуруҳнинг тегишли қарори билан Вақтинчалик танқислиги юзага келган давлат рўйхатидан ўтказмасдан мажбурий сертификатлаштириш шарти билан Ўзбекистон Республикаси Ҳудудига олиб кириш (импорт қилиш) ва тиббиёт амалиётида қўллаши мумкин бўлган дори воситалари ва тиббий жиҳозларнинг рўйхати

Вазирликнинг расмий веб-сайтида Қарор Қабул Қилинган кундан эътиборан 1 иш куни ичида эълон Қилинади.

16. Импорт Қилувчи ташкилотлар Вазирликнинг расмий веб-сайтида Вақтинчалик танқислиги юзага келган давлат рўйхатидан ўтказмасдан мажбурий сертификатлаштириш шарти билан Ўзбекистон Республикаси Худудига олиб кириш (импорт Қилиш) ва тиббиёт амалиётида Қўллаши мумкин бўлган дори воситалари ва тиббий жиҳозларнинг рўйхати эълон Қилинган кундан бошлаб 15 кун ичида Вазирликка вақтинчалик танқислиги юзага келган дори воситалари ва тиббий жиҳозларни Ўзбекистон Республикаси Худудига олиб кириш (импорт Қилиш) имкониятлари мавжудлиги тўғрисида таклифларни киритади. Бунда ушбу таклифлар Қуйидаги маълумотларни ўз ичига олиши керак:

дори воситалари ва тиббий жиҳозларнинг ишлаб чиқарувчи давлатда ёки бошқа давлатда рўйхатдан ўтказилганлик тўғрисидаги гувоҳнома нусхаси;

дори воситалари ва тиббий жиҳозларнинг сифат назоратини амалга ошириш учун корхона фармакопея мақоласи, стандарт, спецификация, Ўзбекистон Республикаси Худудига олиб кирилиши (импорт Қилиниши) назарда тутилган сериянинг сифат сертификати, Қадоқ макетлари, давлат тилидаги дори воситаларининг тиббиётда Қўлланилишига доир йўриқномаси (давлат тили билан бирга бошқа тилда ҳам берилиши мумкин);

дори воситалари ва тиббий жиҳозларнинг нархи ва етказиб бериш муддатлари;

дори воситаларини мажбурий рақамли маркировкалашни амалга ошириш бўйича мажбурият;

хориждаги дори воситалари ва тиббий жиҳозларнинг ишлаб чиқарувчи ёки бошқа ташкилотлардаги мавжуд захира тасдиғи;

транспорт-логистика режаси ва кафолат хати.

Агарда импорт Қилувчи ташкилотлар томонидан 15 кун ичида Ишчи гуруҳга таклиф келиб тушмаса, таклифларни Қабул Қилиш муддатлари Қўшимча 15 кунга узайтирилиши мумкин.

17. Ишчи гуруҳ мазкур Низомнинг 16-бандида кўрсатилган муддат тугаганидан сўнг 3 иш куни ичида импорт Қилувчи ташкилотларнинг таклифларини мазкур

Низомнинг 3-бобида келтирилган устуворлик тартиби асосида ўрганиб чиқади ва импорт қилувчи ташкилотга ёки импорт қилувчи ташкилотларга дори воситалари ва тиббий жиҳозларнинг Ўзбекистон Республикаси Худудига олиб кирилиши (импорт қилиниши) мумкинлиги тўғрисида хулосани расмийлаштиради.

Бунда Ишчи гуруҳ хулосаси унинг мажлисида қатнашган аъзоларнинг кўпчилик овози билан қабул қилинади ҳамда қабул қилинган хулоса Ишчи гуруҳ мажлиси баёни билан расмийлаштирилади. Ишчи гуруҳ мажлисининг баёни Ишчи гуруҳ раиси ёки раислик қилувчи томонидан тасдиқланади.

18. Импорт қилувчи ташкилот ёки импорт қилувчи ташкилотлар хулосани олган кундан эътиборан дори воситалари ҳамда тиббий жиҳозларни хулосада белгиланган муддатларда етказиш чораларини кўради ҳамда мувофиқлик сертификатини расмийлаштириш учун Фармацевтика маҳсулотларини сертификатлаштириш қоидаларига (рўйхат рақами 3386, 2022 йил 12 сентябрь) мувофиқ сертификатлаштириш органларига мурожаат қилади, мажбурий сертификатлаштирилмайдиган тиббий жиҳозлар бундан мустасно.

Бунда сертификатлаштириш органига импорт қилувчи ташкилот томонидан сифат назоратини амалга ошириш учун тақдим қилган ҳужжатларга мувофиқ сифат назоратини амалга ошириш ҳамда референт нархдан қатъи назар сертификатлаштиришга рухсат этилади.

Вақтинчалик танқислиги юзага келган дори воситалари Ўзбекистон Республикаси Худудига олиб кирилишида (импорт қилинишида) ёки маҳаллий ишлаб чиқарувчилар томонидан ишлаб чиқарилишида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 2 апрелдаги 149-сон “Дори воситалари ва тиббий буюмларни мажбурий рақамли маркировкалаш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги қарорига мувофиқ улар рақамли маркировкаланиши лозим.

19. Тегишли сертификатлаштириш органи томонидан расмийлаштирилган мувофиқлик сертификати ва бошқа қонунчиликда тақдим этилиши белгиланган ҳужжатлар импорт қилувчи томонидан эркин муомалага чиқариш (импорт) божхона режимига расмийлаштириш учун тегишли божхона органига тақдим этилади.

20. Божхона органлари томонидан дори воситалари ҳамда тиббий жиҳозларнинг эркин муомалага чиқариш (импорт) божхона режимига расмийлаштириш тақдим этилган ҳужжатлар қонунчиликда белгиланган муддатларда ўрганиб чиқилиб, белгиланган тартибда эркин муомалага чиқариш (импорт) божхона режимига жойлаштирилади.

21. Вақтинчалик танқисликни бартараф этиш учун Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кирилган (импорт қилинган) дори воситалари ҳамда тиббий жиҳозлар тўғрисидаги маълумотлар Вазирликнинг расмий веб-сайтида доимий жойлаштириб борилади.

22. Ўзбекистон Республикасида Вақтинчалик танқисликни бартараф этиш мақсадида дори воситалари ва тиббий жиҳозларни белгиланган минимал миқдордан икки баробаргача миқдорларда Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб киришга (импорт қилишга) рухсат этилади.

Бунда Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кирилган (импорт қилинган) рецепт билан бериладиган дори воситаларини улгуржи ва чакана сотишда уларни етказиб беришда иштирок этувчи воситачилар сонидан қатъи назар, улгуржи савдо учун сотиб олинган (базавий) қийматидан 15 фоиздан ва чакана савдо учун сотиб олинган қийматидан 20 фоиздан ортиқ бўлмаган миқдорларда устама қўлланади.

23. Тиббиёт муассасалари импорт қилувчи ташкилот томонидан Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кирилган (импорт қилинган) дори воситаси ва тиббий жиҳозларни сотиб олиш мажбуриятини ўз зиммасига олмайди. Бунда тиббиёт муассасалари фақатгина ўз молиявий имкониятларидан келиб чиққан ҳолда сотиб олиши мумкин.

### **3-боб. Устуворлик тартиби**

24. Ўзбекистон Республикасида вақтинчалик танқислиги юзага келган дори воситаси ва тиббий жиҳозларни Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб киришда (импорт қилишда) қуйидаги устувор йўналишларга эътибор қаратилади:

ижтимоий аҳамиятга эга касалликларнинг олдини олиш, ташхислаш ва уларни даволаш бўйича тиббий хизматлар;

шошилиш тиббий ёрдам ва интенсив терапия (жонлантириш) хизматлари;

юқумли касалликларни аниқлаш, даволаш ва эпидемиологик хавфларни бартараф этиш бўйича тиббий хизматлар;

она ва бола саломатлиги, перинатал ёрдам ҳамда акушерлик-гинекология хизматлари;

онкология касалликларини ташхислаш ва даволаш бўйича тиббий хизматлар;

юрак-қон томир ва мия қон айланиши билан боғлиқ ўта хавфли ҳолатларда диагностика ва даволаш бўйича тиббий хизматлар;

ҳаёт учун муҳим узлуксиз терапия талаб этиладиган сурункали касалликлар бўйича тиббий хизматлар;

буйрак етишмовчилигида ҳаётни сақлаб турувчи терапия хизматлари;

жарроҳлик аралашувлари, оғриқсизлантириш ва операциядан кейинги интенсив кузатув билан боғлиқ тиббий хизматлар;

қон ва қон компонентлари билан боғлиқ трансфузион терапия ва унга доир тиббий хизматлар;

кам учрайдиган (орфан) ва бошқа юқори хавфли ҳолатларда даволашни узлуксиз таъминлаш талаб этиладиган тиббий хизматлар.

25. Бир хил турдаги дори воситаси ва тиббий жиҳоз бўйича икки ёки ундан ортиқ импорт қилувчи ташкилотлардан таклифлар келиб тушган тақдирда Ишчи гуруҳ биринчи навбатда дори воситаси ва тиббий жиҳозни энг қисқа муддатларда етказиб бериш имкониятига эга импорт қилувчи ташкилотга ёки импорт қилувчи ташкилотларга устуворлик беради.

Агарда устуворлик асосида Ишчи гуруҳнинг дори воситалари ва тиббий жиҳозларни Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириши (импорт қилиши) мумкинлиги тўғрисида хулосасини олган импорт қилувчи ташкилот ёки импорт қилувчи ташкилотлар дори воситалари ва тиббий жиҳозларни етказиб бериш муддатларини бузган тақдирда уларга берилган хулоса Ишчи гуруҳ томонидан бекор қилинида ва мазкур Низомнинг 2-бобида келтирилган тартибда бошқа импорт қилувчи ташкилотларнинг таклифлари қабул қилиниб улар кўриб чиқилади.

**4-боб. Яқуний қоида**

26. Ушбу Низом талабларининг бузилишида айбдор бўлган шахслар Қонунчилик  
Ҳужжатларига мувофиқ жавобгар бўладилар.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3750  
2026 - yil 09 - Yanvar

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

### **Jenerik dori vositalarining farmakokinetik bioekvivalentligini o'rganishga oid klinik tadqiqotlarni o'tkazish va natijalarini baholash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-avgustdagi PF-137-son "Dori vositalari va tibbiy jihozlar muomalasini tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq buyuraman:

1. Jenerik dori vositalarining farmakokinetik bioekvivalentligini o'rganishga oid klinik tadqiqotlarni o'tkazish va natijalarini baholash tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil, O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi va O'zbekiston Savdo sanoat palatasi bilan kelishilgan.

3. Ushbu buyruq 2026-yil 26-fevraldan kuchga kiradi.

Vazir  
2025-yil 22-dekabr  
26-son



XUDAYAROV ASILBEK  
ANVAROVICH

Kelishildi:

Vakil o'rinbosari  
2025-yil 10-dekabr



URUNOV JAMSHID  
OLIMOVICH

Rais  
2025-yil 9-dekabr



TURAXUJAYEV HALILILLO  
SOBIRJONOVICH

Rais  
2025-yil 28-noyabr



VAXABOV DAVRON  
ABDUJALALOVICH

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash  
vazirining 2025-yil 22-dekabrda 26-son  
buyrug‘iga  
ILOVA

## **Jenerik dori vositalarining farmakokinetik bioekvivalentligini o‘rganishga oid klinik tadqiqotlarni o‘tkazish va natijalarini baholash tartibi to‘g‘risidagi NIZOM**

Mazkur Nizom jenerik dori vositalarining farmakokinetik bioekvivalentligini o‘rganishga oid klinik tadqiqotlarni (bundan buyon matnda klinik tadqiqotlar deb yuritiladi) o‘tkazish va natijalarini baholash tartibini belgilaydi.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**ariza beruvchi** – O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining “Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” davlat muassasasiga (bundan buyon matnda Markaz deb yuritiladi) farmakologik vositalar yoki dori vositalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va guvohnoma olish uchun murojaat qiluvchi ishlab chiquvchi, ishlab chiqaruvchi, ro‘yxatdan o‘tkazilganlik guvohnomasining egasi yoki ular nomidan ishonchnoma asosida harakat qiluvchi yuridik shaxs;

**jenerik dori vositasi** – original (patentlangan) dori vositasining faol moddasi bilan sifat va miqdoriy jihatdan bir xil tarkibga, dori shakliga ega bo‘lgan, lekin patent muddati tugagandan so‘ng ishlab chiqarilgan dori vositasi bo‘lib, xavfsizligi, ta’sir kuchi, xossalari, qo‘llanilish sohasi hamda bioekvivalentligi original dori vositasiga nisbatan tasdiqlangan dori vositasi. Faol moddaning turli tuzlari, efirlari, izomerlari, izomerlar aralashmalari, komplekslari yoki hosilalari xavfsizligi va samaradorligi jihatidan sezilarli farq qilmasa, bir xil faol modda sifatida e’tirof etiladi;

**farmakokinetik bioekvivalentlik** – jenerik dori vositasining inson organizmida referent preparat bilan bir xil farmokinetik parametrlarga (qonga tushish tezligi, darajasi va chiqarilish tezligi) ega ekanligini aniqlashga qaratilgan tadqiqot usuli;

**klinik tadqiqot subyekti** – jenerik dori vositasini farmakokinetik bioekvivalentligini o‘rganishga oid klinik tadqiqotlarni o‘tkazishda o‘zining yozma roziligi bilan ixtiyoriy asosda ishtirok etuvchi klinik tadqiqot o‘tkazilayotgan vaqtda 18 yoshga to‘lgan sog‘lom jismoniy shaxs.

2. Quyidagi jenerik dori vositalari klinik tadqiqotlardan o'tkaziladi:

referent preparatga nisbatan bioekvivalentligi validatsiyalangan in vivo yoki in vitro tadqiqot usullaridan foydalanganligi isbotlanmagan, natijalari miqdoriy ko'rsatkichlar shaklida taqdim etilmagan peroral jenerik dori vositalari;

biofarmasevtik klassifikatsiya tizimi (BKT) bo'yicha BKT I va III sinfga mansub bioekvivalentligi bioveyver usuli yordamida referent preparat bilan qiyoslangan holda isbotlanmagan, qattiq dori shakliga ega peroral qo'llaniladigan jenerik dori vositalari;

til ostiga va milkka qo'yiladigan hamda ajralib chiqishi modifikatsiyalangan jenerik dori vositalari;

bioekvivalentlikni o'rganishga oid in vitro tadqiqot natijalari taqdim etilmagan sirtga qo'llash uchun ta'sir etuvchi, qitiqlovchi, yallig'lanishga qarshi va mahalliy og'riqsizlantiruvchi, antiseptik va mikroblarga qarshi ta'sirga ega (inson organizmiga rezorbtiv (umumiy) ta'sirga ega bo'lmagan) jenerik dori vositalari.

3. Jenerik dori vositalarining klinik tadqiqotlari bitta klinik bazada o'tkaziladi.

## **2-bob. Klinik tadqiqotlarni o'tkazish**

4. Klinik tadqiqotlarni o'tkazish Farmakologik vositalar hamda dori vositalarining klinik tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomda (ro'yxat raqami 3745, 2026-yil 6-yanvar) belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. Mazkur Nizomning 2-bandida belgilangan jenerik dori vositalarining klinik tadqiqotlari har bir tadqiqot guruhiga (asosiy va qiyosiy guruh) kamida 12 nafar klinik tadqiqot subyekti jalb etilgan holda o'tkaziladi.

6. Klinik baza tomonidan klinik tadqiqot boshlanishidan bir oy oldin ommaviy axborot vositalari, klinik bazaning rasmiy veb-sayti yoki internet tarmog'i orqali o'tkazilishi rejalashtirilayotgan klinik tadqiqotda ixtiyoriy asosda ishtirok etish imkoniyati mavjudligi to'g'risida e'lon joylashtiriladi.

7. Klinik tadqiqotda ixtiyoriy asosda ishtirok etmoqchi bo'lgan shaxs klinik bazada bir ish kuni ichida mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq sog'lomligi yuzasidan klinik-laborator tekshiruvlardan o'tkaziladi hamda sog'lomligi tasdiqlangandan so'ng klinik tadqiqot subyekti sifatida klinik tadqiqotga jalb etiladi.

8. Klinik tadqiqotda klinik tadqiqot subyektining ishtiroki ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shaklda to'ldirilgan uning yozma roziligi asosida amalga oshiriladi.

9. Klinik tadqiqot klinik tadqiqot subyekti va klinik baza o'rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

10. Klinik tadqiqot boshlanishidan oldin tadqiqotni o'tkazayotgan klinik baza yoxud ariza beruvchi klinik tadqiqot subyektining hayotiga, sog'lig'iga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligiga doir sug'urta shartnomasini sug'urtalovchi bilan tuzishi shart.

11. Jenerik dori vositasi hamda referent preparatni qo'llash bo'yicha yo'riqnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, klinik tadqiqot subyekti klinik tadqiqot boshlanishidan avvalgi 8 soat ichida ovqat iste'mol qilmagan bo'lishi lozim.

12. Og'iz orqali qabul qilish uchun mo'ljallangan va ta'sir etuvchi moddasi tez ajraladigan turli jenerik dori vositalari biokiraolishlikni o'rganish doirasida bir xil dori shakli sifatida tan olinadi.

### **3-bob. Klinik tadqiqotlar natijalarini baholash**

13. Klinik baza klinik tadqiqot natijasini jenerik dori vositasi hamda referent preparatning bir martalik dozasi klinik tadqiqot subyekti tomonidan qabul qilingandan so'ng 1–72 soat oralig'ida quyidagi farmakokinetik parametrlar asosida qiyosiy baholaydi:

jenerik dori vositasi hamda referent preparatning qondagi eng yuqori konsentratsiyasi ( $C_{max}$ );

jenerik dori vositasi hamda referent preparatning qondagi eng yuqori konsentratsiyasiga erishish vaqti ( $t_{max}$ );

jenerik dori vositasi hamda referent preparatning qabul qilingan vaqtdan boshlab oxirgi o'lchanadigan vaqtgacha bo'lgan davrda organizmga ko'rsatgan umumiy ta'siri (AUC);

jenerik dori vositasi hamda referent preparatning qondagi konsentratsiyasi 50 foizga kamayishi uchun ketadigan vaqt, ya'ni jenerik dori vositasi hamda referent preparatning yarim chiqarilish davri ( $t_{1/2}$ );

jenerik dori vositasi hamda referent preparatning qondan chiqarilish tezligi ( $k_{el}$ ).

Ushbu farmakokinetik parametrlar asosida klinik tadqiqot subyektlarining soniga mutanosib ravishda jenerik dori vositasi hamda referent preparatning o'rtacha bioekvivalentlik darajasi aniqlanadi. Bunda jenerik dori vositasi hamda referent preparatning bioekvivalentlik darajasi 80–125 foiz oralig'ida bo'lsa, jenerik dori vositasi referent preparatga nisbatan bioekvivalent hisoblanadi.

#### **4-bob. Yakuniy qoida**

14. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Jenerik dori vositalarining  
farmakokinetik bioekvivalentligini  
o'rganishga oid klinik tadqiqotlarni  
o'tkazish va natijalarini baholash tartibi  
to'g'risidagi nizomga  
1-ILOVA

**Klinik tadqiqot subyektining sog'lomligi yuzasidan  
klinik-laborator tekshiruv**

“ \_\_\_\_\_ ” korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan  
“ \_\_\_\_\_ ” jenerik dori vositasining  
**FARMAKOKINETIK BIOEKVIVALENTLIGINI O'RGANISHGA OID KLINIK  
TADQIQOT**

(F.I.O.)

**Klinik tadqiqot subyektining raqami (№) \_\_\_\_\_**

**Klinik baza:** \_\_\_\_\_

**Klinik baza rahbari:** \_\_\_\_\_

**Klinik tadqiqot rahbari:** \_\_\_\_\_

**Shifokor-tadqiqotchi** \_\_\_\_\_

**Klinik tadqiqot monitori:**

**Klinik tadqiqotning boshlanish sanasi:**

**Klinik tadqiqotning yakunlanish sanasi:**

Klinik tadqiqot subyektini raqami \_\_\_\_\_;

**Klinik tadqiqotga kiritish mezonlari** Savollarga javoblar “HA” bo'lishi kerak.

HA	YO'Q	
		Ma'lumotnoma asosida yozma rozilik mavjudligi

		Klinik tadqiqot subyektining yoshi 18 yosh va undan katta
		Ayollar (homiladorlik testi natijasi manfiy)
		Tana vazni indeksi Ketle bo'y-vazn indeksi bo'yicha $\pm 15\%$ chegarasida
		<b>Sog'lom</b>

**Klinik tadqiqotga kiritib bo'lmalik mezonlari** Savollarga javoblar "YO'Q" bo'lishi kerak.

HA	YO'Q	
		Mazkur klinik tadqiqotdan 30 kun oldin boshqa klinik tadqiqotda ishtirok etganligi
		Tekshirilayotgan jenerik dori vositasining qo'llash mumkin bo'lmagan holatlari aniqlanganligi: 1. 2.
		• Homiladorlik
		• Emizish davri
		• Tekshirilayotgan jenerik dori vositasi yoki uning tarkibiy komponentlariga yuqori sezuvchanlik mavjudligi
		yurak-qon tomir, bronx-o'pka, neyroendokrin tizimining surunkali kasalliklari, shuningdek me'da-ichak yo'llari, jigar, buyrak, qon kasalliklari o'tkazgan
		me'da-ichak yo'llarda jarrohlik aralashuvlari (appendektomiyadan tashqari) o'tkazgan
		klinik tadqiqot boshlanishidan 4 hafta oldin o'tkir yuqumli kasalliklar bilan xastalangan
		klinik tadqiqot boshlanishidan kamida 14 kun oldin dori vositalarini muntazam qabul qilgan
		gemodinamikaga, jigar funksiyasiga va boshqalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan dori vositalarini (barbituratlar, omeprazol, simetidin va boshqalar) klinik tadqiqot boshlanishidan 30 kun oldin qabul qilgan
		klinik tadqiqot boshlanishidan kamida 2 oy oldin donorlik (450 ml qon yoki plazma va undan ko'p) qilgan
		Alkogol, tamaki (kuniga 10 tadan ortiq) mahsulotlari iste'moli
		So'nggi 3 oy davomida klinik tadqiqotlardagi ishtiroki

Jinsi \_\_\_\_\_ yoshi \_\_\_\_\_ tana vazni \_\_\_\_\_

Asosiy tashxis - \_\_\_\_\_

Klinik tadqiqot subyektining ko'rik natijalari:

Umumiy ahvoli \_\_\_\_\_

Teri va shilliq  
qavatlari \_\_\_\_\_

Ko'krak  
qafasi \_\_\_\_\_

Palpatsiya \_\_\_\_\_

Perkussiya \_\_\_\_\_

Auskultatsiya \_\_\_\_\_

Yurak tonlari \_\_\_\_\_

Til \_\_\_\_\_

Qorin \_\_\_\_\_

Jigar (palpatsiya va perkussiya) \_\_\_\_\_

Avval qabul qilingan dori vositalari

Tekshirilayotgan jenerik dori vositasining nomi

Dori vositasini yuborish sxemasi

Klinik tadqiqot subyektining klinik tekshiruvi natijalari

Chora-tadbirlar

Boshlang'ich tashrif

Ko'rik	
Skrining	
Ma'lumotnoma asosida rozilik olish	

**Obyektiv tekshiruv natijalari dinamikasi**

Ko'rsatkichlar	Yuborishdan oldin	Yuborishdan keyin
Arterial bosim		
Yurak qisqarishlari soni		
Tana harorati		

**Klinik tadqiqot subyektining sog'lomligi yuzasidan klinik-laborator ko'rsatkichlar**

	Natija	Norma
<b>Klinik tekshiruvlar</b>		
Qon umumiy tahlili		
Biokimyoviy qon tahlillari		
Siydik umumiy tahlili		
<b>Maxsus tekshiruvlar</b>		
EKG		
Jigar, o't yo'llari va buyrak UT tekshiruvi		

Jenerik dori vositalarining  
farmakokinetik bioekvivalentligini  
o'rganishga oid klinik tadqiqotlarni  
o'tkazish va natijalarini baholash tartibi  
to'g'risidagi nizomga  
2-ILOVA

**Klinik tadqiqot subyektining bioekvivalentlik klinik tadqiqotida  
ixtiyoriy ishtirok etishga  
YOZMA ROZILIGI**

Men, \_\_\_\_\_  
(F.I.O)

\_\_\_\_\_  
(pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-karta ma'lumotlari)

Berilgan \_\_\_\_\_ dori preparatining bioekvivalentligini yaqin kelajakda o'rganish maqsadlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishdim va ushbu hujjatning nusxasini oldim. Men tadqiqotchi-shifokor bilan o'zimni qiziqtirgan barcha savollarni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'ldim va qoniqarli javoblar oldim.

Dori vositasining bioekvivalentligini o'rganish natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlar haqida ogohlantirildim.

Men yuqorida keltirilgan dori vositasining bioekvivalentligini o'rganishda ishtirok etishga o'z ixtiyorim bilan rozilik beraman, ushbu tadqiqotda ishtirok etishdan bosh tortish yoki istalgan vaqtda ishtirok etishni to'xtatish huquqiga ega ekanligim haqida xabardor qilinganman va bu menga keyingi tibbiy xizmat ko'rsatilishida aks etmaydi.

Agar men bioekvivalentlik tadqiqotida ishtirok etishni to'xtatishga qaror qilsam, men bu haqda tadqiqotchi-shifokorga xabar berish majburiyatini olaman, shunda u mening holatimni baholashi va kerakli tavsiyalarni berishi mumkin.

Men tadqiqotchi-shifokor bilan hamkorlik qilishga va salomatligimdagi har qanday o'zgarishlar haqida unga darhol xabar berishga roziman.

Men klinik tadqiqot natijalarini, klinik tadqiqot o'tkazayotgan klinik tadqiqot rahbari tomonidan klinik tadqiqotga mas'ul shaxslarga hamda davlat organlari vakillaridan iborat tekshiruvchilarga berilishiga roziman.

Klinik tadqiqotda ishtirok etishim bilan bog'liq holda sog'lig'imga zarar yetkazilsa, sug'urta tashkiloti menga tovon puli to'lashi haqida xabardor qilinganman.

Klinik tadqiqot subyektining F.I.O. \_\_\_\_\_

Klinik tadqiqot subyektining imzosi: \_\_\_\_\_ Sana \_\_\_\_\_

Tadqiqotchi-shifokorning F.I.O. \_\_\_\_\_

Tadqiqotchi-shifokorning imzosi \_\_\_\_\_ Sana \_\_\_\_\_